O‘ZBEKISTON TARIXI

(XIII–XV asrlar)

8

Umumta’lim
maktablarining
8-sinf o‘quvchilari
uchun darslik

Birinchi nashr

*O‘zbekiston Respublikasi
Maktab va maktabgacha
ta’lim vazirligi nashrga
tavsiya etgan*



Toshkent – 2023

UO‘K
KBK

Tuzuvchilar:

Taqrizchilar:

Usmonov B. – *tarix fanlari doktori;*
Achilova G. – *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori;*
Narziyev N. – *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori;*

ISBN 978-9943-8453-0-0

© Respublika ta’lim markazi, 2023

M U N D A R I J A



XIII ASRDA MOVAROUNNAHR VA XORAZM

XIII asr boshlarida Xorazm davlatida siyosiy vaziyat 8

Xorazm va Mo‘g‘ul davlati o‘rtasidagi munosabatlar 12

Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va buning oqibati 20

Jaloliddin Manguberdi 36

Jaloliddin Manguberdi xorazmshohlar davlatini tiklash yo‘lida 42

CHIG‘ATOY ULUSI

Chig‘atoy ulusining tashkil topishi 54

Chig‘atoy ulusining ikki qismga bo‘linib ketishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot 65

XIII asr – XIV asr birinchi yarmida ilm-fan 72







AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI

XIV asrning o‘rtalarida Turonda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat 78

Amir Temur – Movarounnahr hukmdori 90

Amir Temur markazlashgan davlat tuzish yo‘lida 97

Amir Temurning davlat chegaralarini mustahkamlashi 106

Amir Temurning tashqi siyosati 118

Amir Temur davlatida qo‘shin tuzilishi 123

Amir Temur davlatining boshqaruvi 133

Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni 138

Amir Temur davlatida obodonlashtirish va bunyodkorlik 143

Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson 152

Mirzo Ulug‘bek 155

Sulton Husayn mirzo 165

Amir Temur va temuriylar davrida iqtisodiy munosabatlar 169

Ikkinchi renessans asoschilari 175

Temuriylar davri me’morchiligi 179

Xattotlik va miniatyura 185

Temuriylar davrida hunarmandchilik 190

Alisher Navoiy 193

So‘z boshi

Siz 7-sinfda “O‘zbekiston tarixi” fanidan IV asrdan XIII asr boshlarigacha Turon hududida kechgan tarixiy jarayonlar bilan tanishdingiz. Ajdodlarimiz tomonidan barpo etilgan ulkan madaniyat ma’numaridan tortib, oddiy xo‘jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo‘lgan voqealar haqida tasavvuringiz hosil bo‘ldi. Shuningdek, ota-bobolarimiz tomonidan bunyod etilgan davlatlar, g‘alabali yurishlar, shu bilan birga, ulkan yo‘qotishlarga boy mag‘lubiyatlar ham sodir bo‘ldi. Bularning barchasi bizni tarixdan xulosa chiqarishga, g‘alabalarga ergashishga va ma’lubiyatdan to‘g‘ri saboq olishga o‘rgatadi.

O‘tgan o‘quv yilida Siz “O‘zbekiston tarixi” fanini Xorazmshoh-anushteginiylar davlati mavzusi bilan yakunlagan edingiz. Endi 8-sinfda mazkur davlat o‘rnida barpo etilgan ikkita yirik davlat tarixi bilan yaqindan tanishasiz. Bular: XIII asrning 20-yillarida Xorazmshohlar davlatini egallab olgan Chingizxon imperiyasi va bu yerda hukm surgan uning avlodlari davlati (Chig‘atoy ulusi) bo‘lsa, ikkinchisi yemirilayotgan Chig‘atoy ulusi o‘rnida XIV asrning 70-yillarida tashkil topgan Amir Temur va temuriylarning Turon davlati edi. Demak, mazkur darslikni o‘qish davomida mamlakatimiz va unga yondosh hududlarning XIII-XV asrlari tarixi bilan tanishasiz.

Sizga ma’lumki, Xorazmshohlar davlati hududi Alouddin Muhammad (1200-1220) davrida nihoyatda kengaygan bo‘lib, sharqda Chingizxon imperiyasi bilan chegaradosh bo‘lib qolgan edi. Bu ikki imperiya o‘rtasida boshlangan raqobat va nizo keyinchalik Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar tomonidan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonning bosib olinishiga olib keldi. Bu harbiy-siyosiy jarayonlarda, yurt uchun kurash yuqori pog‘onaga chiqqan pallada bir qator qahramonlar – Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi siymolar o‘zini namoyish qildi. Mazkur darslikda Siz ularning faoliyati, jasoratlari haqida atroflicha tanishasiz!

Chingizxon istilosidan keyin Turon hududida Chig‘atoy ulusi tashkil etilgach, bu yerda boshqaruv va ijtimoiy hayotning yangi na’munalari kirib keldi va mahalliy an’analar bilan qorishib bordi. Ilm-fan, madaniyat yana qayta rivojlana boshladi. Ko‘chmanchi mo‘g‘ul xonlari o‘troqlashib, islom diniga o‘tib, mahalliy an’ana va qadriyatlarni qabul qila boshladi. Lekin boshqa sulolalarda bo‘lgani kabi, toju taxt uchun bo‘lgan kurashlar Chig‘atoy ulusini ham ichidan yemira boshlagan. Natijada ikki qismga bo‘linib ketgan Chig‘atoy ulusi o‘z ichida yana bir necha qismlarga bo‘linib, parchalanib ketdi. Shunday bir pallada mazkur davlatchalarni yagona bir bayroq ostida birlashtiradigan kuchli shaxsga, yetakchiga ehtiyoj mavjud edi. Bu ehtiyoj Amir Temur siymosini yuzaga chiqardi. Amir Temur Turon hududida parchalanib ketayotgan kichik davlatlarni birlashtirib, tanazzulga uchrayotgan xo‘jalik va madaniyatlarni qayta tiklagan buyuk davlat arbobi va lashkarboshi sifatida tarix sahnasiga chiqdi.

Amir Temur va temuriylar (1370-1507) sulolasi tarixini chuqur bilish nima uchun zarur? Birinchidan, biz kelajagi buyuk O‘zbekistonni barpo etishga kirishgan ekanmiz, bobokalonimizning ulug‘ hayot yo‘li va faoliyati bizga katta ishonch, intilish, qat’iyat va kuch-quvvat baxsh etadi. Ikkinchidan, Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish faqat ilmiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu davrda shakllangan va rivojlangan tarix saboqlaridan mustaqillik yo‘lida foydalanish zarur. Tarix har bir insonni o‘z Vataniga muhabbat, sadoqat, o‘z xalqining o‘tmishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan, Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganish va tahlil qilish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bularni Amir Temur tarixi saboqlari deb atash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Siz mazkur darslikda chingiziylar va temuriylar davridagi davlatchilik, siyosat, ilm-fan va madaniyat na’munalari bilan tanishibgina qolmay, sulolalar, hukmdorlar, amaldorlar almashuviga qaramay, xalq yashagani, o‘z turmush tarziga ega bo‘lgani, ta’lim-tarbiya davom etgani bilan bog‘liq hayotiy jarayonlarning ham guvohi bo‘lasiz.



Jaloliddin Manguberdi el-yurt istiqloli uchun kurashgan, shu yo‘lda aziz jonini qurbon qilgan ajdodlarimizning buyuk namoyandasidir. Ona yurtga muhabbat va sadoqat, or-nomus va shon-sharaf bobida Jaloliddin Manguberdiga teng keladigan ulug‘ shaxslar dunyoda kamdan kam uchraydi.

Shavkat Mirziyoyev

XIII ASRDA MOVAROUNNAHR VA XORAZM



XIII ASR BOSHLARIDA XORAZM DAVLATIDA SIYOSIY VAZIYAT

Bugun darsda

- Xorazamshohlar saltanati hududi.
- Sulton Muhammad Xorazmshohning qo‘shini tuzilishi.

O‘ylab ko‘ring

1. Siyosiy vaziyat deganda nimani tushunasiz?
2. Xorazmshohlar davlat boshqaruvi tizimi qanday shakllangan edi?
3. XIII asrda Xorazmda siyosiy vaziyat qanday edi?
4. Xorazmshohlar davlati chegaralarini xaritadan ko‘rsating.
5. Davlat boshqaruvida Turkon xotunning o‘rni qanday edi?
6. Mo‘g‘ul qabilalari va elatlarining qudratli davlatga birlashuv jarayoni qaysi mo‘g‘ul xoni nomi bilan bog‘liq?



Xorazmshohlar saltanati hududi

Sulton Muhammad Xorazmshoh ajdodlaridan qolgan saltanatni ulkan imperiyaga aylantirdi. U 1212-yil Movarounnahrda qoraxoniylar boshqaruviga chek qo‘ydi hamda Eronning Kirmon viloyatini, Mikroni, so‘ng Balujistonni egallashga muvaffaq bo‘ldi. 1218-yil martida sulton xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlashni buyurdi. U tez orada Samarqandni o‘z poytaxti deb e’lon qiladi. Xorazmshohning Bag‘dod xalifaligi bilan kurashi natijasida xalifalikning mo‘g‘ullar bilan yaqinlashuvi yuz berdi. Xalifa Chingizxon saroyiga maxfiy ravishda maxsus elchi yubordi. Manbalarga ko‘ra, bu elchi Chingizxon saroyiga borib, uning qabulida bo‘lgan.

Manbalarda

Muhammad Xorazmshoh 1212-yil Xuroson, Kirmon, Mikron, so‘ng Balujistonni egallashga muvaffaq bo‘ldi.

1216-yili G‘azna, G‘ur, Bomiyon yerlari qo‘lga kiritildi, Sulton Muhammad Xorazmshoh davlati Sind daryosi bo‘yigacha cho‘zilib, bevosita Hindiston bilan chegaradosh bo‘lib qoldi.

1217-yilga kelib Sulton Muhammad Xorazmshoh davlati tarkibiga Fors Iroqi (Iroqi Ajam), Mozandaron, Arron, Ozarbayjon, Shirvon, Fors, Kirmon, Mikron, Mang‘ishloq, Seyiston, G‘ur, G‘azna, Bomiyon yerlari, jumladan, Kaspiy dengizidan Hindistongacha bo‘lgan yerlar kirgan.





O‘ylab ko‘ring

7-sinfda O‘zbekiston tarixi fanidan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering.

1. Nima sababdan Xorazmshohlar davlatida o‘ziga xos ikki hokimlik tizimi yuzaga kelgan?

2. Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon xotun qanday laqabga ega edi? Turkon xotun taxt vorisini tayinlash huquqiga ega bo‘lganmi? Nima uchun? Javobingizni asoslang.

3. Nima uchun Turkon xotun qang‘li urug‘idan bo‘lgan kelinining o‘g‘li Qutbiddin O‘zloqshohni taxt vorisi etib tayinladi?

4. Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlatining boshqaruv tizimi qanday edi?

5. Muhammad Xorazmshohning qo‘shni tuzilishi bo‘yicha infografikasini tayyorlang.

6. Davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, qo‘shinga yana qanday qismni kiritgan bo‘lar edingiz?



Tarix saboqlari

Sulton Muhammad Xorazmshohning qo‘shinini tuzilishi

Sulton Muhammad Xorazmshoh qo‘shinining umumiy soni 400 000 ga qadar yetgan va mo‘g‘ullar qo‘shiniga nisbatan ikki baravar ortiq bo‘lgan.

XIII asr boshlarida Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati o‘z hududining kengligi, saltanatning nufuzi, xalqining salohiyati, madaniyati, xo‘jalik hayoti yuqori darajadaligi bilan ajralib turgan.

Saltanat asosan qang‘li-qipchoq hamda turkmanlardan iborat muntazam qo‘shiniga ega edi. Qo‘shinning katta qismini “lashkari berun” deb nomlangan nomuntazam armiya tashkil qilgan.

Xorazmshoh qo‘shini asosan otliq va piyodalardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pchiligi otliqlar edi. Qo‘shin og‘ir va yengil qurollangan va tuya mingan askarlardan iborat qismlarga bo‘lingan. Jangchilar kamon, nayza, qilich, gurzi kabi qurollar bilan jang qilgan. Qo‘shin asosini qabilalar tamoyiliga ko‘ra, turkiy qism va bo‘linmalar tashkil etgan. Qo‘shinning tarkibida yana mamluklar (jangchi qullar)dan iborat 10 ming kishilik tansoqchilar (xaros) qismi bo‘lgan. Urush vaqtida xalq lashkarlari tuzilgan. Qo‘shinning jangovar tartibi to‘rt qismdan: avang‘or (muqaddam yoxud yozoq), o‘ng (maymana), so‘l (maysara), qanotlar va markaz (qalb)dan tashkil topgan. Qo‘shinning orqa qismida ham qo‘riqlovchi qism bo‘lgan.



Raqibni tor-mor etishni yakunlash zaxira rolini bajaruvchi maxsus qism (xofiya) zimmasiga yuklatilgan. Qal'alarni shturm va qamal qilishda (katapulta manjaniq)lar, qamal mashinalari (dabbobat), "toshbaqalar", odimlovchi minoralar (mataris), devorteshar mashinalar (jamoluqot) va shotilar (salolim) dan foydalanilgan.

Muhammad Xorazmshoh davrida mudofaaga katta e'tibor qaratilgan. Mamlakat chegaralarida burjli devorlari tosh va xom g'ishtdan qilingan shahar-qal'alar bo'lgan.





(Manjaniq katapulta)lar.







O'rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Fizika fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi vazifalarni bajaring.
   a) Manjaniq 20 kg toshni 280 metr masofaga uloqtiradi. U necha kg toshni 250 metrga uloqtira oladi?
   b) Manjaniq jismni 250 metr masofaga uloqtirdi. Jismning manjaniq uloqtirgandagi boshlang'ich tezligini toping.
   (V_0 –?) Manjaniqning jismni uloqtirilgandagi balandligi 5 metr. $S = V0\sqrt{(2h/g)}$
2. Xalifa nima uchun Chingizxon bilan yaqinlashish zarurligini angladi? Uning maqsadi nima edi?
3. 7-sinfda olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering:
   1) "Xorazmshohlar davlatida o'ziga xos ikki hokimlik tizimi" deganda nimani tushunasiz?
   2) Kim Sulton Muhammad Xorazmshohning hukmini bekor qilib, o'zi uning nomidan qaror qabul qilish huquqiga ega edi?

XORAZM VA MO‘G‘UL DAVLATI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Bugun darsda

- Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o‘rtasida elchilik munosabatlari.
- Mo‘g‘ullar davlati.
- Mo‘g‘ullar va Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi ilk to‘qnashuv.

O‘ylab ko‘ring

7-sinfda jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Chingizxon qanday qilib katta imperiya tuza oldi? Uning hokimiyatga kelishi haqida ma’lumot bering.
2. Chingizxon Xitoyni egalladi. Endi u o‘z hududini yanada kengaytirmoqchi. Chingizxon qanday yo‘l tutishi mumkin?
3. Bu vaqtda Chingizxonning Muhammad Xorazmshoh bilan munosabatlarini mo‘tadillashtirish uchun qanday asoslari bor edi?



Tarix saboqlari

Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o‘rtasida elchilik munosabatlari

Sulton Muhammad Xorazmshoh Markaziy Osiyoda harbiy jihatdan katta zafarlarga erishgach, Xitoyni ham zabt etishni maqsad qilgan edi. Ammo u sharqda Chingizxon rahnamoligida paydo bo‘lgan ulkan kuch – mo‘g‘ullarning qator zafarlari haqida xabarlar eshita boshladi.

Sulton Muhammad 1216-yili o‘z davlat arboblaridan biri Sayyid Bahouddin Roziy boshchiligida Xitoyga elchilar jo‘natdi.

Xitoyda bo‘lib turgan Chingizxon o‘z huzuriga kelgan Xorazm elchilarini yaxshi kutib oldi. U elchilarga katta izzat-ikrom ko‘rsatadi, ikki mamlakat o‘rtasida do‘stona munosabatlar va tijorat ishlarini yo‘lga qo‘yish niyatida Xorazmshohga katta sovg‘a-salomlar yubordi. Elchilarga esa shunday deydi: “*Muhammad Xorazmshohga ayting, men kunchiqar tomon podshosi bo‘lsam, u kunbotar tomon podshosidir. Bizning o‘rtamizda ahd-u vafo, mehr-u muhabbat va do‘stlik mustahkam bo‘lsin, o‘zaro tijorat va karvonlar bordi-keldisi yo‘lga qo‘yilsin”.*

Bu orada mo‘g‘ullar o‘z hududlarini Oltoy tog‘ tizmalarining g‘arbiy etaklari, Tangritog‘, Balxash ko‘li havzasi va Issiqko‘lgacha kengaytirib keldilar. Xorazmshoh ham o‘z sharqiy chegarasini Qipchoq cho‘llarigacha yetkazdi.

Bahouddin Roziy elchiligiga javoban Chingizxon o‘z xizmatidagi musulmon savdogarlari orqali Xorazmshohga atab qimmatbaho sovg‘alar yubordi. Elchi savdogarlar Chingizxonning sovg‘a-salomlari va maktubini Sulton Muhammad Xorazmshohga topshirdi.



Manbalarda

Salom senga! Bilaman, sen tengsiz va cheksiz qudrat sohibi ulug‘ podshohsan, men seni o‘z farzandim (o‘g‘lim) dek e’zozlayman. Shuni ham eslatib qo‘ymoqchimanki, men ham dunyoning bu qismida katta qudratga egaman, jumladan, Xitoy, butun Turkiston va uning turk qabilalarini o‘z tasarrufimga kiritib, bo‘ysundirganman. Bugun mamlakatim jangovar qudratli botirlar bilan to‘la, ayni paytda boylik jihatidan ham kumush va tillo-ga ko‘milgan. Shuning uchun bunday qudrat va boylik sohibi bo‘la turib, boshqa mamlakatlarni o‘z qamrovimga qo‘shib olishga hech qanday ehtiyoj sezmayman. Sulton dargohiga maxsus elchilarni yuborishdan maqsadim do‘stlik va tijorat aloqalarini qaror toptirishdan iborat. Shunday bir bitimni tuzish katta moddiy boyliklardan foydalanishdan tashqari fuqarolarimiz o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlaydi.

Chingizxon Sulton Muhammad Xorazmshohga yozgan maktubdan

Bu elchilikning sababi Chingizxonning tarixi va mo‘g‘ul lashkarlarining Tamg‘och, To‘kir, Tibet mamlakatlari, Chin iqlimi, Uzoq Sharqdagi istilosi haqidagi xabarlar to‘g‘risida ishonchli odamlar orqali aniq ma’lumotlar yig‘ish hamda mo‘g‘ul lashkarlarining ahvoli, sifati, soni va quroli haqida ma’lumot to‘plashdan iborat edi.

Abu Usmon Minhojiddin ibn Sirojiddinning “Tabaqoti Nosiriy” asaridan

O‘ylab ko‘ring

1. “Tabaqoti Nosiriy” asari muallifi elchilikning maqsadi va vazifalari haqida nimalarni ma’lum qilmoqda?
2. Chingizxonning maktubi Sulton Muhammad Xorazmshohga qanday ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?
3. Bu maktubdagi fikrlarga sizning munosabatingiz qanday? Siz Chingizxonning takliflarini qabul qilarmidingiz?



Tarix saboqlari

Xorazmshoh maktub mazmuni bilan tanishgach, elchidan: “Ayt-chi, sen tilga olgan Chingiz o‘zi kim va nima ish qiladi? Bu maktubda yozganidek, Chin mamlakatini qo‘lga kiritgani rostmi?” deb so‘radi. Shohning barcha savollariga elchilar birin-ketin juda ehtiyotkorlik va o‘ta ziyraklik bilan javob qaytardilar.

Qadimgi va o‘rta asrlarda turkiylarda elchi, xabarchilarga nisbatan “yalavoch”, atamalari ishlatilgan.

Ular asosiy urg‘uni Chingizxonning do‘stlik haqidagi fikrlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratdilar.

Xorazmshoh Chingizxon elchilaridan biri Mahmud Yalavochdan Chigizxon haqidagi barcha ma’lumotlarni aytib berishini so‘raydi. Mahmud Yalavochga Chingizxon qarorgohida turib, o‘ziga xizmat qilishni taklif etdi. Hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch “sulton eshitishni xohlagan” ma’lumotlarni unga yetkazadi, jumladan, “Mo‘g‘ullarning harbiy kuchi sizning qudratingiz oldida hech narsa emas”, deb uni aldadi. Ko‘ngli tinchlangan



Alouddin Muhammad unga qimmatbaho javohir sovg‘a qilib, Chingizxon bilan bordi-keldi qilishga rozi ekanini bildirdi.

Ortga qaytgan Mahmud Yalavoch bor haqiqatni, shuningdek, Turon davlatining kuchli va kuchsiz jihatlari haqidagi to‘liq ma’lumotni Chingizxonga oqizmay-tomizmay yetkazdi.

Ayyorligi ish bera boshlaganidan ruhlangan Chingizxon Xorazmoshohlar shaltanatining imkoniyatlari, ayniqsa, yo‘llar, shaharlar, aholining kayfiyati, ichki siyosiy vaziyat bo‘yicha yanada ko‘proq ma’lumot to‘plash maqsadida o‘zinig ishonchli kishisi Uxunni, savdogarlarga Umarxo‘ja O‘troriy, Jamol Marog‘iy, Faxriddin Jizzaxiy Buxoriy, Amiriddin Haraviyni boshchi qilib, 100 ta mo‘g‘ul va 450 ta musulmon savdogaridan iborat katta karvonni hozirlab, Turon tomon jo‘natdi.

1218-yili Chingizxonning ulkan savdo karvoni xorazmshohlarning chegara viloyati O‘tror yerlariga kirib keldi. Inolchiq ushbu karvon ahli savdogarlar niqobi ostida jo‘natilgan mo‘g‘ul josuslari ekanini fahmlab, zudlik bilan bu haqda Muhammad Xorazmshohga xabar yubordi.

Ammo Inolchiq (G‘oyirxon) Xorazmshohning maxsus farmon yuborilgungacha, karvon a’zolarini josuslikda aybladi va ularni qirib tashladi. Tasodifan omon qolgan bir mo‘g‘ul Pekinga qochib borib, Chingizxonni bo‘lgan voqeadan xabardor qildi.

O‘ylab ko‘ring

1. O‘tror voqeasiga Chingizxonga qanday munosabat bildirishi mumkin? Siz qanday yo‘l tutardingiz?
2. Nima deb o‘ylasiz, O‘tror voqeasi Xorazm va mo‘g‘ul davlati o‘rtasidagi munosabatga qanday ta’sir ko‘rsatgan?



Tarix saboqlari

O‘tror voqeasi Chingizxonga qattiq ta’sir qilsa-da, Ibn Kafrojiy Bug‘roni ikki mulozim bilan Xorazmshoh huzuriga elchi etib jo‘natdi.

Chingizxon elchilar o‘limining sabablarini keskin tarzda so‘raydi va O‘tror hokimi Inolchiq (G‘oyirxon)ni mo‘g‘ullar qo‘liga topshirishini talab qildi.

Xorazmshoh agar mo‘g‘ul tijoratchilarni o‘ldirishda Inalxon yoki boshqa biror turonlikning aybi isbotlansa, o‘z yurtida va islom shariatiga ko‘ra hukm qilishini, jinoyat sodir etgan musulmonni boshqa davlatga va boshqa shariatda hukm qilinishi uchun topshirmasligini aytdi. Xorazmshoh Alouddin Muhammad Chingizxon talabini o‘ziga nisbatan haqorat, haddan oshish deb sanadi. Chingizxonning elchisi Ibn Kafroj Bug‘ro o‘ldirildi. Ikki mulozimning esa soqol-mo‘ylovlari sharmandali tarzda qirib tashlandi.



Manbalarda

Xorazmshohning ushbu dag‘dag‘asi va qilmishi Chingizxonga juda qattiq ta’sir qildi, unda ortiq chidam va toqat qolmadi. Nafrat o‘ti bilan yonib, u bir o‘zi tepalikka ko‘tarildi, bo‘yniga belbog‘ini tashlab, bosh yalang yerga yotib ibodat qildi. Uch kungacha yig‘lab xudoga nola qilib yordam so‘radi...

Tarixchi Rashiduddin Fazlullohning, “Jome at-tavorix” asaridan

Manbalarda

“O‘trorning hokimi Inalchuqkim, Sulton Muhammadning tog‘asi erdi. Sulton Muhammad anga G‘oyirxon (deb) ot qo‘yub erdi. Bozirgonlar (Chingizxon savdogarlari nazarda tutilgan) ani ko‘ra bordi. Onlarning orasinda bir kishi bor erdi, Inalchuqning (eski) oshnosi erdi. Ul G‘oyirxon demay, Inalchuq dedi. Uning ul so‘zi yomon kelib savdogarlarni tutub, Sulton Muhammadga bir guruh kishi josuslikka kelibdi, deb xabarchi yubordi. Sulton Muhammad ham fikr qilmay, o‘ldursun va molin olsun, deb hukm yubordi. Bu ham savdogarlarni o‘ldurub, molini oldi. Savdogarlarning birisi qochib borib, voqeotni Chingizxonga arz qildi. Chingizxon bu so‘zni eshitkandin so‘ng qattiq achchiqlanib, beklarini chaqirib, kengashib, Sulton Muhammadning ustiga yurumak bo‘lub, qo‘shin yig‘ishturmoqg‘a mashg‘ul bo‘ldi. Yana Sulton Muhammadga kishi yubordikim, sening sari yurmoqqa qaror qildik. Senga ma’lum bo‘lsun, dedi”.

Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asaridan.

O‘ylab ko‘ring

1. Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida berilgan parchadan O‘trorning hokimi (Inalchuq) G‘oyirxon qaysi urug‘ga mansubligini aniqlang.
2. G‘oyirxonning Xorazmshoh saroyidagi mavqeyi qanday edi?
3. Nima uchun Xorazmshoh Alouddin Muhammad Chingizxon talabini o‘ziga nisbatan haqorat va haddan oshish deb sanadi?
4. Nima uchun Chingizxon O‘tror voqeasidan so‘ng birdaniga Xorazmshohga urush e’lon qildi?
5. Muhammad Xorazmshohning Chingizxon elchilariga qilgan munosabati Turon va Mo‘g‘ul davlati munosabatlariga qanday ta’siri ko‘rsatdi?
6. Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida berilgan parchadagi “Yana Sulton Muhammadga kishi yubordikim, sening sari yurmoqqa qaror qildik. Senga ma’lum bo‘lsun, dedi” jumlalarini qanday tushundingiz?



Mo‘g‘ullar davlati

O‘ylab ko‘ring

Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringizga asoslanib javob bering.

1. Chingizxon qaysi qo‘shni davlatlarni bosib oldi?
2. Chingizxon va Xorazmshohning elchilik aloqalaridan asl maqsadlari nima edi?
3. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh aloqalari nima uchun keskinlashdi? Bu munosabatlar keskinlashmasligi mumkinmidi?
4. Qanday sabablar Xorazmshohlar davlatini siyosiy inqirozga olib keldi?



Tarix saboqlari

1206-yilda Onon daryosi bo‘yida chaqirilgan mo‘g‘ul urug‘ va qabila boshliqlarining qurultoyida Temuchin “Chingizxon” – ulug‘ xon (qoon) deb e’lon qilindi. Chingizxon ko‘p sonli yaxshi qurollangan, intizomli va uyushgan qo‘shin hamda 10 ming nafar turk azamatlaridan kezik (keshik) – xos soqchilar qismini tuzdi.

Chingizxon 1218–1219-yillarda Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog‘ (Tyanshan) tizmasining g‘arbiy etaklarigacha bo‘lgan viloyatlarni Mo‘g‘ullar davlati hukmronligi ostida birlashtiradi. Natijada Mo‘g‘ullar davlatining g‘arbiy hududlari Sulton Muhammad Xorazmshoh saltanatining chegarasiga bevosita tutashdi.

Jang paytida mo‘g‘ullar qo‘shini bir necha qator bo‘lib saf tortardi. Birinchi qatorda og‘ir qurollangan otliqlar, orqada esa suvoriy kamonchilar turardi. Jang boshida qanotlardan yoki ilg‘or bo‘linmalar orasidagi yengil otliqlar oldinga tashlanib, dushman ustiga kamondan o‘qlar yog‘dirganlar. Osmondan tushayotgan o‘qlarning uzluksiz oqimi, psixologik hiyla (ayniqsa, o‘qlarning ba’zilari maxsus hushtaklar bilan ta’minlangani) piyodalarga katta zarar etkazgan.

Mamlakatda mo‘g‘ullar bostirib kirishi xususida turli mish-mishlar avj oldi.





1206-yili bahorida mo‘g‘ul qabilalar sardorlarining qurultoyida Temuchin xon etib tayinlangan va unga “Chingizxon“ (“Ulug‘ xon“) deb nom berilgan. Tashkil etilgan davlat “Yeke mong‘ol ulus“ deb atalgan.

Mo‘g‘ullarning asosiy taktik hiylasi soxta chekinish edi. Bunda bir nechta bo‘linmalarni oldinga jo‘natishgan va keyin ular o‘zlarini orqaga chekinayotgandek ko‘rsatishgan. Dushman ta’qibga kirishgach, mo‘g‘ullar ularning asosiy kuchlar bilan aloqalarini kesib qo‘ygan. Shundan so‘ng kamonchilar harakatga kirishgan. Mo‘g‘ullar dushman ustidan hal qiluvchi ustunlikka erishmagunlaricha uzoqdan jang qilish taktikasini afzal ko‘rdgan.

Chingizxon 1219-yili o‘z o‘g‘illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi.

Mo‘g‘ullar va Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi ilk to‘qnashuv

Mo‘g‘ullar Chingizxon buyrug‘iga ko‘ra merkit qabilasini tor-mor qilib orqaga qaytmoqchi bo‘lganda Xorazmshoh qo‘shiniga duch keldi. Ular dastlab jang qilishdan voz kechdi. Biroq Muhammad Xorazmshoh bilan o‘chakishib qoldilar. Jo‘chixon Xorazmshohga elchi yuborib: “Biz siz bilan jang qilmaymiz, ulug‘ xon (Chingizxon) siz bilan urushmoqni buyurmadi”, dedi. Xorazmshoh Muhammad bunga: “Agar Chingizxon sizlarga men bilan jang qilishni buyurmagan bo‘lsa, Alloh taolo menga sizlar bilan jang qilishni buyurdi”, deya javob berdi.

1216-yilda Irg‘iz daryosi bo‘yida Muhammad Xorazmshohning 60 ming kishilik qo‘shini mo‘g‘ullarning 20 minglik qo‘shini bilan jang qiladi.

Bu jangda Xorazmshoh qo‘shinni 3 qismga bo‘ldi va ulardan biriga o‘g‘li Jaloliddinni lashkarboshi qilib tayinlab, pistirmada turishini buyurdi.

Irg‘iz jangida Xorazmshoh dushmanning siquviga dosh berolmadi, uni Jaloliddinning xos lashkarlarining dushmanga bergan qaqshatqich zarba qutqarib qoldi.

Birinchi kungi to‘qnashuvda hech bir tomonning qo‘li baland kelmadi. Tun kirgach, tomonlar o‘z qarorgohiga qaytdi va tongda mo‘g‘ul qo‘shini gulxanlar yoqib, dushmanga sezdirmasdan o‘z qarorgohini tark etdi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Chingizxonning Xorazmshohga yuborgan nomasi nima uchun sultonga ma’qul bo‘lmagan?
2. Chingizxon Muhammad Xorazmshohni qudratli podshoh sifatida tan olib, o‘zining eng ardoqli o‘g‘illari qatorida ko‘rishini bayon etishi bilan nima demoqchi bo‘lgan?
3. Chingizxon karvonining talanishi Mo‘g‘ullar davlati va Xorazm o‘rtasidagi munosabatga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
4. O‘tror voqeasini qo‘pol siyosiy xato deb aytish mumkinmi? Nima uchun?
5. O‘tror voqeasiga Chingizxonning munosabati qanday bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
6. Chingizxon elchilarining o‘ldirilishi qanday oqibatlarga olib kelishi muqarrar bo‘lgan?
7. Nima uchun Muhammad Xorazmshoh mo‘g‘ullar bilan ertami-kechmi urush bo‘lishini yaxshi bilar edi?
8. Agar sizdan Sulton Muhammad mavjud vaziyatni hisobga olib, maslahat berishingizni so‘raganida, unga qanday maslahat berardigiz?
9. Mo‘g‘ullar va Xorazmshoh o‘rtasidagi urushning oldini olish uchun nima qilgan bo‘lardingiz?
10. Nima deb o‘ylaysiz, Xorazmshoh nega G‘oyirxonni dushman qo‘liga topshirishni rad etdi? Xorazmshoh bu qarorni qabul qilishida Turkon xotunning ta’siri bo‘lganmi? Javobingizni izohlang.



MUHAMMAD XORAZMSHOHNING MAMLAKAT MUDOFAASIGA OID TADBIRLARI VA BUNING OQIBATI

BUGUN DARSDA

- Xorazmshohning mudofaa rejasi.
- Chingizxonning Movarounnahrga yurishi.
- O‘tror qamali.
- Buxoro mudofaasi.
- Samarqand mudofaasi.
- Temur Malik jasorati.
- Muhammad Xorazmshohning so‘nggi farmoni.
- Urganch mudofaasi.

O‘ylab ko‘ring

1. Nima deb o‘ylaysiz, Chingizxon Xorazmshohlar davlatining ichki ziddiyatlaridan to‘la xabardor bo‘lganmi?
2. Sultonning o‘z qo‘shinlarini turli shaharlarga bo‘lib yuborib, urushda mudofaa taktikasini qo‘llashi to‘g‘ri qaror bo‘lgan deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?



Xorazmshohning mudofaa rejasi

Chingizxon Movarounnahr yurishiga katta ahamiyat berib, puxta tayyorgarlik ko‘rgan edi. Hali harbiy yurish boshlanmasdanoq u o‘z dushmanining kuch-qudrati va urushga tayyorgarligi to‘g‘risida savdogarlar orqali to‘plangan ma’lumotlarni sinchiklab o‘rgangan.

Xorazmshoh saltanatida esa urush arafasidagi harbiy kengashda o‘zaro kelishmovchilik yaqqol namoyon bo‘ldi. Dushmanga zarba berishning yagona rejasini yakdillik bilan belgilab olish o‘rniga fikrlar bo‘linib ketdi.

Sulton Muhammadning o‘g‘li Jaloliddin, Xo‘jand hokimi Temur Malik singari sarkardalar harbiy kuchlarni asosiy nuqtalarga to‘plab, dushmanga zarba berishni taklif etdi. Biroq sulton katta qo‘shinni bir joyga to‘plashdan qo‘rqar edi. Uning nazarida bir joyga to‘plangan qo‘shin sultonni taxtdan ag‘darib tashlashi mumkin edi. Shuning uchun ham harbiy kengashda sulton o‘z qo‘shinlarini turli shaharlarga bo‘lib yuborib, urushda mudofaa taktikasini qo‘llashga qaror qildi.

Xorazmshohlar davlati ko‘p sonli turkiy qo‘shin va yaxshi qurollangan ko‘ngillilar lashkari hamda yetarli oziq-ovqat zaxirasiga ega edi. Afsuski, Muhammad Xorazmshoh bilan sarkardalar o‘rtasida mavjud ixtiloflar avval-boshdanoq bunday ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi.

Xorazmshoh askariy kuchini qal’a va istehkomlarga bo‘lib yuborib, ayrim shaharlarni mo‘g‘ullarga qarshi qo‘yish bilan dushmanga zarba bermoqchi bo‘ldi. Mo‘g‘ullarning asosiy zarbasi Movarounnahrning Zarafshon vodiysiga qaratilsa kerak degan fikr bilan Samarqand va Buxoro shaharlarini mustahkamlashni buyurdi.

O‘ylab ko‘ring

1. Xorazmshohlar va Chingizxon davlati chegaralarini xaritadan ko‘rsating.
2. Xorazm va Mo‘g‘ullar davlati o‘rtasida yuzaga kelgan siyosiy keskinlikning asosiy sababi nimada edi?
3. Bu davrda Xorazmshohlar davlatining Markaziy Osiyodagi hukmronligiga qancha vaqt bo‘lgan edi? Xorazmshoh Muhammad sultonning harbiy kuchiga qanday baho berasiz?



Chingizxonning Movarounnahrga yurishi

Chingizxon 1219-yili o‘z o‘g‘illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati ustiga anchadan beri puxta tayyorlangan harbiy yurishini boshladi. Ular yozni Irtish daryosi bo‘yida o‘tkazib, sentyabr oyida chegaradan o‘tdi.

Chingizxon lashkariga uyg‘ur ediquti (xoni) Baurchak, qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sig‘noqteginlar ham o‘z qo‘shini bilan kelib qo‘shildilar. Chegaradan o‘tgan Chingizxon o‘z qo‘shinini Janubiy Qozoq cho‘llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O‘tror shahri yaqinida to‘plab, uni 4 qismga bo‘ldi. O‘tror voqeasi va undan keyin Chingizxon elchisi Ibn Kafroj Bug‘roning o‘ldirilishi Movarounnahrga bostirib kirish uchun bahona bo‘ldi. Bu yurishda Chingizxon dastlab Sharqiy Turkiston va Yettisuvni zabt etdi.

Chingizxon G‘arbga harbiy yurishini boshlamasdanoq o‘z dushmanining kuch-qudrati va urushga tayyorgarligi to‘g‘risida savdogarlar orqali to‘plagan ma’lumotlarini sinchiklab o‘rgangan, Xorazmshohlar davlatining ichki ahvolidan to‘la voqif edi.

Chig‘atoy va O‘qtoy qo‘shinning bir qismi bilan O‘trorni qamal etib, egallashi uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Jo‘chi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchig‘lig‘kent, Sig‘noq shaharlarini bosib olish uchun yuborildi.

Uchinchi qismdagi besh ming chog‘li qo‘shinga Uloq no‘yon va Suketu Cherbi bosh qilinib, Xo‘jand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi.

Chingizxon o‘zi bosh bo‘lgan to‘rtinchi – asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi) Zarafshon vohasi tomon – Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo‘l oldi.



O‘ylab ko‘ring

Xaritadan Chingizxon qo‘shinlarining harakatini izohlang. Mo‘g‘ullar qo‘shini bir vaqtning o‘zida qayerlar bilan jang qilganini aniqlang va qo‘shinning harbiy tayyorgarligiga baho bering.

Tarix saboqlari

O‘tror qamali

O‘tror mustahkam qal’ali chegara shahar edi. Qal’a noibi G‘oyirxon (Inolchiq) boshchiligida shaharda 20 ming suvoriy bor edi. Qamal arafasida unga yana 10 minglik lashkar kelib qo‘shilgandi. Bundan tashqari, Sulton Muhammad “Lashkari birun” deb atalgan 50 ming askar yuborgan.

Mo‘g‘ullar shaharni qamalga olishi bilan mudofaachilar sarosimaga tushganlar. O‘tror qamali davrida nafaqat qamaldagilar, balki mo‘g‘ullar ham katta talafot ko‘rgan. Qamaldagilarning safi siyraklashib, oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan. O‘tror mudofaasining eng og‘ir paytida ayrim lashkarboshilar shahar darvozasidan chiqib, mo‘g‘ullarga taslim bo‘ldi.

Shu asnoda o‘trorliklar shaharni mudofaa qilib, uni besh oy davomida o‘z qo‘llarida ushlab turdilar. Ayniqsa, G‘oyirxon o‘zini Chingizxon savdogarlari va sarbonlarini o‘ldirishda aybdor his qilib, so‘nggi nafasigacha dushmanga qarshi kurashdi. Uning askarlari ellik-elliktadan bo‘lib, qal’adan tashqariga chiqar va bosqinchilar bilan jang qilib, halok bo‘lardi. G‘oyirxon boshliq mudofaachilarning bir qismi O‘tror arkiga joylashib olib, mudofaani yana bir oygacha davom ettirdilar. Chig‘atoyzodalar qanday bo‘lmasin, G‘oyirxonni qo‘lga tushirishga ahd qildilar. Oqibat u qurshovga olinib, asirga tushirildi. So‘ng Samarqandga olib borib, qatl etildi.



O‘tror qamali

Manbalarda

G‘ayir (Inolchiq) va uning odamlari so‘nggi askari qolguncha jang qilishda davom etdilar va mo‘g‘ullar qo‘shiniga katta talafot yetkazdilar. Bir oycha ularga qarshilik qilib, so‘ng ikki jangchisi bilan qolgan G‘ayir jon-jahdi bilan kurashdi, taslim bo‘lmadi. Uni odamlari bilan bir uyning tomiga chiqib, iskanjaga oldilar. Tiriklayin ushlanishi buyurilgani uchun o‘ldirishga urinmadilar. Qisqa bir muddatdan keyin ikki do‘stiga shahidlik sharbatini ichirganidan so‘ng G‘ayirning qo‘lidagi qurolni tushirgan paytda tomga yoyilgan sopollarni mo‘g‘ullar ustiga otib, o‘zini himoya qila boshladi. Sopollar ham tugagach, atrofini to‘liq qurshab olgan askarlarga hujum qilib, bir nechtasini yiqitdi, biroq uni asirlik tuzog‘iga tushirdilar va zanjirlar bilan mahkam bog‘ladilar. Shundan keyin qal’a va devorlarni yer bilan yakson qildilar. Qilichdan qutulgan san’atkor va ayrim mulozimlarni o‘zlariga xizmat qilishi uchun olib ketdilar. Avvalroq Buxorodan Samarqandga ketgan Chingizxonga qo‘shilib olish uchun yo‘lga chiqdilar. Qarorgohda G‘ayirga o‘lim sharbatini ichirib, abadiylik libosini kiydirdilar.

Juvayniyning “Tarixi jahongusho” asaridan

O‘ylab ko‘ring

1. Nima uchun G‘oyirxon o‘zini aybdor his qildi?
2. O‘trorliklar qancha vaqt shaharni o‘z qo‘llarida ushlab turdilar?
3. Nima uchun G‘ayir (Inolchiq)xonni tiriklayin ushlash buyurildi?



O‘tror qal’asi qoldiqlari



Tarix saboqlari

Buxoro mudofaasi

1220-yilning fevralida Chingizxon Buxoro ustiga qo‘shin tortadi. Mo‘g‘ullar Buxoro xalqidan taslim bo‘lishni so‘rashdi va omonlik va’da qilishdi. Dastlab himoyachilar mo‘g‘ullarga zarba berishga muvaffaq bo‘ldi. Keyin esa mo‘g‘ullarning qo‘li ustun kela boshladi. Natijada shahar himoyachilarining bir qismi Xurosonga chekinishga qaror qildi. Buxoro ahli o‘z himoyachilaridan ayrilgandan so‘ng shahar ahlini saqlab qolish niyatida o‘zaro maslahatlashiladi va, Buxoro qozisi Badriddin boshchiligida bir guruh oqsoqollar Chingizxon huzuriga yo‘l oladilar.

Shunga qaramay, aksariyat shaharliklar o‘z qarshiliklarini davom ettirdilar, tunda askarlarga yashirincha yordam berib, mo‘g‘ul qo‘shiniga qarshi hujumlar uyushtirdilar. Tinimsiz tungi hujumlardan bezor bo‘lib, g‘azablangan Chingizxon shaharni butunlay yondirishni buyurdi.

Shu yilning 16-fevralida mo‘g‘ullar Buxoroni to‘liq egallab, talon-toroj etdi. Shahar ichida jang to‘xtamadi, ark qamali 12 kun davom etdi. Buxoro dushman hujumini qaytarishga tayyor emas edi. Behisob xazinalar talandi, asriy qo‘lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtilib, gulxanga uloqtirildi. Ilm va ma’rifat egalari bo‘lgan ulamolar va shayxlar mo‘g‘ul jangchilariga xizmatkor qilib berildi. Buxoro yong‘in ichida qoldi. Yong‘indan faqat g‘ishtdan qurilgan katta masjid va ba’zi binolar omon qoldi xolos.



O‘ylab ko‘ring

Buxoro yong‘in ichida qolganda Buxoro xalqi Somoniylar maqbarasini qumga ko‘mib tashlagan. Nima deb o‘ylaysiz, buxoroliklar nega bunday yo‘l tutgan?



Manbalarda

Chingizxon otda masjidi jome oldiga kelib to‘xtadi va shaharning kazo-kazolarini o‘z huzuriga chaqirtirdi. Mo‘g‘ullar shahar omborxonalarini ochib, g‘allalarni tashib oldilar. Qur’on nusxalari saqlanadigan sandiqlarni otlarga oxur qildilar, masjidlarga meshlarda sharob keltirib joylab qo‘ydilar, shahar hofizlari va o‘yinchilarini chorlab, raqsga tushirdilar. Oqsuyaklar, ulamolar va shayxlar otboqarlar o‘rnida otlarni qo‘riqlash uchun otxonalarda turar va amr-farmonlarni bajo keltirish bilan mashg‘ul edilar.

Rashididdinning
“Jome ut-tavorix” asaridan



Manbalarda

Mo‘g‘ullar Buxoro xalqini qal’adagi sulton askarlariga qarshi jangga haydadi. Ikkala taraf orasida shiddatli jang boshlandi. Qal’a tashqarisidagilar ichkariga manjaniqlardan tosh, yoylardan o‘q yog‘dirar, ichkaridagilar esa tashqariga neft shishalarini otardilar. Qisqa muddat ichida hamma yoq atrofga uchqun sachratib yonayotgan bir tandirga aylandi. Mana shu tarzda jang bir necha kun davom etdi. Qal’a ichidan bir guruh jangchi tashqariga chiqar, qahramonlarcha kurashib, qal’aga qaytib kirib ketardi. Ayniqsa, jasurlikni erkak sherning qo‘lidan tortib olgan Ko‘kxon bir hamla qilganida bir necha dushmanni birdaniga o‘ldirar va hujum qilganlarni orqaga chekinishga majbur etardi.

Lekin bu hol uzoq cho‘zilmadi. Ularning ishlari borgan sari og‘irlashdi, g‘alabaga olib boruvchi najot yo‘li qolmadi. Oxirida Alloh va uning yaratiqlari qarshisida shahid bo‘lib, narigi dunyoga ketdilar. Mana shu tarzda shahardagi chuqurlar va jarliklar inson-u jonzotlar jasadi bilan to‘ldi. Mo‘g‘ullar shahar devorini qo‘lga kiritib, shaharni qaytadan yoqib yubordi. Davrning og‘iz va quloqlari bo‘lgan olimlar oyog‘osti bo‘ldi, falak gumbazining boshiga yarashgan buyuk kishilardan ba’zilari asir olindi, ba’zilari esa yo‘qlik dengiziga g‘arq qilindi.

Juvayniyning
“Tarixi jahongusho” asaridan



Samarqand mudofaasi

Buxoro zabt etilgach, 1220-yilning mart oyida mo‘g‘ullar Movarounnahrning eng mashhur va yirik shahri bo‘lgan Samarqand tomon yo‘l oldi. Chingizxon shahardan tashqarida joylashgan Ko‘ksaroy qasridan turib shaharni qamal qilish ishiga boshchilik qildi. Xorazmshoh bu shaharga alohida diqqat-e’tibor qaratdi. Shahar qo‘shini 110 ming jangchidan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari, Samarqandda 20 ta jangovar fil ham bor edi. Sulton 40 ming g‘ur jangchisini o‘z tog‘asi Tog‘ayxon boshchiligida Samarqand mudofaasi uchun mas’ul qilib qoldirdi. Shahar oziq-ovqat zaxirasi, mudofaa istehkomlarining puxtaligi jihatidan bir necha yillik qamalga ham chidashi mumkin edi. Shahar ostonasida uch kun shiddatli jang kechdi. Uch kunlik qattiq qarshilikdan so‘ng Chingizxon hiyla ishlatishga majbur bo‘ldi. U shahar qamali uchun qo‘shinning ozgina qismini ajratib, asosiy kuchlarni pistirmaga qo‘ydi. Samarqand amirlari bu hiylaga uchdi, mo‘g‘ullarning ozligini ko‘rib qo‘shinning katta qismini shahardan tashqariga chiqardi.

Mo‘g‘ullar yolg‘ondakam chekinishdi, Samarqand qo‘shini esa ularni ta’qib eta boshlaydi. Oldindan belgilangan yerda ular qurshab olindi va bir necha soat ichida mo‘g‘ullar Samarqand jangchilarining juda katta qismini qirib tashladi. Samarqand mudofaachilarining jangovar fillar bilan ikkinchi bor shahardan chiqib jang qilishi ham muvaffaqiyatsizlik bilan yakuniga yetdi. Shundan so‘ng mo‘g‘ullar hujumni yanada kuchaytirdi, shaharni manjaniqlardan o‘qqa tutib, kamondan o‘q yomg‘iri yog‘dirdi. Ular Samarqandning bosh suv inshooti – Jo‘yi arziz (Qo‘rg‘oshin novasi)ni buzib tashlab, shaharni suvsiz qoldirdi. 20 ming chog‘li shahar mudofaachilari suv toshqini bois taslim bo‘lishga majbur bo‘ldi. Qang‘li qo‘shinlariga omonlik va’da qilindi. Ular taslim bo‘lib, shahar talangach, 30 minglik qang‘li qo‘shini qolgan himoyachilar bilan birga qirib tashlandi. Mo‘g‘ullar Samarqandni ham Buxoro kabi vayron etib, yoqib yubordi.

Shaharning deyarli barcha hunarmandlari – 30 ming kishini mo‘g‘ullar asir qilib olib ketadi. Tirik qolganlarga shaharga qaytishga ruxsat berilib, jonlari omon qolgani uchun 200 ming dinor tovon to‘lash sharti qo‘yildi.



Temur Malik jasorati

1220-yil bahorida Aloq no‘yon va Sukatu cherbiy boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan Fanokat (Banokat) shahriga yaqinlashdi. Fanokat hokimi Malik Ingu mo‘g‘ullarga 3 kun davomida qarshilik ko‘rsatishni uddalay oldi xolos. Undan keyin shahar taslim bo‘ldi. Shundan so‘ng Aloq no‘yon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Xo‘jand shahriga qarab yurdi. Bu yerda ular kutilmaganda Xo‘jand hokimi Temur Malikning qattiq qarshiligiga uchradi. Temur Malik turkiy qo‘mondonlardan bo‘lib, Xorazmshohlar davlatida mohir sarkarda sifatida nom chiqargan, sulton va uning oilasiga yaqin shaxs edi. Xo‘jand qal’asi Sirdaryoning ikkiga ajralgan joyida qurilgan bo‘lib, atrofidagi tik jarliklar va daryo tabiiy mudofaa vazifasini bajarar edi. Shu bilan birga, qal’aga manjaniq otgan tosh yetib bormas, atrofi jar bo‘lgan qal’ani qamal qilish mushkul ish edi.

Aloq no‘yon Xo‘jand qamali uchun 20 ming nafar qo‘shinni safarbar qildi. Dastlab Xo‘jand atrofidagi qishloqlardan, so‘ng boshqa zabt etilgan hududlardan kelgan 50 mingga yaqin aholi qamal uchun safarbar qilindi. Ular shahardan 3 km masofadagi tog‘dan tosh keltirib, daryo o‘zaniga tashlashadi. Maqsad daryo suvi sathini ko‘tarib, qal’ani suvga bostirish yo‘li bilan mudofaachilarga ziyon yetkazish edi. Temur Malikning buyrug‘iga ko‘ra, 12 ta qayiq yasatilib, yondirilgan kamon o‘qi o‘tmasligi, yonib ketmasligi uchun uning usti namat bilan qoplanib, sirka shimdirilgan loy bilan suvab chiqildi.

Qayiqlarning ustida o‘q otish uchun mo‘ljallangan maxsus shinaklar bo‘lib, ular Sirdaryoning ikki tarafida suzib, mo‘g‘ul qo‘shinlariga tinimsiz o‘q yog‘dirib, hujumlar uyushtirdi.





Temur Malik bu yerda turib qolish maqsadga muvofiq emasligini tushunib, daryo oqimi bo‘ylab suzib ketdi. Mo‘g‘ul qo‘shini bundan boxabar bo‘lishi bilan daryoning har ikki qirg‘og‘i bo‘ylab uni ta’qib eta boshladi. Temur Malik qayerda mo‘g‘ullar to‘dasini ko‘rsa, zudlik bilan shu tomonga barkaslarni haydab, ularning ustiga o‘q yomg‘iri yog‘dirib, to‘zg‘itib yuborar edi. U to Jand va Barchinlig‘kentga yetgunga qadar mo‘g‘ullar bilan beto‘xtov jang qilib ketdi.

Urganchga yetib borgan Temur Malik sulton Jaloliddin orqasidan Shahristonga (boshqacha aytganda, Jurjon – qadimgi Girkaniya, Kaspiy dengizining janubi-sharqidagi viloyat va shahar) yo‘l oldi va unga qo‘shildi.

Sulton halok bo‘lgach, Temur Malik so‘fiylar (ahli tasavvuf) kiyimida (jandasida) Shomga (Suriya) yo‘l oldi. Oradan ancha vaqt o‘tgach, vatanga bo‘lgan muhabbati tufayli yurtiga qaytdi. Bir necha yil yaqinlari, farzandlari haqida ma’lumot to‘plab, O‘sh shahri (qasabasi)da yashagan. Keyin esa mo‘g‘ul amaldorlari uni tanib qolib, qatl etigan.

Manbalarda

“Zafarnoma” muqaddimasida yozilishicha, Temur Malik kurashni sabot-matonat bilan davom ettirgach, unda bor-yo‘g‘i uchta kamon o‘qi qoladi: ularning ham bittasi singan va paykonsiz edi.

U paykonsiz o‘q bilan uni ta’qib qilib kelayotgan uch mo‘g‘uldan birining ko‘zini ko‘r qiladi, qolganlariga esa: “Ikkingiz uchun ikki o‘q qoldi. O‘qlarimga achinaman. Yaxshisi, orqalaringga qaytib, hayotingizni saqlab qoling!” deydi.

Sharafuddin Ali Yazdiy

Mirkarim Osim

TEMUR MALIK

(Hikoyadan parcha)

Tong qorong‘isida Temur Malik boshliq uch yuz bahodir yigit kemalarga o‘tirib, qirg‘oqqa yaqinlashdi. Yoylardan mo‘g‘ul soqchilari ustiga o‘q yog‘dirib, sohilga chiqib olishdi. Uyquda yotgan mo‘g‘ul lashkargohiga tuyqusdan bosqin qilib, naridan beri kiyinib chiqqan cheriklarni qilichdan o‘tkaza boshladilar. Mo‘g‘ullar es-hushlarini yig‘ib olgunlaricha birtalay askarlaridan ajraldilar.

Temur Malik uzun qilichini yalang‘ochlab, lashkargoh o‘rtasidagi ipak chodir tomon yo‘l oldi. O‘z boshliqlari uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lgan bir to‘da azamat yigit Temur Malikni o‘rab, atrofdan tushgan qilich zarblarini daf qilib borardilar.

Temur Malik yon tomondagi chodirdan yugurib chiqib, uning yo‘lini to‘smoqchi bo‘lgan barzangidek bir mo‘g‘ulning yelkasiga qilich solib, ikki nimta qilib tashladi, so‘ng baland ovozda:

– Hay, So‘ktu no‘yon, mard bo‘lsang, maydonga chiq! – deya qichqirib, mo‘g‘ul sarkardasini yakkama-yakka jangga chorladi. Biroq mo‘g‘ul lashkarboshilari yakkama-yakka jang qilib, o‘z mardliklarini ko‘rsatishdan ko‘ra ko‘pchilik bo‘lib, uyushqoqlik bilan dushmanni bartaraf qilishni afzal ko‘rardilar.

Shuning uchun So‘ktu no‘yondan sado chiqmadi. Yon tomondan bostirib kelgan bir to‘da mo‘g‘ul askarlari Temur Malikka ularning sarkardasi bilan qilichbozlik qilishga xalal berdi.

U jang qila turib sohil tomon chekindi, mo‘g‘ullarning asosiy kuchlari yetib kelmasdanoq, yigitlari bilan kemalarga o‘tirib, shinaklardan o‘q yog‘dirgancha orol tomon yo‘l oldi.

Temur Malik mo‘ljallangan ishini bajargan edi. Uning asosiy maqsadi – mo‘g‘ullarni chalg‘itib, daryoga tashlangan toshlarni u yoqdan bu yoqqa otib tashlash, ko‘tarmani buzish bilan mashg‘ul bo‘lgan yigitlariga ishlash uchun imkoniyat tug‘dirib berish edi. Sohildagi qisqa muddatli jang vaqtida ko‘tarma buzib tashlandi.



Manbalarda

Muhammad Xorazmshoh katta o‘g‘li Jaloliddin, boshqa o‘g‘illari O‘zloqshoh va Oqshohlarni yoniga chorlab, shunday degan ekan: “Hokimiyat iplari uzildi, saltanat asoslari bo‘shashdi va buzildi. Bu dushmanning maqsadi ayon bo‘ldi: uning changali va tishlari mamlakatga qattiq sanchildi. Men uchun faqat o‘g‘lim Jaloliddingina qasos olishga qodir. Endi men uni valiahd etib tayinlayman”.

Shihobiddin Nasaviy



Tarix saboqlari

Muhammad Xorazmshohning so‘nggi farmoni

Chingizxon boshliq mo‘g‘ul qo‘shinlari ta’qibidan qutulgan Muhammad Xorazmshoh Xurosondagi ko‘pgina sargardonliklardan so‘ng Kaspiy dengizining janubidagi Ashuradi (Ashura) oroliga borib o‘rnashdi. Bu yerda u onasining tayziqi bilan valiahd deb e’lon qilgan Qutbiddin O‘zloqshohning taxt vorisligini bekor qildi va katta o‘g‘li Jaloliddinni taxt vorisi deb e’lon qildi. Ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma’naviy jihatdan ezilgan hukmdor orolda plevrit (o‘pkaga suv yig‘ilishi) kasaliga chalinib, 1220-yilning dekabr oyida vafot etdi.

Xorazmshoh o‘limi oldidan sulton Jaloliddinni taxt vorisi deb e’lon qilib, sultonlikning ramzlarini unga topshirdi.



Urganch mudofasi

1221-yilning boshlarida Chingizxon qo‘shinlarining Urganchga yurishi boshlandi. Xorazmshohlar poytaxtida xorazmliklarning 110 ming nafar qo‘shini turardi. Urganchliklar dushmanning harbiy kuch va qurollarining ustunligiga qaramay, o‘z ona shahrini yetti oy mudofaa qildilar. Bu janglarda zamonining buyuk allomasi shayx Najmiddin Kubro nomi bilan shuhrat topgan 76 yoshli Ahmad ibn Umar Xivaqiy o‘z do‘st-u shogirdlari va izdoshlari bilan ishtirok etdi. U o‘z muridlarini yovga qarshi kurashga ilhomlantirib turdi. Najmiddin Kubro mardona jang qilib, o‘lim oldidan mo‘g‘ul navkariga tashlandi, uni halok qildi, so‘ng o‘zi ham halok bo‘ldi. Najmiddin Kubroning “Yo Vatan, yo sharafli o‘lim!” degan xitobi rahnamoligida har bir mahalla, ko‘cha-ko‘y, guzar-u rasta, masjid-u madrasa va har bir xonadon janggohga aylandi.

Ko‘cha janglarida minglab mo‘g‘ul askarlari halok bo‘ldi. Mo‘g‘ullar shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurbon bermagan edilar.

1221-yilning boshida sulton deb e’lon qilingan Jaloliddin o‘z ukalari Oqshoh, O‘zloqshohlar bilan Urganchga keldi. Lekin bu yerdagi siyosiy vaziyat, sobiq Jand noibi Qutlug‘xonning unga qarshi suiqasd qilishga urinishi, qipchoq sarkardalarining o‘zlarini xoinona tutishlari Jaloliddinni shahar mudofaasiga bosh bo‘lish fikridan qaytardi.

Jaloliddin Temur Malik bilan birgalikda shaharni tark etib, kurashni Amudaryo janubida olib borish maqsadida Xurosonga yo‘l oldi. Uning ortidan esa tez orada ukalari Oqshoh va O‘zloqshohlar ham yo‘lga tushdi. Urganch mudofaasi Turkon xotunning qarindoshlaridan biri bo‘lgan Xumortegin qo‘lida qoldi.

Chingizxon Najmiddin Kubroga oilasi va shogirdlari bilan shaharni tark etishni taklif qildi. Biroq shayx: “Men bu shaharda ko‘p yillar mobaynida yashab keldim va har bir jon men uchun aziz. Ushbu og‘ir kunlarda men ularni tark eta olmayman” deb javob berdi. Shundan keyin mo‘g‘ullar shaharga hujum qilishga qaror berdi.



O‘ylab ko‘ring

Mo‘g‘ullar Xorazm va uning viloyatlarida katta tut daraxtlari ko‘pligini ko‘rganlar. Tutdan arralangan g‘o‘lalar og‘ir va toshdek qattiq bo‘lgan. Mo‘g‘ullar ulardan manjaniq uchun tosh o‘rnida foydalanganlar.

1. Nima deb o‘ylaysiz, mo‘g‘ullar nega tut daraxti g‘o‘lasidan foydalangan?
2. Nima uchun Jaloliddin va Temur Malik Urganchni tark etishga majbur bo‘ldi?
3. Nima uchun Najmiddin Kubro Chingizxonning taklifiga rozi bo‘lmadi?
4. Najimiddin Kubroning vatanparvarligiga tavsif bering.

100 ming hunarmand qo‘lga olingan. Har bir mo‘g‘ul jangchisiga 24 tadan asir teggan, jangchilar soni esa 50 mingdan oshiq bo‘lgan. Shundan so‘ng mo‘g‘ullar Amudaryodagi to‘g‘onni buzib, shaharni suvga bostirganlar. Noyob madaniy yodgorliklar, kutubxonalar vayron qilingan.



Urganchga Chingizxonning o‘g‘illari – Jo‘chi, Chig‘atoy, O‘qtoy va bir qancha mo‘g‘ul sarkardalari o‘z harbiy kuchlari bilan yetib keldi. Mo‘g‘ullar qamalga tayyorlanish uchun manjaniqlar, “toshbaqalar” (matoris), (dabbobat) tayyorlay boshlagan edi.

Mo‘g‘ullar Xorazm ahliga omonlik berishni va’da qildi. Biroq xorazmliklar ona shahrini mo‘g‘ullarga topshirishga ko‘nmadi. Poytax Urganch qamali besh oy davom etdi. Xumortegin mudofaa ishlarini yetarlicha yaxshi tashkil etolmadi. Mo‘g‘ullar qamal paytida harbiy hiyla ishlatib, shahar darvozasiga bir qancha chorvalarni haydab keldi. Buni ko‘rgan bir qator Urganch mudofaachilari chorva himoyasiz degan fikrda shahardan tashqariga chiqib, suruv ortidan tushdi.

Mo‘g‘ullar ularning shahar devorlaridan uzoqroq borishlarini kutdi. Bu yerda pistirmada turgan otliqlar urganchliklarni qurshab olib, qirib tashladi. Mo‘g‘ul qo‘shini mudofaachilarni shahar ichkarisigacha ta’qib qilib, shaharga qadar kirib bordi. Ushbu hujumlar bartaraf etilgach, ma’lum vaqt davomida mo‘g‘ullar hujumni to‘xtatib, shaharga taslim bo‘lish evaziga jon omonligi va’dasi bilan elchilar yubordi.

Aslini olganda, bu elchilikdan maqsad vaqtdan yutish bo‘lib, bu orada Jand va Movarounnahrning boshqa hududlaridan yordamchi kuchlar yetib kelishi lozim edi. Shahar atrofida qamal inshootlari qayta tiklandi. Ammo shaharga uyushtirilgan keyingi hujumlar ham mudofaachilarning qattiq qarshiligiga uchradi. Shahar mudofaasi uchun hal qiluvchi shunday bir pallada sarosimaga tushgan Xumortegin qarshilik ko‘rsatish befoyda ekanini ko‘rgach, mo‘g‘ullarga taslim bo‘ldi.



O‘ylab ko‘ring

1. Xumorteginning mudofaa ishlarida yetarli tajribaga ega emasligi nimalarda namoyon bo‘ldi?
2. Nima uchun mo‘g‘ullar qamal paytida harbiy hiyla ishlatish uchun aynan chorva mollaridan foydalanishgan deb o‘ylaysiz?



O‘ziyurar minora



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Nima uchun Chingizxon O‘tror qamaliga alohida e’tibor qaratgan edi?
2. Samarqand va O‘tror shaharlarining mudofasi va mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinish rejasini solishtiring. Qaysi shaharning harbiy jihatdan imkoniyatlari yuqori edi?
3. Temur Malik shaxsi sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning jasoratini tarixdagi yana qanday vatanparvar siymolar qatoriga qo‘shish mumkin?
4. Muhammad Xorazmshohning so‘nggi farmoni Xorazm davlati mustaqilligini himoya qilishga qanday ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz? Bu farmon o‘z vaqtida qabul qilingan edimi?



Manjaniq



JALOLIDDIN MANGUBERDI



BUGUN DARSDA

- Sulton Jaloliddin shaxsiyati.
- Niso va Qandahordagi g‘alabalar.
- Parvon jangi.
- Jaloliddinni Chingizxon changaliga tushirgan ham, undan qutqargan ham ot edi.

O‘ylab ko‘ring

1. Oldingi mavzular asosida Sulton Jaloliddin shaxsiyatiga ta’rif berishga harakat qiling.
2. Nima uchun Xorazmshoh Sulton Jaloliddinni valiahd deb e’lon qildi? Bunda u Jaloliddindagi qaysi sifatlarni inobatga olgan deb o‘ylaysiz?
3. Sizda Jaloliddindagi qanday sifatlar bor deb hisoblaysiz?
4. Siz Jaloliddinning o‘rnida bo‘lsangiz, bu vaziyatda qanday yo‘l tutardingiz? fikringizni asoslang.



Sulton Jaloliddin shaxsiyati

Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga qarshi 11 yil davomida Xuroson, Hindiston, Eron, Iroq va Kavkaz hududlarida tinimsiz kurash olib bordi, 17 marotaba mo‘g‘ullarga qarshi jang qilib, ularning 14 tasida g‘olib bo‘ldi.

Bu orada u nafaqat mo‘g‘ullar, balki uning ortib borayotgan kuch-qudratiga hasad bilan qaragan Bag‘dod xalifasi va Ko‘niya sultoni Alovuddin Kaykubod kabi shaxslarga qarshi kurashishiga ham to‘g‘ri keldi. Shuningdek, vazirlari, sarkardalarining xiyonati va ukasi G‘iyosiddin Pirshohning isyonlari ham sultonning ozodlik uchun kurashiga ma’lum moneliklar ko‘rsatdi.

Urganchdagi qaltis vaziyat tufayli shaharni tashlab chiqqan Jaloliddin 300 kishisi bilan 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson yerlaridagi Niso qo‘rg‘oni (hozirgi Turkmanistonda) atrofiga yetib keldi. Chingizxon Xorazmshoh o‘g‘illarining Xorazmga qaytganlaridan xabar topgach, ularning Xurosonga chekinishi mumkinligi nuqtayi nazaridan Xurosonning har yeriga pistirmalar qo‘ydi.

Jaloliddin Niso yaqinida o‘zining 300 ta askari bilan mo‘g‘ullarning 700 kishilik pistirmadagi otryadini tor-mor etdi. Ushbu g‘alaba mo‘g‘ullarning afsonaviy qudrati, yengilmasligi haqidagi mish-mishlarga chek qo‘ydi. Jaloliddinning obro‘si ko‘tarilib, xalqda g‘alabaga ishonch mustahkamlandi. Bu voqealar 1221-yilning boshida sodir bo‘lgan edi.

Manbalarda

U bug‘doyrang, o‘rta bo‘yli, turkiy qiyofali va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so‘zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o‘tishning o‘zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo‘r sher edi, qo‘rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botiri edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo‘yardi, kam gapirardi. U haqgo‘ylikni, adolatni ulug‘lardi, ammo yashagan davridagi g‘alayonlar, alg‘ov-dalg‘ovlar fe’l-atvorini o‘zgartirdi. U qo‘l ostidagi odamlarning og‘ir hayotini yengillashtirishni xohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi… Bachkana ta’riflarni yoqtirmagan, faqat “sulton” deya murojaat qilishlarini so‘ragan.

Shihobiddin Nasaviyning
“Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni”
asaridan

Jaloliddin Manguberdi el-yurt istiqloli uchun kurashgan, shu yo‘lda aziz jonini qurbon qilgan ajdodlarimizning buyuk namoyandasidir. Ona yurtga muhabbat va sadoqat, or-nomus va shon-sharaf bobida Jaloliddin Manguberdiga teng keladigan ulug‘ shaxslar dunyoda kamdan kam uchraydi.

Shavkat Mirziyoyev

Movarounnahrning asosiy shaharlari egallangach, mo‘g‘ullarning bosqinchilik yurishi Amudaryo janubidagi yirik savdo va madaniyat markazlari: Balx, Hirot, Marv va G‘azna kabi shaharlarga yo‘naltirildi. Ammo bu viloyatlarda ular Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchradi.

Jaloliddin Valiyon qal’asini qamal qilayotgan mo‘g‘ul qo‘shinlariga hujum qilib, ularni tor-mor etdi. Bu uning dushman ustidan qozongan dastlabki yirik g‘alabasi edi.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shixi Xutuxu no‘yonni 45 minglik qo‘shin bilan jo‘natdi. G‘azna yaqinidagi Parvon dashtidagi jangda Jaloliddin g‘alaba qozondi. Biroq g‘alabadan keyin qo‘lga kiritilgan o‘ljalarni taqsimlashda lashkarboshilari o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik boshlandi. Oqibatda lashkarboshilardan Sayfuddin Ag‘roq, A’zam Malik va Muzaffar Maliklar qo‘shindan ajrab ketdilar. Jaloliddinning ularni qaytarish yo‘lidagi urinishlari naf bermadi. Bu voqeadan so‘ng sultonning harbiy salohiyati zaiflashib qoldi. Fursatdan foydalangan Chingizxon G‘aznaga askar tortdi va ajralib chiqqanlarni alohida-alohida tor-mor etdi. Jaloliddin tengsiz janglar olib borib, Sind (Hind) daryosi qirg‘oqlariga yaqinlashib bordi. Daryo bo‘yida 1221-yilning 25-noyabrida ikki o‘rtada qattiq jang bo‘ldi. Jaloliddin Chingizxon qo‘shinining ilg‘orini yengdi. Mo‘g‘ullarning pistirmalarga qo‘yilgan 10 ming nafar saralangan askari jangni yakunladi.



Sind daryosi bo‘yidagi jang

Jaloliddin taslim bo‘lishni xohlamay, otda Sind daryosiga sakrab, narigi qirg‘oqqa suzib o‘tadi. U bilan birga uning to‘rt ming kishilik askari ham daryodan o‘tib oladi. Hozirgi paytda ham bu daryoning bir tomoni “Ot sakrash”, narigi tomoni “Cho‘li Jaloliy” deb ataladi.

Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon o‘z o‘g‘illariga qarata: “Otaning faqat shunday o‘g‘li bo‘lishi lozim. U olovli jang maydonidan o‘zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg‘og‘iga chiqdimi, undan hali ulug‘ ishlar, tashvishlar va qiyomatli isyonlar keladi!” deydi va uning orqasidan ta’qib etishni taqiqlaydi.

Sind daryosi bo‘yidagi jangdan so‘ng Chingizxon uch oy davomida Jaloliddin qo‘shinidan ajrab ketgan sarkardalar qal’alarini qo‘lga olib, ularni yo‘q qilish bilan band bo‘ladi.

Jaloliddinni Chingizxon changaliga tushirgan ham, undan qutqargan ham ot edi

(Qo‘shimcha o‘qish uchun)

1221-yil bahor-yoz oylarida Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi ayovsiz kurashga bel bog‘lab, ularga bir necha marta qaqshatqich zarba berganidan keyin G‘azna yaqinida, Kobul daryosi bo‘yidagi Parvon dashtida Chingizxonning mohir sarkardalaridan biri – Shixi Xutuxu no‘yon boshchiligidagi 45 minglik mo‘g‘ul qo‘shinlari ustidan g‘alabaga erishdi. Jang natijasida qo‘lga kiritilgan katta miqdordagi o‘lja taqsimlanishi jarayonida Jaloliddin lashkarboshilari – qang‘li-qipchoqlardan (Turkon xotun ham shu urug‘dan) Amin Malik turkmanlar yo‘lboshchisi Sayfiddin Ig‘roq bilan bir qimmatbaho arabi ot ustida talashib qolishdi (o‘ljalar orasida eng noyob ulush ot hisoblangan. Otlar zotiga va chiroyiga qarab bir necha ming tilloga baholangan).

Tortishish paytida qizishib ketgan Amin Malik Sayfiddin Ig‘roqning boshiga qamchi bilan urdi. Jaloliddin esa Amin Malikni bu ishi uchun jazolamadi (Amin Malik Jaloliddinning qaynotasi edi, balki Amin Malikning jazolanmaganiga shu ham sabab bo‘ligandir, ehtimol). Bu nomusga chiday olmagan va qattiq ranjigan Sayfiddin Ig‘roq o‘z yaqinlari bo‘lgan lashkarboshilar – A’zam Malik va Muzaffar Maliklarni olib, Jaloliddin qo‘shinini tark etdi. Buning natijasida Xorazmshoh qo‘shini yarmiga qisqardi. Xufiyalari orqali Jaloliddinning ichki muammolaridan boxabar bo‘lgan Chingizxon sulton qo‘shinlarini qayta birlashishi yoki ularning qochishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun bir haftalik yo‘lni ikki kunda bosib o‘tadigan darajada tezlik bilan ta’qib qila boshladi. Vaziyatni to‘g‘ri baholagan Jaloliddin esa zudlik bilan Hindistonga o‘tib ketish va u yerdan o‘zini tiklagan holda Chingizxonga qarshi hujumni tashkil



etish uchun Sind (Hind) daryosi tomon oshiqdi.

1221-yilning 24-noyabrida Jaloliddin Sind daryosiga yaqin kelganida Chingizxon unga yetib oldi va o‘rtada, ta’bir joiz bo‘lsa, XIII asrning eng mashhur jangi ro‘y berdi. Jangda xorazmshohlar qo‘shinining markaziga rahbarlik qilgan Jaloliddin qo‘shini o‘zidan bir necha barobar ko‘p bo‘lgan mo‘g‘ullar qismini yanchib tashladi. Lekin Chingizxonning pistirmada turgan 10 ming zaxira qo‘shini jangga kirishi bilan jang tashabbusi mo‘g‘ullar tomoniga o‘tdi (Chingizxonning zaxira qo‘shini “keshik” deb nomlanib, ular tajribali qo‘mondonlardan tuzilgan. Chingizxon juda zarur hollardagina ularni jangga tashlagan). Qurshab olingan Jaloliddin yarim kun mobaynida mo‘g‘ullar bilan olishdi. Uning 2 ta oti ishdan chiqqach, rikobdorlar (hukmdor otini yetaklab yuruvchi, hukmdor uzangisi sohibi) zaxiradagi otni keltirishdi. Ushbu otga o‘tirgan Jaloliddin o‘rab oluvchilarning nisbatan zaif ko‘ringan daryo tomoniga ot solib, u yerni yorib chiqdi, ahli haramini ham Chingizxon qo‘liga tushmasligi uchun daryoga yo‘naltiradi. O‘zi esa sadoqatli oti bilan birgalikda 18–20 metrli jarlikdan daryoga sakradi. Chingizxon esa uning jasoratidan lol bo‘lib, Jaloliddinning ortidan kamondan o‘q uzmoqchi bo‘lganlarni to‘xtatadi. Shu vaqtga qadar Chingizxon bunday raqibga duch kelmagan edi.

Xullas, o‘ljalar orasidagi bir qimmatbaho ot sarkardalar o‘rtasida ziddiyat chiqarib, umumdavlat, umumxalq taqdiri hal bo‘ladigan pallada Jaloliddinning imkoniyatlarini kamaytirib, kuchini zaiflashtirdi. Kuchlarning teng emasligi Jaloliddinning Chingizxon qurshovida ma’lum muddat qolishiga sabab bo‘ldi. Ikkinchi ot esa uni dushman qo‘lidan qutqarib, daryoning narigi sohiliga olib o‘tdi. Manbalarning guvohlik berishicha, shu vaqtdan boshlab Jaloliddin mazkur otni e’zozlab, minmasdan yana 5 yil, ya’ni 1226-yil o‘z ajali bilan o‘lguniga qadar o‘zi bilan olib yurdi (Hozirgi Gruziya poytaxti Tbilisining egallanishi jarayonida ot o‘lgan edi). Shuning uchun ham qadimgi va o‘rta asr buyuk sarkardalarining yarim bahodirligini ularning otlari bilan bog‘lash joizdir.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Parvon jangining natijasi qanday ahamiyatga ega edi?
2. Parvon dashtidagi jangning Movarounnahr va Xuroson xalqi uchun qanday ahamiyati bo‘lgan? Fikringizni asoslang.
3. Parvon jangidan Chingizxon qanday xulosa qilgan deb o‘ylaysiz? Chingizxonning keyingi harakatlari qanday bo‘lishi mumkin?



JALOLIDDIN MANGUBERDI XORAZMSHOHLAR DAVLATINI TIKLASH YO‘LIDA

BUGUN DARSDA

- Dehli sultoni bilan munosabat.
- Chingizxonga qarshi ittifoq tuzish yo‘lida.
- Zamonasining haqiqiy bahodiri, o‘z tengqurlarining sarvari.
- Jaloliddin Manguberdi halokati.
- Jaloliddin Manguberdi nomining tiklanishi.

O‘ylab ko‘ring

1. Sind bo‘yidagi jangdan so‘ng sulton Jaloliddin qo‘shini dushmanga qarshi jang qilishi mumkinmidi? Nima uchun?
2. Hindistonning Shatra hududidagi mahalliy hind rojasi ustidan g‘alaba qozonganidan so‘ng Jaloliddinning qo‘shini bir necha mingga ko‘payganining boisi nimada? Askarlarning jangovarlik ruhini qanday voqealar ko‘targan deb o‘ylaysiz?
3. Siz yana qanday tadbirlar o‘tkazgan bo‘lardingiz? Nima uchun?

Dehli sultoni bilan munosabat

Jaloliddin Sind darayosidan kechib o‘tganidan so‘ng qolgan jangchilarini to‘plab, Shimoliy Hindiston hududidagi bir qancha davlatlar hukmdorlari bilan aloqa o‘rnatishga harakat qildi. Biroq Shatra viloyatining hukmdori Jaloliddin Manguberdining og‘ir ahvolidan foydalanib, unga hujum qildi. Bu jang da g‘alabaga erishgan Jaloliddin Manguberdiga Shatra hukmdorining mingta otliq va besh mingta yaxshi qurollangan jangchilari taslim bo‘ldi va uning tomoniga o‘tdi. Bu muvaffaqiyatdan so‘ng tevarak-atrofdagi yangi kuchlar Jaloliddinga kelib qo‘shildilar.

Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmish Xorazmshohga bunday mazmunda maktub yo‘lladi: “Sening ortingda islomning dushmani turgani sir emas. Sen butun musulmonlarning sultonisan. Men bunday paytda senga qarshi bo‘lishni istamayman. Taqdir qo‘lida senga qarshi qurol bo‘lishni xohlamayman. Men kabi odam seningdek insonga qarshi qilich ko‘tarishi kechirilmas holdir!”

Shu tariqa, Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonda davlat barpo qildi. Sulton o‘z ahvolini yaxshilab oldi, unga tobe hind mulklarida uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qildi. Sulton o‘z nomidan kumush va mis tangalar zarb ettirib, soliqlar joriy qildi. Lekin Hindistonning katta-kichik hukmdorlari Xorazmshohning kuchayib ketishidan xavfsirardi. Ular o‘zaro til biriktirib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi ittifoq tuzmoqchi ekanliklari ayon bo‘lib qoldi. Jaloliddin Manguberdining ikki lashkarboshisi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq xiyonat qilib, Eltutmish tomoniga o‘tdi. Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonda uch yil hukmronlik qildi.

Manbalarda

Jaloliddin davrida bir qancha fitnalar, g‘am-qayg‘u, mashaqqat-u anduhlarga, vazirlarning tarqalib ketishiga va mehnatkash ommaning atroflarda boshpana izlab yurishlariga barham berildi. Ular birlashtirildi va mustahkamlandi”.

Shihobiddin Nasaviy

Ismoiliylar – VIII asr o‘rtalarida Arab xalifaligida shialik yo‘nalishida shakllanib, X–XI asrlarda Yaqin va O‘rta Sharqda keng tarqalgan diniy oqim tarafdorlari. Keyinchalik bu oqim tarafdorlari Eron va Iroqda hukmronlik qilgan.



Chingizxonga qarshi ittifoq tuzish yo‘lida

Jaloliddin Manguberdi Hindistonda muqim o‘rnashish, ittifoqchilar topish mushkul ekanini anglab, 1224-yili noiblarini tayinlab, o‘zi Iroqqa yo‘l oldi. U o‘z qo‘shini bilan dastlab Kirmon, keyin Sheroz va Isfahonga borib, mahalliy hukmdorlar bilan kelishib, biroz mustahkam kuchga ega bo‘ldi. Ammo bu yerlar ukasi G‘iyosiddinga tegishli bo‘lgani uchun u akasining kelishidan norozi edi. Jaloliddinning kelishi mahalliy aholi tomonidan yaxshi kutib olingan, chunki G‘iyosiddin davrida o‘zboshimchalik va zo‘ravonlik avjiga chiqqan edi. Shunday qilib, Kirmon, Fors, Isfahon Xorazmshohga tobeligini izhor etib, umumiy dushman – mo‘g‘ullarga qarshi kurash istagini bildirdi. Jaloliddin bu yerlarda birlashgan davlat tuzishga kirishdi. Sulton Jaloliddin, bir tomondan, qudratli davlat tiklanayotganidan, ikkinchi tomondan, Tabariston, Damashq, Misr hukmdorlari u bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatganidan mamnun edi. Endilikda ular bilan ittifoq tuzib, katta qo‘shin jamlab, Chingizxonga qarshi yurish qilish mumkin edi. Jaloliddin bu yurishga umumrahbar bo‘lishni o‘ylab, Bag‘dod xalifasi Nosirga maktub yo‘lladi. U xalifani umumiy dushman – mo‘g‘ullarga qarshi kurashga undadi. Ammo o‘sha davrdagi Bag‘dod xalifasi avvalgidek qudratga ega bo‘lmay, xudbin va kaltafahm hukmdor edi. Xalifa Islom olamiga ofat yog‘dirayotgan mo‘g‘ullardan emas, balki Xorazmshohning kuchayib borishidan xavfsirardi.

Bag‘dod xalifasi tobora kuchayib borayotgan sulton Jaloliddin Manguberdi qudratini zaiflashtirish, uning ittifoqchilari o‘rtasiga raxna solish siyosatini tutdi. Xalifa Nosir bu yo‘lda qurolli kurashdan ham qaytmadi. Uning Jaloliddin Manguberdiga qarshi yuborgan 20 minglik qo‘shini Basra yaqinidagi jangda tor-mor keltirildi.

Bu g‘alabadan so‘ng Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjon tomon yurish qildi. Ozarbayjon hukmdori O‘zbek ichkilik, maishatga berilib, davlat ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘ygan edi, davlatni amalda uning xotini Malika xotun boshqarardi.

Bundan tashqari, hukmdor aholini Gurjiston qo‘shinining talonchilik yurishlaridan himoya qilolmayotgan edi. 1225-yil mayda Jaloliddin Manguberdi Marog‘a shahrini jangsiz qo‘lga kiritdi. Tabriz va G‘azna ham Xorazmshohga taslim bo‘ldi. Ozarbayjon aholisi Xorazmshoh



qiyofasida o‘zini gurjilar zo‘ravonligidan ozod etuvchi xaloskorni ko‘rdi. Gurjilar ko‘pdan beri Ozarbayjonni talar, ularga qarshi turadigan kuch topilmas edi. Endi Ozarbayjon xalqi Jaloliddin siymosida qudratli kuchga ega bo‘lgan edi. Jaloliddin Xorazmshoh Ozarbayjon harbiy yurishlar uchun qulay yerda joylashgani uchun bu o‘lkani o‘z davlatining markazi sifatida tanlaydi. Tabriz shahrini yangi barpo etgan davlatining poytaxtiga aylantirdi.

Zamonasining haqiqiy bahodiri, o‘z tengqurlarining sarvari

1226-yilda Ozarbayjon, Shirvon (Armaniston) va Gurjiston Xorazmshoh qo‘liga o‘tdi. 1227-yil sentyabrda Isfahon yaqinida Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarning Taynol no‘yon boshliq qo‘shinini yengdi. Taynol no‘yon Jaloliddin Manguberdining jangdagi mardligiga qoyil qolib: “Zamonasining haqiqiy bahodiri, o‘z tengqurlarining sarvari ekan”, degan edi.

Jaloliddin Manguberdining Ko‘niya, Jazira, Damashq va Misr hukmdorlariga nomalar yozib, ularni mo‘g‘ullarga qarshi kurashish yo‘lida birlashtirish xatti-harakatlari behuda ketdi. Sultonning o‘sib borayotgan mavqeyi Bag‘dod xalifasini, Misr, Damashq va Jazira hukmdorini tashvishga sola boshladi. Ichki fitnalar va xiyonatlar boshlandi.

Ustiga ustak Ko‘niya sultoni Alouddin Qayqubod muxolif kuchlarni Jaloliddin Manguberdiga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Jaloliddinning ukasi G‘iyosiddin Pirshoh birinchi bo‘lib xiyonat yo‘liga o‘tdi.

U o‘z lashkarlari bilan akasi qarorgohini tark etdi. G‘iyosiddin akasiga hasadi qo‘zg‘ab, o‘zi mustaqil davlat barpo etish va Jaloliddin kabi shuhrat qozonishni istadi.

U Kirmon hokimi tomonidan qo‘lga olinib, qatl etildi. Mo‘g‘ullar ushbu voqeadan so‘ng Jaloliddin davlati ular o‘ylagandek kuchli emasligini anglab, u bilan sulh tuzish fikridan qaytishdi. Ozarbayjon va Gurjiston sari talonchilik yurishlarini boshlab yuborishdi. Jaloliddinning bosh vaziri Sharofulmulk sultonga fitna uyushtira boshladi. Uning Jazira va Ko‘niya hukmdorlariga Jaloliddindan hokimiyatni tortib olishda madad so‘rab yozgan maktubi Jaloliddinning qo‘liga tushgach, u hibsga olinib, qatl etildi. 1230-yil avgustda Ko‘niya, Jazira, Damashq va Misrning birlashgan qo‘shini Jaloliddin Manguberdi kuchlarini Arzinjon yaqinidagi jangda mag‘lubiyatga uchratdi. Jaloliddin Manuberdining kuchsizlanganidan foydalangan mo‘g‘ullar katta qo‘shin bilan 1231-yilda Ozarbayjonga bostirib kirib, Jaloliddin Manguberdini ta’qib etadi.

Mo‘g‘ullar uning qarorgohiga uyushtirgan tungi hujum natijasida oz sonli qo‘shinini tormor keltirdi, Jaloliddin Manguberdining o‘zi esa ta’qibdan qutulib, Kurdiston tog‘lariga chiqib ketdi. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo‘liga asir tushib, fojiali halok bo‘ldi. Atigi o‘ttiz uch yil umr ko‘rgan, ammo nomi ellarda mashhur bo‘lgan, Chingizxonni lol qoldirgan, o‘z yurtini beadad sevgan oxirgi xorazmshoh Sulton Jaloliddin Manguberdi yorug‘ dunyodan shu tariqa ko‘z yumdi.

Uning nomi asrlar davomida avlodlar uchun jasorat va mardlik, vatanparvarlik ramzi bo‘lib keldi. Sulton Jaloliddinning hayotlik davrida mo‘g‘ullar O‘rta Sharqni bosib ololmadilar. Bu voqea ancha keyin – 1256-yili ro‘y berdi. Jaloliddin Manguberdi o‘n bir yil davomida mo‘g‘ullarni nafaqat O‘rta Sharqqa, balki Sharqiy Yevropaga ham qo‘ymadi.

Jaloliddin Manguberdiga sovchi qo‘ygan malika

(qo‘shimcha o‘qish uchun)



Sulton Jaloliddin Manguberdi 1225-yili bir paytlar xorazmshohlar mulki bo‘lgan Shimoliy Eron va Ozarbayjon hududlarini egallash maqsadida shu o‘lkalarga yurish boshladi. Ozarbayjon va Arronning so‘nggi otabegi (hukmdori) O‘zbek mamlakat boshqaruvini o‘z holiga tashlab qo‘ygandi. Davlatni uning xotini – shijoatli va tadbirkor malika Tabriz shahridan turib boshqarayotgan edi.

Jaloliddin Tabrizga qarshi yurish boshladi, qal’a har tomondan o‘rab olindi. Malika hukmdor qal’a burjlarini mustahkamlash, oziq-ovqat zaxiralarini qamal holatiga tayyorlash kabi choralarni ko‘rdi.

Tabriz qamalining yettinchi kuni malika shaharning kattalari va amirlarini chaqirib, ularga: “Shahar oldida kuchli podshoh bor. Otabek unga qarshi tura olmay, qochib ketdi. Agar u bilan kelishib, shaharni unga topshirmasak, shaharni zo‘rlik bilan egallaydi va xalqqa zulm o‘tkazadi. Agar ma’qul deb hisoblasangiz, qozi boshchiligidagi obro‘li odamlarni uning oldiga yuborib, otabek harami va yaqinlariga tegmaslik sharti bilan shaharni uning ixtiyotiga topshiraylik”, dedi. Yig‘ilganlar malikaning fikrini ma’qulladi.

Malika bir guruh elchilarni Sulton Jaloliddin qarorgohiga yubordi. Malika o‘zini tashlab qochib ketgan otabek O‘zbek bilan orasidagi munosabatlar uzilgani va undan ajraganini ko‘rsatuvchi Bag‘dod va Shom imomlaridan olgan fatvolarini ilova qilib noma ham yozdi.

Elchilar Sultonga malika o‘zi, odamlari, mol-mulki uchun omonlik so‘raganini, Xoy shahri (Janubiy Ozarbayjondagi o‘rta asr shahri) o‘ziga berilishi sharti bilan Tabrizni Jaloliddinga berajagini bildirdi.

Shu tariqa, muzokaralar natijasida Tabriz sulton Jaloliddin tomonidan egallandi. Sultonning mulozimlari malikani yaqinlari, kanizaklari, mol-mulki bilan Xoy shahriga ko‘chirdi. Jaloliddin esa Tabrizga kirib, bu yerda o‘z boshqaruvini o‘rnatdi.

Sulton Tabrizdaligi paytida uning huzuriga Xoy shahrida turgan malika nomidan bir guruh ayollardan iborat elchilar keldi. Ular malikaning Jaloliddinga turmushga chiqish niyati borligini va eri – otabek O‘zbek bilan ajrashganini bildirdi. Tabrizga yaqin bo‘lgan hududlar, xususan, Varzukon qozisi malikaning nikohi bekor bo‘lganini tasdiqladi.

Jaloliddin Ozarbayjon malikasini o‘z nikohiga oldi. U malikaga to‘y sovg‘asi sifatida Xoydan tashqari yana ikki shahar – Solmas va Urmiyani (bu hududlar ham Janubiy Ozarbayjonda bo‘lgan) atrof qishloqlari bilan birga mulk qilib berdi.

Jaloliddin Manguberdi halokati

Jaloliddin Manguberdi 1231-yil bahorida Ganjaga kelib, barcha gina-kuduratlarini unutib, yana mo‘g‘ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlarga murojaat etdi. Jaloliddin Ganjada turib birlashish haqida qo‘shni o‘lkalar hokimlariga yuborilgan maktublarga javob kutdi. Ammo unga hech qayerdan javob xati kelmadi. Jaloliddin Kichik Osiyo tomon yo‘l olish va u yerda kuch to‘plash niyatida edi.

1231-yilning avgust boshida Amid (Diyorbakr) yo‘li yaqinida unga to‘satdan mo‘g‘ullar hujum qilib qoldi. Uni 15 chog‘li mo‘g‘ul navkarlari ta’qib etdi. Jaloliddin o‘z sheriklaridan ajrab, Mayafariqin (hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinidagi Ayndor qishlog‘iga keldi. Ushbu tog‘ qishlog‘ida u kurdlar qo‘liga tushdi. O‘zini sulton deb tanishtirganidan so‘ng kurdlar uni o‘ldirishga jazm etmadi.

Jaloliddinni tegishli joyga yetkazib qo‘yish evaziga kurdlarga mukofot va’da qilindi. Lekin kurdlar rahbari xonadonidan joy olgan, horib-tolgan Jaloliddinni boshqa bir kurd o‘lgan inisi xuni evaziga o‘ldirdi. Bu voqea taxminan 1231-yilning avgust oyida ro‘y berdi. Jaloliddin Manguberdining murdasi Mayafariqinda dafn etildi, mo‘g‘ullar kirib kelgudek bo‘lsa, xorlamasin degan maqsadda qabri yer bilan tekislab yuborildi.

Jaloliddinning ashaddiy dushmani Damashq hokimi Malik Ashrafga sulton halokati xususida xabar yetkazib, suyunchi so‘raganlarida, u qayg‘uga botib: “Sizlar uning o‘limi bilan meni qutlamoqchimisizlar? Endi siz voqeaning achchig‘ini tatib ko‘rasiz. Alloh nomi bilan qasam ichamanki, uning halokati islom olamiga mo‘g‘ullarning bostirib kirishini anglatadi. Endilikda biz bilan mo‘g‘ullar o‘rtasida devor bo‘lib turgan Xorazmshohdek odam yo‘qdir”, deb javob bergan edi.

Ibn Vosil esa uni “mo‘g‘ullar va musulmonlar orasidagi istehkom” deb ta’riflagandi. Jaloliddinning o‘limidan so‘ng uning shonli nomi tez orada xalqlar tilida doston bo‘lib ketdi. “Jaloliddin tirik”, “Jaloliddin qaytib kelayapti” degan ovozalar uzoq vaqtgacha mo‘g‘ullarni tahlikaga solib kelgan.

Jaloliddin Manguberdining o‘limini o‘sha davr muarrixlari tili bilan “Yo‘lbars (Chingizxon nazarda tutilgan) changalidan omon chiqqan arslon chiyabo‘ri qo‘lida jon berdi”, deya ta’riflash mumkin.

Uning o‘limini ko‘pchilik mutaxassislar Arab xalifaligi tugatilishini tezlatgan omil sifatida baholashadi. Ya’ni mo‘g‘ullar va xalifalik o‘rtasida o‘ziga xos muhtasham devor 1231-yili quladi, oradan 27 yil o‘tib, 1258-yili xalifalik poytaxti Bag‘dod mo‘g‘ullar tomonidan egallandi, xalifalik esa tugatildi.



Manbalarda

Men sulton mamlakatidagi qaysi uyda bo‘lmay, qaysi joyda yashamay, hamma yoqda xalq sultonning hayot ekani, qo‘shin yig‘ayotgani, totorlar ustiga yurish boshlashga tayyorlanayotgani haqida gapirayotganini eshitdim. Bu gaplar yolg‘on, u haqdagi umidlar sarob edi. Bular sultonga bo‘lgan muhabbat, e’tiqod, sadoqat tufayli tug‘ilgandi. Men bu gaplarni Mayafariqinga yetib kelgunga qadar eshitgandim. Bu yerga kelgach, sultonning o‘lganiga ishondim. Xorazmliklar xotirjam bo‘lgan payt totorlar (mo‘g‘ullar) Jaloliddinga qishloqda hujum qilishadi. Uning asir qilib olingan safdoshlari totorlarga qutilib qolganlar orasida sulton ham borligi haqida ma’lumot berishadi. Totorlar uning ketidan ta’qib etish uchun o‘n beshta otliqni yuboradi. Bulardan ikkitasi uning ortidan quvib yetadi. Lekin sulton ularni o‘ldiradi, boshqalari uni tutishdan umidini uzib, orqaga qaytishadi. Shundan so‘ng sulton tog‘ga ko‘tariladi. Tor yo‘llarda esa kurdlar talonchilik maqsadida pistirmalar qurgan edi. Ular sultonni tutib olishadi va xuddi boshqalarni talagani kabi uning ham bor-yo‘g‘ini tortib olishadi. Ular Jaloliddinni o‘ldirmoqchi bo‘lganda, u yo‘lto‘sar bosqinchilarning boshlig‘iga maxfiy ravishda bunday deydi: “Men haqiqatan ham sultonman, taqdirimni hal qilishga shoshma, sen uchun bir qancha imkoniyatlar bor: xohlasang, meni Malik Muzaffar (Jaloliddinning noibi, Mayafariqin viloyati hokimi) huzuriga olib bor, u seni taqdirlaydi, xohlasang, men bilan qo‘l ostimdagi mamlakatlardan biriga yur, eng badavlat odamlardan biriga aylanasan”.

Bosqinchilar yo‘lboshchisi uni sulton mamlakatlaridan biriga olib borishga ko‘nadi. Chunki Jaloliddinni uning noibi bo‘lgan Malik Muzaffar huzuriga olib borish qaroqchi uchun xavfli bo‘lib, sultonni o‘ziga qarashli biror viloyatga olib borib, evaziga mukofot olish ma’qulroq edi. Shuning uchun u sultonni urug‘-aymoqlari yashaydigan chodirga olib boradi va uni xotini yonida qoldiradi (so‘z Mayafariqin yaqinidagi Ayndor qishlog‘i haqida bormoqda. Ayndor hozirgi Turkiya Respublikasining Ozarbayjon chegarasiga yaqin hududida joylashgan. Sulton Jaloliddin shu qishloqda, 1231-yil avgust oyining o‘rtalarida o‘ldirilgan). O‘zi esa tog‘ga ot olib kelish uchun ketadi.

Oradan biroz fursat o‘tib, chodirga qo‘lida nayza bilan bir kurd kirib keladi. Niyati buzuq, g‘alamis bu odam ayoldan: “Bu xorazmlik kim? Nega uni o‘ldirishmadi?” deb so‘raydi. Ayol: “Uning kimligini aytishmadi, ammo erim uni sulton deb rahm-shafqat qildi”, deydi. Shunda kurd: “Sizlar uning sultonligiga ishondingizmi? U sulton emas. Hilotda mening bundan yuz chandon yaxshi bo‘lgan ukam o‘lib ketdi. Bu nima bo‘libdi”, deydi va nayzani unga shunday sanchadiki, boshqa nayza sanchishga zarurat qolmaydi.

Shihobiddin Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni” asaridan



Jaloliddin Manguberdi nomining tiklanishi

Jaloliddinning ozodlik va mustaqillik uchun kurashlari tarixi asrlar davomida sharq xalqlari tillarida doston bo‘ldi. Eron, Turkiya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarda uning jasoratli hayot yo‘lini aks ettirgan asarlar nashr etilgani hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropada ham tarixiy adabiyotlar chop etilgani buning dalilidir. 1941-yili, Ikkinchi jahon urushi davrida Jaloliddin Manguberdining ozodlik yo‘lidagi kurashi madh etila boshlandi. Mustaqillik yillarida, 1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. Vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o‘rnatildi. 2000-yili “Jaloliddin Manguberdi” ordenining ta’sis etilishi esa mohir sarkarda faoliyatining yana bir e’tirofi bo‘ldi.

2022-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Urganch shahri markazida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasi ochildi. Prezident buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, uni xalq, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish zarurligini ta’kidladi. Shunday izlanishlar tufayli Turkiyaning Silvan shahrida uning taxminiy qabri topilgan.

2022-yili Urganchda Mudofaa vazirligi tashabbusi asosida o‘sib kelayotgan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni harbiylik sohasi bilan yaqindan tanishtirish hamda yurt himoyachisi degan sharafli kasb egasi bo‘lishi uchun ma’nan va jismonan tayyorlash maqsadida “Jaloliddin Manguberdi maktabi” qurilishiga ramziy tamal toshi qo‘yildi.

2022-yil 29-avgust kuni Xorazm viloyatining Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.





Manbalarda

Chaqmoqdek qisqa umri mobaynida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak harbiy salohiyatni namoyon etib yashagan Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi. Ishonaman, oradan yillar, asrlar o‘tadi, sulton Jaloliddin hamisha yurtimizni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylash, unga farzandlik mehri, iymon-e’tiqod bilan xizmat qilishning o‘chmas timsoli bo‘lib qoladi.

Shavkat Mirziyoev



Tarix saboqlari



Jaloliddin jangovar yurishlarida ishlatgan harbiy hiylalaridan yana biri yengil qurollangan, tez harakat qiluvchi otliq qismlarni, bo‘linmalarni tashkil etish bilan bog‘liq. Ma’lumki, jang-u jadallarda otliq qo‘shinlar og‘ir qurollar bilan qurollangan va turli xil vositalar bilan himoyalangan holda qatnashgan.

Bu ularning tez va yengil harakat qilishiga imkon bermagan. Shu sababli sarkarda yengil qurollangan, tez harakat qiluvchi otliq qo‘shinlarni tashkil etgan. Ular dushmanlar qarshisida kutilmagan holda paydo bo‘lib qolishi, ularni esankiratib qo‘yishi, jiddiy zarba berishi bilan g‘alabaga hissa qo‘shgan.

Sulton Jaloliddinning harbiy taktikasida eng ko‘p qo‘llangan jang usullaridan biri dushman qo‘shini markaziga hujum qilib, uni parokanda qilish, uning o‘rtasiga yorib kirib, qirib tashlashdan iborat bo‘lgan.

Chunki markazning halokati qo‘shinning mag‘lubiyatiga olib kelgan. Shuning uchun Jaloliddin o‘z qo‘shinining markaziga mard, dovyurak, dushman qo‘shini markaziga yorib kira oladigan askarlarni to‘plagan.

Uning o‘zi hamisha qo‘shin markaziga boshchilik qilgan. Har bir jangda boshqalarga mardlik, qahramonlik borasida o‘rnak ko‘rsatgan. Jaloliddinning oz sonli lashkar bilan dushmanning ko‘p sonli qo‘shini ustidan doimo g‘alaba qilishi sirlaridan biri ham ana shunda bo‘lgan.

Xorazmshohlar davlati Jaloliddin Manguberdi timsolida Yevropa va uning taraqqiyotini mo‘g‘ullar bosqini tufayli yuz beradigan tanazzuldan o‘z joni va qoni evaziga asrab qoldi!.

Sergey Tolstov



Chingizxon va mo‘g‘ul qo‘shinidan qochib, daryodan o‘tayotgan Jaloliddin Xorazmshoh.

“Jaloliddin Manguberdi” ordeni – O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlaridan biri, mamlakatning oliy harbiy mukofoti. Bu orden bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog‘ini himoya qilishda hamda uni ko‘z qorachig‘iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shgan qo‘mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar.

Orden 2000-yil 30-avgustda ta’sis etilgan. U 925 probali kumushdan tayyorlanadi, qirrador kumushrang nurlar taralgan beshburchak shaklga ega.

Ordenning markazida, oq aylana bilan hoshiyalangan doirada taralayotgan nurlar fonida Jaloliddin Manguberdining qabariq zarhal tasviri joylashgan. Orden ko‘krakning o‘ng tomoniga, Amir Temur ordenidan keyin taqiladi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz



“Jaloliddin Manguberdi” ordeni

1. Jaloliddin Manguberdi Chingizxonga qarshi ittifoq tuzish va kurashni qaysi hududlarda davom ettirdi? Xaritadan ko‘rsatib bering.
2. Bag‘dod xalifasining Jaloliddin Manguberdi haqidagi xavotirlari to‘g‘ri va asosli edi deb o‘ylaysizmi? Bu qarorning oqibati xalifalik uchun qanday yakunlandi?
3. Milliy davlatchiligimiz tarixida Jaloliddin Manguberdi shaxsining ahamiyati qanday?
4. Mustaqilligimizdan so‘ng to bugungi kunga qadar Jaloliddin Manguberdining xotirasiga atab amalga oshirilgan ishlar haqida infografika tayyorlang. Qo‘shimcha ma’lumotlardan ham foydalaning.


CHIG‘ATOY
ULUSI

CHIG‘ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI

BUGUN DARSDA

- Chingizxon istilosining oqibatlari.
- Chingizxon davlatining uluslarga bo‘linishi.
- Chig‘atoyxon.
- Yalavochlar xonadoni faoliyati.
- Hokimiyat uchun kurash.
- Kebekxon va Alouddin Tarmashirin siyosiy faoliyati
- Kebekxonning pul islohotlarni
- Chig‘atoy ulusida siyosiy tarqoqlikning boshlanishi



Tarix saboqlari

CHIG‘ATOY ULUSI

Poytaxti: Olmaliq (hozirgi Xitoy hududida joylashgan tarixiy shahar) [1224–1266], Qarshi [1318–1326]

Til(lar)i: mo‘g‘ul tili (dastlab), chig‘atoy tili, fors tili

Dini: Islom, shomonlik, tangrichilik

Pul birligi: tangalar (kepaki, dirham),

Maydoni: 3 500 000 km^2 (1310)

Boshqaruv shakli: monarxiya

Sulola: chingiziylar

Qonun chiqaruvchi hokimiyati: qurultoy

Hukmdorlar unvoni: xon

Chingizxon istilosining oqibatlari

Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Turonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong‘i ketgan qadimiy va obod Samarqand, Buxoro, Urganch (Gurganj), Xo‘jand, Marv, Termiz, Niso, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobaga aylantirildi. Marvdagi shaharni suv bilan ta’minlovchi Sultonband, Balxob daryosidagi Bandi amir, Samarqand shahrini suv bilan ta’minlaydigan yagona to‘g‘on (Qo‘rg‘oshin nova)ning hammasi Chingizxon buyrug‘iga ko‘ra buzib tashlandi.

Balx va uning atroflari olti oy mobaynida suv ofatini boshdan kechirdi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko‘pchiligi, Urganch (Gurganj) va Marv kabi ulkan shaharlar aholisi ona shaharlarini yo tark etdilar, yoki qirib tashlandilar. Istilochilar ilk bora yuqori madaniyatli aholining ilm-fan, me’morchilik sohalaridagi yutuqlarini, yuksak darajadagi hunarmandchilik, tijorat, sug‘orma dehqonchilikni shu o‘lkaga kelib ko‘rdilar.

O‘ylab ko‘ring

1. Chingizxon bosqinidan so‘ng mamlakat iqtisodi qaysi tomonga o‘zgardi?
2. Zargarlik, qurol-aslaha yasash, nafis matolar to‘qish, naqshinkor nimchalar ishlab chiqarish va boshqa sohalarning rivojlanishi qanday bo‘ldi deb o‘ylaysiz?
3. Ming yildan ziyod tarixga ega bo‘lgan shaharlarning taqdirini ko‘z oldingizga keltiring va kichik hikoya tuzing. Bunda ilm-fan masalalariga ham e’tibor qarating. Eng ko‘p ziyon ko‘rgan ijtimoiy sohalarni alohida qayd eting.
4. Eng ko‘p talafot ko‘rgan shaharlarni ayting.

Tarixiy atamalarni eslab qoling

Ulus (“davlat”, “xalq”) – Chingizxon tuzgan ilk mo‘g‘ul davlatining nomi. Keyinchalik Chingizxon bosib olingan hududlardan farzandlariga bo‘lib bergan mulklar (masalan, Jo‘chi ulusi, Chig‘atoy ulusi va boshqalar) “ulus” deb yuritiladigan bo‘ldi.

XIII asrning 2-yarmida bu uluslar mustaqil davlatlarga aylanib, nomigagina saltanat hukmdori – ulug‘ qoonga bo‘ysunganlar. “Ulus” atamasi mulk ma’nosida qo‘llanmay qo‘ygan va asta-sekin “xalq” ma’nosini anglata boshlagan.



Tarix saboqlari

Chingizxon davlatining uluslarga bo‘linishi

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o‘z o‘g‘illariga mulklarini ulus qilib bo‘lib berishni boshlagan edi. 1207-yildayoq katta o‘g‘il qo‘l ostiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo‘lgan yerlar mulk qilib berilgan edi. Chingizxon o‘limidan oldin (1225-yil avgust) esa boshqa o‘g‘illariga ham turli zabt etilgan yerlarni ulus etib bo‘lib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo‘lgan yerlar Jo‘chiga, Oltoy tog‘larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo‘lgan yerlar, ya’ni Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Movarounnahr, hozirgi Afg‘onistonning katta qismi ikkinchi o‘g‘il Chig‘atoyga, Xitoy va Mo‘g‘uliston voris bo‘lmish uchinchi o‘g‘il O‘qtoyga, Eron va Xuroson Tuluga ulus tarzida bo‘lib berildi.

Chingizxon o‘limi oldidan o‘z valiahdi etib oliy hukmdor sifatida uchinchi o‘g‘li O‘qtoyni belgilagan. Unga “xoqon” unvoni berilgan bo‘lib, ulus hukmdorlari “xon” unvoni bilan o‘z mulkini boshqarar edi.

Chingizxon avlodlarida Mo‘g‘uliston taxtiga o‘tirgan oliy hukmdor “xoqon”, uluslarda hukmronlik qilgan xonzodalar esa “xon” unvoni bilan yuritilgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Chig‘atoy ulusiga kirgan hududlar bugun qaysi mamlakatlarga to‘g‘ri kelishini yozing.
2. O‘zbekistonning qaysi hududlari Chig‘atoy ulusi tarkubiga kirgan? Qaysi hududlar Oltin O‘rda tarkibiga kirgan?
3. Berilgan matndan foydalanib “Chig‘atoy ulusi” infografikasini tayyorlang.
4. Bu davrda “xon” unvoni kimlarga berilgan? Nima uchun?
5. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarini o‘qing va mavzu yuzasidan olgan ma’lumotlaringizni to‘ldiring.



Tarix saboqlari

Chig‘atoyxon

Chig‘atoyxon Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li bo‘lib, u o‘z ulusi hayotini yaxshilash uchun sharqiy o‘lkalarni Ili vodiysi bilan bog‘lovchi ulkan yo‘l qurdirdi.

Chig‘atoy Olmaliq yaqinida Qutlug‘ qishlog‘iga asos soldi. Bu qishloq uning yozgi qarorgohi, Ili vodiysidagi qarorgoh esa qishki qarorgohi bo‘ldi. Ili viloyati Chig‘atoyning o‘limidan keyin ham ulus hokimiyatining markazi bo‘lib qoldi.

“Yasoq” qoidalarini yaxshi bilgan Chig‘atoyni zamondoshlari “Yasoq qo‘riqchisi” (yasovul) sifatida ta’riflab, qonunbuzarliklarga qat’iy qarshi turgani haqida yozadi. Shuning uchun ham un-



ing obro‘-e’tibori ulug‘ xoqon O‘qtoynikidan ham balandroq edi. Mo‘g‘ul qonunlari va musulmon odatlari ko‘pincha bir-biriga zid kelgani sababli Yasoqqa qat’iy amal qilgan Chig‘atoy islom dini ahkomlariga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lmagan.

Otasining o‘limidan so‘ng Chig‘atoyxon boshqa hududlarga bosqinchilik qilmadi. Chig‘atoy o‘z vorisi sifatida sulola vakillari roziligi bilan to‘ng‘ich o‘g‘lining farzandi, bosh nabirasi bo‘lgan Qora-Hulaguni tayinladi. Lekin 1246-yilgi qurultoyda O‘qtoyning to‘ng‘ich o‘g‘li Guyuk “ulug‘ xon” deb e’lon qilindi. Guyukxon taxtga kelgach, Chig‘atoy ulusida uning buyrug‘i bilan Qora-Hulagu taxtdan ag‘darildi va Chig‘atoyning buyuk xon bilan mustahkam do‘stlik aloqalariga ega bo‘lgan o‘g‘li Yasu Munke ulus taxtiga o‘tirdi. Garchi taxt tepasida Yasu Munke turgan bo‘lsa-da, uning xotini Tukashi barcha ulus ishlarini boshqargan. Chig‘atoy ulusi xonligining haqiqiy asoschisi Chig‘atoyning nabirasi Olg‘uxon bo‘ldi. Olg‘uxon Mo‘g‘uliston va Xitoy o‘lkasidagi chingiziy xonlar Xubilayxon va Oriqbuqa o‘rtasidagi o‘zaro urushlardan foydalanib Xorazmning bir qismi, Turkiston va Afg‘onistonni qo‘lga kiritib, o‘zini mustaqil deb e’lon qildi va xonlikning ilk tamal toshini qo‘ydi.



Chig‘atoy haykali



Manbalarda

Chig‘atoy o‘ziga tegishli ulus boshqaruvini avval Mahmud Yalavochga, 1238-yili Mahmud Yalavoch O‘qtoy tomonidan Pekin gubernatori (1254-yilgacha) etib tayinlangach, uning o‘g‘li Mas’udbekka (1238–1289) topshirgan. O‘zi umrining oxirigacha O‘qtoy qoon saroyida hukmdorning maslahatchisi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Uning ulusi “Chig‘atoy ulusi”, Movarounnahr aholisi so‘zlashadigan til esa “chig‘atoy tili” deb nom olgan.



Tarix saboqlari

Yalavochlar xonadoni faoliyati

Mahmud Yalavoch va uning avlodlari Movarounnahr va Sharqiy Turkiston hududidagi Chig‘atoy ulusi boshqaruvida katta nufuz va o‘ringa ega bo‘lgan. Mahmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo‘lib, manbalarga ko‘ra, u butun Movarounnahrdan olinadigan soliqni oldindan to‘lay oladigan darajada boy bo‘lgan.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish, o‘lkada mo‘g‘ullarga qarshi g‘alayon bo‘lishining oldini olish mas’uliyati yuklangan edi. Dabdabali ziyofatlar va qimmatbaho sovg‘alar bilan o‘z saxovatini namoyish qilgan Mahmud tez orada O‘qtoyning e’tiborini qozongan va bundan foydalanib uning Movarounnahrdagi siyosatida bir qator yengilliklarga erishgan.

Mahmud Yalavochning harakatlari sabab tinch aholi harbiy yig‘imlarni to‘lashdan ozod qilindi va oldindan miqdori belgilanmagan “qobchir” solig‘i (chorva solig‘i) qat’iy kumush solig‘iga almashtirildi. 1238-yili Buxoroda ko‘tarilgan Mahmud Torobiy qo‘zg‘olonidan keyin Chig‘atoy mahalliy noiblarga ham choralar ko‘rdi.

Qo‘zg‘olonni bostirishda sustkashlik qilgan deb hisoblab, Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibligidan chetlashtirib, uni ulus hududidan chiqartirib yubordi. Mahmud Yalavoch ulug‘ xoqon O‘qtoy buyrug‘i bilan Shimoliy Xitoyga noib va yarg‘uchi (nozir) etib yuboriladi (keyin esa Pekin shahriga). Buning sabablaridan biri shunda ediki, 1240-yilda O‘qtoy Shimoliy Xitoydan yuqori daromad olish imkoniyatiga qiziqib qolgan edi. Shu sababli ham yaxshigina moliyaviy bilimlarga ega bo‘lgan Mahmud Yalavoch u yerga yuboriladi.

Otasidan so‘ng Movarounnahr noibi sifatida Mahmud Yalavochning o‘g‘li Mas’udbek tayinlandi. U o‘limiga qadar (1289) shu lavozimni egallab turdi. Mas’udbek Movarounnahrda katta tiklanish ishlarini olib bordi. Buxoroda ulkan Mas’udiya madrasasini bino qildi. Bu bilim dargohda o‘z davrida 1000 ga yaqin talaba ilm olgan. Movarounnahrda asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, shahar hayoti, xususan, hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshladi. Shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa, tovar va pul munosabatlarining tiklanishida Ma’sudbek 1271-yili amalga oshirgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U Movarounnahrning 16 ta shahar va viloyatida bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, ularni muomalaga chiqardi. Mas’udbekdan so‘ng sulolaning boshqa bir qator vakillari ham Chig‘atoy ulusi hukmdorlari xizmatida bo‘ldi. Ammo keyingi sulola vakillari avvalgidek katta siyosiy nufuz va kuchga ega bo‘lmadi.

O‘ylab ko‘ring

1. Mahmud Yalavoch kim edi? U nima sababli Chingizxon xizmatiga kirdi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, Mahmud Yalavochning xizmatlarini Chingizxon qanday baholagan?
3. Chingizxon Xorazmshohga xoinlik qilganlarning aksariyatini jazoladi. Nima uchun Mahmud Yalovochni jazolanmadi, aksincha, uni o‘z himoyasiga oldi?
4. Mahmud Yalavoch to‘g‘ridan to‘g‘ri kimga bo‘ysungan?
5. Mo‘g‘ullar bosqiniga qadar Movarounnahr va Sharqiy Turkiston hududida davlat boshqaruvi shakli va shahar hayoti qanday edi?
6. Chingizxon nima uchun Mahmud Yalavochni Movarounnahr, Turkiston va Uyg‘uristonning birinchi hokimi etib tayinlaydi? Bunga qanday omillar sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?



Tarix saboqlari

Hokimiyat uchun kurash

Olg‘uxonning vafotidan so‘ng Xubilayxon boy hudud sanalgan Movarounnahr ustidan siyosiy nazorat o‘rnatishga harakat qildi va o‘ziga xayrixoh bo‘lgan xonzodalar Muborakshoh va Baroqxonni Chig‘atoy ulusiga yuboradi. U Ohangaronda Chig‘atoy ulusining xoni deb e’lon qilindi. Xubilayxon yuborgan yorliqqa ko‘ra, Baroqxon Muborakshohdan so‘ng Chig‘atoy ulusi taxtiga o‘tirishi mumkin edi.

Mo‘g‘ullarning urf-odatlari hamda Chingizxon “yaso”si ko‘chmanchilik an’analarini targ‘ib qilar, bu hol mo‘g‘ullarning shaharlarda yashashiga to‘sqinlik qilardi. O‘qtoy Hirot shahrini qayta qurishga farmon berganida Chig‘atoy unga: “Bu ishing otamizning nizomiga, tutgan yo‘liga zid!” deb qattiq qarshilik ko‘rsatdi.

Muborakshohxon Toshkent vohasidagi Ohangaronda islom dinini qabul qilganini e’lon qildi. Bundan esa ba’zi mo‘g‘ul amaldorlari norozi bo‘lib, Baroqxon atrofida birlashdi. Oqibatda Chig‘atoy ulusida fuqarolar urushi yuzaga keldi. Muborakshoh va unga qarshi turgan Baroqxon qo‘shinlari Xo‘jandda to‘qnash keldi, jang natijasida Muborakshohxon taxtdan ag‘darildi. Baroqxon Chig‘atoy ulusi taxtiga o‘tirdi va ko‘p o‘tmay Movarounnahrni to‘liqligicha o‘z tasarrufiga kiritib, davlatni mo‘g‘ul ulug‘ xonlari ta’siridan to‘liq ajratib oldi.

Xubilayxonning Baroqxonni Mo‘g‘ulistonga bo‘ysundirish uchun yuborgan qo‘shinlari Sharqiy Turkistondan quvib chiqarildi. Baroqxon ham Olg‘uxon kabi Chig‘atoy ulusida mustaqillik o‘rnatdi. Baroqxon yetti yil Chig‘atoy ulusini boshqardi. Uning vafotidan so‘ng yana taxt uchun kurashlar boshlanib, xalqning tinka-madorini quritdi. Bu kurashlarda O‘qtoy xoqonning nabirasi Qayduxonning qo‘li baland kelgan.

“Dorug‘achi” – mo‘g‘ul tilida biror hudud noibi, turkiyda “bosqoq” deb yuritilgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringiz asosida javob bering.
   Xubilayxon Qoraqurumga oziq-ovqat yuborishni cheklab qo‘yishi qanday oqibatlarga olib keldi?
2. Nima uchun Qoraqurumdagi chingiziylar Sharqiy Turkiston va Movarounnahrdagi Chig‘atoy ulusini iqtisodiy tayanch sifatida o‘z ta’siriga olish uchun kurash boshladi?



Tarix saboqlari

Kebekxon va Alouddin Tarmashirin siyosiy faoliyati

Taxt uchun kurashlarda Chig‘atoy ulusining eng mashhur hukmdori Kebekxon g‘alaba qozondi.

1309-yili Kebekxonning tashabbusi bilan o‘tkazilgan qurultoyda taxtga akasi Esan Buqa chiqarildi. Garchi Esan Buqa xon deb e’lon qilingan bo‘lsa ham, mamlakatda Kebekxon katta nufuzga ega bo‘lib oldi. Esan Buqa davrida Chig‘atoy ulusi sharqda Yuan imperiyasi (Xitoy) bilan, g‘arbda esa Elxoniylar (Eron xulagulari) bilan tinimsiz kurashlar olib bordi.

Esan Buqaning vafotidan so‘ng taxtga Kebekxon (1318–1326) o‘tirdi. Kebekxon hukmronligi mamlakat tarixidagi muhim burilish davri sifatida tarixda qoldi. Kebekxon qo‘shni mo‘g‘ul mamlakatlari bilan kelishuv siyosatini yuritadi. Shu bilan birga, mamlakatning ichki muhitini ham yaxshilash uchun ma’lum harakatlar olib bordi.

Kebekxon chig‘atoy xonlari orasida birinchi bo‘lib o‘z qarorgohini Movarounnahrga, Qahqadaryo vohasiga ko‘chirdi. Bu vohani tanlashiga bir necha omillar sabab bo‘lgan: Qahqadaryo vohasi Esan Buqa davrida Kebekxonga mulk sifatida berilgan edi. Kebekxon mo‘g‘ullarning o‘troq Movarounnahr aholisi bilan yaqinlashuvini istagan.

Ov-shikorni doimiy mashg‘ulotga aylantir-

“Saroy” so‘zi qadimgi turkiy tilda “xarsh” yoki “qarsh” deb nomlangan. Keyinchalik, bu saroy atrofida Nasaf bilan birlashib ketgan butun shahar Qarshi nomi bilan tanilgan.



gan ko‘chmanchi mo‘g‘ul xonlari uchun atrofi dasht va to‘qaylardan iborat Qarshi shahri ov qilishga qulay edi. Qashqadaryo vohasidagi qadimiy Nasaf shahri yaqinida Kebekxon o‘zi uchun saroy qurdirdi. Kebekxon mamlakatni Qarshidan turib idora etgan.

Kebekxon davlatni 10 minglik harbiy birlik yig‘iladigan maxsus hududlarga ajratdi. Bu ma’muriy-harbiy birliklar Movarounnahr va unga tutash o‘lkalarda “tuman”, Koshg‘ar va Sharqiy Turkistonda “o‘rchin” deb nomlandi. Samarqand viloyati 7 ta, Farg‘ona vodiysi 9 ta tumanga bo‘lingan.

Ammo ma’muriy islohot mahalliy hokimliklar va bekliklarga barham bermadi, balki ularga moslashdi. Ilgarigi mahalliy hokimlar tumanlarning noibiga aylantirildi. Avvalgi mahalliy hukmdorlar – maliklar va sadrlarning o‘rinlarini turk-mo‘g‘ul urug‘i boshliqlari egalladi. Kebekxon davrida turk-mo‘g‘ul ko‘chmanchi zodagonlari, shuningdek, mahalliy malik va sadrlarning avtonom huquqlari bekor qilindi. Shunga qaramay, bu islohot ulusning ma’muriy-siyosiy boshqaruviga katta o‘zgarishlar kiritdi. Markaziy Osiyo shaharlari, ularning ichki va tashqi savdodagi faolligi uchun yanada qulay sharoit yaratildi.

Chig‘atoy ulusi qo‘shni davlatlar bilan yagona pul tizimining yo‘qligidan katta zarar ko‘rardi. Bu holat Kebekxonni ma’muriy va pul islohotlarini amalga oshirishga majbur qildi.

Chig‘atoy ulusi taxtiga o‘tirgan Tarmashirinxon davrida Chig‘atoy ulusining g‘arbiy qismi to‘la o‘troqlashadi. Tarmashirinxon islom an’analariga to‘la amal qilib, mahalliy islom dini ulamolari bilan keng ko‘lamli aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Uni tarixchilar Alouddin nomi bilan ham tilga oladi. Tarmashirinxon islomni Chig‘atoy ulusining rasmiy diniga aylantirdi. Obodonchilik va qurilish ishlariga xayrixoh bo‘ldi, savdo-sotiq siyosatini uning vorislari ham davom ettirdi.

Manbalarda

Qarshi qurilgach, u yerga turli-tuman aholi joylashdi, ammo turkiy til shaharda hukmron tilga aylandi. Bu paytga kelib mo‘g‘ullarning o‘zi ham turkiy tilda gapirardi. Xususan, Kebekxonning ona tili turkiy til bo‘lganini arab sayyohi Ibn Battuta qayd etgan.



Kebekxonning pul islohotlarni

Kebekxon zarb etgan yangi tangalar xalq orasida “kepaki” nomini oladi. Bunga qadar savdo munosabatlarida mahalliy sulola hukmdorlarining pullaridan foydalanilar edi. Mazkur pul birliklari keyinchalik Oltin O‘rda davlati hududida ham ommalashgan bo‘lib, u orqali rus knyazliklariga ham muomalada bo‘lgan.

Kebekxon davrida Chingizxon bosqini davridan beri vayron bo‘lib yotgan Balx shahri qayta tiklandi. Xonning o‘zi ham o‘troq hayotga o‘tdi. Yuan imperiyasi bilan yaxshi aloqalar o‘rnatdi. Bu davrda Chig‘atoy ulusida ijtimoiy va iqtisodiy hayot tizimi tartibga solindi. Mamlakatning siyosiy tizimi ham ma’lum darajada izga tushdi. Kebek tomonidan amalga oshirilgan o‘troqlashuv siyosatini uning vorislari ham davom ettirdi.

Chig‘atoy ulusi va qo‘shni davlatlar yagona pul tizimining yo‘qligidan katta zarar ko‘rdi. Bu holat Kebekxonni ma’muriy va pul islohotlarini amalga oshirishga majbur qildi.

Kebekxonning ilk tangalari taxminan 1321-yilllarda zarb etilgan.

Yangi pul islohoti savdo-sotiq jadal rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim edi. Kebekxon Oltin O‘rda va Xulakular saltanati namunasida ikki xil tanga zarb ettirgan. Pul islohotiga ko‘ra, ilgari chiqarilgan bitta kumush tanga o‘rniga endi bir xil qiymatdagi og‘irligi 8 grammdan ortiq bo‘lgan kichik dirhamlar va yirik dinorlar zarb qilindi. Qonunga ko‘ra, 1 dinor 6 dirhamga tenq qilib belgilandi.

Rus davlatida joriy bo‘lgan “kopeyka” aynan “kepaki” pul birligi nomining buzilgan shaklidir.

Manbalarda

Shoh qasri, saroy “qarshi” deb atalgan. Hozirgi Qarshi shahrining nomi shu so‘zdan olingan. Ayrim olimlar hozirga qadar bu so‘zni mo‘g‘ulchadan o‘zlashgan deb qaraydi. “Qarshi” asli turkiy so‘z bo‘lib, mo‘g‘ulchaga keyin o‘zlashgan.

Mahmud Qoshg‘ariy



Chig‘atoy ulusida siyosiy tarqoqlikning boshlanishi

Alouddin Tarmashirinxonning islom dinini qabul qilishi uni musulmon fuqarolariga yaqinlashtirdi. U o‘z qo‘shiniga aholiga zarar yetkazmaslik, tobelarga adolatli muomalada bo‘lishni buyurdi.

Tarmashirin ko‘chmanchilik an’anasiga sodiq bo‘lgan mo‘g‘ul amirlarini dehqonchilik bilan shug‘ullanishga majbur qildi. Bu paytga kelib bir qancha Chig‘atoy amirlari Movarounnahrda yer yoki bog‘larga ega bo‘lgan bo‘lsada, ulardan istaganicha foydalanar, dehqonchilik bilan shug‘ullanishlari shart emas edi.

Bu holatlar o‘z navbatida Tarmashirinxonga nisbatan norozilikalarni yuzaga keltirdi. Natijada Chig‘atoy ulusining sharqiy qismida Tarmashirinxonga qarshi isyon ko‘tarildi va unga jiyani Buzan ibn Duva Temur boshchilik qildi. Tarmashirinxon siyosatidan norozi bo‘lgan ko‘chmanchi mo‘g‘ul zodagonlari isyon ko‘tarib, Buzanni o‘zlariga hukmdor deb e’lon qildi. Tarmashirinxon taxtga o‘tirishidan oldin G‘azna noibi sifatida faoliyat yuritgan bo‘lib, u yerda asosiy kuchlari to‘plangan edi. Shu sababli G‘aznaga yo‘l olgan Tarmashirinxon yo‘lda qo‘lga olindi va qatl etildi.

Chig‘atoy ulusi taxtiga O‘qtoy avlodidan bo‘lgan Ali Sulton o‘tirgan davrda ulusning sharqiy qismida islom asosiy din darajasiga ko‘tarildi. 1338–1339-yillarda Chig‘atoy ulusining sharqiy qismida vabo tarqaldi. Hukmdor bunga g‘ayridinlarning turmush tarzi sabab deb hisobladi va vabodan ularga qarshi kurashda qurol sifatida foydalandi. Ko‘plab buddaviylik va nasroniy dinidagi ruhoniylar quvg‘in qilindi.

Ali Sultonning vafot etishi bilan Chig‘atoy ulusida taxt uchun kurash yana avj oldi. 1342-yili Xalilxon Chig‘atoy ulusining shimoliy qismini o‘ziga bo‘ysundirdi. Xalilxon hatto Qoraqurum shahriga yurish qilib, uni talab, ortga qaytdi. Xalilxonning boshqaruv siyosatida asosan Termiz aslzodalari katta obro‘ga ega edi. Xalilxon Xuroson yurishida muvaffaqiyatsizlikka uchrab, taxtdan ag‘darildi va uning o‘rniga ukasi Qozonxon Chig‘atoy ulusi taxtiga o‘tirdi.

Termiz hukmdori Ali al-Mulk Chig‘atoy ulusi xoni Buzanga qarshi kurashda ishtirok etdi va xon urushda qatl qilindi. Shundan boshlab Termiz “Madinat ar-rijol” (Mardlar shahri) deb yuritiladi.



Tarixiy atamalarni eslab qoling

Mo‘g‘ullar kelib chiqishi aralash bo‘lgan (asl mo‘g‘ul bo‘lmagan) odamlarni “qoraunas – qorag‘unas” (aralashgan, duragay) deb atashgan. Shunday qilib, Yettisuvda yashayotgan mo‘g‘ullar Movarounnahrga ko‘chib kelganlarni “qoraunas” deb ataganlar.

Movarounnahrda yashayotgan mo‘g‘ullar esa Sharqiy Turkiston va Yettisuvda yashovchi mo‘g‘ullarni “jete” (qaroqchi, talonchi) deb atay boshlashadi.

Manbalarda

“Buzan Duva Temur o‘g‘li musulmon bo‘lib, ammo imoni sust, axloqi buzuq odam edi. Unga qasamyod qilib, Tarmashirinni ag‘darganlarining sababi shunda ediki, sulton o‘z bobosi …, musulmon mamlakatlarini xonavayron etgan … Chingizning vasiyatlarini bajarmagan. Chingiz o‘z farmoyishlaridan iborat “Yasoq” deb atalgan bir kitob tuzgan… Kimki shu kitobda bitilgan buyruqlarni bajarmasa, u ag‘darib tashlanishi shart. Chingizning vasiyatiga ko‘ra, ular yilda bir marta to‘y deb ataladigan ziyofatga yig‘ilishadi. Chingiz avlodlari – amirlar, xotunlar va yirik sarkardalar shu kuni mamlakatning to‘rt tarafidan kelib, jamuljam bo‘lishadi.

Sulton Tarmashirin ziyofat tiklashni bekor qilib, bu odatga barham bergan edi. Ular Tarmashirinning xuddi shu ishi uchun, shuningdek, to‘rt yil mobaynida Xurosonga tutash viloyatda yashab, mamlakatning Xitoyga yaqin qismiga kelmagani uchun ham darg‘azab bo‘lishgan. Mavjud urf bo‘yicha har yili shu joyga kelib, bu yerdagi qo‘shinlarning ahvolini ko‘rib qaytishi shart edi”.

Ibn Battutaning “Sayohatnoma” asaridan



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. “Naxshab”, “Navtaka”, “Nasaf” so‘zlarining “Qarshi” atamasi bilan qanday bog‘liqligi bor?
2. Qarshi shahrini geografik tavsiflang. Uning o‘ziga xosligi nimada?
3. Qarshi shahrining geografik shart-sharoiti mo‘g‘ullarning urf-odatlarini amalga oshirish uchun qanchalik mos kelgandi?
4. Alouddin Tarmashirinxonning mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilashi, mo‘g‘ul amaldorlarini o‘troq hayot tarziga moslashtirishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Javoblardan birini tanlang va fikringizni asoslang.
   a) Mo‘g‘ul amaldorlarining noroziliklariga sabab bo‘lishi mumkin.
   b) Ulus tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.
   c) Hamma birdek qabul qiladi.
   d) Noroziliklar kuchayib, isyon ko‘tarilishi mumkin.

CHIG‘ATOY ULUSINING IKKI QISMGA BO‘LINIB KETISHI VA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

BUGUN DARSDA

- Chig‘atoy ulusining ikki qismga bo‘linib ketishi.
- Chig‘atoy ulusida soliqlar va ijtimoiy hayot.
- Chig‘atoy ulusida ma’naviy turmush.

O‘ylab ko‘ring

Qozonxon suvoriylarining piyoda qolishi uning harbiy salohiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Bu vaziyatdan Qazag‘on qanday foydalanishi mumkin?



Tarix saboqlari

Chig‘atoy ulusining ikki qismga bo‘linib ketishi

XIV asrning 40-yillariga kelib katta hududni o‘z ichiga olgan Chig‘atoy ulusi o‘zaro siyosiy kurashlar natijasida ikkiga bo‘linib ketgan. Chig‘atoy ulusining sharqiy qismi – Sharqiy Turkiston va Yettisuv Mo‘g‘uliston deb yuritilgan.

Bu hududda yashaydigan aholining aksari turkiylar bo‘lsa-da, umumiy tarzda mo‘g‘ullar deb yuritilgan.

Qozonxon hokimiyatning markazlashuviga qarshilik ko‘rsatgan turk-mo‘g‘ul amirlari bilan kurashga kirishdi. Isyon boshida amir Qazag‘on turar edi. U ochiqdan ochiq xonga qarshi chiqdi va 1345-yil kuzida Amudaryo qirg‘og‘idagi Soli Saroy hududida qo‘shin to‘pladi. Xurosonda ikki qo‘shin to‘qnash keldi va jangda amir Qazag‘onning ko‘ziga o‘q tegdi. Natijada amir Qazag‘on yengilib, janubga chekindi. Qozonxon esa dushmanni ta’qib qilish o‘rniga Qarshiga qaytib keldi.

Ammo shu yili Qashqadaryo vohasida qishning qattiq kelishi natijasida Qozonxon qo‘shinidagi otlarga qirg‘in keldi. Amir Qazag‘on Qozonxonga qarshi qo‘shin tortib, ikkinchi jangda uni mag‘lub etdi.

Qozonxonning vafoti bilan Chig‘atoy xonadoni a’zolarining Movarounnahrdagi hukmronligi amalda tugaydi. Ularning qo‘lidan boshqaruvni olgan amirlar xon xonadoni vakillarini faqat Chingizxon urug‘idan bo‘lgani

sababli nomigagina taxtga o‘tqazishgan. Amir davlatning boshida turgan va u “ulus amiri” deb atalgan. Amir Qazag‘on joriy etgan Chig‘atoy xonlarini nomigagina taxtga ko‘tarish an’anasi esa shu davrdan boshlab o‘zbek davlatchiligi tarixiga “qo‘g‘irchoq xon”, “soxta xon” kabi tushunchalarni olib kirgan. Amir Qazag‘on ilk bor “soxta xon” sifatida O‘qtoy naslidan bo‘lgan Donishmandchaxonni taxtga ko‘targan.

Chingizxon tomonidan Chig‘atoy-xonga berilgan hududlar dastlab ulug‘ xoqonga bo‘ysungan bo‘lsa, keyinchalik bu ulus alohida mustaqil davlatga aylandi. Lekin mo‘g‘ullarning boshqaruv an’analarini saqlab qolishga bo‘lgan intilishi mahalliy musulmon aristokratiyasining manfaatlari bilan to‘qnashishi tabiiy edi. Natijada asta-sekin mo‘g‘ul xonlari va amirlari o‘troqlashib, islom dini va mahalliy an’analarni o‘z turmush tarzi uchun qabul qildilar.

Amir Qazag‘on o‘limidan so‘ng o‘g‘li amirzoda Abdulloh taxtni egalladi, lekin hokimiyati uzoq davom etmadi. Uning mamlakat boshqaruvidagi adolatsiz va qattiqqo‘l siyosati Movarounnahrda amirlar isyoniga sabab bo‘ldi.

Barlos urug‘idan Amir Hoji Barlos boshchiligidagi bir guruh amirlar isyon ko‘tarib, Abdullohni taxtdan ag‘darishdi. Ushbu isyon natijasida Movarounnahrda boshboshdoqliklar avj olib ketdi. Chig‘atoy ulusining g‘arbiy qismida taxt uchun kurashlar ketayotgan bir paytda, 1348-yilda Tug‘luq Temur Chig‘atoy ulusining sharqiy qismida hukmdor bo‘ldi. Buning natijasida goh bo‘linib, goh birlashtirib turilgan Chig‘atoy ulusi rasman ikkiga bo‘linib ketdi. Chig‘atoy ulusining har ikki qismida ham “xon”lar real hokimiyatga ega bo‘lmay, amirlar boshqaruviga qaram bo‘lib qolgan edi. Chig‘atoy ulusi tarkibiga Movarounnahr, Yettisuv, Koshg‘ar, Xorazmning sharqi, Xurosonning bir qismi, Uyg‘urlar mamlakati, Badaxshon, Balx va G‘aznaning Hind daryosigacha bo‘lgan hududlari kirgan.



Manbalarda

Amir Qazag‘on... Donishmandchaning shunchaki bir nishon sifatidagi nomini aytmasa, uning mulk va xazina ishlariga aralashuviga yo‘l qo‘ymadi. Fitnachi badkor odamlar uning oldida so‘zlashga og‘iz ocholmasliklari uchun ishonchli voqeanavislarni mulozim va keshiktonlar nomi bilan uning o‘rdusiga (xizmatga) tayinladi.

Alqissa, ikki yil ichida mamlakatda barqarorlik o‘rnatilib, fitnachilar dimog‘ini sharorat tark etib, yomonliklar bosilgach, amir Qazag‘on Donishmandchaga O‘qtoy qoon naslidan degan ayb qo‘yib, uni shahid qildi va Chig‘atoy naslidan bo‘lgan Bayonqulini saltanat taxtiga o‘tqazdi. Donishmandchaning ko‘rguliklari uning ham boshiga tushishini anglab, u zaruratdan zamona muhitiga moslashdi va saltanat gilamida amir Qazag‘on bilan xizmatkor kabi o‘tirdi.

Bu ikki ulug‘ zotning ittifoqi va Qazag‘onning adolati tufayli mulk-u millat ishlari shu darajada mustahkam va ustuvor bo‘ldiki, bo‘ri bilan qo‘y bir suvloqdan suv ichib, darvish kulbasi (bexatarligidan) najot uyiga aylandi. Zulm nomi va sitam nishoni hayot yuzasidan batamom yo‘qoldi. Oddiy odamlar va ulug‘lar, musofirlar va muqimlar, katta-yu kichik, barchaning dilida ro‘zg‘or tashvishidan shikoyat qolmadi va Anushervon adolati haqidagi hikoyalar xalq xotirasidan unutildi.

Uning adolat o‘lchovi shu qadar yuksakka yetdiki, biron amir yoki vazir mol-mulkdan ushr solig‘i va rasmiy qabchurdan boshqa biron rasm bilan hech bir bandadan bir dinor ham ololmasdi.

Muiniddin Natanziyning
“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asaridan

CHIG‘ATOYLAR DAVRIDAGI SIYOSIY HAYOT

1227-yildan
XIII asrning 60-yillarigacha. Chig‘atoy ulusinig xoqon nazoratida boshqarilgan davri.



1300-yil
XIV asrning boshlaridan to 40-yillargacha. Mo‘g‘ullarning o‘troqlashuvi va islom dinini qabul qilishi.





1260-yildan
XIV asrning boshlarigacha. Markaziy Osiyoda ikki hokimiyatchilik boshqaruvi. O‘qtoy va Chig‘atoy xonadoni hukmronligi.



1340- yil
XIV asrning 40-yillaridan 1370-yiligacha. Chig‘atoy ulusining ikki qismga bo‘linishi va Movarounnahrda amirlar boshqaruvi.

Manbalarda

1. Aholining o‘troqlashuvi najalari qanday ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi?
2. Pul siyosati o‘tkazilishining mustaqil iqtisodiyot bilan qanday bog‘liqligi bor?
3. Mustaqil davlat bo‘lish uchun siz bu davrda yana qanday islohotlarni amalga oshirishni tavsiya qilgan bo‘lardingiz?
4. Kebekxon Qarshi shahri bilan bog‘liq yana qanday islohotlar o‘tkazgan edi?
5. Qarshi shahri qanday vujudga kelganini ayting.
6. Pul islohotlarini o‘tkazish mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
7. Siz bu davrda yana qanday islohotlarni amalga oshirishni takif qilgan bo‘lardingiz? Nima uchun? Fikringizni davr nuqtayi nazaridan turib izohlang.
8. Chig‘atoy ulusidagi soliq tizimi kim tomonidan ishlab chiqilgan edi?



Tarix saboqlari

Chig‘atoy ulusida soliqlar va ijtimoiy hayot

Chig‘atoy xonlarining mintaqada mustaqil davlat birlashmasini tuzish uchun olib borgan o‘zaro urushlari, talon-torojlar mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu esa xalqning ko‘plab noroziliklariga sabab bo‘ldi. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida Mo‘g‘ulistonning ulug‘ xoqoni Munke soliq va hashar ishlarini tartibga solish to‘g‘risida maxsus farmon – yorliq chiqardi.

XIII asr o‘rtalarida Chig‘atoy ulusining mo‘g‘ul amaldorlari orasida o‘troqlikka ko‘chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o‘troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchaydi. Yomlar bo‘ylab pochta xizmati uchun ajratilgan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot talab qilish man etildi. Shuningdek, elchilarga, qo‘llarida bevosita topshiriqlari bo‘lmasa, shahar yoki qishloqlarga kirmasligi va aholidan ular uchun belgilanganidan ortiqcha yem-xashak hamda oziq-ovqat olmasligi uqtirildi. Shu tariqa aholi o‘zboshimchalik bilan yig‘ib olinadigan hisobsiz to‘lovlardan ozod bo‘ldi.

Mo‘g‘ullar saltanatida to‘rtta soliq turi joriy qilingan bo‘lib, hunarmand va savdogarlar “tamg‘a”, chorvachilar “qopchur” va dehqonlar “kalon” solig‘ini doimiy tarzda to‘lab borishgan. O‘troq aholidan tashqari ko‘chmanchilar mahsulot tarzida to‘laydigan soliq “shulen” deb nomlangan. Bunda har bir podadan ikki yashar qo‘y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya olingan. To‘rtinchi soliq esa bir yilda bir marta mo‘g‘ul hukmdorlarini sharaflash uchun ularga bo‘ysunuvchi xalqlardan yig‘ib olingan.

Chig‘atoy ulusidagi soliq tizimi Mahmud Yalavoch tomonidan ishlab chiqilgan. U mavjud bo‘lgan an’anaviy soliq tizimini ham saqlab qolib, bosqinchilar kiritgan yangi soliq tartibini o‘rnatgandi. Aholisining katta qismini mahsulot ishlab chiqaruvchilar tashkil qiladigan Chig‘atoy ulusida xonlar soliq yig‘imi borasida ko‘p muammolarga duch kelishgan. Bunda asosiy masala xalqning ikkiyoqlama: ham ulus

xonlari, ham ulusni boshqarayotgan mahalliy hukmdorlarga an’anaviy soliqlarni to‘lashi bilan bog‘liq edi.

Xoqon xazinasi uchun yuboriladigan soliqlar xonlar va ularning vakillari tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan yig‘ilib, markazga yuborilgan. So‘ng aholidan belgilangan miqdordan oshirilgan holda turli qarshiliklarga qaramay, zo‘ravonlik bilan undirib olingan.

Mo‘g‘ullargacha bo‘lganidek, diniy ulamolar vaqf mulklari hisobidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlagan. Aynan vaqf mulklaridan keladigan foydadan ta’minlanuvchilar safida vaqf ta’sischilaridan tashqari imom, shayx, mutavvali, muazzin, xizmatchi, oshpaz va omborchilar bo‘lgan. Shu bilan birga, Qur’on o‘qishni o‘rganuvchi bolalarga, yetimlarga ustozlik qiluvchilar ham vaqf mablag‘i hisobidan kun kechirishgan.

Chingizxon istilosi va mo‘g‘ul shahzodalari o‘rtasidagi doimiy urushlarning Turon xalqlari uchun keltirgan og‘ir oqibatlaridan biri aholi sonining keskin kamayishi va ijtimoiy muammolarning ko‘payib ketishi edi. Aholining iqtisodiy ahvoli nihoyatda og‘ir bo‘lgan sharoitida vaqf xonaqolari kambag‘allar va boshqa kishilarni ijtimoiy himoyalovchi asosiy manzil vazifasini o‘tagan. Kelgan odam doimo issiq ovqat, non, quruq va ho‘l meva bilan kutib olingan. Bu yerga qadam bosgan har qanday kishiga e’tibor qaratilgan. Har bir musofir fuqaroga kunlik oziq-ovqat miqdori belgilangan.

Ijtimoiy hayotda hunarmandlar va dehqonlar – mahsulot ishlab chiqaruvchilar ham asosiy soliq to‘lovchilar qatorida bo‘lgan.

Dehqonlar orasida mo‘g‘ullar hukmronligi yillarida ham ulargacha davrdagi singari yerga ishlov beruvchi asosiy guruhlardan biri “kadivarlar” deb nomlangan. Buxoro vaqf hujjatidagi ma’lumotga ko‘ra, kadivarlar yirik yer egalari, dindorlar va oqsuyaklarning yerlariga ishlov berishgan. Kadivarlardan tashqari yer maydonlari, bog‘larda ishlovchilar “bog‘bon” va “muzori” deb atalgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Ma’naviy turmush deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyat ma’naviyatining yuksalishi qanday omillarga bog‘liq? Fikringizni asoslang.
3. Mo‘g‘ullarning istilosi Mavarounnahrning madaniy va xo‘jalik inshootlariga qanday ta’sir ko‘rsatgan edi?

Yom – yo‘l bekati. Choparlar, yo‘lovchilar ot almashtiradigan joy. Yomda doimo otlar ulovga tayyor turgan.



Chig‘atoy ulusida ma’naviy turmush

Mo‘g‘ullar bosqini va hukmronligi Turon ilm-fani va madaniy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy edi. Bu davrda kubraviya tariqati rivojlanib, Oltin O‘rda xoni Berkaxon davrida xonlikning katta hududiga yoyildi. Munkaxonning onasi o‘zi barpo etgan “Xoniya” madrasasiga Sayfiddin Boxarziyni mudarris etib tayinlagan.

Chig‘atoy xonlarining tasavvuf vakillariga nisbatan bunday yo‘l tutishiga sabab mahalliy aholi orasida ularning mavqeyidan foydalanib o‘z siyosatlarini yuritish bo‘lgan. Chig‘atoy xonlaridan birinchi bo‘lib Muborakshoh islom dinini qabul qildi.

Tarmashirinxonning islom dinini qabul qilishi esa ulus hukmdorlarining islomlashuviga sabab bo‘ldi. Bu davrda islom dini uzil-kesil mo‘g‘ul xonlari va ularning yaqinlari e’tiqod qiluvchi dinga aylandi.

Bu davrda tasavvufning yirik namoyandalaridan biri Xoja Ali Romitaniy (XIII asr o‘rtalari) bo‘lib, u mo‘g‘ullar davrida Buxoroda naqshbandiya tariqatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan hisoblangan.

XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib O‘rta Osiyoda ilm-fan, adabiyot, ma’rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari tiklana boshlagan. Jumladan, XIII asrda O‘rta Osiyoda ta’lim-tarbiya va xalqning boy intellektual salohiyati mo‘g‘ullar istilosiga qaramasdan ma’naviy-marifiy jihatdan rivojlanishni boshladi. Ajdodlarimizning bunday ta’lim jarayonidagi mazmun, shakl, usul va vositalaridan boxabar bo‘lishi yoshlarning tarbiyasida o‘zining bebaho qiymatga egaligi bilan ajralib turgan.

Ta’lim tizimi ilgarigidek dastur va an’ana asosida yo‘lga qo‘yilgan. Boshlang‘ich ta’lim masjidlarga qarashli maktablarda olib borilgan va besh yil atrofida davom etgan. O‘g‘il bolalarga masjid imom-xatiblari, qizlarga esa otinlar dars bergan. Madrasalarga maktabni tugatgan o‘spirinlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 gacha bo‘lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan. Talabalar kunduzgi bo‘limda o‘quvchilar va darslarga erkin qatnovchi sirtqi toifalariga ajratilgan. Madrasada o‘qish talabalar iqtidoriga qarab o‘rtacha 7–12 yil davom etgan. Har bir madrasada 60–100 ga yaqin talaba bilim olgan.

O‘rta Osiyoda VIII asrdan ta’lim tili arab va fors tili bo‘lib kelgan bo‘lsa, Chig‘atoy ulusida uyg‘ur tili ham alohida nufuzga ega hisoblangan. Mo‘g‘ul qabilalarining yozuvlari mavjud emasligi sabab Chingizxon mo‘g‘ullar uchun uyg‘ur yozuvini qabul qildi. Chingizxon o‘z farzandlariga ushbu yozuvni o‘rgatishni buyurdi. Natijada xon oilasi va nufuzli sarkardalar orasidagi yozishmalar uyg‘ur tilida olib borilgan. Ko‘plab yirik mo‘g‘ul amaldorlari uyg‘urlardan bo‘lgan.

Chig‘atoy ulusida baxshi lavozimidagi uyg‘ur xattotlari faoliyat olib borgan. Ular hukmdorlarning maxsus farmonlari va zafarnomalarni yozish bilan shug‘ullangan.

Keyinchalik, Chig‘atoy ulusi hukmdorlarining islom dinini qabul qilishi natijasida uyg‘ur yozuvi o‘rnini arab yozuvi egallagan. Shunga qaramay, uyg‘ur xati temuriylar davrida ham ma’lum darajada amalda bo‘lib keldi.

Arab yozuviga nisbatan u qadar keng tarqalmagan uyg‘ur yozuvi asosan saroyning ichki yozuviga aylanib qoldi.

XIII asrda Buxoroda Xoja Bulg‘oriy madrasasi hamda Urganchda Xorazm noibi Qutlug‘ Temur tomonidan qurdirilgan ulkan madrasa faoliyat yuritgan.

Bu paytda Buxoro shahrida ikkita yirik madrasa bunyod etilgan. Bular “Xoniya” va “Mas’udiya” madrasalari bo‘lgan. Samarqand ham o‘zining madaniy-ma’rifiy va ilmiy markaz maqomini saqlab qoldi.

Samarqanddagi Tamg‘achxon madrasasida talabalarning darsni o‘zlashtirishlariga qarab oylik maosh belgilangan. Talaba qoidaga zid ishlar qilsa, axloqida nuqsonlar sezilsa, uzrli sababsiz darslarga qatnashmasa, o‘qishdan chetlatilgan.

Chingizxon istilosi natijasida ta’lim tizimi biroz muddat izdan chiqqan bo‘lsa-da, o‘lkadagi ilmiy muhit, yerlik aholining ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy merosi va qadriyatlarga sodiqligi ta’lim tizimining yana qayta oyoqqa turishiga sabab bo‘ldi.

Tarixiy atamalarni eslab qoling

Boshlang‘ich maktablar VIII–IX asrlardan boshlab “kattoblar” deb ham atalgan. Ular arabcha “kataba”, ya’ni *yozmoq* fe’lidan olingan va keyinchalik bu nom ko‘plab mamlakatlarda “maktab” so‘zi bilan almashgan.

Maktab umumiy ma’noda “yozadigan joy” mazmunini anglatgan. “Madrasa” so‘zi esa “darasa”dan olingan bo‘lib, *dars oladigan joy* mazmunini anglatgan. Maktablarning maqsadi o‘qish va yozishni o‘rgatish hamda islom dinining asoslari bilan tanishtirishdan iborat bo‘lgan.

“Baxshi” atamasining dostonlar ijrochisi ma’nosidan boshqa mazmuni ham bor. Chig‘atoy ulusi, Oltin O‘rda, keyinchalik Qozon va Qrim xonliklarida kotiblarni, Boburiylar davlatida harbiy qismlarning hisob-kitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to‘lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro xonligida ma’muriy binolar qurishda mablag‘ (sarf-xarajat) hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urug‘ oqsoqollarini ham baxshi deb atashgan.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Mo‘g‘ullar bosqinining Turon shaharlari hamda dehqonchilik vohalariga ta’siri qanday bo‘ldi? Fikringizni misollar bilan asoslang.
2. Chingizxon bosqini ilm-fan rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?
3. Xalqimizda “Oqqan daryo oqaveradi” degan maqol bor. Bu maqol bilan ilm-fan rivoji o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
4. Chingizxon bosqinidan keyin mahalliy xalqlarning madaniyatida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi? Mo‘g‘ullar hayotida-chi?
5. Mahalliy xalqlarning qaysi an’ana va qadriyatlari mo‘g‘ullar tomonidan qabul qilindi? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?



XIII ASR – XIV ASR BIRINCHI YARMIDA ILM-FAN

BUGUN DARSDA

- Adabiyot va tarixnavislik.
- Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Bahouddin Naqshband haqida.
- Xalq og‘zaki ijodi. Guldursun afsonasi.

O‘ylab ko‘ring

Adabiyot fanidan olgan bilimlaringiz asosida javob berishga harakat qiling: XIII–XIV-asrlarda ijod qilgan qaysi mutafakkirlarni bilasiz? Ularning ijodida qanday g‘oyalar yetakchilik qiladi?



Jaloliddin Rumiy maqbarasi. Turkiya



Jaloliddin Rumiy, “Masnaviyi ma’naviy”



Tarix saboqlari

Adabiyot va tarixnavislik

Chig‘atoy ulusi davrida Turonda ilm-fan qo‘shni hududlarga nisbatan biroz oqsadi. Shunga qaramay, adabiyot, tafsir, tarixnavislik va hadis ilmi ma’lum darajada rivoj topdi.

XIII asr – XIV asrning ikkinchi yarmida adabiyot yo‘nalishida ayniqsa Jaloliddin Rumiy (1207–1272), Sa’diy Sheroziy (1219–1293), Amir Xusrav Dehlaviylarning (1253–1325) o‘rni va mavqeyi ko‘tarilib, ular jahon adabiyoti olamida keng tanildilar.

Asli Balx shahridan bo‘lgan Jaloliddin Rumiy arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan yirik mutafakkir edi. Jaloliddin Rumiy xorazmshohJaloliddin Manguberdi kabi Sulton Takishning nabirasi bo‘lgan va bu ikki yirik shaxs yaqin qarindosh edi. Umrining katta qismi Rum davlatida o‘tgani uchun ham o‘ziga Rumiy nisbasini olgan. Rumiy Halab, Damashq va Bag‘dod madrasalarida o‘qidi, mudarrislik qildi hamda buyuk tasavvuf shoiri va faylasufi bo‘lib tanildi. U she’riyatda so‘fiy-falsafiy janrni rivojlantirib, 36 ming baytdan iborat “Masnaviyi ma’naviy” dostonini yaratdi. Asar Qur’oni karim va hadisi sharif ma’nolarini o‘ziga singdirgan, unda inson hayoti bilan bog‘liq barcha masalalar badiiy usulda bayon etilgan.

Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy hikoyatlaridan

Jaloliddin Rumiy yirik mutafakkir bo‘lib, ko‘plab odamlar uning oldiga maslahat va dars tinglagani kelardi. Bir kuni uning oldiga qo‘shni ayol o‘g‘li bilan kelib, shunday deydi:

– Barcha usullarni qo‘llab ko‘rdim, lekin o‘g‘lim baribir menga quloq solmayapti. U juda ko‘p shirinlik yeydi. Iltimos, bu yaxshi emasligini unga ayting. U sizning gapingizga quloq soladi, zero, sizni juda hurmat qiladi. Rumiy bolakayning ko‘zlaridagi ishonchni ko‘rib, dedi:

– Uch haftadan so‘ng keling.

Ayol taajjubda edi. “Axir bu oddiy narsa-ku! Tushunmadim... Odamlar uzoq o‘lkalardan muammolarini hal qilish uchun kelar, Rumiy esa ularga shu zahotiyoq yordam berardi...” Shunga qaramay, ayol uch haftadan so‘ng keladi. Rumiy bolakayga qarab deydi:

– Yana uch haftadan so‘ng keling.

Shunda ayolning toqati toq bo‘lib, gap nimada ekanini so‘rashga qaror qiladi. Ammo Rumiy boyagi gapini qaytaradi. Ular uchinchi marta kelishganda Rumiy bolakayga deydi:

– O‘g‘lim, maslahatimga quloq tut, ko‘p shirinlik yema, bu sog‘liq uchun zararli.

– Menga aytyapsizmi? Boshqa yemaganim bo‘lsin, – deya javob beradi bolakay. Shundan so‘ng ona o‘g‘lidan tashqarida poylab turishini so‘raydi. Bola chiqqach, ona Rumiydan nima uchun birinchi kuniyoq shu nasihatni qilmagani haqida so‘raydi.

Jaloliddin iqror bo‘lib, o‘zi ham shirinlik yeyishni yaxshi ko‘rganini, boshqalarga maslahat berishdan oldin o‘zi bu odatdan voz kechishi lozim bo‘lganini aytadi. Avvaliga buning uchun uch hafta yetarli deb hisoblaydi, ammo adashadi...

Donishmandning sifatlaridan biri shu: u boshqalarni o‘zi bosib o‘tmagan yo‘ldan yurishga undamaydi. U avvalambor o‘ziga to‘g‘ri. Uning so‘zlari haqiqat bilan uyg‘un. Bu yerda bir hikmatni eslamay iloj yo‘q: “Agar rahmdil inson yolg‘on ilmni targ‘ib etsa, u haqiqatga aylanadi. Agar ahmoq odam haqiqatni aytsa, u yolg‘onga aylanadi”.





Sa’diyning *“Guliston”*
asariga ishlangan miniatyura



Pahlavon Mahmud maqbarasi. Xiva

Sa’diy Sheroziy esa o‘zining “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari, g‘azallari, axloqiy fikrlari bilan keng shuhrat qozondi. Madrasani tugatgan Sa’diy Sharq mamlakatlari bo‘ylab 20 yillik sayohati davomida Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkiston, Hindiston kabi mamlakatlarni ba’zan ulovda, ba’zan piyoda kezib chiqqan.

XIII asr o‘rtalarida Sherozga qaytib kelgan Sa’diy dunyo tashvishlaridan o‘zini chetga olib, shahar chekkasidagi bir xonaqohda faqirona hayot kechirgan. Uning asarlarida ona-Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehr-muhabbat g‘oyalari yetakchi o‘rinda turadi. U o‘z asarlarida kishilarni o‘zaro hamjihatlik va totuvlikka, hukmdorlarni adolat va insofga chaqirib, salbiy xususiyatlarni qoralab chiqadi. Sa’diy ona shahri Sherozda vafot etgan.

Xusrav Dehlaviy Hindistonning shimoliga mo‘g‘ul bosqinidan qochib borgan asli kesh (shahrisabz)lik kishilar xonadonida dunyoga keldi. U Dehlida sulton saroyida yashab, o‘zining “Xamsa” dostonini, Hindistonda hozirgacha mashhur “Xizrxon va Duvalra”ni, “G‘oliblik kaliti”, “Falakning to‘qqiz gumbazi” kabi asarlarni yozdi.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarixnavislik ham rivoj topa boshladi. Bu davrda Abu Umar Juzjoniy, Alouddin Otamalik, Fayzulloh Rashididdin, Shihobiddin an-Nasaviylar nodir tarixiy asarlar yozdi.

Bu davrning yana bir mashhur shaxsi – faylasuf va ruboiynavis Pahlavon Mahmuddir (1247–1326). U olim, shoir, kuragi yerga tegmagan pahlavon, shu bilan birga, po‘stindo‘z va telpakdo‘z hunarmand bo‘lgan.

Adib “Haqiqatlar xazinasi” nomli masnaviy yaratgani haqida ma’lumotlar bor. Pahlavon Mahmudning ruboiylari mashhurdir. U “Puryovaliy” – *pahlavonlar boshlig‘i* nomini oladi. Xalq ichida esa behad saxovatli, bag‘rikeng, adolatli inson sifatida hurmat qozondi. U g‘oliblikdan tushgan mukofotlarni yetim-yesir, nogironlarga hadya etar, po‘stindo‘zlik hunaridan kelgan daromadini atrofidagi kambag‘allar bilan baham ko‘rar edi. U

XIV asr boshlarida o‘z hisobidan maqbara ham barpo etdi. Uning mardligi, tantiligi, haqparvarligi to‘g‘risida bizning kunlarimizga qadar turli hikoyat, rivoyatlar ham yetib kelgan. Keyingi asrlarda hatto yovmut turkmanlari bu nomni o‘zlarining harbiy hayqiriqlariga aylantirganlar.

Turkiy tilda ijod qilgan yana bir ijodkor Nosiriddin Rabg‘uziydir. U XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida yashab, ijod qilgan. Bizgacha uning birgina “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisasul anbiyo”) asari yetib kelgan. Ushbu asar islom dinini qabul qilgan mo‘g‘ul beklaridan biri Nosiriddin To‘qbug‘aning iltimosiga ko‘ra 1309-yilda yozilgan. Ushbu asar 72 qismdan iborat bo‘lib, payg‘ambarlar haqidagi qissalar, diniy rivoyat va hikoyatlar, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy asarlar, diniy kitoblar asosida bayon etilgan diniy-falsafiy, tarixiy, axloqiy asardir.

Bu paytga kelib turkiy adabiyot rivoji bilan bir qatorda tasavvuf, din ilmlarining ham rivojlanishi ko‘zga tashlandi. Tasavvuf ilmining namoyandasi, naqshbandiylik tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband (1318–1389) o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rish g‘oyasini targ‘ib qildi. Xalq orasida Xoja Bahouddin, Bahouddin Balogardon, Balogardon, Xo‘jayi Buzruk nomlari bilan ham mashhur. Xoja Bahouddin Naqshbandning asl ismi Muhammaddir. Manbalarda u kishining otasi ham, bobosi ham Muhammad ismli bo‘lgani qayd etiladi.

Yoshligida otasining yonida matolarga naqsh solish hunari bilan mashg‘ul bo‘lgani uchun Naqshband laqabini olgan. Bahouddin so‘zi “dinning nuri” degan ma’noni anglatadi.



Pahlavon Mahmudning hind polvoni bilan kurash tushishi. Noma’lum musavvir



Amir Xusrav yigitlar qurshovida. Sulton Husayn mirzoning “Majolis ul-ushshoq” asariga ishlangan miniatyura

Tarixiy atamalarni eslab qoling

Naqshband aqidasi – “Dil ba yor-u dast-ba kor”, – ya’ni “ko‘ngling doimo Allohda bo‘lsin, qo‘ling esa ishda” degan g‘oyani ilgari suradi. Bahouddin Naqshband o‘z qo‘l kuchi bilan kun ko‘rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini – yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga in’om etgan, hukmdorlardan o‘zini yiroq tutgan, ular oldida hech qachon ta’magirlik qilmagan.

Manbalarda

Guldursun afsonasi

“Guldursun afsonasi” mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi erk uchun olib borilgan kurashlar tafsiloti haqida ma’lumot beruvchi badiiyat namunasidir. 1937-yilda S.P.Tolstov Qaraqalpog‘iston hududidagi Guldursun qal’a xarobasini o‘rganarkan, bu joy nomi bilan bog‘liq afsonani mahalliy aholi vakillaridan eshitadi va yozib oladi. Afsonaning qisqacha mazmuni quyidagicha: qadimda Guliston degan obod shahar bo‘lgan ekan. Dushman bu shaharni qamal qilibdi. Donishmand keksa podsho aholini mudofaaga safarbar etibdi. Aholi shaharni mardona himoya qilibdi. Oziq-ovqat tugab, ochlik dahshati boshlanganda ham xalq qurolini tashlamabdi. Ochlik dushmanni ham mahv eta boshlabdi.

Shahar aholisi semizroq bir necha sigirga so‘nggi don-dunini yedirib, darvozadan tashqariga chiqarib yuboribdi. Ochlikdan toliqqan dushman sigirlarni so‘yib, ular dondun bilan boqilganini ko‘ribdi va “Shahar ahlining oziq-ovqati ko‘p ekan, ochlikdan halok bo‘lmay, jo‘nab qolaylik” degan qarorga kelibdi. Shunda podshoning yengiltak qizi Guldursun yurtdoshlariga xiyonat qilibdi. U qal’a ustida jangni kuzatib turganida dushman askarlarining navqiron boshlig‘ini sevib qolgan ekan.

U askarlar boshlig‘iga maktub chiqarib: “Sigir voqeasi hiyladir, shaharda oziq-ovqat tugagan, bir kun sabr qilsang, taslim bo‘lishadi”, debdi.

Aholi ochlikdan toliqibdi, ko‘p kishi o‘libdi, shahar taslim bo‘libdi. Guldursunni askarlar boshlig‘i oldiga olib kelishganda u qizning ishidan xursand bo‘lsa ham, o‘z yurtdoshlariga vafo qilmagan odamda sadoqat bo‘lmaydi degan o‘y bilan Guldursunni otning dumiga bog‘lab, sudratib o‘ldiribdi.

Shahar yer bilan yakson qilinibdi. Gulistondan asar ham qolmabdi. Shaharning xarobaga aylanishiga Vatan va xalq xoini yengiltak Guldursun sabab bo‘lgani uchun kishilar tuproq-tepani Guldursun deb atashibdi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Chingizxon bosqini ilm-fan rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?
2. Xalqimizda “Oqqan daryo oqaveradi” degan maqol bor. Bu maqol bilan ilm-fan rivoji o‘rtasida qanday bog‘liqlik ko‘rasiz?
3. Chingizxon bosqinidan keyin mahalliy xalqlarning madaniyatida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi? Mo‘g‘ullar hayotida-chi?
4. Mahalliy xalqlarning qaysi an’ana va qadriyatlari mo‘g‘ullar tomonidan qabul qilindi? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?
5. “Guldursun afsonasi” bo‘yicha xulosangizni ayting.





AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI

XIV ASRNING O‘RTALARIDA TURONDA YUZAGA KELGAN SIYOSIY VAZIYAT

BUGUN DARSDA

- Chig‘atoy ulusining mayda bekliklarga bo‘linib ketishi.
- Tug‘luq Temurning Movarounnahrga yurishi.
- Amir Temurning Kesh dorug‘asi etib tayinlanishi.
- Amir Husayn va Amir Temur munosabatlari.
- Loy jangi.
- Samarqandda sarbadorlar harakati.

O‘ylab ko‘ring

1. Nima sababdan Chig‘atoy ulusida og‘ir siyosiy va iqtisodiy ahvol yuzaga keldi? Qanday voqealar ta’sirida Chig‘atoy ulusi parokandalikka yuz tutdi?
2. Bu davrda Movarounnahr boshqaruvi kimning qo‘lida edi?



Tarix saboqlari

Chig‘atoy ulusining mayda bekliklarga bo‘linib ketishi

XIV asrning 40–50-yillariga kelib Chig‘atoy ulusi hududlarida o‘zaro parokandalik va o‘zboshimchalik hukm surar edi. XIV asrning 40-yillarida sulolalar o‘rtasidagi nizo-fitnalar, o‘zaro urushlar natijasida Chig‘atoy ulusida og‘ir siyosiy va iqtisodiy ahvol yuzaga kelgandi.

Mo‘g‘ul xoni Qozonxon hukmronligi davrida (1338–1346) mamlakatda zulm-zo‘ravonlik yanada avj oldi. Xon zulmidan bezgan ko‘plab amaldor, zodagonlar o‘z davrining qudratli amiri Qazag‘onning huzuriga Soli Saroyga qochib o‘ta boshladilar. Bu o‘rtadagi ixtiloflar va kelishmovchiliklarni tez orada hal qiluvchi to‘qnashuv bo‘lishidan darak berar edi.



Qarshi yaqinida Amir Qazag‘on va Qozonxon o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jang 1346-yil bahorida Qazag‘onning g‘alabasi bilan tugadi. Jangda Qozonxon o‘ldirildi.

Amir Qazag‘on esa turkiy-mo‘g‘ul odatiga ko‘ra, bevosita chingiziylardan bo‘lmagani uchun taxtga da’vo qila olmas edi. Shu bois u o‘ziga ma’qul kelgan, chingiziylar xonadonidan bo‘lmish Donishmandchaxonni (1346–1348), so‘ngra Bayonqulixonni (1348–1358) taxtga o‘tqazdi.

Tabiiyki, amalda butun hokimiyat amir Qazag‘on qo‘lida to‘plangan edi. 1358-yil qishida amir Qazag‘onning kuchayib borayotgan faoliyatidan norozi bo‘lmish bir guruh fitnachilar uni o‘ldirishdi. Amir Qazag‘onning o‘g‘li amir Abdulla garchi tez orada Bayonqulixonni jangda o‘ldirsa-da, hokimiyatni qo‘lda tutib turolmadi. Hisor hokimi Bayon suldus va Kesh (Shahrisabz) hokimi Hoji Barlos tomonidan taxtga chingiziylardan bo‘lmish Temurshoh o‘tqazildi.

Chig‘atoy xoni Temurshoh ikki yilga yaqin hukmronlik qildi. Natijada Chig‘atoy ulusi mayda bekliklarga bo‘linib ketdi. Mamlakatda ayirmachilik harakati kuchayib, beklar o‘zaro ichki kurashlar domiga tortildilar. Bu urushlar shundoq ham ahvoli nochor bo‘lgan aholi boshiga ko‘plab kulfatlarni yog‘dirdi. Shunday og‘ir ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tanglik hukm surayotgan bir vaqtda Tug‘luq Temurxon Movarounnahrga bostirib kirdi.

O‘ylab ko‘ring

1. Matnda “Tug‘luq Temurxon Movarounnahrga bostirib kirdi” degan jumla mavjud. Nima uchun bu yerda “bostirib kirdi” degan ibora ishlatilyapti?
2. Tug‘luq Temurxon Movarounnahrga qayerdan bostirib kirdi?
3. Nima deb o‘ylaysiz, Tug‘luq Temurxon Movarounnahrga bostirib kirishdan qanday maqsadlarni ko‘zlagan?





Tarix saboqlari

Tug‘luq Temurning Movarounnahrga yurishi

Chig‘atoy ulusining g‘arbiy bo‘lagida hokimiyat qo‘ldan ketgani sharoitida uning sharqiy bo‘lagi – tarixiy Mo‘g‘ulistondagi bir qator nufuzli mo‘g‘ul amirlari Tug‘luq Temurni xon deb e’lon qildilar. Shu tariqa, Tug‘luq Temurxon mintaqada chingiziylar hukmronligini rasman qo‘ldan bermaslik ishini pishirgach, g‘arbiy viloyatlarda ham chig‘atoylar hukmini qaytadan tiklash uchun harbiy yurish boshladi. U boshchiligida kechgan ushbu yurish munosabati bilan tarixiy manbalarda ilk bor Amir Temur nomi tilga olinadi.

Tug‘luq Temurxonning Movarounnahrga 1360-yil fevral-mart oylaridagi yurishi vaqtida Amir Temur o‘ziga yarasha siyosiy faoliyat yuritishga qodir, el-yurt oldida o‘z burchini anglab ulgurgan shaxs sifatida yetilib bo‘lgandi.

Amirlardan Xizr va Boyazid Tug‘luq Temur qarorgohiga bosh egib boradilar. Kesh hokimi Hoji Barlos esa Xuroson tomon jo‘nashga qaror qiladi. Uning xizmatida bo‘lgan qarindoshi Amir Temur ham u bilan birga yo‘lga chiqadi.

Amudaryo bo‘yiga yetganda Amir Temur Hoji Barlosga murojaat qilib, shunday degan: “Agar ikkovimiz ham vatanni tark etsak, merosiy yurtimiz shubhasiz begonalar qo‘liga o‘tib ketadi. Lozim topsangiz, men podshoh (Tug‘luq Temur) xizmatiga borsam”.

O‘ylab ko‘ring

1. Amir Temur ishlatgan “merosiy mulkimiz” iborasidan nimani tushundingiz?
2. U qaysi mulklarni nazarda tutgan deb o‘ylaysiz?



Tarix saboqlari

Temurbek Tug‘luq Temurxondan Kesh viloyati hokimligini olishni maqsad qiladi. U nufuzli amirlardan Hoji Sayfiddin yordamida Tug‘luq Temurxon qabuliga boradi.

Amir Hoji Sayfiddin Temurbekning fahm-farosati va salohiyati, o‘z zamonasi uchun qadrli bo‘lgan nasl-nasabi haqida tahsinli so‘zlarni aytib, Tug‘luq Temurxon oldida uning obro‘-e’tiborini ko‘taradi. Natijada Amir Temur Kesh viloyatiga dorug‘a (tuman hokimi) etib tayinlanadi. Bu vaqtda u 24 yoshda edi.

Amir Temur hozirgi Yakkabog‘ tumani, Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida dunyoga kelgan. Uning otasi Tarag‘ay bahodir viloyatning atoqli va o‘ziga to‘q beklaridan biri bo‘lgan. U o‘g‘li Temurga ham dunyoviy, ham diniy ilmlar olishi uchun sharoit yaratib bergan edi. Tug‘ma iste’dod va o‘tkir xotira egasi bo‘lgan Temur turli soha ilmlarini o‘zlashtirishga g‘oyatda tirishqoqlik bi-

lan harakat qilgan. Shuning uchun ham o‘sha zamon tarixchilari uning tarix, she’riyat, tibbiyot, matematika, astronomiya, me’morchilik borasidagi salohiyati haqida alohida so‘z aytib o‘tishgan. Amir Temur kitob mutolaa qilishni hech kanda etmagani, shaxmat o‘yinida katta mahoratga ega bo‘lgani yaxshi ma’lum.



Amir Temur, Temur, Temurbek – markazlashgan davlat asoschisi.
To‘liq ismi: Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul.
Sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi.
Tavalludi: 1336-yil 9-aprel.
Vafoti: 1405-yil. 18-fevral.
(68 yoshda). Farob, Temuriylar imperiyasi (hozirgi O‘tror, Qozog‘iston).
Otasi: Amir Tarag‘ay.
Onasi: Takina xonim.



Amir Temur otasi Amir Tarag‘ay bilan. Rassom Orif Mo‘minov asari

Amir Temurning Kesh dorug‘asi etib tayinlanishi

Bir qaraganda Tug‘luq Temurning bu yurishidan keyin Movarounnahrda chingiziylar xonadoni mavqeyi amalda tiklanganday bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida mahalliy yirik amirlar hanuz mustaqil siyosat yurgizishga intilardilar. Shuning uchun ham kelasi yili bahorda Tug‘luq Temurxon yana bir bor katta qo‘shin bilan Movarounnahrga bostirib keldi. Bu safar ham Amir Temur Kesh viloyati hokimligi mavqeyiga erishdi. Bunda Temurning barlos urug‘udan bo‘lishi qo‘l keldi. Chunki Chig‘atoyxon tomonidan barlos urug‘ining oqsoqoli, Temurning bobokaloni Qoracha hojibga Kesh hokimligi berilgan bo‘lib, bora-bora bu qoidaga aylangan. Keshda barloslardan bo‘lgan amirlarning hokim bo‘lishi odat bo‘lib qolgan edi.

Ammo Temurning Keshdagi dorug‘aligi uzoqqa cho‘zilmadi. Chunki Mo‘g‘ulistonga qaytish oldidan o‘g‘li Ilyosxo‘jani Movarounnahrga noib etib qoldirgan Tug‘luq Temurxon o‘zining ishonchli amirlaridan Bekchikni undan boxabar bo‘lib turishga tayinlagandi. Bekchik esa tez orada mahalliy amirlar bilan kelishmovchilikka bordi va ularga nisbatan tazyiq o‘tkazish yo‘liga o‘tib oldi.





Amir Husayn va Amir Temur munosabatlari

1360–1370-yillarda Balx va uning atrofidagi yer-mulklar Amir Qazag‘onning nevarasi Amir Husaynning tasarrufida bo‘lgan. 1360-yilda Temur Amir Husayn bilan yaqinlashib, uning singlisi O‘ljay Turkonga uylandi va buning natijasida do‘stlik qarindoshlik bilan mustahkamlandi. Ikkala hokim birlashgan holda mo‘g‘ul xonlariga qarshilik ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Ilyosxo‘jaxon va Bekchikning mahalliy hokimkarga o‘tkazgan tazyiqi ichki ziddiyatlarni kuchaytirib yubordi.

Bunday vaziyatda Amir Temur Keshda va umuman o‘lkada qololmasdi. U vatanni tark etib, keyingi to‘qqiz yil davomida Amir Husayn bilan avval yonma-yon, so‘ng qarama-qarshilikda faoliyat ko‘rsatdi.

Bu davrda Temur ma’lum qiyinchiliklarni ham boshidan kechirdi. Amir Husayn bilan birga Xiva yurishida qatnashdi, Marv yaqinida mahalliy hokimlardan Alibek Joniqurboniy qo‘lida tutqunlikda ham bo‘ldi.

Temurbekka bir umrlik tan jarohatini yetkazgan voqea 1362-yili Seyistonda ro‘y berdi. Seyiston hokimi Malik Qutbiddinning taklifiga ko‘ra, ikki do‘st uning dushmanlariga qarshi kurashish uchun yordamga yo‘l oldilar. Amir Temur jang vaqtida o‘ng qo‘lining tirsagi va o‘ng oyog‘iga kamon o‘qi tegib, qattiq jarohatlandi. Buning oqibatida u bir umr oqsoqlanib qoldi.

Amir Husayn va Temurning 1363–1364-yillarda mo‘g‘ullarga qarshi kurashi Ilyosxo‘jani Movarounnarni tark etishiga majbur qildi. Husayn ulug‘ amirlik maqomiga erishadi, xuddi bobosi davridagidek chingiziylardan bo‘lmish Kobilshohni rasman xon deb e’lon qilsa-da, butun hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Amir Temurga esa yana Kesh viloyatini boshqarish nasib etadi. Ammo tinchlik uzoqqa cho‘zilma.



Loy jangi

Ilyosxo‘jaxon Movarounnahrni qayta egallash uchun 1365-yilning bahorida yana yurish boshladi. Bir tomondan Amir Husayn va Amir Temur, ikkinchi tomondan mo‘g‘ullar o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1365-yil 22-may kuni erta tongda Chinoz va Toshkent oralig‘idagi bir maydonda, Bodom suvi arig‘i yaqinida bo‘lib o‘tdi. Tarixga bu jang “Loy jangi” nomi ostida kirdi. Jangdan oldin Amir Husayn asosiy e’tiborni qo‘shin qanotlariga qaratdi, shuningdek, kamonchilar jang taqdirini hal qilishi lozim edi. Ammo qattiq yomg‘ir natijasida yoy iplarining bo‘shab qolishi jang davomida kamonchilarning harakatiga to‘sqinlik qildi.

Manbalarda

Loy janggi – 1365-yilda bo‘lib o‘tgan Amir Husayn va Ilyosxo‘jaxon qo‘shinlari orasidagi to‘qnashuv bo‘lib, ushbu jangda Amir Temur Amir Husayn qo‘shinining chap qanotiga boshchilik qildi. Jangdan oldin Amir Husayn qo‘shini son jihatdan ustun bo‘lgan. Shu sababli Ilyosxo‘ja yordamchi kuchlarning yetib kelishiga imkon yaratish uchun jangni biroz cho‘zish va dushmanni zaiflashtirish uchun qadimgi turkiy va mo‘g‘ul rusumlari bo‘yicha “Yada”, ya’ni yomg‘ir chaqirish marosimini o‘tkazdi. Natijada jala quyib, movarounnahrlik otliqlar loy maydonda harakatlana olmay qoldi.



Tarix saboqlari

Jang boshlangach, Amir Temur qo‘mondon bo‘lgan chap qanot dushmanning o‘ng qanotini ortga surib tashlagan va Ilyosxo‘janing qismiga hujum qilgan. Bu paytda Amir Husayn turgan o‘ng qanot mo‘g‘ullar zarbasiga dosh bera olmay, chekinayotgan edi.

Vaziyatni to‘g‘ri baholagan Amir Temur Amir Husaynga ikki bor odam yuborib, dushman zaiflashgan paytda birgalikda hujum qilishga chorladi. Lekin Amir Husayn mo‘g‘ullarning ko‘p qo‘llaydigan “qochib urushish”, ya’ni yolg‘ondan chekinib, pistirmadan hujum qilib, o‘rab olish taktikasi borligidan xavfsiradi va Temurning da’vatiga quloq solmadi.

Qayta urinish behuda ekanini anglab yetgan Temur jang maydonini tark etib, qolgan-qutgan askarlari bilan Samarqand tomonga qaytib ketib, so‘ng Keshga yo‘l oldi. Beklar esa bir-biridan ajralgan holda o‘z o‘lkalariga chekindi. Temur Movarounnahrning bosh amiri Husayn ko‘rsatmasi bilan, ko‘p hollarda uning roziligi bilan ish tutishga majbur edi. Amirlar chekingach, Samarqand shahri, qolaversa, butun Movarounnahr o‘z holiga tashlab qo‘yildi.



O‘ylab ko‘ring

Amirlar chekingach, Ilyosxo‘ja navbatdagi e’tiborini qayerga qaratdi? Uning maqsadi qaysi shaharni egallash edi? Nima uchun?



Tarix saboqlari

Samarqandda sarbadorlar harakati

Ilyosxo‘ja to‘g‘ri Samarqand tomon yo‘l oldi. Mo‘g‘ul xoni changalidan qutulish samarqandliklarning o‘ziga bog‘liq bo‘lib qoldi. Bunday sharoitda Samarqand mudofaasini sarbadorlar o‘z qo‘llariga oldilar.

Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Xuroson janubi va Eronda ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo‘lib, 50–60-yillarda Movarounnahrga ham yoyildi. Xurosondagi singari Samarqandda ham hunarmandlar, do‘kondorlar, ayrim madrasa mudarrislari va talabalar mazkur harakatning faol ishtirokchilariga aylandilar.

Shahar jome masjidiga yig‘ilgan aholi oldida sarbadorlarning bo‘lajak rahbarlaridan biri madrasa mudarrisi Mavlonozoda so‘z olib, shaharning har bir a’zosidan katta miqdorda soliq va to‘lov yig‘ib, uni o‘z bilganicha sarf etib yurgan hukmdorning shaharni o‘z holiga tashlab qo‘yganini uqtirib o‘tdi.

Mudofaa rahbarligiga Mavlonozodaga mohir mergan bo‘lgan Xo‘rdak Buxoriy va hunarmandlar oqsoqoli Abu Bakr Kalaviy ham qo‘shildilar. Mudofaa tashkil etilganidan xabarsiz bo‘lgan mo‘g‘ullar shaharga kiraverishdagi bosh ko‘chadan hujum qildi.

Xavf-xatardan shubhasi bo‘lmagan bosqinchilar bosh ko‘chadan kirib, qo‘shinning ilg‘ori ko‘cha oxiriga yaqinlashganda to‘satdan mudofaachilarning kamon o‘qlariga duch keldilar. Birinchi hamladayoq shaharni egallaymiz, deb o‘ylagan mo‘g‘ullar katta talafot ko‘rib, orqaga chekinishga majbur bo‘ldi.

Samarqandliklar ishlab chiqqan harbiy reja puxta bo‘lib, o‘z samarasini berdi. Mo‘g‘ullarning bir necha hujumi samarasiz tugagach, ular shahar atrofini qurshab olib, uzoq vaqt davomida qamal qilish rejasini o‘ylab chiqdilar.

Loy jangidan keyin tarqalgan ot vabosi (o‘lati) oqibatida Ilyosxo‘ja qo‘shinlariga tegishli otlarning katta qismi qirilib ketdi. Shu tufayli ham ko‘plab mo‘g‘ul askarlari Samarqandgacha kelmasdan, atrof qishloqlarni talab, Mo‘g‘ulistonga qaytib ketdilar. Bu mag‘lubiyatdan keyin Ilyosxo‘ja katta yo‘qotishlar bilan dastlab Samarqandni, keyin esa Movarounnahrni tashlab ketishga majbur bo‘ldi.

Sarbadorlar g‘alabasidan so‘ng samarqandliklar Mavlonozoda itoatiga o‘tib, uni imom va amir sifatida qabul qildilar. Ya’ni Samarqandda diniy va siyosiy hokimiyat Mavlonozoda qo‘lida to‘plandi. Sarbadorlar g‘alabasi haqidagi xabar avval Amir Temurga va u orqali Amir Husaynga yetib borgan. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga kelishdi va Konigilda g‘alaba marosimini nishonlash uchun tadbir uyushtirildi...

O‘ylab ko‘ring

1. Nima deb o‘ylaysiz, bunday sharoitda Amir Husayn qanday rejalarni amalga oshirishi mumkin?
2. Uning sarbadorlarga nisbatan munosabati qanday bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Nima uchun?
3. Siz Amir Husaynning o‘rnida qanday yo‘l tutardingiz? Nima uchun?

Manbalarda

Sabzavor (Xuroson viloyatlaridan)ning Boshtin qishlog‘ida ikki aka-uka Hasan Hamza va Husayn Hamza yashagan. Ular qanoatli va pok vijdonli insonlar edi. Ularning uyida tunash uchun to‘xtagan beshta mo‘g‘ul elchisi ulardan may va go‘zal qizlarni talab qildi. Qarorlaridan qaytmasdan, mo‘g‘ullar ularni haqorat qildi. Mo‘g‘ullarning qistovi bilan aka-ukalardan biri ularga may topib keldi. Ular mast bo‘lishi bilanoq go‘zallarni talab qildi va hatto aka-ukalarning xotinlarini olib chiqmoqchi bo‘ldi.

Aka-ukalar bir-birlariga: “Biz bunga yo‘l qo‘ymaymiz, bunday nomusga chiday olmaymiz. Agar shunday bo‘lsa, boshlarimiz dorga osilsa osilsin” dedi. Ular qilichlarini yalang‘ochlab, beshta mo‘g‘ulning hammasini o‘ldirdi. Uydan chiqib: “Bizlar sarbadormiz (sarbador forschada “boshi dorda” degani), ya’ni, boshimiz dorga osilishiga tayyormiz!” – deb xitob qildilar.

Savzavor hokimi Boshtin qishlog‘i oqsaqolidan aka-ukalarni tutib, o‘ziga topshirishini talab qildi. Lekin Boshtin oqsaqoli Abdurazzoq aka-ukalar adolatli qaror qabul qilganini, mo‘g‘ullarga boshqa bo‘ysunmasligini aytib, Sabzavorning mo‘g‘ullarga qaram noibiga qarshi chiqdi. Natijada urush kelib chiqib, unda boshtinliklar g‘alaba qildilar hamda Sarbadorlar davlatiga asos soldilar.

Ahmad Fasih Xavofiyning
“Mujmali Fasihiy” asaridan



Tarix saboqlari

Sarbadorlar g‘alabasidan so‘ng samarqandliklar Mavlonozoda itoatiga o‘tib, uni “imom va amir (sifatida) qabul qilishgan”. Ya’ni Samarqandda ham diniy, ham siyosiy hokimiyat Mavlonozoda qo‘lida mujassamlashadi. Uning bu “imomligi va amirligi” deyarli bir yil davom etadi. Amir Husayn Samarqand yaqinida Konigilda sarbadorlarning dushman ustidan qozongan g‘alabalaridan mamnun bo‘lganliklarini va ular bilan g‘alabani nishonlamoqchi ekanliklarini bildiradi. 1366 yilning bohorida Konigilda bo‘lgan uchrasuvning birinchi kuni Xo‘rdak Buxoriy, Abu Bakr Kalaviy, Mavlonozoda sharafiga ziyofat uyushtirildi. Ikkinchi kuni esa sarbadorlarning boshliqlari – amir Husayn buyrug‘i bilan Abu Bakr Kalaviy Naddof bilan Xurdak Buxoriylar qatl qilindi.

Mavlonozodani esa Amir Temur o‘z himoyasiga olib, qutqarib qoldi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, Movarounnahrda amir Husaynning hukmronligi o‘rnatildi.

Omon qoldirilgan sarbador

Mavlonozoda “oliy tabaqa” (bu ibora aksariyat hollarda Muhammad (s.a.v) avlodlariga nisbatan ishlatilgan) vakili bo‘lgan. Jumladan, Muiniddin Natanziy Mavlonozoda “aslzoda yigit” bo‘lganini aytsa, Hozifi Abru uni “ulug‘zodalardan bo‘lgan donishmand” deya ta’riflaydi. O‘rta asrlarda musulmon jamiyatida yaratilgan tarixiy asarlarda “ulug‘zodalar” va “begunohlar” degan atamalar payg‘ambar avlodlariga nisbatan ishlatilgani hamda ular qamalda qolgan shahar ichida bo‘lsa, ziyon-zahmatsiz chiqarib yuborilgani aytiladi.

Bundan tashqari, islom dini arkonlarini chuqur o‘rgangan, Qur’oni karimni yod bilgan ulamolar ham “begunoh” sifatida bosqinchilar shafqatiga erishgan. Ularning boshida Qur’onning barcha oyatlari mujassam bo‘lgani bois boshlariga tahdid (xususan, qatl) gunohi azim deb qaralgan.

Sarbadorlar yetakchisi bo‘lgan Mavlonozoda ham bir tomondan, “ulug‘zoda” – payg‘ambar avlodi bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u mudarris bo‘lgan va diniy ilmlardan voqif, Qur’oni karimni yoddan bilgan mavlono darajasidagi shaxs edi.

Muhammad Ali

Sarbadorlar

(Romandan parcha. Qo‘shimcha o‘qish uchun)

***

– To‘xta!!! To‘xtangiz!!! – degan kuchli ovoz eshitildi. Hamma ovoz kelgan tomonga qaradi. Uch yuz qadamlar narida shahardan kimdir ot choptirib kelardi! U Temurbek edi. Shohizinda qabristoniga borib, endigina Qusam ibn Abbos maqbarasini ziyorat etib chiqqan, O‘ljoy Turkon og‘a qabriga esa hali o‘tolmagandi. Odamlarning og‘zidan: “Konigilda falokat yuz beribdi! Sarbadorlarni dorga tortishmoqda ekan!” degan so‘zlarni eshitib qoldi. Egachisi Qutlug‘ Turkon oqaga qarab:

– Yana Amir Husayn ish ko‘rgizibdur!.. O‘z bilgicha qadam bosibdi!.. – dedi-da, uzr so‘rab, shitob Konigilga ot qo‘ydi.

– Nega to‘xtading?! Os dorga, dayus?! – baqirdi Amir Husayn.

Dor tagidagi navkar kalovlanib Mavlonozodaning bo‘yniga sirtmoq sola boshladi. Odamlar dam dorga, dam ish sust ketayotganidan g‘ijingan Amir Husaynga, dam esa uzoqdan otiga qamchi bosib kelayotgan Temurbekka qarar edilar.

Rikobdor chopib borib, amirlashkarga tushishga ko‘maklashdi. Temurbek hech kim bilan salom-alik qilmay, to‘g‘ri dorga qarab yurdi. Temurbek ranglari oqarib ketgan Mavlonozodaning boshini sirtmoqdan chiqardi va pastga olib tushdi. Bu payt narigi dorda Usta Kulol bilan Kalvoyilarni osib bo‘lgan edilar.

– Bu yog‘i qandoq bo‘ldi, Husaynbek?! – so‘radi Temurbek, nihoyatda darg‘azab esa-da, bildirmaslikka tirishib. – Bu bechora sarbadorlarning gunohi ne? Bular ham xudoning bandalari-ku?..

Amir Husayn taxtda o‘ltirar ekan, Temurbekning birdan kelib qolib ishga xalal ber-

ganidan ranjiganini yashirmas, Temurbekka boqmay hadeb navkarni jerkir edi:

– Landovur! Latta! Olib borib yigirma darra uringiz! Sendaylarning orqasidan saltanat parokanda, turli yalangoyoqlar yurtni egallashga urinmoqda!..

– Husaynbek!!! – Temurbekning kuchli ovozi hammani o‘ziga qaratdi. O‘ljoy Turkon og‘aning to‘satdan vafot etishi orasi asli yaxshi bo‘lmagan ikki amirning o‘zaro munosabatlarini ortiq taranglashtirib yubordi. Sarbadorlar voqeasi bunga qo‘shimcha bo‘ldi, o‘rtalaridagi sirkani tag‘in achitdi...

– Husaynbek! Sizdan so‘rayotirmen: sarbadorlarning gunohi ne? – Temurbek taxt oldiga yaqinlashdi. – Bu qanday musulmonchilik axir?

– Ah-ha!.. Temurbek!.. Mana endi kimligingiz ayon bo‘ldi! – dedi kutilmaganda Amir Husayn. – Siz hamisha mening tutumlarimga qarshilik etib keldingiz! Bilaman, men sizga yoqmaymen!.. Ha!..

– Gapni opqochmang, Husaynbek! – Ensasi qotdi Temurbekning. – Gap sarbadorlar ustida ketmoqda, siz haqingizda emas!..

– O‘zingiz opqochmoqchisiz gapni, Temurbek! To‘rtta-beshta yalangoyoqni deb oramizga sovuqchiliq tushib turibdi...

Bo‘layotgan gaplardan amirlarning har biri o‘z holicha ish tutishlari ko‘rinib turardi. ...

– Men so‘zimning egasimen, Husaynbek! – dedi Temurbek vazminlik bilan. – O‘n so‘zni so‘zlasang, birini aytg‘il, to‘qqizini tiyg‘il, deydilar. Bas, to‘qqizini tiyib, birini aytg‘oymen, o‘shal so‘zimda turg‘oymen...



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Amir Temurning Sarbadorlar harakatigacha bo‘lgan davrini ketma-ketlikda infografikaga tushiring.
2. Amir Temur nima uchun Tug‘luq Temur xizmatiga borishga majbur bo‘ldi?
3. “Omon qoldirilgan sarbador” matnini o‘qing. Matndan kelib chiqib javob bering. Nima deb o‘ylaysiz, Amir Temur nima uchun Mavlonozoda hayotini saqlab qolgan?
4. Amir Husaynning sarbadorlarga qilgan munosabati Amir Temur bilan aloqasi keskinlashuviga sabab bo‘lishi mumkinmi? Nima uchun?
5. Nima deb o‘ylaysiz, Amir Temurning keyingi harakatlari qanday bo‘lishi mumkin?
6. Berilgan diagramma orqali amirlarning manfaatlari va ularning kesishuvini aniqlang.



AMIR TEMUR – MOVAROUNNAHR HUKMDORI



BUGUN DARSDA

- Movarounnahrda Amir Husayn hukmronligi.
- Amir Temurning Movarounnahr amiri deb e’lon qilinishi.
- Amir Temurning dastlabki islohotlari.

O‘ylab ko‘ring

1. Sarbadorlar voqeasidan keyin Samarqand xalqining Amir Husayn va Amir Temurga nisbatan munosabati qanday bo‘lgan? Nima uchun?
2. Amir Husaynning sarbadorlar masalasini keskin hal qilgani, mamlakat taqdirini yolg‘iz o‘zi hal qilishga intilishi Amir Temurga qanday ta’sir qiladi?



Tarix saboqlari

Movarounnahrda Amir Husayn hukmronligi

Konigil voqeasidan so‘ng Movarounnahrda Amir Husayn hukmronligi o‘rnatilsa-da, Samarqand xalqi orasida unga ishonch kamaygan, Amir Temurning esa nufuzi ortgan edi. Bu esa Amir Husaynni tashvishga solardi va u Temurni o‘ziga asosiy raqobatchi sifatida ko‘ra boshlagan edi.

Amir Husayn mamlakat amiri darajasiga erishgach, harbiylar va davlat amaldorlariga nisbatan katta soliq solishni buyurdi. Amir Husayn ko‘pchilik amirlardan katta o‘lja, pul talab qilib, siquvga ola boshladi.

Amir Husayn qanday bo‘lmasin Amir Temur mavqeyiga bolta urishga jiddiy kirishdi. U Amir Temurning bir qator safdoshlari va yaqin amirlariga nisbatan tazyiq o‘tkaza boshladi.

O‘ylab ko‘ring

1. Matnni o‘qing va mamlakatda Amir Temurga qanday munosabat shakllanganini tasvirlashga harakat qiling.
   Temur o‘z safdoshlariga soliq to‘lovlarida yordam berdi, ularning qarzlarini to‘lashda hatto o‘z xotini, Amir Husaynning singlisi O‘ljoy Turkon og‘oning taqinchoqlarini ham ayamadi...
2. Nima uchun Amir Husayn Amir Temurning bir qator safdoshlari va yaqin amirlariga tazyiq o‘tkaza boshladi? Bundan maqsadi nima edi? Nima uchun u Amir Temurni o‘limga mahkum qila olmagan?



Tarix saboqlari



1366-yili Amir Temurning xotini, Husaynning singlisi O‘ljoy Turkon og‘oning to‘satdan vafot etishi ikki amir o‘rtasidagi eng so‘nggi rishtaning ham uzilishiga olib keldi.

Bu davr oralig‘ida Temur o‘z e’tiborini ichki ishlarga qaratdi. Amir Husayn turli fitna-fasodlar yo‘liga o‘tib, Temurga qarshi zimdan kurash boshladi. Amir Husayn Balxda, Temur Kesh va Qarshida hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko‘rishga kirishdi.

1370-yili Husayn Balx, Qunduz va Badaxshondan qo‘shimcha kuch to‘pladi, uning otliqlari Termiz atroflarida paydo bo‘ldi. Temur esa Termiz yaqinida joylashgan Biyo degan joyda qarorgoh qurib, jangga tayyorgarlik ko‘rdi. Shu yerda uning oldiga taniqli diniy arbob Mir Sayyid Baraka tashrif buyurdi. U Temurga nog‘ora va bayroq, ya’ni hokimiyat, saltanat ramzlarini topshirib, uning buyuk kelajagi haqida bashorat qildi.

Amir Temurga Amir Husaynning siyosatidan norozi bo‘lgan amirlar va hokimlar kelib qo‘shila boshladi.

Amir Temurning Movarounnahr amiri deb e’lon qilinishi

Shu yili aprelda Balxda ikki kunlik qamaldan so‘ng Amir Husayn taslim bo‘ldi. Jome masjidi minorasiga yashirinib olgan amir Husayn qo‘lga olindi.

Amir Husayn amir Kayxusrav tomonidan xun olish maqsadida o‘ldirildi (bir paytlar Amir Husayn Kayxusravning akasi Kayqubodni qatl etgan edi). Shu tariqa, bir necha yil davomida Movarounnahr taxti uchun bo‘lgan kurash Temur foydasiga hal bo‘ldi.

Lashkarboshilar va ittifoqchilar ishtirokida o‘tkazilgan qurultoy qaroriga ko‘ra, Movarounnahrga Chingizxon avlodiga mansub bo‘lgan Suyurg‘atmish (1370-1388) xon bo‘ldi.

Davlat boshqaruv esa Movarounnahr amiri nomini olgan Amir Temir qo‘liga o‘tdi.

Amir Temur Keshdan Samarqandga ko‘chib, uni o‘z davlatining poytaxtiga aylantirdi. Bu davrda Amir Temur endigina o‘ttiz to‘rt yoshga kirgandi.

Qurultoyda Shiburg‘on hokimi Zinda Chashmdan boshqa barcha amir va qabila boshliqlari Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Zinda Chashm ayirmachilik yo‘lini tutib, Balx va Termiz atrofidagi yerlarni talon-toroj qila boshladi. Zinda Chashmga qarshi Amir Temur Joku barlos boshchiligidagi qo‘shinni jo‘natdi. Jangda Zinda Chashm mahv etilib, Samarqandga jo‘natildi. Amir Temur unga oliyhimmat munosabatda bo‘lib, afv etdi. Aynan shu davrdan boshlab Amir Temurning dono hamda uzoqni ko‘zlovchi davlat arbobi xususiyatlari aniq namoyon bo‘la boshladi.

O‘ylab ko‘ring

“Temur tuzuklari”dan olingan matnni o‘qing va quyidagi savollarga javob bering.

1. Amir Temur: “Garchand avvaliga niyatim ularni o‘ldirish bo‘lsa ham, keyinroq axir ular askarlar-ku deb ularni afv etdim va yana askarlik ishlariga tayinladim”, deydi. Siz bu holatda qanday yo‘l tutardingiz? Nima uchun?
2. Agar Amir Temur Badaxshon hokimi bilan to‘qnashganida yengilgan bo‘larmidi?
3. Yuqorida berilgan voqeani Amir Temurning quyidagi so‘zlari bilan izohlashga harakat qiling: “O‘zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g‘anim lashkarlarini sindirish, dushmanni tuzoqqa tushirish, muxoliflarning ko‘nglini ovlab, do‘stga aylantirish, do‘st-dushman orasida muomala, murosa-madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo‘lladim”.

Manbalarda

Amir Husayn menga asir tushgandan keyin uning navkarlari va amirlari endi bizni o‘ldiradi deb gumon qilgan edilar. Garchand avvaliga niyatim ularni o‘ldirish bo‘lgan bo‘lsa ham, keyinroq; axir ular askarlar-ku deb ularni afv etdim va yana askarlik ishlariga tayinladim.

Badaxshonda hokim bo‘lmish ularning bosh amiri (amir ul-umaro) ko‘p marta jangda men bilan yuzma-yuz kelib, qilich chopishgan kishi edi. Amir Husayn qatl etilganini eshitgach, mening qahrimdan qo‘rqib, o‘zini sergak tutdi va bordi-yu uni tutish uchun qo‘shin yuborgu-day bo‘lsam, to‘g‘ri ish qilmagan bo‘lur edim. [Shuning uchun] o‘zimni uni unutgan kishidek tutdim va [uning borasida] ushbu tadbirni qo‘lladim: majlislarda, yig‘in-o‘tirishlarda uni yaxshi so‘zlar bilan yod etib, mardligi va bahodirligini maqtadim, toki do‘stlari: “Amir senga nisbatan marhamat va inoyat maqomida turibdi”, deb unga xat yozdilar. U zorlanib menga maktub yubordi va inoyat-u marhamatimdan umidvor bo‘lib mening panohimga keldi.

“Temur tuzuklari”dan



Tarix saboqlari

Amir Temurning dastlabki islohotlari

Amir Temur mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minladi. Maxsus qo‘shin tuzib, unga katta imtiyozlar berdi. Yirik harbiy bo‘linmalar boshliqlarini va sipohsolorlarni tayinladi. Taxtga o‘tirgach, Chig‘atoy ulusining barcha yerlariga o‘zini voris deb bildi.

Amir Temur dastlab Keshga kelib, davlat vazirini, tuman boshliqlari va mingboshilarni tayinladi. Xorazmdan boshqa barcha yerlarni o‘z hokimiyati ostiga birlashtirdi.

Samarqandda o‘tkazilgan qurultoyda Amir Temur barcha viloyatlardan nufuzli amirlar,



Temur saltanatida davlat boshlig‘i sifatida chingiziylardan Suyurg‘atmish xon (1370–1388) va uning o‘g‘li Sulton Mahmudxon (1388–1402) xonlik unvoniga tasdiqlangan bo‘lsa-da, amalda ular “qo‘g‘irchoq” xonlar bo‘lib, ijtimoiy hokimiyatning barcha belgilari, diniy, dunyoviy, ijro va qonunchilik hokimiyati bir kishi – Amir Temur qo‘lida bo‘lgan.

lashkarboshilarni yig‘ib, har birining mavqeyi va martabasiga qarab biron-bir mansab va mulk (viloyat, tuman, shahar) taqsimlab berdi, kattadan katta sovg‘alar ulashdi.

Amir Temur chiqargan dastlabki farmonlarda yo‘llardagi xavfsizlik, pochta, qatnov vositalarini ta’minlash, qo‘shinlar yurishi, janglar oqibatida xarob bo‘lgan yerlarni obod etish, rabotlar (mehmonxonalar, to‘xtash joylari), xonaqohlar qurish, kambag‘al va miskinlar uchun xayrxonalar ochishni buyurgan.

Shuningdek, u sayyidlar, din peshvolari, qozilar, shayxlarga, o‘ziga xos ta’sirga ega tabaqaga yuqori hurmat bilan qaragan. O‘zining o‘ttiz besh yillik faoliyatida Amir Temur uchun bu bosh siyosat bo‘lib qoldi.

Manbalarda

Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to‘g‘ri tadbir qo‘llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo‘llarini mo‘ljallab qo‘yar edim. Uni to‘g‘ri tadbir, qat’iy jazm, chinlik-chidamlilik ko‘rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko‘rib, ortini o‘ylagan holda oxiriga yetkazardim. Yana tajribamdan o‘tkazdimki, kengash egalari birlik, ittifoqlik bilan so‘zda sobit, ishda chidamli bo‘lishlari shartdir. Qilmoqchi bo‘lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so‘z berar ekanlar, uning yaqiniga ham yo‘lamasinlar.

“Temur tuzuklari”dan



Mo‘g‘ullar davrida Xorazm ikki qismga bo‘lingan bo‘lib, markazi Urganch shahri bo‘lgan Shimoliy Xorazm Oltin O‘rda tarkibiga, Ikkinchisi – Markazi Kat qal’asi bo‘lgan Janubiy Xorazm esa Chig‘atoy ulusiga kirar edi.

Amir Temur davlati Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlati tizimini qaytadan jonlantirdi, uzoq yillik qaramlikdan so‘ng Turon zaminida davlat mustaqilligini tikladi. O‘zigacha bo‘lgan o‘zbek davlatchiligidan farq qiladigan markazlashgan buyuk davlat tizimini yaratdi.

U davlat rahbari tadbirkor, nihoyatda adolatli, qattiqqo‘l, lekin rahmdil, insonparvar, halol, pok bo‘lishi lozimligini ko‘rsatib, hayotda adovat emas, adolat yengishini isbotlab berdi.

Manbalarda

Tajribamda ko‘rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

“Temur tuzuklari”dan



Tarix saboqlari

Amir Temurga suiqasd

Amir Temur hukmronligining dastlabki yillarida hali uning mavqeyi baland bo‘lmay, mamlakatni bosqinchilardan tozalash, chegaralar xavfsizligini ta’minlash, mamlakatni barqarorlashtirish yo‘lida tinmay kurashayotgan davrlar edi. Shunday harbiy-siyosiy jarayonlardan birida, 1372-yilda Amir Temur Mo‘g‘uliston yurishida g‘alaba qozonib, Samarqand tomon qaytayotgan paytda unga qarshi suiqasd rejasi tuzilgan edi. Rejaga binoan, Amir Temur O‘tror yaqinidagi Qarosomon mavzeyida ov bilan mashg‘ul bo‘lgan chog‘da qo‘lga olinishi kerak edi. Sohibqironning xavfsizlik xizmati nihoyatda tezkorlik va zukkolik bilan ishlagani bois fitna fosh bo‘ladi va fitnachilar qo‘lga olinib, so‘roq qilindi hamda qilmishi isbot etilgandan so‘ng Temur ularga nisbatan jazo qo‘lladi, ayrimlarini esa jazosiz qoldirdi. Saroymulkxonimning aralashuvi bilan Amir Muso ismli isyonkor jazodan ozod etildi (chunki Amir Muso uning singlisining o‘g‘li edi). Sohibqiron Amir Musoga qarata: “Garchi sen muxolif bo‘lib, bu noma’qul ishga kirishgan bo‘lsang ham, qadimiy do‘stligimiz haqqi seni afv etdim”, deydi. Shuningek, payg‘ambar avlodidan bo‘lganlar ham jazodan omon qoldi, lekin Hijozga (Hajga) jo‘nash buyrug‘i berildi.

Temur hukmronligining dastlabki yillaridan uzoqni ko‘rib siyosat yuritdi. Birinchidan, musulmon olami hurmat va izzat qiladigan oliynasab vakillar, xususan, payg‘ambar avlodlari (sayyidlar), din ulamolarini o‘limga hukm etmadi hamda bu bilan jamiyat barqarorligini saqladi. Ikkinchidan esa, davlat tayanchi va suyanchi bo‘lgan shaxslar, alohida mavqega

ega bo‘lgan kishilarning iltimoslari, talablari qondirilgan. Shunga muvofiq, Amir Temur kichik va zaif guruhni jazolash orqali katta va qudratli guruhdan ajralishni istamagan. Bu ham sohibqiron Amir Temurning buyuk davlat qurish yo‘lidagi strategiyalaridan biri edi.





O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. QR kodda berilgan “Temur tuzuklari”ning “Tadbirlar va kengashlar” qismini diqqat bilan o‘qing va Amir Temur Movarounnahr taxtiga o‘tirish uchun amalga oshirgan tadbirlari rejasini tuzing.
2. Amir Temurning “Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo‘llarini mo‘ljallab qo‘yar edim” degan fikrini qanday tushundingiz? Siz biror ishni qanday boshlaysiz? Oqibatini o‘ylaysizmi? Nima uchun boshlangan ishning oqibatini o‘ylash kerak?
3. Amir Temur kengash egalari (a’zolari)ga qanday talablar qo‘ygan? Siz bu talablarga yana nimalarni qo‘shimcha qilgan bo‘lardingiz?

AMIR TEMUR MARKAZLASHGAN DAVLAT TUZISH YO‘LIDA



BUGUN DARSDA

- Chegaralarning mustahkamlanishi.
- Mo‘g‘uliston va Xorazmga yurishlar.
- Xuroson va Eronning egallanishi.

O‘ylab ko‘ring

Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering.

1. Davlat mustaqilligi qanday tamoyillarga bog‘liq? Fikringizni asoslang.
2. Amir Temur qanday tadbirlarni amalga oshirishi zarur? Davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib javob bering.



Tarix saboqlari

Chegaralarning mustahkamlanishi

XIV asrning 70-yillari boshida hukm surgan murakkab va ziddiyatli davrda Amir Temur Movarounnahrni birlashtirish siyosatini boshladi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi hududlarni o‘ziga bo‘ysundirdi.

Amir Temur sharqiy hududlarni mo‘g‘ullar ta’siridan ozod etish uchun Sharqiy Turkiston tomon bir necha marta yurish qilib, Farg‘ona vodiysi hududlarini, O‘tror, Yassi (Turkiston) va Sayramni o‘z tasarrufiga oldi. Bu hududlarda tinchlik va barqarorlikni saqlab turish, chegara hududlariga hujum uyushtirib turuvchi mo‘g‘ul aslzodalarini tiyib qo‘yish maqsadida Mo‘g‘ulistonga yurishlar uyushtirdi.

1376-yili Amir Temur o‘g‘li Mirzo Umarshayx Bahodirni Farg‘ona hokimi etib tayinladi. Amir Temur bir vaqtlar Jo‘chi ulusi tarkibiga kirgan Oq O‘rda, Oltin O‘rda hamda Mo‘g‘uliston hokimlari bilan bir necha yillar davomida kurash olib borishiga to‘g‘ri keldi. Mazkur kurashdan ko‘zlangan asosiy maqsad avvalo mamlakat shimoliy qismlarini ko‘chmanchi to‘dalar hujumidan muhofaza etish, Jo‘chi ulusi tarkibiga kirgan yerlarni zaiflashtirgan holda o‘z saltanati ta’sir doirasiga olish bo‘lgan.

Jo‘chi ulusi ikki mustaqil davlatdan: o‘ng qanot – Oltin O‘rda, chap qanot – Oq O‘rdadan iborat bo‘lgan.
Oltin O‘rda tarkibiga Xorazmning shimoliy qismi, Shimoliy Kavkaz, Bulg‘or yerlari, G‘arbiy Sibir, Qrim kirgan.
Oq O‘rdaga esa Sirdaryoning quyi oqimi, Sirdaryo bo‘ylaridan Sibirdagi Tuman degan joygacha bo‘lgan yerlar kirgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Nima uchun Amir Temur Xorazmga yurish qildi? Xorazm Amir Temur uchun qanday strategik ahamiyatga ega edi?
2. Xorazmning shimoliy qismi qaysi ulus tarkibiga kirgan edi?
3. Urganch shahri qaysi ulus tarkibiga kirgan?



Tarix saboqlari

Mo‘g‘uliston va Xorazmga yurishlar

Amir Temurning Mo‘g‘ulistonga qarshi kurashi yigirma yilga yaqin (1371–1390) davom etdi. Yettisuvdan shimolga chekingan mo‘g‘ul xonlari qish kelishi bilan qayta Sirdaryo bo‘ylari va Farg‘ona vodiysiga hujum uyushtirar edi.

Amir Temur ularni tor-mor qilib, Irtish daryosi orqa tomoniga chekinishga majbur qildi. Shundan keyin Mo‘g‘uliston xonlari bosh qarorgohini egalladi. Amir Temur u yerga To‘g‘luq Temurxonning o‘g‘li Xizirxo‘jani xon qilib tayinlab, garov va Mo‘g‘uliston jilovi sifatida uning o‘g‘li Sham’i Jahonni o‘zi bilan olib ortga qaytdi. Shu tariqa, mo‘g‘ul xonlarining Sirdaryo bo‘ylari, Farg‘ona vodiysiga solayotgan xavf-xatarlariga chek qo‘yildi.

Qadimdan iqtisodiy va madaniy jihatdan Movarounnahr bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan Xorazm mo‘g‘ullar davrida ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo‘lgan shimoliy Xorazm Jo‘chi ulusiga, markazi Kat qal’asi bo‘lgan janubiy Xorazm esa Chig‘atoy ulusiga bo‘ysundirilgan. XIV asrning 60-yillari oxirida Oltin O‘rdada yuz bergan g‘alayonlar vaqtida qo‘ng‘irot so‘fiylari sulolasidan Husayn So‘fi shimoliy Xorazmda mustaqil bo‘lib oldi. Bu davrda Movarounnahrda ham siyosiy kurashlar avj olganidan foydalanib Kat va Xiva shaharlarini egallab, shimoliy Xorazm bilan janubiy Xorazm yerlarini birlashtirdi. Amir Temur esa janubiy Xorazmni Chig‘atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun u Xorazmni o‘z davlatiga qo‘shib olish siyosatini tutdi.

Amir Temur Xorazmni tinchlik yo‘li bilan davlat tarkibiga kiritish maqsadida Gurganjga Alafa tavochini tinchlik haqidagi noma bilan yubordi. Husayn So‘fi Amir Temur yuborgan elchiga shunday javob berdi: “Men mamlakatni qilich bilan olganman, shuning uchun ham uni faqat qilich bilan olish mumkin”. Amir Temur ikkinchi bor yuborgan elchi Jaloliddin Keshiy esa zindonga tashlandi. Natijada 1371-yili Amir Temur Xorazmga qo‘shin tortib keldi. Gurganjga borish uchun Kat shahri orqali o‘tish kerak edi, bu shaharni qisqa fursatda Amir Temur qo‘shini ishg‘ol qildi. Katning qo‘ldan ketishi Husayn So‘figa kuchli ta’sir ko‘rsatdi. U Amir Temur bilan yarashishga, uning talablarini bajarishga rozi bo‘ldi. Lekin ayrim hokimlar Husaynni qo‘llab-quvvatlashlariga ishontirdilar. Husayn So‘fi ularning yordamiga ishonib, Amir Temurga qarshi chiqdi, ammo to‘qnashuvda tor-mor etildi va

Yusuf So‘fining Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxon qizidan tug‘ilgan Sevinchbeka ismli qizi Amir Temurning katta o‘g‘li Jahongir Mirzoga olib beriladi. Bu Temurning xon avlodidan bo‘lgan ilk kelini bo‘lgan. Shu sabab ham uni Xonzoda begim deb atashgan.

Bu nikohdan 1375-yilda Amir Temurning valiahd nabirasi Muhammad Sulton mirzo (1375–1403) dunyoga kelgan edi. Lekin u vafot etgach, Turon taxtiga voris etib ukasi Pirmuhammad mirzo belgilangan.

Gurganj qal’asida vafot etdi. Uning o‘rniga akasi Yusuf So‘fi hokimiyatga kelib, Amir Temur bilan yarash shartnomasini tuzdi. Lekin u yarash shartlarini xiyonatkorona buzib, Amir Temur qaytib ketganidan keyin Qiyot shahrini bosib oldi. Shundan so‘ng Amir Temur Xorazmga ikkinchi marta yurish qilishga majbur bo‘ldi. Ammo ish harbiy to‘qnashuvgacha bormadi, chunki Yusuf So‘fi tavba qilib, yarash shartlarini so‘zsiz bajarishga va’da berdi. Bu ikkinchi yurish natijasida Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kirdi.

Yusuf So‘fining takror xiyonati uchinchi yurishga sabab bo‘ldi. Yusuf So‘fi tomonidan sulh shartnomalarining buzilishi hamda uning chegaradosh yerlarga yurishlari to‘rtinchi yurishga ham sabab bo‘ldi (yanvar-fevral oylari). Yusuf So‘fi yana tinchlik sulhini imzoladi.

Xorazmning yangi hokimi Sulaymon So‘fi esa Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon bilan birlashib, chegara yerlarga hujum uyushtirdi.

Bu Amir Temurni 1388-yili beshinchi bor yurish boshlashga majbur qildi. Sulaymon So‘fi mag‘lub bo‘lib, o‘lkadan qochdi. Amir Temur Gurganjni ishg‘ol qildi va so‘fiylar sulolasiga barham berdi. O‘sha yili oliy hukmdor sifatida Amir Temur nomiga xutba o‘qilib, tangalar zarb etildi.

Amir Temur qamal vaqtida vayron bo‘lgan hududlarni tiklash va obodonlashtirish topshirig‘ini berdi.

Manbalarda

Amir Temur va piri Zayniddin Toyobodiy

Temurning Hirotga yurishidan bir-ikki yil muqaddam Malik G‘iyosiddin Pir Ali tomonidan Hirotning shahar devori yangidan baland qilib qurildi va bunga ko‘plab hasharchilar majburiy jalb etildi. Shunda Shayx Zayniddin Toyobodiy malikka maktub yo‘llab: “Parvardigori olam yuborgan baloni baland devor bilan to‘sa olmaysan, xalqqa ko‘p jabr qilma”, dedi. Bunga javoban G‘iyosiddin Pir Ali imomlar davlat ishlariga aralashmasin, deya unga qo‘pol ravishda javob qaytardi. Shundan so‘ng shayx “Malik ag‘darilsin, taxt turk Temurga tegsin” deb duo qildi. Ko‘p o‘tmay, Temur Hirotni egalladi va bu voqealarni sohibqironga yetkazishgach, uning shayxga ixlosi ortib, u bilan ko‘rishishga oshiqdi.

1381-yili Amir Sohibqiron Shayx Zayniddin Toyobodiy bilan uchrashdi. Manbalarda aytilishicha, shayx Temurga pand-nasihat qilib, Hirotni zabt etganida odamlarni zo‘rlab olib ketmaslikni, shaharni vayron etmaslikni va aholiga zulm qilishga yo‘l qo‘ymaslikni tayinlagan. Amir Sohibqiron: “Nega Malikka shunday pand-nasihat qilmadingiz?” deb so‘raydi. Shayx: “Malikka aytdim, lekin u quloq solmadi va sen undan ustun kelding. Endi senga ham nasihat qilyapman, agar quloq solmasang, sendan ham boshqa kishi ustun keladi”, deb javob berdi.

Shu tariqa Shayx Zayniddin Toyobodiy Amir Temurning Sayyid Kulol, Sayyid Baraka kabi pirlaridan biriga aylandi.

Xuroson va Eronning egallanishi

Bu davrda Xurosonda kurdlar sulolasi hukmronlik qilar edi. U paytlarda sulolani Hirot hukmdori Malik G‘iyosiddin Pir Ali boshqarib, 1380-yili Amir Temur uning huzuriga Hoji Sayfiddinni elchi qilib jo‘natdi. Elchi Hirot hukmdorini qurultoyga taklif etdi. Malik G‘iyosiddin elchini ushlab qolib, Amir Temurga qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Bu paytda Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh Mirzo boshchiligidagi 25 ming askardan iborat qo‘shin Balx, Shiburg‘on va Bodhizga yuborildi. Amir Temur farmoni bilan bu hududlar Mironshoh Mirzoga mulk sifatida berildi.

1381-yil fevralida Amir Temurning o‘zi Xurosonga yo‘l oldi. Hirot hukmdori inisi – Saraxs hokimi Malik Muhammad bilan o‘z kalitlarini Amir Temurga topshirdi. Yon-atrof qal’alardagi to‘qnashuvlar ham Amir Temur foydasiga hal bo‘ldi. Amir Temur asirga olingan 2000 nafar kishini ozod etishni buyurdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari tarixda “uch yillik” (1386–1388), “besh yillik” (1392–1396), “yetti yillik” (1399–1405) yurishlar deb nom olgan. “Uch yillik” yurish davrida Amir Temur Ozarbayjon, Mozandaron, G‘ilonni bo‘ysundirdi.

Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab, Tiflis, Arzirum va Van qal’alarini egalladi. 1388-yili muzaffariylar sulolasi mulklari Amir Temur tomonidan o‘ziga tobelik bildirgan hukmdorlarga taqsimlandi. Amir Temur o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lgan shahar va qal’alarga ziyon yetkazmagan, harbiylar shaharga kirishiga yo‘l qo‘ymagan, u yerlarga faqat tovon pulini yig‘uvchilarni (muhassillar) jo‘natgan. Isfahon aholisi Ko‘chakiy degan ig‘vogarning gapiga uchib, Amir Temurning viloyat muhofazasi uchun qoldirgan uch ming nafar askarini qirib tashladi. Bunday vaziyatda Amir Temur aybdorlarni qattiq jazoladi. Eronga qilingan “besh yillik” yurish natijasida muzaffariylar sulolasiga (1314–1393) barham berildi, uning so‘nggi hukmdori Shoh Mansur esa jangda halok bo‘ldi.





Tarix saboqlari

Mirzo Ulug‘bekning tug‘ilishi Mordin ahlini jazodan saqlab qolgani

Amir Temur 1394-yilning fevral oyida Mordin qal’asini egallashga jidd-u jahd qildi, bor imkoniyatlar sarf etildi. Shahar hokimi bo‘lgan Sulton Isoning tinchlik kelishuvini buzishi, shaharga kirmoqchi bo‘lgan askarlarining o‘ldirilishi Temurning g‘azabini keltirgan. Shahar kuch bilan egallanib, qochib qutilgan aholi tog‘larga tarqab ketadi. Temur askarlari tog‘larda yoyilib, dushmanni ta’qib qila boshlagach, qal’a eli tavba-tazarru qilib, sovg‘alar chiqarib, mol va xiroj to‘lashni qabul qilib, tobelik izhor etadi.



Manbalarda

“Mordin maliki Sulton Iso Temur huzuriga kelgan paytda lashkar ahlidan ko‘plari oldi-sotdi muomalasi bilan shaharga kirgan edilar, tartibsizlar...? g‘alayon ko‘tarib, lashkarga hujum qilgan holda ularni o‘ldirishga kirishdi. Bu xabar Sohibqironga yetishi bilan Sulton Isoni huzuriga chaqirib, voqeaning tagiga yetdi. Ma’lum bo‘ldiki, u qal’adan chiqib ketayotgan paytda ukasi va o‘z tobelariga: “Agar men sizlarga ming marta maktub yozib, vositachilig-u xohish bildirsam ham aslo iltifot qilmanglar, chunki men sizlar uchun, mamlakat uchun jonimni fido qilaman”, degan edi. Shundan keyin Amir Sohibqiron uni hibsga olishga buyruq berdi”.

Nizomiddin Shomiy



Tarix saboqlari

Shu asnoda Amir Temur huzuriga chopar kelib, Shohrux mirzo xonadonidan o‘g‘il tug‘ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi.

Sohibqiron xursandligidan Mordin qal’si qamalini to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan to‘lovni bekor qiladi. Bu haqda muarrix Xondamir shunday yozadi: “Bu bashoratli xushxabar Mordin tashqarisida zafarli Sohibqironning sharafli qulog‘iga yetib keldi, g‘oyat quvonch va sevinchdan u qal’a aqolisining gunohidan kechdi”. Uning o‘z nabirasiga Muhammad Tarag‘ay (keyinchalik, Ulug‘bek) deb ism qo‘yganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bog‘lash mumkin.





O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Yozuvsiz xaritadan Amir Temurning harakatlar strategiyasini belgilang.
2. Xorazmning bo‘ysundurilishining Turon davlati uchun qanday iqtisodiy afzalliklari bor edi?
3. Matn asosida Amir Temur shaxsiga tavsif bering.
4. Marsel Brionnnig “Menkim, Sohibqiron – Jahongir Temur” asaridan berilgan parchani o‘qing.

– Parchada Basharo‘y shahri fuqarolik jamiyatiga oid qanday belgilar mavjud? Ularning ro‘yxatini tuzing.

– Parchaning bugungi kun bilan aloqadorligi nimada?

– Basharo‘y shahrida nima Amir Temurni hayratga soldi?

– To‘quvchilar nima uchun Amir Temurning hadyasini olmadi?

– Amir Temur bu shaharga nima uchun “Dor ul-ulum va ul-omon” degan nom berdi?

AMIR TEMURNING DAVLAT CHEGARALARINI MUSTAHKAMLASHI



BUGUN DARSDA

- XIV asr oxirlarida vujudga kelgan xalqaro vaziyat.
- To‘xtamishxonning Oltin O‘rda va Oq O‘rda taxtiga o‘tirishi va xiyonati.
- Terek daryosi bo‘yidagi jang.
- Hindistonga qilingan yurish va Dehlining egallanishi.
- Anqara jangi.
- Xitoy bilan munosabatlar.

O‘ylab ko‘ring

1. Amir Temur davlati uchun eng kuchli xavf qaysi davlatdan kelishi mumkin edi? Nima uchun?
2. Amir Temur Oltin O‘rdani o‘z ta’siriga olsa, Buyuk ipak yo‘lining yo‘nalishi qaysi tomonga o‘zgarishi mumkin edi?
3. Nima uchun Amir Temur Saroy Berka orqali o‘tadigan karvon yo‘lini Movarounnahr tomon burib yuborishni ko‘zladi? Bu g‘oya ostida qanday iqtisodiy maqsadlar yotardi?
4. To‘xtamishxon va Amir Temur o‘rtasida nima sababdan ziddiyat kelib chiqdi?
5. To‘xtamishxon Amir Temurga sodiq qolganida, voqealar qanday tus olishi mumkin edi?



XIV asr oxirlarida vujudga kelgan muayyan xalqaro vaziyat tufayli Amir Temur davlati, Turkiya, Misr va Oltin O‘rda eng qudratli davlatlar sifatida siyosiy maydonga chiqdi. Bu davrda Amir Temurga Mo‘g‘uliston, Oltin O‘rda va Misr bilan ittifoqdagi Usmoniylar qarshi turardilar.

Amir Temur davlati uchun eng kuchli xavf Oq O‘rda va Oltin O‘rda edi. XIV asr 70-yillarida Oq O‘rda hokimlaridan biri bo‘lgan O‘rusxon Jo‘chi ulusini birlashtirib, uni kuchli davlatga aylantirish harakatlarini olib bordi. Agar Jo‘chi ulusi birlashsa, u butun Turon yerlariga yana tahdid solar edi. Shu bois Amir Temur Oltin O‘rdani kuchsizlantirishga jiddiy harakat boshladi. U Oltin O‘rdaning Movarounnahrga tutashgan sharqiy qismini o‘z ta’siri ostiga olishni ko‘zlagan edi.

1376-yili O‘rusxon uluslarni birlashtirish uchun chaqirgan qurultoyida o‘ziga qarshi bo‘lgan kishilarni o‘limga mahkum etdi. Ular orasidan To‘xtamishxon o‘z hayoti xavfsizligini o‘ylab, Samarqandga, Amir Temur huzuriga qochib keldi va uning yordami bilan hokimiyatni egalladi. Ammo To‘xtamishxon berilgan yordamni tezda unutdi va 1385-yili Amir Temur davlatiga qarashli Ozarbayjonni egallashga harakat qiladi.

Natijada Temur va To‘xtamishxon o‘rtasida bir necha bor jang bo‘lib o‘tdi. To‘xtamishxon chekindi, lekin kuch to‘plab, yana Amir Temurning sarhadlariga raxna soldi.



Amir Temur tayyorlatgan 11 qatorli bitiktosh



1391-yilda Dashti Qipchoqqa otlangan Amir Temur ikki kecha-kunduz yo‘l yurib toliqqan qo‘shinni Ulug‘tog‘ (hozirgi Qozog‘istondagi Qarsaqpay koni yaqinidagi Oltin cho‘ku nomli tog‘) yonbag‘riga hordiq olish uchun tushirdi. O‘zi esa xoslari hamrohligida tog‘ tepasiga chiqib, tevarak-atrofga, yastanib yotgan dashtga nazar tashlaydi va bu yerda ushbu yurish haqida xotira qoldirishga qaror qildi.

Farmoni oliyga ko‘ra, jangchilar atrofdan xarsang toshlar tashib kelib, belgilangan joyga to‘pladilar. Usta sangtaroshlar ishga tushib, Sohibqironning To‘xtamishxonga qarshi qo‘shin tortib, ushbu mavzega yetgani tarixini toshga bitdilar. Turkiy yozuvda naqsh qilingan xotiraning matni quyidagicha: “Tarix yetti yuz to‘qson uchinda, qo‘y yili yoz (ko‘klam) oyi orasi Turonning sultoni Temurbek uch yuz ming cherik bilan Bulg‘or xoni To‘xtamishxonga qarshi yurdi. Bu yerga yetib, belgi bo‘lsin deb bu tepani qurdi. Tangri nusrat bergay, inshaalloh. Tangri ul kishiga rahmat qilg‘ay, bizni duo bila yod qilg‘ay”.

Ushbu bitiktosh hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanmoqda.



Terek daryosi bo‘yidagi jang

To‘xtamishxon Misr sultoni bilan Temurga qarshi birgalashib harakat qilishga kelishib oldi. Shu tariqa, Amir Temurga qarshi Misr-Usmoniy-Oltin O‘rda ittifoqi yuzaga keldi. To‘xtamish tez orada Litva knyazligi ustidan ham nazorat o‘rnatib, Amir Temurga qarshi kelgusi kurashlarda ularning kuchidan ham foydalanishni rejalashtirdi.

Amir Temur Shimoliy Kavkazdagi Darband yo‘lida To‘xtamishxon bilan o‘zaro nizolarni tinchlik yo‘li bilan hal qilishga harakat qildi, lekin uning bu harakati kutilgan natijani bermadi.

1395-yil aprelda To‘xtamishxon Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi bo‘yidagi katta maydonga 400 ming atrofidagi qo‘shinini olib bordi. Biroq Amir Temurning harbiy mahorati sabab To‘xtamishxon Bulg‘or tomonga qochdi. Amir Temur Oltin O‘rdaga oxirigacha zarba berish maqsadida Volga va Dnepr oralig‘idagi yerlarga yurish qildi.

Amir Temur Dnepr daryosining chap qirg‘og‘i bo‘ylab yurib, Azov daryosi bo‘yidagi muhim qo‘rg‘on – Azov (Azoq)ni egalladi. Shundan so‘ng Rus davlati tomon yurish qilib, Ryazan, Yelets va Markaziy Rossiya hududidagi boshqa yerlariga kirib bordi. Oltin O‘rda Amir Temur qo‘shinlari tomonidan egallandi. Keyinchalik cherkeslar yurti, Dog‘iston va Kaspiy bo‘yidagi Ashtarxon shahri ham qo‘lga kiritildi.

To‘xtamishxon qo‘shinining Terek daryosi bo‘yida tor-mor etilishi, poytaxt Saroy Berkaning egallanishi Oltin O‘rdaga kuchli zarba bo‘ldi. Natijada xalqaro savdo yo‘llari yana janubga, an’anaviy o‘zanlariga qaytarildi.



O‘ylab ko‘ring

1. Terek daryosi bo‘yidagi jang natijasi Rus yerlari uchun qanday ahamiyat kasb etdi?
2. Oltin O‘rdaning yengilishi Turon iqtisodi rivojlanishi uchun qaysi yo‘llarni ochib berdi?
3. Terek daryosi bo‘yidagi jangda Amir Temur qanday hiyla ishlatadi? Bu voqeani Klavixo qanday yoritadi? Bu tadbirdan siz qanday xulosa qildingiz? Amir Temurning qo‘shinida ayollar ham bo‘lganmi?

Manbalarda

Jangdan oldin Temur To‘xtamishxonning hirovuli (qoshinning oldingi qism)ni yanchib, Sunji daryosini jang bilan kechib o‘tadi. Ertasi kuni qulay nuqta qidirgan Sohibqiron Terekning o‘ng sohili bo‘ylab yura boshlaydi.

Daryoning so‘l qismida bo‘lgan To‘xtamishxon o‘z raqibining daryodan o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qorovul ajratadi va bu soqchi qism daryoning chap qirg‘og‘i yoqalab movarounnahrliklarni tinimsiz kuzatib boradi. Ikkala qo‘shin uch kun davomida shu alpozda asta-sekin harakat qilib boradi.

Uchinchi kuni Amir Temur lashkargohda bo‘lgan ayollarga dubulg‘alar kiyishni va jangchilar o‘rnini egallashni, erkaklarga esa ikkitadan ot olib, lashkargohni tezda tark etishni amr qiladi. Qarorgohda erlar shakliga kirgan ayollardan o‘zga kuch qolmaydi. Bu harbiy hiyla o‘z navbatida katta tavakkalchilik ham edi.

Erkaklar qiyofasidagi “jangchilar”ni kuzatishda davom etgan To‘xtamishxon qismlari Amir Temur va uning asosiy qo‘shini kechuv joyiga qaytganidan bexabar qoladi. Shu tariqa, tunda Amir Temur qo‘shini To‘xtamishxon soqchi guruhining ko‘zini shamg‘alat qilib, Terek daryosidan kechib o‘tishga muyassar bo‘ladi va Oltin O‘rda qo‘shinlarining ort tomonidan yetib keladi.

Ispan sayyohi Rui Gonsales de Klavixoning
“Amir Temur saroyiga sayohat”
kundaliklaridan



Tarix saboqlari

Hindistonga qilingan yurish va Dehlining egallanishi

Amir Temurning Hindistonga yurishi 1398–1399-yillarga to‘g‘ri keladi. 1398-yilning may oyida Amir Temur 92 ming askar bilan Amudaryodan o‘tib, Hindistonga yurish qildi. Kobul va Mo‘ltonni egalladi. So‘ng Hind daryosidan o‘tdi. Dehli sultoni Sulton Mahmudxon bilan jang 1398-yil dekabrda yuz berdi.

Hindlar o‘n ming otliq, qirq ming piyoda va 120 fil bilan jangga kirdi. Har ikki filning orasida to‘p va to‘pchi turardi. Fillarga sovut ham kiydirilgan edi. Amir Temur lashkar o‘rdusining old tarafiga qamish va yog‘ochdan bir qo‘rg‘on yasattirdi. So‘ng lashkar atrofiga xandaq qazdirib, xandaqning chekkasiga Hindiston ho‘kizlaridan zich qilib bog‘latib qo‘ydi.

Fillarga qarshi ko‘plab temir tikanlar yasaldi. To‘plar jihozlab qo‘yildi. Jang uzoq cho‘zilmadi. Dushman movarounnahrliklarning hujumi va siquviga bardosh berolmay, sochilib ketdi. Jangda o‘n olti yashar shahzoda Xalil Sulton qahramonlik ko‘rsatdi, u “pillardin bir pilni haydovchisini nest-u nobud qilib, oldiga solib, utidek (sigirdek) haydab, Sohibqiron qoshiga kelturdi”. Dehli sultoni Sulton Mahmudxon to‘la mag‘lubiyatga uchrab, qochdi. Sohibqiron o‘n bir oy davom etgan Hindiston yurishidan 1399-yil bahorida qaytdi. Yurish natijasida turli xil ayirmachi harakatlarga, nizo va parokandalikka chek qo‘yildi.

Manbalarda

Amir Temur Hindiston yurishi paytida “Agar Samarqandga salomat qaytib borsam, bir jome masjidi qurdiraman” deb niyat qilib qo‘ygan edi. Shuning uchun Samarqandga keliboq masjid qurishni buyurdi.

1399-yil mayida Fors, Ozarboyjon va Hindistondan keltirilgan ikki yuz toshtarosh usta ishni boshlab yubordi. Besh yuz kishi tosh kesish uchun tog‘ga yuborilgan edi. Tog‘dan tosh keltirish uchun Hindistondan olib kelingan to‘qson beshta fildan foydalanildi. Mamlakatdagi barcha me’mor va hunarmandlar shu ish bilan mashg‘ul edi.

Sohibqiron Samarqandda bo‘lgan kezlari har kuni kelib, masjid qurilishini nazorat qilgan. Ali Yazdiyning yozishicha, “Masjidi jum’ada to‘rt yuz sakson ustun toshdin yasab, har birining uzunlig‘i yetti qari (3,5 metr) erdi, qo‘yub yasadilar. Va saqfini (shiftini) toshdin yasadilar. Masjid tugagandin so‘ng Dilkusho bog‘ig‘a borib, to‘ylar berdi. Ustakorlarg‘a to‘nlar kiydurub, otlar mindurdi”.



O‘ylab ko‘ring

1. Faraz qiling, siz lashkarboshisiz.
   Qarshi tomon maxsus o‘rgatilgan fillarni jangga kiritdi. Fillarning har ikkala tish suyaklariga maxsus qilichlar kiydirilgan bo‘lib, ular bu qilichni suqishga o‘rgatilgan. Filning ustiga kungurali taxt o‘rnatilgan, unda besh-oltita kamonchi o‘tirardi. Shunday holatda nimalarga e’tibor berardingiz?
2. Jangda yengish uchun qanday tadbir qo‘llagan bo‘lardingiz? Nima uchun?
3. Davr va sharoitni hisobga olib, jang taktikasini ishlab chiqing.
4. O‘z taktikangizni Amir Temur taktikasi bilan taqqoslang.



Tarix saboqlari

Anqara jangining sabablari

1389-yilda Usmoniylar imperiyasi sultoni Murod I Kosovo shahrida serblarga qarshi jang vaqtida halok bo‘ldi. Jang maydonining o‘zida taxtni sultonning 19 yoshli o‘g‘li Boyazid egalladi va serblarga qarshi jangni davom ettirdi. Boyazid yosh bo‘lishiga qaramay, tez orada ko‘plab harbiy yurishlarda zafar quchadi.

Yildirim Dunaybo‘yi davlatlarini o‘ziga bo‘ysundirib, Makedoniya, Fessaliyani bosib oldi va Gretsiyaga bostirib kirdi. U 1396-yili Nikopol yaqinida Vengriya qiroli Siguzmund boshchiligidagi, Yevropaning turli davlatlaridan yig‘ilgan otliq qo‘shinni tor-mor etib, Vizantiya imperiyasining poytaxti Konstantinopol shahrini qamal qildi. Urushlarda tezkorlik bilan g‘alaba qozongani uchun Boyazidga “Yildirim” – chaqmoq laqabi berilgan.



صورت مکتوبی که امیر تیمورلنگ بسلطان یلدرم بایزید فرستاده است در دفعهٔ
اوّل که هنوز میان ایشان مخالفتی پدید نیامده بود

الحمد لله الّذی اشرقت علی صحایف اصناف الاعیان انوار عظمته وسلطانه وتلألأت علی
طبقات احداق الاکوان آثار بسطته واحسانه والصلوة والسلام علی النبی المبعوث باشرف
الادیان علی الاطلاق المنعوت باکرم الفضایل واتم مکارم الاخلاق وعلی آله العظام واصحابه 5
الکرام وعلی التابعین لهم باحسان الی یوم القیام.

امّا بعد اکرچه بعالم صورت از امیر تیمورکورکان بجانب امیر اعظم اعدل امراء العجم
سیف الله المسلول علی اعدائه ورحمته المبعوث لمصالح العباد من اولیائه حافظ بلاد الله ناصر عباد
الله قاتل العداة والجاحدین مرجع الغزاة والمجاهدین حامی ثغور المسلمین جلال الحقّ والدّنیا
والدّین غازی بایزید بهادر خان خلّد الله ملکه طریقهٔ موالات (6 b) وصداقت ظاهری مسلوک 10
ومرعی نبود وبارسال رسل وتبلیغ رسایل وقواعد الفت ومعاقد خلّت بحسب اوضاع صوری مؤکّد
وممهّد نشد. فامّا چون استماع افتاد که همچنان که ما بتبلیغ فحوای والذین جاهدوا فینا لنهدینّهم
سبلنا در جانب شرق عالم بغزای کفّار وجهاد با طوایف بغاة واشرار مشغولیم ودر باب اعلاء اعلام
دین ورونق شرع سیّد المرسلین باقصی الغایة واعلی النهایة سعی واجتهادی بجای می‌آوریم، او نیز
در دیار غربی با فرق ضلال ومخالفان دین قدیم ومنکران شرع مستقیم لایزال بحکم انّ الله یحبّ 15
الّذین یقاتلون فی سبیله صفّا کأنّهم بنیان مرصوص مساعی جمیله واجتهادات بلیغه تقدیم
میرسانید وهمه همّت بر نصرت شرع ورونق مسلمانی وتمهید قواعد دین یزدانی مصروف داشته است
وبدین واسطه کافّهٔ اهل ایمان در کنف امن وامان مرفّه الحال ومحصّل المرام اند باستماع این معانی
یومًا فیومًا امداد ارادات متضاعف میگردد وداعی همّت وبواعث نهمت بر ازدیاد اسباب کامرانی
ووصول آمال وامانی آن عزیزان متزاید میشود وهرآینه هرصاحب دولتی که بحلیهٔ افمن شرح 20
الله صدره للاسلام فهو علی نور من ربّه متحلّی باشد وبجهت ارتفاع شرفات شریعت محمّدی واوضاع
ملّت احمدی در اقطار بلاد غربی بجهاد وغزا وحرب باتباع وحرّس المؤمنین علی القتال اشتغال
نماید ومقتضی نص ومن یبتغ غیر الاسلام دینا فلن یقبل منه نصب خاطر خود ساخته باشند
از حضرت عزّت جلّت وعزّت بانواع تسدید وتوفیق واصناف سعادت وکرامات فایز گردد
وروز بروز جمعیت آن دودمان برونق‌تر وکوکب (7 a) اقبال آن خاندان باوج رفعت متصاعدتر 25
باشد وانّ الفضل بید الله یؤتیه من یشاء. فبهذه المقدّمات شرایف تسلیمات مسکیّة النفحات

Amir Temur
Yildirim Boyazidga yo‘llagan xatning fors tilidagi nusxasi

1400-yilga kelib Amir Temurning turk sultoni Boyazid Yildirim va Misr sultoni Faraj bilan munosabatlari keskinlashdi. Yaqin va O‘rta Sharqda ikkala qudratli davlat yakka hukmronlikka da’vogar edi.

Turkmanlarning Qoraqo‘yunli sulolasi hukmdori Qora Yusuf, Sulton Ahmad jaloyir ham Boyazid bilan ittifoq bo‘lib, Amir Temur davlati chegaralariga raxna solishar edi. Amir Temur Suriya masalasida muammoni tinchlik yo‘li bilan hal etish maqsadida 1393-yildayoq Misrdagi mamluklar sultoni Barquqqa o‘z elchilarini jo‘natgan edi. Lekin sulton elchilarni o‘limga mahkum etdi. Temur elchisini Qora Yusuf qo‘lga olib, Misrga jo‘natib yubordi va u zindonga tashlandi.

Barquq vafotidan keyin uning o‘g‘li ham otasining siyosatini davom ettiradi. Temurning navbatdagi elchisi ham hibsga olindi. Bu esa Misr bilan urush boshlanishini bildirar edi. 1400-yil kuz oylarida Amir Temur Suriyaning ko‘plab muhim qal’a va shaharlarini, jumladan, Halabni ham katta qiyinchiliksiz egalladi.

Manbalarda

Biron mamlakatda jabr-zulm, fisq-fasod kuchayib ketarkan, asl podsholar zulm va fisq-fasodni yo‘qotish va adolat o‘rnatish uchun o‘sha mamlakatga ... borishlari lozim.

“Temur tuzuklari”dan

Tarix saboqlari

Anqara jangi

1400-yil dekabrda Amir Temur qo‘shini Damashq ostonasiga yaqinlashganida Sohibqiron masalani tinchlik yo‘li bilan hal etish maqsadida Faraj huzuriga yana bir elchilar guruhini jo‘natadi. Amir Temur sultonga jo‘natgan maktubida elchilarni hibsdan ozod qilish, Temur nomini xutbada o‘qitish, uning nomidan tangalar zarb etish talablarini qo‘yib, o‘rtada tinchlik o‘rnatish zaruriyatini ta’kidlaydi. Lekin Faraj yana xiyonatkorona yo‘l tutib, Amir Temur qo‘shiniga hujum uyushtirdi. O‘zaro jangdan so‘ng Faraj qochib ketadi.

Usmoniylar davlati sultoni Boyazid Yildirim (1389–1402) bilan o‘zaro nizoli masalalarni hal etish borasida Amir Temur u bilan to‘rt marta maktub almashdi, lekin natija kutilgandek bo‘lmaydi.

Oxir-oqibat 1402-yilning 20-iyul kuni Anqara yaqinidagi tekislikda jang bo‘ldi. Amir Temur qo‘llagan chalg‘itish usuli urush taqdirini hal qildi. Bu borada Boyazidga xavf solish uchun Temurning nevarasi Muhammad Sultonga turklarning strategik ahamiyatga ega tepaligini zabt etish vazifasi yuklandi. Sohibqiron qo‘shini Boyazid qo‘shinining qanot qismini uzib, turklar qo‘shinining har ikkala qanotini qurshab oldi.

Boyazid qo‘shinining ma’lum bir qismi siyosiy muzokaralar orqali Amir Temur tomoniga o‘tib ketdi. Kechga borib Boyazid to‘la mag‘lubiyatga uchradi va asirga olindi.

Amir Temur Boyazidga yaxshi muomala qildi, uni hurmatlab, ehson va in’omlar bilan siyladi. Boyazid vafot etgach (1403-yil 9-mart), uning ta’ziyasini o‘tkazib, saltanat taxtini marhum sultonning o‘g‘li Musoga topshirdi. Amir Temur uzoqni ko‘ra biluvchi siyosatchi sifatida Usmoniylar davlatini o‘z davlatidan kuchsiz, lekin Yevropa davlatlaridan ko‘ra qudratliroq holatda qoldirdi. Bu Yevropa dunyosi bilan Temur davlati o‘rtasidagi ulkan devor edi.

Temur ilgarigi asrlarda Yaqin Sharqqa uyushtirgan salib yurishlaridan xulosa qilib, Usmoniylar davlatini o‘ziga xos himoya devori sifatida saqlab qoldi. Usmoniylar mag‘lubiyati Yevropa xalqlari uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Qator yevropalik hukmdorlar bundan minnatdor bo‘lib, o‘z elchilarini Amir Temur huzuriga jo‘natdilar. Aslida yevropalik elchilar Amir Temurga Anqara jangidan avval ham harbiy ittifoq tuzishni taklif qilgan. Yevropaning Vizantiya, Italiya, Ispaniya va boshqa davlatlaridan usmoniylarga qarshi kurashda yordam so‘rab Amir Temur saroyiga elchilar serqatnov bo‘lib qolgan edi. Bularning barchasi Amir Temur va Boyazidning, ya’ni ikki qudratli turkiy davlatlarning to‘qnashuvini yanada tezlashtirdi, bu esa o‘z navbatida Yevropaga qo‘l keldi.





Anqara jangi

Manbalarda

...Yildirim Boyazidni dargohi olampanohga kelturdilar. Sohibqiron farmonladikim, "Ilkini yechib, hurmat bila keltursunlar!" Bas, ani hazrat qoshida izzat bila kelturib, hazrat ani ko'rib, ko'p izzat tutib, o'z qoshida o'lturguzdi... Yildirim Boyazid uchun podshohona oq uy tikib edilar. Sohibqiron Yildirim Boyazidga inoyat va shavkatlar qilib, har anga o'z qoshida kelturub, suhbat tutib, ko'ngul berur edi".

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sidan

Xitoy bilan munosabatlar

Sharqning eng katta davlatlaridan biri – Xitoy bilan munosabatlar Amir Temur davrida bir qadar jiddiylashib qolgan edi. Bunga Xitoy hukmdorlarining ulug‘ davlatchilik siyosati sabab bo‘lgandi. Min imperatorlari Xitoyga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarni qaram mamlakatlar deb hisoblardi. Amir Temurning elchilari va savdogarlari olib borgan sovg‘a-salomlarni esa o‘lpon deb sanardi. Temur ham Xitoy elchilari bilan shunga yarasha munosabatda bo‘ldi. Klavixoning ma’lumotlariga qaraganda, 1404-yilda Samarqandga kelgan Xitoy imperatorining elchilari boshqa mamlakat elchilaridan yuqoriga o‘tqazib qo‘yilgan ekan. Amir Temur buyrug‘iga ko‘ra, ular ham boshqa mamlakat elchilari qatoridan o‘ziga yarasha joyga, quyiroqqa o‘tqaziladi.

Xitoy imperatori o‘z elchilarini yuborib, Amir Temurdan doimiy boj to‘lab turishni ham talab qilgan. Shu bois Amir Temur uch oylik tayyorgarlikdan so‘ng 1404-yil 27-noyabrda 200 ming kishilik qo‘shini bilan Xitoyga otlandi. O‘sha yili O‘rta Osiyo tarixida eng qahraton qishlardan biri bo‘lgan. Sirdaryoning suvi bir yarim metrgacha muzlagan, askarlardan ko‘pining quloq-burunlari, qo‘l-oyoqlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o‘zi ham ko‘p o‘tmay shamollab qoldi. Yanvar oyida uning huzuriga qattiq pushaymonligini bildirib, toj-u taxtini qaytarib berishni so‘rab To‘xtamishxon elchilari keldi. Elchilar Sohibqirondan mo‘g‘ul xoni uzrini qabul qilishni so‘rashdi.

Amir Temur xonni kechirdi va yurishdan so‘ng unga yordam berish qarorini ma’lum qildi.

1405-yil fevral oyining o‘rtalarida qo‘shin O‘trorda to‘xtadi. 11-fevral kuni Sohibqironning ahvoli ancha og‘irlashdi. Mohir tabib Mavlono Fayzulloh Tabriziyning muolajalari ham natija bermadi. 18-fevral kuni og‘ir xastalangan buyuk jahongir, Sohibqiron Amir Temur O‘trorda vafot etdi.



Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar qildi. Bu yurishlar natijasida u buyuk saltanat barpo qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy dengizi atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Usmoniylar davlati, Hindiston, Iroq, Markaziy va Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator hududlari kirdi.

Amir Temur kuchli va markazlashgan davlat, ulkan saltanat barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. U ona yurti Movarounnahrda mo‘g‘ul istibdodini tugatdi, o‘zaro parokandalik, nizo va fitnalarga chek qo‘ydi, mamlakatni tanglik va inqiroz botqog‘idan olib chiqdi, obodonchilik, qurilish, bunyodkorlik ishlariga keng yo‘l ochdi, madaniyat, ilm-fan taraqqiy etishiga homiylik qildi, keng xalq ommasi uchun tinch va totuv hayot tarzini yaratdi. Yuqorida qayd etilgan sa’y-harakatlar Amir Temurning aql-zakovati, zehni, irodasi va ulkan tashkilotchilik qobiliyati evaziga yuzaga kelib, uni Sohibqiron o‘z davlati ravnaqi va istiqboli yo‘lida amalga oshirdi. 1403-yil mart oyida Temurning valiahd nabirasi Muhammad Sulton Qorabog‘da vafot etgan. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib, Amir Temur maqbarasiga (Keyinchalik, Go‘ri Amir nomi bilan mashhur bo‘lgan) dafn etiladi.

Amir Temur Kichik Osiyodagi Oqshahr degan joyda Misr sultoni Faraj elchilarini qabul qildi. Faraj Temur elchilarini ozod qilib, Sohibqirondan uzr so‘ragan holda uning oliy hukmronligini tan oldi. Amir Temur shu yil oktyabrda Boylaqon degan joyda katta kanal qazdirdi va olim-u ulamolar ishtirokida katta qurultoy chaqirdi.



1403-yil mart oyida Temurning valiahd nabirasi Muhammad Sulton Qorabog‘da vafot etgan. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib, Amir Temur maqbarasiga (keyinchalik, Go‘ri Amir nomi bilan mashhur bo‘lgan) dafn etiladi. Amir Temur Kichik Osiyodagi Oqshahr degan joyda Misr sultoni Faraj elchilarini qabul qildi. Faraj Temur elchilarini ozod qilib, Sohibqirondan uzr so‘ragan holda uning oliy hukmronligini tan oldi. Amir Temur shu yil oktyabrda Boylaqon degan joyda katta kanal qazdirdi va olim-u ulamolar ishtirokida katta qurultoy chaqirdi.

Manbalarda

“Sohibqironning ayrim fazilatlari, masalan, o‘z ishlaridan mag‘rurlanishiga qaramay muomalada o‘ta oddiyligi, dunyoning yarmini titratgan amir bo‘la turib, bir dindor zotning oyoq tomoniga qo‘yishlarini vasiyat qilishi, sharob ichishni man qilgan holda ajoyib majlislarni tashkil qilishi, aqalli qoshini ham chimirib qo‘ymay, qirg‘inbarot urushlar qila turib, odamlarni adolatga undashi, suhbatlarda urush dahshatlarini eslashni yoqtirmasligi, ko‘p binolarni vayron qilgani holda ma’muriy qurilishlarga bosh-qosh bo‘lishi, ozgina fursatni ham qo‘ldan boy bermay ilmiy munozaralar uyushtirishi, … eng dahshatli jazo ko‘rilayotganda ham gunohkorni, agar nohaqlik bo‘lsa, avf etishdek oliyjanob fazilatni namoyish qilishi va kutilmaganda har qanday mantiqiy xulosani ham chippakka chiqaruvchi xatti-harakatlari Temur shaxsining o‘ta murakkab va buyukligini ko‘rsatadi. Temur o‘ziga teng keladiganlardan Doro, Iskandar, Sezar, Chingizxon, Bonapart kabi o‘tgan zamonning eng ulug‘ hukmdorlari qatorida turadi”.

Jan Pol Run,
fransuz olimi



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Amir Temur egallagan shaharlariga qanday talablar qo‘yishini mulohaza qiling.
2. Terek daryosi bo‘yidagi jang va Anqara jangi tafsilotlarini so‘zlab bering. Amir Temur va To‘xtamishxon munosabatlariga baho bering.
3. Yozuvsiz xaritadagi belgilarni izohlang. Har bir belgini sanalar bilan daftaringizga yozing. Ranglar qaysi hududlarni anglatadi, izoh bering.



AMIR TEMURNING TASHQI SIYOSATI

BUGUN DARSDA

- Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan elchilik va diplomatik munosabatlari.

Manbalarda

... Uning adolati-yu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridangina emas, balki Xo‘tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atroflarigacha, Bobul Avbobdan to Misr va Rum hududigacha bo‘lgan yerlardan savdogarlar uyoqda tursin, bolalar-u beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollarini keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko‘z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham zarar yetkazmaydi. Bu cheksiz ne’mat va poyonsiz marhamatlar Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridan

O‘ylab ko‘ring

1. Nizomiddin Shomiy Amir Temurning siyosati haqida qanday fikr bildirgan?
2. Matndagi “Bu cheksiz ne’mat va poyonsiz marhamatlar Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir” degan fikrni qanday tushundingiz? Matn asosida Amir Temurning boshqaruv siyosatiga baho bering.



Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan elchilik va diplomatik munosabatlari

XIV asrning oxiri va XV asrning boshida butun dunyo dadil qadamlar bilan olg‘a ketishida Amir Temurning qahramonona faoliyati hal qiluvchi o‘rinni egalladi. XV asrda “dunyo” tushunchasi hozirgiday keng va katta emas edi.

U paytda hali har ikki Amerika qit’asi, Avstraliya, Markaziy Afrika, Okeaniya orollari kashf etilmagan edi. U zamonning odamlari dunyo deganda Yevropani, Osiyoni va Afrikaning shimolidagi Misr kabi mamlakatlarni nazarda tutar edilar.

O‘sha davr nuqtayi nazaridan qaraganda Amir Temur Yevropa va Osiyoning eng katta qismini egallab olgan Chingizxon imperiyasining jabr-u zulmidan avvalo o‘z Vatanini, so‘ngra Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Rossiya, Ukraina kabi mamlakatlarni xalos qilgani chindan ham uning XV asr taqdirini ijobiy tomonga qarab o‘zgartira olgan ulug‘ siymo bo‘lganini ko‘rsatadi.

Buning ustiga Bolqon va boshqa Yevropa mamlakatlarini Yildirim Boyazid tajovuzidan qutqargani uning XV asr taqdirini hal qilgan daho inson bo‘lganini yana bir bor isbot etadi.

O‘ylab ko‘ring

Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatida quyidagi mulohazalarni bildiradi:

“Siz o‘z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring, biz ularni iliq qarshi olib, izzat-ikrom ko‘rsatamiz. Biz ham o‘z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo‘llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko‘rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo‘l qo‘ymang. Sizga bundan bo‘lak talabim yo‘q. Zero dunyo savdo ahli ila obod bo‘lajak!”

“Dunyo savdo ahli ila obod bo‘lajak” deganda nimani tushundingiz? Bu borada Amir Temur qanday chora-tadbirlar ko‘rgan?

Tarix saboqlari

Amir Temur ham Fransiya va Ispaniyaga o‘z elchilarini yuborib, ular bilan yaxshi aloqa o‘rnatdi, savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yish, Yevropadan Eron va Markaziy Osiyo orqali Xitoy va Hindistongacha boradigan Ipak yo‘lini qayta tiklash to‘g‘risida kelishib oldi. Ammo bu rejaning amalga oshishiga Yildirim Boyazidning bosqinchiliklari katta g‘ov bo‘lib turar edi.

Amir Temur Boyazid ustidan g‘alaba qozongan bo‘lsa ham, Turkiyani o‘z mustamlakasiga aylantirmadi. Bu mamlakatga o‘z o‘g‘il va nevaralaridan birortasini podsho yoki hokim qilib qo‘ymadi. Turkiya boshqaruvini Usmoniylar sulolasi ixtiyorida qoldiradi. Ammo siyosat tubdan o‘zgardi.

Turkiyaning Amir Temur tayin etgan yangi hukmdorlari Yevropa mamlakatlariga qarshi diniy g‘azotni to‘xtatdilar. Nikopolda asir tushgan salb yurishi ishtirokchilari ozod qilindi. Eng muhimi – Konstantinopol shahri va Bosfor

bo‘g‘ozining turklar tomonidan qamal qilinishi ellik yilga to‘xtatildi. Shu tarzda G‘arb bilan Sharq yarim asrga bo‘lsa ham o‘zaro adovatni to‘xtatib, adolat va hamkorlik yo‘liga kirdi.

Buyuk ipak yo‘li qayta tiklana boshladi. Amir Temurning Turkiyada erishgan g‘alabasi butun dunyoni qoyil qoldirdi. Angliya, Fransiya, Ispaniya qirollari uni bu mislsiz g‘alaba bilan qayta-qayta tabrikladilar. Shu g‘alaba natijasida Amir Temurni “Yevropaning xaloskori” deb ulug‘laydigan odamlar paydo bo‘ldi. Ular hatto Amir Temurga oltindan kichik haykal yasab, uni shu ajoyib so‘zlar bilan bezaganlari hujjat sifatida bizgacha yetib kelgan. Amir Temur 1402-yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yo‘lladi. Elchilar Parijga 1403-yil may oyida yetib boradi.

Elchilar ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlarini ta’minlash va agar qirol hamda gersoglar rozi bo‘lsa, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etdi. Fransiya qiroli Karl VI 1403-yil 15-iyunda Amir Temurga yo‘llagan javob maktubidan ma’lum bo‘lishicha, Amir Temur takliflarini Fransiya tomoni mamnuniyat bilan qabul qilingan.

Xuddi shu davrda Amir Temurning Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borilgan Iplomatik munosabatlarida g‘arbiy viloyatlar hokimi Mironshoh faol qatnashdi. G‘arbiy Eron, Iroq, Ozarbayjon, Armanistonni o‘z ichiga olgan mulklar hokimi Mironshoh Amir Temur keksayib qolgan davrda G‘arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etadi.

Manbalarda

Fransuz olimi Lyusen Keren quyidagi e’tiborga loyiq bir faktni keltiradi:

“Yaqinda Jerar Valter va Marsel Brion Amir Temurni o‘zlarining “Asrlar yodgorligi” asarlariga qahramon qilib tanlashdi va Sohibqironni “XV asr taqdirini hal qilgan inson” deb atashdi”.



Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan o‘zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida nasroniy ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta’minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu sababli G‘arbda Mironshoh tez orada “katolik oqimining homiysi” sifatida shuhrat qozondi.

Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III Sharq bilan juda qiziqib qolgan edi. 1402-yilning bahorida dastlab Ispaniya elchilari Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Amir Temur va Boyazidning kuch-qudrati, boyligi va qo‘shinining sonini bilish hamda ular qo‘l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlari, dini va qonunlari haqida aniq ma’lumotlar to‘plash topshiriladi.

Sharq va G‘arb davlatlarining elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Amir Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in’omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo‘shib Amir Temur Muhammadqozi ismli o‘z vakilini Ispaniyaga elchi qilib yuboradi. Genrix III 1403-yilda Amir Temur huzuriga ikkinchi marta maxsus elchilarni yuboradi. Unga Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. Ispaniya elchilari Samarqandda tantanavor qabul qilinib, hurmat-ehtirom ko‘rsatadilar.

Klavixo boshliq Ispaniya elchilari 1404-yilning sentyabr-noyabr oylarida Samarqandda bo‘ladi. Amir Temurning Xitoy tomonga yurishi munosabati bilan boshqa ko‘pgina davlatlarning elchilari kabi Ispaniya elchilari ham 1404-yilning 21-noyabrida Samarqanddan jo‘natib yuboriladi. Klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart oyida qaytib boradi. Klavixoning safar taassurotlari “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi” va “Samarqandga sayohat kundaligi” nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi.





Tarix saboqlari

Amir Temur o‘z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko‘targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari – Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Chunki Samarqand kattaligi, go‘zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog‘i lozim edi.

Samarqand tashqi savdoda ham katta o‘rin tutgan. Samarqandga turli mamlakatlardan, xususan, Xurosondan ma’danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, choy, mushk va boshqa mollar, o‘zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi. Klavixo Xitoy poytaxti Xonbaliqdan 800 tuyalik savdo karvoni kelganini o‘z kundaligida qayd etgan. Bu davrda Amir Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan O‘rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga boradigan xalqaro savdo yo‘li – Buyuk ipak yo‘lida savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha muhim chora-tadbirlar ko‘rganlar. Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalari kengaydi. Bu esa Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalarining barqarorligiga olib keldi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Nima uchun Amir Temur Boyazid ustidan g‘alaba qozongan bo‘lsa ham, Usmoniylar davlatini o‘z mustamlakasiga aylantirmadi? U bundan qanday maqsadlarni ko‘zlagan?
2. Amir Temur bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o‘rnatgan davlatlar ro‘yxatini tuzing.
3. Amir Temurning tashqi siyosatdagi maqsadlari nimadan iborat bo‘lgan?
4. XIV asr oxirlarida qaysi davlatlar eng qudratli davlatlar sifatida siyosiy maydonga chiqdi?
5. Yevropa hukmdorlari nima uchun Amir Temur bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga harakat qildi?
6. Nima uchun Mironshoh G‘arbda “katolik oqimining homiysi” degan sifat bilan mashhur bo‘ldi?
7. Nima uchun Amir Temur Samarqand atrofidagi qishloqlarning nomini Sharqning mashhur shaharlari nomi bilan atadi?

AMIR TEMUR DAVLATIDA QO‘SHIN TUZILISHI



BUGUN DARSDA

- Amir Temurning harbiy strategiyasi.
- Amir Temur harbiy siyosati.
- Qo‘shin yig‘ilishi va uning ta’minoti.
- Qo‘shin tarkibi.
- Qurol-aslahalari.
- Mudofaa inshootlari.

O‘ylab ko‘ring

1. “Temur tuzuklari”dan berilgan parchadan Sohibqiron uning strategiyasi nimalarga asoslanganini tushuntiring.
2. Harbiy strategiya deganda nimani tushunasiz? Strategiya nima uchun kerak?

Tarixiy atamalarni eslab qoling

Harbiy strategiya – harbiy san’atning eng oliy sohasi. Mamlakat va qurolli kuchlarni urushga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti, urushni rejalashtirish va olib borish masalalarini o‘z ichiga oladi, urush qonuniyatlarini tadqiq qiladi, strategik operatsiyalarni tayyorlash va o‘tkazish usullari hamda shakllarini ishlab chiqadi, front, flot va armiyalarning maqsad va vazifalarini belgilab beradi, kuchlarni harbiy harakatlar maydonlari va strategik yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlaydi. Harbiy strategiya davlat siyosati bilan uzviy bog‘liq tushuncha.



Tarix saboqlari

Amir Temurning harbiy strategiyasi

Amir Temur qo‘shinida qat’iy tartib va intizom o‘rnatilgan edi. Har bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yo‘l-yo‘riqlarni o‘zi ishlab chiqardi. Qo‘shinning yuragi va qo‘mondonlik o‘zagini barlos urug‘i vakillari tashkil etardi.

Amir Temur o‘z qo‘shiniga shahar va qishloqlarni talon-toroj qilishga izn bermagan. Aksariyat hollarda masalani tinchlik yo‘li bilan yechishga harakat qilgan.

Amir Temur davlat xavfsizligi tizimini ishlab chiqib, uni amaliyotga tatbiq etadi. Sohibqiron o‘zga davlatlarga savdogar, shayx, darvish va boshqalar niqobi ostida o‘z ayg‘oqchilarini ham yuborib, tegishli ma’lumotlarni to‘plab olgan.

Ayg‘oqchilar olib kelgan ma’lumotlar yopiq (maxfiy) majlislarda muhokama etilgan. Har bir joyda xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilingan, mas’ul shaxslar har qanday vaziyatda ham xavfsizlikni saqlashga tayyor bo‘lib turganlar.

Amir Temur saroy va devonni qo‘riqlash xizmatiga birinchi galda e’tibor bilan qarab, o‘n ikki ming askar urush va tinchlik bo‘lishidan qat’i nazar, uni to‘rt tomonlama qo‘riqlab turgan. Har kecha esa ming nafar qurolli askar soqchilikni amalga oshirgan. Har yuz soqchi ustidan bir yuzboshi mas’ul etib qo‘yilgan. Bunday qo‘riqchi soqchilar shahar va qishloqlarga, chegara postlariga, muhim karvon yo‘llariga ham qo‘yilgan. Urush vaqtida esa o‘n ikki ming qurollangan otliq o‘z boshliqlari (amirlar, mingboshilar, o‘nboshilar) rahbarligida to‘rt qismga bo‘linib, o‘ng (barong‘or), chap (javong‘or), saroyning oldi va orqa qismlariga joylashtirilganlar.



– saralangan jangchilar

– otliq bo‘linmalar

– piyoda bo‘linmalar

1. Avangard
2 va 6. Qanbullar
3. Javong‘or
4. Qalb (markaz)
5. Barong‘or
7. Izofera (zaxira)

Amir Temur qo‘shini yasol tartibi

Manbalarda

Hali bironta ham xalq qo‘shinini to‘g‘ri saflashni bilmay, tartibsiz va taktik harakatlarsiz, faqat o‘zidagi jasorat darajasi bilan uzuq-yuluq jang qilayotgan bir paytda Temurning to‘g‘ri saflangan, bir necha yo‘nalishda muntazam tartib bilan jangga kiruvchi, kuchli zaxiraga ega kuchli armiyasi bor edi.

M. Ivanin,
XIX asr rus harbiy tarixchisi

Amir Temur harbiy siyosati

Amir Temur harbiy siyosatining asosiy maqsadi mamlakatni ichki va tashqi xavfdan himoya etish, geosiyosiy maydondagi parokandalik va beqarorlikning oldini olish, hududda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish, geosiyosiy maydondagi vaziyatni to‘la nazoratga olish hisoblangan. Amir Temur kuchli markazlashgan davlat barpo etgach, avvalo uning harbiy salohiyatini kuchaytirishga katta ahamiyat berdi. U qo‘shin tuzilishiga alohida e’tibor qaratib, uning tarkibiy joylashuvi, taktik usullariga yangiliklar kiritishga harakat qildi. U musulmon sharqida ilk bora o‘z qo‘shiniga o‘tochar qurol, ya’ni to‘p – ra’dni olib kirdi. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qo‘shinni ham tashkil qildi.

Amir Temur jahon harbiy san’ati tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida yetti-ta qo‘l (korpus)ga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy qildi. Amir Temur qo‘shini Chingizxon qo‘shinidagi kabi o‘nlik, yuzlik, minglik va o‘n minglik (tuman) qismlarga bo‘lingan.

Qo‘shinni bu tariqa bo‘lishdan ko‘zlangan maqsad boshqaruvni osonlashtirish, tezkor harakatni ta’minlash, tartib-intizomga qat’iy rioya etish va uni kuchaytirish, zarur vaqtda esa darhol qo‘shin safini tuzish hisoblangan.

Amir Temur qo‘shinning tezlik bilan saflanish mexanizmini ham ishlab chiqqan. Qo‘shinga jang sir-asrorini yaxshi biladigan, mard, dovyurak va sadoqatli 313 nafar amir rahbar etib tayinlangan. Ularning har biri o‘rinbosarga ega bo‘lgan. Agar amir urush vaqtida halok bo‘lsa, uning o‘rnini darhol o‘rinbosari egallashi kerak bo‘lgan.



Qo‘shin yig‘ilishi va uning ta’minoti

Amir Temur qo‘shin yig‘ish ishlariga alohida e’tibor bilan qaragan. Ma’lum jismoniy va harbiy yuklamalarni bajara olgan yigitlar qo‘shin safiga jalb etilgan.

Harbiy yurish oldidan chaqirilgan mashvaratdan so‘ng tunkal e’lon qilingan.

Tunkal tegishli joylarga bosh qo‘mondonning yordamchisi – tavochi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavochining zimmasiga askar jam etishdan tashqari qo‘shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o‘rni, jangovar tartibni hamda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishni nazorat qilish ham yuklatilgan edi. Tunkalga ko‘ra, viloyat hokimlari, tegishli hudud beklari, qal’a, qo‘rg‘on dorug‘alari Amir Temur tomonidan tuzilgan ro‘yxat asosida, o‘z jangchilari, zarur ot-ulovi, qurol-yarog‘i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan belgilangan joyga o‘z vaqtida yetib kelishi shart bo‘lgan.

Belgilangan vaqtda lashkargohga yetib kelgan askarlar qat’iy tartib va intizom bilan o‘z pozitsiyalarini egallagan hamda yurish oldidan o‘tkazilajak an’anaviy harbiy ko‘rikka tayyorgarlik ko‘rishgan. Ular kirim-chiqim daftariga, shuningdek, davlat maoshi – ulufa, oziq-ovqat, yem-xashak oluvchilar ro‘yxatiga kiritilgan. Qo‘shin bilan birga yurishda kerak bo‘luvchi novvoy, qassob, go‘sht bilan savdo qiluvchilar, arpa va meva-cheva sotuvchilar ham ko‘chib yurishgan. Ko‘plab kasb-hunar egalari askarlarga xizmat ko‘rsatishgan.

Agar qaysidir oddiy askar qilich chopib, bahodirlik ko‘rsatsa, unga in’om tarzida qimmatli toshlar qadalgan kamar, qilich va ot berilib, u o‘nboshilik martabasiga ko‘tarilgan. Agar qaysidir amir biron mamlakatni egallasa yoki dushman lashkarini yengsa, u uchta narsa bilan taqdirlangan: 1) faxrli nisba (faxriy nom); 2) tug‘; 3) nog‘ora. Bunday shaxslar “bahodir” deb nom olib, hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lishgan. Jasorati uchun o‘nboshiga shahar hokimligi, yuzboshiga biror hudud berilgan. Qaysi bir amir dushman hukmdori yoxud shahzodasini yenggudek bo‘lsa, unga ham shunday hurmat ko‘rsatilib, uning xizmatiga ulus va chegara viloyatlaridan biri berilgan. Mukofot tariqasida ba’zida amirlarga biron-bir hudud 3 yilga yoki boshqa bir muddatga in’om etilgan.

Tunkal – hukmdorning qo‘shin to‘plashga qaratilgan maxsus buyrug‘i (farmoni).

“Tuzuklar”da harbiylar, qo‘shinga maosh berish tartibi ham ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, harbiylar ta’minoti qat’iy belgilangan bo‘lishi va ularda hech qanday muhtojlik sezilmasligi lozim bo‘lgan. Oddiy sipohiyga (o‘z vazifasini yaxshi uddalashi sharti bilan) beriladigan maosh u mingan otning bahosida bo‘lgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to‘rt ot bahosigacha tayin etilgan. O‘nboshilar maoshi oddiy sipohiydan o‘n barobar ortiq bo‘lgan. Yuzboshilar maoshi o‘nboshilarga qaraganda ikki baravar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch baravar ortiq bo‘lishi lozim edi.

Agar sipohiylardan birortasi biri urush vaqtida xatoga yo‘l qo‘ysa, uning maoshi o‘ndan birga kamaytirilgan. Amir ul-umaroning maoshi o‘z qo‘l ostidagilarnikidan o‘n baravar ortiq bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Sipohiylarning har biriga maosh olish yorlig‘i topshirilib, ularga berilgan mablag‘ miqdori shu yorliqning orqasiga yozib qo‘yilgan. Jangda olingan o‘lja esa odatda ikki qismga: hukmdor xazinasi va lashkar orasida bo‘lingan.

Qo‘shin tarkibi



Amir Temurning qo‘shinida turli tillarda so‘zlashuvchi qavmlar bemalol xizmat qila olgan. Shuningdek, qo‘shinning asosiy qismini turkiy urug‘ vakillari tashkil etgan. Barlos, jaloyir, qavchin kabi urug‘ vakillari asosiy qo‘mondonlar bo‘lgan. Qo‘shinda har qanday diniy, irqiy kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmagan. Amir Temur qo‘shinida ayollardan tuzilgan bo‘linmalar ham bo‘lib, ular erkaklar bilan bir qatorda jangga kirganlar. Amir Temur tuzgan qo‘shin muntazam armiyaga xos bo‘lgan. Qo‘shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, o‘z zamonasining ilg‘or qurol-yarog‘i bilan qurollangan, aynan bir turdagi aslaha-anjom bilan ta’minlangan qismlar bir-biridan kiyim-boshi, tutgan bayroq yoki tug‘i orqali farqlangan. Bir turdagi askariy kiyimlarning joriy etilishi kabi yangiliklar keyinchalik yevropaliklar tomonidan o‘zlashtirildi. Og‘ir qurollangan otliq qo‘shinning vazifasi dushmanga hal qiluvchi zarbani berishdan iborat edi.

Og‘ir qurollangan suvoriylarning katta qismini sara otliq qo‘shinlar tashkil etgan. Shuningdek, asosiy jangovar bo‘linmalardan tashqari quyidagi yordamchi qismlar ham mavjud edi:

– qamal qiluvchi, tosh otuvchi mashinalar, “yunon olovi”ni otuvchi, devor buzuvchi texnikadan iborat o‘ziga xos artilleriya;

– doimiy ravishda qo‘l ostida turishi lozim bo‘lgan vositalarni tayyorlash, ko‘priklar qurish, kemalar yasash, kema haydash va boshqa ishlar uchun maxsus ustalar bo‘linmasi;

– jangda foydalanilgan, qo‘l ostidagi jangovar vositalar va hayvonlarni (fil, tuya, ho‘kiz) boshqarish bo‘linmasi;

– tog‘larda harbiy harakatlar olib borish uchun daralardan o‘ta oladigan va baland qoyalarni shturm qila oladigan maxsus piyoda bo‘linmalar.

Manbalarda

Temur lashkarlari orasida ayollar ham bo‘lib, ular dushman bilan bo‘lgan to‘qnashuvlarda matonat ko‘rsatardilar. Nayza sanchish, qilich o‘ynatish va kamondan mo‘ljalga olishda mohir erkaklardan ko‘ra ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo‘lib, yo‘lda dard tutsa, darrov chetga chiqardi. U tezda yig‘ishtirinib olgach, tag‘in uloviga minib jangga kirardi.

Ibn Arabshoh



Qurol-aslahalar



Harbiy yurish vaqtida oddiy askarlardan har o‘n sakkiz kishi o‘zi bilan bir chodir olishi, har bir askarda 2 nafar ot, bir kamon, bir o‘qdon, bitta qilich, arra, bigiz, bir qop, juvoldiz, tesha, bolta, o‘nta igna, charm xalta bo‘lishi shart bo‘lgan. Bahodirlardan esa har besh nafari bitta chodir olib, ularning har biri bitta javshan (temir sovut), dubulg‘a, bir qilich, sadoq (o‘qdon), yoy va ot olishi kerak bo‘lgan.

O‘nboshilardan har biri o‘zi bilan birga bitta chodir, sovut, qilich, sadoq, o‘q-yoy, beshta ot olgan. Yuzboshilardan har birida bitta chodir, o‘nta ot, qilich, sadoq, o‘q-yoy, gurzi, cho‘qmor, koskan (sim ro‘mol), zirh, bagtar (harbiy kamzul) bo‘lishi zarur edi. Mingboshi o‘zi bilan bir chodir, bir soyabon, javshan (temir sovut), dubulg‘a, nayza, qilich, sadoq va o‘q-yoydan hohlaganicha olishi mumkin bo‘lgan. Piyodalar albatta bitta qilich, kamon, ko‘targanicha o‘q-yoy olishi shart bo‘lgan.

Bunday qo‘shin ta’minoti to‘g‘ri va asosli ravishda tashkil etilgan bo‘lib, harbiylar orasida muvozanat va tezkorlik shakllanishiga xizmat qilar edi.

O‘rta Osiyoda ilk bor to‘p – ra’dlar Amir Temur qo‘shinida ishlatilgan. Uning snaryadi yerga tushib portlaganda momaqaldiroqdek gumburlagan. To‘plarni Amir Temur ilk marta 1379-yili

Urganch qamal qilingan vaqtda jangga solgan. Bu XV–XVI asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Eronda artilleriyaning boshqa turlari paydo bo‘lishiga turtki berdi. Ra’dlar dushmanning harbiy texnikasini yakson qilish, istehkomlarni to‘pga tutish, mudofaa inshootlarini vayron qilish kabi harbiy ishlarda faol qo‘llangan.

XIV asrdan boshlab O‘rta Osiyoda o‘tochar qurollardan foydalanish boshlandi. Unga qadar mavjud bo‘lgan naftandoz, manjaniqlarning o‘rnini to‘plar egalladi.

Ra’dlar (ra’d) – arabcha “momaqaldiroq” ma’nosini bildiradi.

O‘ylab ko‘ring

Quyida berilgan rasmdagi jang manzarasini diqqat bilan kuzating. Askarlaning qurollariga e’tibor bering. Otliq lashkarlarning kiyimlari va qurollari haqida fikr bildiring.





Tarix saboqlari

Mudofaa inshootlari

Amir Temur hokimiyatni qo‘lga olganidan so‘ng avvalo mudofaa inshootlari, istehkom devorlarini qayta qurish, mustahkamlash ishiga katta e’tibor berdi. Zahiriddin Muhammad Boburning ma’lumotiga ko‘ra, Samarqand istehkom devori yaxlit, baland uchli burjlari bo‘lib, uzunligi 10 600 qadamni tashkil etgan. Keyinchalik istehkom devorlari ta’mirlanib, qalinligi 4,5 metr keladigan yangi devor qurilgan.

Ark yonida ikkita mudofaa minorasi ko‘tarilgan. Uning ichki darvozasi maxsus istehkomlar bilan mustahkamlangan. Ular devor buzuvchi moslamalar zarbiga ham chidaydigan darajada pishiq bo‘lgan. Devorlarning balandligi ularning qalinligiga qaraganda uch marta ko‘p bo‘lgan. Qo‘rxona (qurol-aslaha ombori) manzilgohida esa (u shahar janubida bo‘lgan) turli mamlakatlardan kelgan qurolsoz ustalar yashab, mehnat qilishgan. Qo‘shin jangchilari ham asosan shu mavzeda yashashgan.

Mustahkam mudofaa devorlari boshqa shahar va qo‘rg‘onlarda ham barpo etilgan edi. Xususan, 1392-yili Amir Temur o‘g‘li sharafiga Binokat o‘rnida qayta qurgan Shohruxiya qo‘rg‘oni mustahkam qal’alardan biri edi.



O‘ylab ko‘ring

Jang vaqtida qo‘shinni tezlik bilan boshqarishga diqqat-e’tiborni qaratish nima uchun kerak?



Tarix saboqlari

Napoleon armiyasining jangovar tartibida qo‘shin qanotlarini himoyalovchi qism bo‘lgan.
Napoleon o‘z vaqtida Amir Temur qo‘shinining tuzilishi, jang olib borish yo‘l-yo‘riqlarini sinchiklab o‘rgangan, uning taktik usullarini o‘zlashtirgan ham.

Jang taktikalari

Amir Temur odatda lashkarboshi sifatida o‘z o‘g‘illaridan birini tayin etib, uning oldiga 2 nafar tajribali amir va boshqa harbiylarni qo‘ygan. U jang vaqtida qo‘shinni tezlik bilan boshqarishga katta e’tibor qaratgan. Sohibqiron o‘nlik, yuzlik, minglik, o‘n minglik qo‘mondonlarini tanlash ishiga shaxsan rahbarlik qilgan.

Lashkarboshilik salohiyatiga ega qo‘mondonlarning to‘g‘ri tanlangani va o‘z joyiga qo‘yilgani jang muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temurning harbiy san’at taraqqiyotiga qo‘shgan katta his-

salaridan yana biri qo‘shin qanotlarini jang vaqtida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, dushman kuchlarini yon tomonidan aylanib o‘tib, unga orqa tomondan zarba berishni joriy etishidir.

Bunday mutlaqo yangi harbiy qism ilgari o‘tgan hech bir mashhur sarkarda (Aleksandr Makedonskiy, Buyuk Fridrix, Chingizxon va boshqalar) qo‘shinida bo‘lmagan.

Amir Temurning dushmanga qo‘qqisdan qaqshatqich zarba berish usuli ham shuhrat qozongan edi. Bunda dushman qarorgohi aniqlangach, Amir Temur unga tunda yaqinlashar, quyosh chiqayotgan vaqtda qo‘shin dushman ustiga qo‘qqisdan yopirilib borar edi. Safar tartibiga ko‘ra, har bir tumanbegi, mingbegi, yuzbegi, o‘nbegi o‘z darajasi, mavqei va safda egallagan o‘rniga qarab qism va bo‘linmalari bilan jangovar tartibda harakat qilgan.

Tartibni buzgan shaxs Temur tomonidan qattiq jazolangan. Qo‘shin dam olishga to‘xtaganda yoki janggohga tushganida lashkargoh atrofi bir-biriga zanjirband qilingan aravalar bilan mahkam o‘ralgan, shoxlar bilan to‘silgan, xandaqlar qazilib, o‘ziga xos mudofaa devori yaratilgan. Istehkom kecha-kunduz soqchi bo‘linmalar yordamida qo‘riqlab turilgan. Daryo bo‘yiga yetib kelgan qo‘shin kechuvdan qism-qism bo‘lib o‘tgan. Sersuv va seryomg‘ir paytda qayiqlar bir-biriga bog‘lanib, o‘ziga xos ko‘prik tayyorlangan.

Yurish vaqtida parokandalikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida har bir bo‘linma, guruh, qismning o‘z paroli (o‘ron) bo‘lgan. Dushman qo‘shinini jangga chaqirish maqsadida Amir Temur o‘zini zaif qilib ko‘rsatar edi. Bu strategik hiyla (savqul jaysh) ko‘p hollarda samara berar edi. Dastlabki to‘qnashuv yengil razvedkachi suvoriylar (qorovul) tomonidan boshlab berilardi. Shundan so‘ng o‘ng va chap qanot ilg‘or qismlari madadida asosiy ilg‘or qism – manglay jangga kirgan. Manglay ortidan barong‘or hamda javong‘orning qolgan ikki bo‘lagi peshma-pesh harakat qilgan. Mabodo ushbu kuch dushmanni mag‘lub etishga kifoya qilmasa, u holda boshqa kuchlar – qo‘l (g‘ul) hal qiluvchi jangga tashlangan.

Dushmanda qochish belgilari va mag‘lubiyat alomatlari ayon bo‘lib qolganda uni ta’qib etish uchun chapdast suvoriylardan tuzilgan quvg‘inchi tayin etilgan.

Amir Temur qo‘shinning jangovar holatini dasht va yaylovlarda imtihondan o‘tkazar edi. Hamma yig‘ilgach, qo‘shin turiga qarab (yoychilar, to‘pchilar, nayzadorlar va hokazo) ko‘rikdan o‘tkazilgan. Ko‘rik oxirida qo‘shin ortidan boruvchi og‘ir karvon – ug‘ruq ham nazoratdan o‘tkazilgan. Harbiy musiqachilar ijrosidagi jangovar kuylar ostida oliy bosh qo‘mondon ko‘rik o‘tkazgan. Safdagi jangchilar nayzalarini baland ko‘tarib, kuchli na’ra tortib, yurishga shay ekanliklarini bayon etgan.

Amir Temur dushman hududiga o‘z ayg‘oqchilari (xabargir, josus)ni tez-tez jo‘natib, tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lganidan so‘nggina yurishni boshlagan. Ma’lumotlar ba’zan

Manbalarda

Omadli jangchi, dunyoning yagona hukmdori, taktik va strategik bilimlarni uyg‘unlashtirgan zot

F. Shlosser, “Umumjahon tarixi”

Urush maydonini tanlashda to‘rt narsaga amal qilish lozim. Bular:
– o‘sha yerning suvga uzoq-yaqinligi;
– askar saqlaydigan yerning xavfsizligi;
– dushman askari turgan yerdan teparoqda bo‘lishi va quyoshga ro‘para bo‘lib qolmaslik;
– urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo‘lishi.

“Temur tuzuklari”dan

savdogarlar orqali ham olingan. Amir Temur chet el savdogarlariga ham homiylik qilib, ulardan turli ma’lumotlarni ola bilgan. Urush vaqtida bayroqlar harakati ham ishga solingan, bu dushmanni chalg‘itishga yordam bergan.

Amir Temur davlat harbiy tizimini san’at darajasiga olib chiqib, katta obro‘-e’tiborga sazovor bo‘ldi. Sohibqiron boshqa sarkardalardan farqli ravishda qo‘shiniga o‘zi namuna ko‘rsatdi.

Amir Temur kontrrazvedkani ham ishga soldi. Sohibqiron harbiy san’atining yana bir o‘ziga xos jihati bor edi. U bir vaqtda bir necha yerga yurish boshlagani haqida ovozalar tarqatar, aslida esa uning qo‘shini boshqa joyda paydo bo‘lar edi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Amir Temurning harbiy salohiyati haqida esse yozing.
2. Amir Temur qo‘shinlari g‘alabasining siri nimada edi?
3. Amir Temur To‘xtamish bilan bo‘lgan jangda qanday strategik hiyla ishlatgan?
4. Amir Temur nima uchun lashkarboshilikka o‘zining farzandlarini qo‘ygan deb o‘ylaysiz? Bundan qanday maqsad ko‘zlangan?



AMIR TEMUR DAVLATINING BOSHQARUVI

BUGUN DARSDA

- Amir Temur davlatining markaziy hokimiyat va boshqaruv organlari.
- Mahalliy boshqaruv.
- Sud tizimi.

O‘ylab ko‘ring

1. Chig‘atoy ulusida davlat boshqaruvi qanday bo‘lgan edi?
2. Amir Temur ichki va tashqi siyosatda qanday tartiblar joriy etdi?
3. Amir Temur sarkardalarga qahramonliklari uchun qanday tortiqlar qilgan?



Tarix saboqlari

Amir Temur davlatining markaziy hokimiyat va boshqaruv organlari

Amir Temur davlatni idora qilishda adolat, qonun ustuvorligiga asoslanib ish ko‘rishga, fuqaro manfaatlarini ko‘zlab siyosat yuritishga alohida e’tibor berdi.

Amir Temur o‘z davlatini barpo qilishda o‘tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalandi. Mazkur davlat o‘z tuzilishiga ko‘ra ko‘pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan.

Amir Temur butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartibga asos solgan va u quyidagi tamoyillarga amal qilgan:

– davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishi;

– davlat va jamiyatning siyosiy yaxlitligi;

– davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilmog‘i;

– boshqaruv tizimini muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo‘lishi;

– jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli davlat e’tiborida bo‘lishi;

– fan va madaniyat ravnaqi to‘g‘risida doimiy qayg‘urish;

– har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko‘ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;

– davlat tepasidagi kuchlar o‘tmish, hozir va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g‘oyat yuksak ma’naviyat va millatparvarlik ila anglamog‘i:

– jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatlari ta’minlanishi.



Temur muhim davlat ishlarini jamiyatning yuqori qatlami vakillaridan iborat majlis (kengash)da ko‘rib, hal qilgan. Bu majlisda kimlar ishtirok etishi va ularning taxtga nisbatan joylashishi, ya’ni saroyda o‘tirish va o‘rin olish tartibi ham belgilab qo‘yilgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib mustaqil davlat belgilarini eslang.
2. Amir Temurning markazlashgan siyosiy tartibga asoslangan mustaqil davlat tamoyillari sizga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarini eslatdi?



Tarix saboqlari

Amir Temur Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni tuzdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Quyi Volga, Don bo‘ylari, Balxash ko‘li va Elsuvi daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysundirdi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo‘ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. Bag‘dod, Darband va Baylakon shaharlari shular jumlasidandir. Eng muhimi Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi qadimiy karvon yo‘llarini tikladi.

Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo‘shdi.

Amir Temur saltanatida markaziy boshqaruv organlari vazifasini devonbegi boshchiligidagi maxsus devonxona bajargan. Devonxonada quyidagi vazirlar bo‘lgan:

1) mamlakat va raiyat vaziri – mamlakatdagi muhim xo‘jalik va qurilish ishlarini, raiyat ahvoli va shu kabilarni kuzatib turgan;

2) sipohi vazirlari – sipohilarning maoshlari va armiyaning holatidan xabardor bo‘lib, boshqarib turganlar;

3) davlat daromadlarini omonat saqlovchi vazir – egasiz qolgan, o‘lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, savdogarlar mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularning o‘tloq-yaylovlarini boshqarib, bulardan yig‘ilgan daromadlarni omonat saqlagan;

4) saltanat ishlarini yurituvchi vazir – butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlarini, xazina xarajatlarini nazorat qilib turgan.

Bundan tashqari, yana 3 vazirdan iborat davlat hay’ati (xolisa) tuzilib, u chegaradagi va egallab olingan mamlakatlardagi moliyaviy ishlarni va ulardan keladigan daromadlarni boshqarib turgan.

Yuqoridagi yettita vazir devonbegiga bo‘ysungan.

Devonbegi ushbu vazirlar bilan birgalikda davlatdagi muhim moliyaviy ishlarni boshqargan va vazirlar faoliyatini nazorat qilib turgan. Devonbegi yonida arkbegi ham bo‘lib, u turli rasmiy marosimlarni uyushtirgan va o‘tkazgan.

Boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo‘lgan.

Dargohni oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog‘lanib turish ishlari Oliy devon zimmasida bo‘lgan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi yana uch vazir bo‘lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan. Amir Temur mamlakatni boshqarishda o‘z yaqinlariga suyangan.

Mahalliy boshqaruv

Har bir sarhad, viloyat, shahar va lashkarda xabar yozuvchilar tayinlangan. Ular hokimlar, raiyat, sipoh va lashkarlarning xatti-harakati haqida, atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, begona kishilar, qo‘shni davlatlar va boshqalar haqida xabar yetkazib turishlari lozim edi.

Har bir shahar va qishloqqa kutvol (qal’a boshlig‘i – komendant) tayinlanib, u sipoh-u raiyatga soqchilik qilishi va uni turli xil o‘g‘irliklardan himoyalashi lozim bo‘lgan.

Temur arzbegi mansabini ta’sis etgan. U sipoh, raiyat yoki ariza va shikoyat bilan kelganlarning ahvolini, mamlakat obodonchiligini, muhim ishlardan qaysi biri bitganini nazorat qilgan.

Temur hokimiyati ostidagi o‘troq dehqon ommasi va shahar aholisini boshqarish viloyat darajasida valilar, o‘lkalarda beklar, shaharlarda esa hokimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Kentlar va qishloqlar tepasida arboblar turgan. Ularni viloyat va tumanning hokimlari tayinlagan.

Mahalliy hokimiyat boshliqlari soliq va o‘lponlar yig‘ishni, ularni davlat xazinasiga o‘z vaqtida yetkazishni nazorat qilgan.

Har bir viloyat, tuman va shaharlarda moliya ishlarini 3 ta vazir yuritgan: 1) xiroj miqdorini belgilash va uni yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi vazir; 2) soliqlardan tushgan mablag‘larni navkarlar o‘rtasida taqsimlovchi vazir; 3) egasiz mulklarni boshqaruvchi vazir.

Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi ichida mahalliy hokimiyat tumanlar va uluslarning hokimlariga tegishli bo‘lgan.

Sud tizimi

Temur davlatida sud ishlarini qozilar amalga oshirgan. Sudlar ochiq ko‘rinishdagi toifaviy xarakterga ega bo‘lgan. Aholi uchun, qo‘shinlar uchun, dindorlar uchun va xizmatchilar uchun alohida sudlar (qozilar) mavjud bo‘lgan. Diniy martabadagi kishilarni shayx ul-islom sud qilgan.

Barcha sudlarda qozilarga fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha xulosalarni muftiy bergan. Sud jarayoni juda sodda va oddiy bo‘lgan.

Sud hokimiyati 3 xil ko‘rinishda edi:
1) ma’muriy sudlar;
2) shariat qozisi, ya’ni shariat talablariga asoslanib ish yurituvchi sudya;
3) ahdos qozisi – odat huquqi asosida ish ko‘ruvchi sudya.

U tortishuv xarakteriga ega bo‘lib, tomonlarning o‘zlari ayblovchi va oqlovchi ma’lumotlarni, hujjatlarni to‘plaganlar, guvohlarni keltirganlar.

“Temur tuzuklari”ga asosan, qozilar har kimni qilmishiga yarasha javobgarlikka tortishi, asosli qarorlar va hukmlar chiqarishi lozim edi. Tomonlar qozilarning hukmlari va qarorlaridan norozi bo‘lsa, faqat amirga shikoyat qilishlari mumkin edi. Amirning hukmi vojib bo‘lgan.

Temur davlatida muhtasiblar (arabcha, *nazorat qiluvchilar*) alohida mavqega ega edilar. Ular diniy marosimlar, urf-odatlar va shariat qonunlarining bajarilishi ustidan nazorat olib borardilar.

Butun imperiya bo‘yicha odil sudlov holatiga qozikalon (oliy sudya) javob bergan. U raiyat qozilari faoliyatini nazorat qilgan. Davlatni



boshqarish tartibiga qarshi qaratilgan hamda mansablarni suiiste'mol qilishga oid jinoyatlar bo'yicha sud ishlarini yurituvchi maxsus organ – adolat devoni mavjud bo'lgan.

Javobgarlikka tortishda va jazo berishda shaxsning ijtimoiy holatiga alohida e'tibor berilgan. Masalan: bosib olingan o'lkalarni idora etuvchi taxt vorisi markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, unga tan jazosi qo'llanishi mumkin emas edi. Bunday holda uni tergov tugaguncha qamoqda (zindonda) saqlash va amirga ma'lum qilish kerak edi. Uning ustidan sudni amirning o'zi olib borgan.

Temurning maxfiy josuslari bo'lgan. Maxfiy harbiy qism vazifasini mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan chopqinchi, ming nafar chopar amalga oshirgan. Ular turli mamlakatlar va sarhadlarning xabarlarini, qo'shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, amirga yetkazib turgan.

Maxfiy harbiy qism bilan birga jazolovchi qism ham mavjud bo'lgan. Masalan, har bir shahar va qishloqqa kutvol (qal'a komendanti) tayinlanib, u sipoh va raiyatga soqchilik qilgan, o'g'irlik va bosqinchiliklarning oldini olgan.

Bundan tashqari, yo'llarga kuzatuvchilar va zobitlar tayinlangan, ular yo'llarni qo'riqlaganlar, o'tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va jonlarini himoya qilganlar. Har bir shaharda qo'rchilar (qo'riqchilar, posbonlar) ham bo'lib, ular aholini qo'riqlab turganlar. Temur har bir mamlakatda mehnatga layoqatli gadolarni aniqlab, ularga vazifa yuklanishi va ish berilishi haqida buyruq chiqargan.



Manbalarda

...Saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o'rnatdim.

Amir Temur



O'rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Amir Temur davlati boshqaruvi bo'yicha infografika tayyorlang.
2. Amir Tumur davridagi boshqaruv tizimini ungacha bo'lgan Xorazmshohlar, Somoniylar, Qoraxoniylar davlati boshqaruvi bilan taqqoslang. O'ziga xos va o'xshash jihatlarni aniqlang.
3. Sudlarning sohalarga bo'linishini zamonaviy sud tizimi bilan solishtiring. Sudlar sohalarga bo'linishi zarurmi? Fikringizni asoslang.
4. Amir Temur faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi birinchi qismi bilan solishtiring. Amir Temur o'z fuqarolarining huquq va erkinliklari kafili bo'lish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirgan?

AMIR TEMURNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

BUGUN DARSDA

- Yevropa xalqlarining Amir Temurdan minnatdorligi.

O‘ylab ko‘ring

1. Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rni qanday? Fikringizni misollar bilan asoslang.
2. Nima uchun Amir Temurni Yevropaning xaloskori deb atashadi?
3. Jahon tarixida munosib o‘rin egallagan hukmdorlar va sarkardalardan kimlarni bilasiz? Ularning faoliyati Amir Temur faoliyatidan nimasi bilan farqlanadi?



Yevropa xalqlari Amir Temurdan minnatdor

Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatdi. Siyosiy tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi katta ijobiy natijalarga olib keldi. Mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini, mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida tanazzulga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo‘jalikning asosi bo‘lgan sug‘orma dehqonchilikda muayyan o‘sish ro‘y berdi.

Yangi-yangi kanallar qazilib, sug‘orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

1402-yilda jahonga, ayniqsa, Bolqon yarimoroli hamda Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarga tahdid solgan Usmonli sultoni Boyazid I Yildirim tor-mor keltirilganidan so‘ng fransuzlar Amir Temurning oltin haykalchasini quydirib, ostiga “Yevropa xaloskoriga” deb yozib qo‘yadilar. Bugun bu ulug‘ zotni buyuk bunyodkor, buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida butun dunyo tan oldi. Davlat arboblari, olim-u fozil kishilar Sohibqiron haqida iliq fikrlarni aytmoqda, uning hayoti va faoliyatiga yuksak baho bermoqda.

Yevropa olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi XVI asrdan boshlangan edi. 1553-yili Italiyaning Florensiya shahrida italiyalik olim Perondinoning “Skifiyalik Tamerlanning ulug‘vorligi” asari bosilib chiqdi. Bu Yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti edi. Ushbu asrda ispan tarixchisi Pero Meksikaning “Buyuk Temur tarixi” asari ham chop etiladi.

1582-yili Sevilyada mashhur ispan elchisi Klavixoning “Esdaliklar” kitobi nashrdan chiqdi. Ingliz dramaturgi Xristofor Morloning “Buyuk Temur” nomli sahna asari ham shu asrda yaratildi. Shundan beri buyuk Sohibqironga atalgan asarlarning keti uzilmaydi. Hozirgi paytga kelib Amir Temur va temuriylar haqida 33 mamlakatda 500 dan ziyod tadqiqotchining asarlari chop etilgan.

Germaniyaning Potsdam shahridagi qirol Fridrix saroyida ham Sohibqironning surati osig‘liq turibdi. Bu zal “Amir Temur zali” deyiladi.

(O. Bo‘riyev, “Amir Temur – Turon sultoni” asaridan



Ispaniya elchisi Klavixoning “Esdaliklar” kitobidan

Luvr muzeyi binosi 1190-yilda Fransiya qiroli Filippe Avguste tomonidan qal'a sifatida bunyod etilgan. "Luvr" so'zi mazkur mudofaa qo'rg'oni nomidan olingan. U bir necha asr davomida Fransiya qirollarining qarorgohi bo'lgan. Keyinchalik Versal saroyi qurilgach, 1793-yilda muzeyga aylantirilgan.



Rui Gonsales de Klavixo

Dunyodagi eng mashhur muzeylardan biri bo'lmish Luvr Fransiyaning o'ziga xos "tashrif qog'ozi"dir. U badiiy kolleksiyasi bo'yicha jahonda birinchi, maydonining kattaligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Ushbu muzeyga har yili qariyb 10 million sayyoh tashrif buyuradi.

Luvr muzeyi eksponatlari 6 ta kolleksiyaga ajratilgan. Sharq kolleksiyasining o'zi 24 ta zalni egallagan. U yerda mamlakatimiz tarixiga oid minglab ashyolar bor. Jumladan, Amir Temur bobomizning Qirol Karl VI ga yozgan maktubi, Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun Amir Temur yasattirgan shamdonlardan biri, qadimiy qurol-aslahalar, qabrtoshlardagi bitiklar va boshqa buyumlar buyuk o'tmishdan so'zlaydi.

Sharqning mashhur olim va adiblaridan Sharaffuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"lari, Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi", Hofiz Abro'yning "Tarixlar sarasi", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matta'i sa'dayn", G'iyosiddin Alining "Temurning Hindistonga yurishi", Mirxondning "Soflik bog'i" asarlari Amir Temur tarixi bo'yicha muhim manbalardir.

1425-yilda yozilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Temur ko'klarga ko'tarilgan bo'lsa, Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asarida Temur salbiy inson sifatida tasvirlanadi. Yevropada Rui Gonsales de Klavixonning "Samarqandda Temur saroyiga sayohat kundaligi" (1403–1406) nomli kitobi Yevropada eng muhim tarixiy manbalardan hisoblanadi. Nemis olimi M. Dagen Hort 1913-yilda Yevropa sharqshunoslarining Amir Temur va Temuriylar davriga bag'ishlangan asarlar ro'yxati–bibliografiyasini chop ettirdi. Fransuz olimi Keren "Tamerlan yoxud Sohibqiron salatanati" (Nyutabel, Shvetsariya, 1978), J. P. Ru "Tamerlan" (Parij, 1994) nomli kitoblarida Amir Temur haqidagi 100 dan ortiq asar ro'yxatini keltirgan. Abulhay Habibiy 1974-yilda Tehronda 1018 sahifadan iborat "Temur davri san'atlari" asarini chop ettirdi.





Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o‘rnatildi, Toshkentdagi Amir Temur xiyobonida Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi (1996), “Amir Temur” ordeni ta’sis etildi (1996) va Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi tashkil qilindi (1995). Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996). Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar va she’riy hamda nasriy asarlar yaratildi.



Rim papasi va Fransiya qiroli Karl XV ning elchisi Ioann Grinlo Amir Temur suhbatlarida ishtirok etgan, uning saltanatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va bu haqda asar yozgan yevropalik birinchi muallifdir. U 1401-yilning avgustida Amir Temur bilan uchrashadi.
Grinloning asari “Temur va uning saroyiga oid xotiralar” deb ataladi. Bu asar 23 bobdan iborat. Asarda muallif Amir Temur taxtga chiqqan vaqtdan boshlab 1402-yil avgust oyigacha bo‘lgan voqealar haqida qimmatli ma’lumotlar bergan.



2017-yil 30-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev harbiy ta’lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga “Temurbeklar maktabi” deb nom berish taklifini ilgari surdi va ushbu taklif yoshlar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi.





O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Yevropalik olimlarning Amir Temur shaxsi va faoliyatiga qiziqishi qachondan boshlangan?
2. Amir Temurning Vatanimiz va jahon tarixida tutgan o‘rni haqida o‘z fikrlaringizni bayon eting.
3. Amir Temur qanday nomlar bilan ulug‘landi?
4. Qaysi voqeadan so‘ng Yevropada Amir Temurning obro‘-e’tibori oshib ketdi? Nega aynan bunday bo‘ldi deb o‘ylaysiz?



Geogr Fridrix Gendel

Nemis kompozitori Georg Fridrix Gebdel 1724-yilda “Temur” operasini yaratdi.



Nikolo Franchesko Haym

“Temur” operasi nemis millatiga mansub italiyalik san’atkor Nikolo Franchesko Haym librettosiga yozilgan.



A. Y. Yakubovski



B. D. Grekov

Rossiya tarixchilari B. D. Grekov va A. Y. Yakubovskiylar ning ta’kidlashicha, Amir Temurning To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi faqat O‘rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, Rus knyazliklarining birlashishi uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi.

Rui Gonsales de Klavixo (1403–1406) asarini yozgan



AMIR TEMUR DAVLATIDA OBODONLASHTIRISH VA BUNYODKORLIK

BUGUN DARSDA

- Obodonlashtirish ishlari.
- Shaharsozlik va me’morchilik.
- Hunarmandchilik.

O‘ylab ko‘ring

1. Amir Temur tomonidan qurdirilgan qanday inshootlarni bilasiz?
2. Amir Temur barpo ettirgan bog‘lar haqida eshitganmisiz?



Tarix saboqlari

Obodonlashtirish ishlari

Amir Temur bobomiz tabiatni insonni sog‘lomlashtirish, cho‘l-biyobonlarni obodonlashtirish va dehqonchilikni rivojlantirish borasida juda ko‘p hikmatli so‘zlarni meros qilib qoldirdi. “...Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar, hammomlar qurishni, musofir yo‘lovchilar uchun yo‘l ustida rabotlar bino qilishni, daryolar ustida ko‘priklar qurishni buyurdim. Kim biron sahroni obod qilsa yoki biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig‘ilsin”.

Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida o‘nlab sug‘orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Mozorot va ziyoratgohlar obod etildi.

Qashqadaryo viloyatidagi Eski Anhor kanalini Amir Temur bobomiz Sulton Boyazid ustidan qozongan g‘alabasi sharafiga qurdirgan. Sohibqiron Xurosondagi Murg‘ob vodiysida obodonchilik va dehqonchilik ishlari tanazzulga yuz tutganini ko‘rib, daryodan 20 ta kanal qazdirib, suv chiqartirdi, dehqonchilik va obodonchilik ishlarini rivojlantirdi.

Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoga ko‘priklar qurildi. Sirdaryodan, Ohangarondan kanal qazildi. Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Farg‘onada irrigatsiya – sug‘orish ishlari olib borildi. Qorabog‘da 42 km kanal qazildi. Ozarbayjondagi Mug‘on shahrida 12 ta bog‘ barpo etildi.

Amir Temur davrida betakror bog‘lar yaratilgan va ularga o‘ziga xos nomlar qo‘yilgan. Amir Temur bog‘lari o‘rta asrlar rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan. Bu bog‘lar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘lgan.

Chorbog‘lar – to‘rtburchak shaklida bo‘lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho‘zilgan. Sahnidan o‘tgan ariqlar ularni teng to‘rt qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland devorlarning har burchagida minora bo‘lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog‘larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan.

Tuzilishi geometrik shaklda bo‘lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag‘rida barpo etilgan bog‘lar. Bunday bog‘lar hukmdor ov qilishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy qismi tabiiy, qo‘l tekizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy va chodirlar qurilgan. Hovuzlar qazilib, favvoralar o‘rnatilgan. Bu turdagi bog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo‘lgan.

Bog‘i Baland. Sohibqiron Samarqand shimolidagi Cho‘ponota maqbarasi yaqinida (hozirgi aeroport atrofi) nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishda Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog‘bon ustalari hamda me’morlari qatnashgan. Bog‘ o‘rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo‘lib, uning atrofidagi uzumlar, anjirzor va olmazorlar bog‘ga go‘zal bir tarovat baxsh etib turgan.

Bog‘i Behisht. 1378-yilda Sohibqiron Samarqandning g‘arbida suyukli xotini Xayrunnisoga atab qurdirgan. Ayrim yozma manbalarda “Bog‘i jannat” nomi bilan ataladi. Bog‘ o‘rtasidagi atrofi xandaq bilan muhofaza etilgan sun’iy tepalik ustida tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo‘lgan. Saroyga bir necha ko‘tarma ko‘priklar orqali kirilgan. Bu bog‘ning bir tarafida hayvonot bog‘i bo‘lib, turli xil hayvonlar saqlangan.

Bog‘i Davlatobod. Bu bog‘ Samarqanddan 13 km janubda, hozirgi katta O‘zbekiston traktining chap tomonida bo‘lgan. Amir Temur bu bog‘da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, xorijiy elchilarni qabul qilgan. Unda ariqlar, to‘rtta hovuz, katta saroy bo‘lgan. Saroy sun’iy tepa ustiga qurilgan, atrofi xandaq bilan o‘ralgan. Unga ikkita ko‘tarma ko‘prik orqali kirilgan.

Bog‘i Dilkusho. 1397-yilda Amir Temurning xotinlaridan biri Tukalxonim sharafiga qurilgan.





Bu bog‘ Samarqanddan 5 km sharqda, Panjakent yo‘lining o‘ng tomonida (qadimiy Hinduvon qishlog‘i o‘rnida) joylashgan. Har tarafi 900 metr uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o‘ralgan. Bog‘ning to‘rtta darvozasi markazida hashamatli saroy bo‘lgan. Saroy uch qavatli bo‘lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Sohibqiron olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo‘yilgan. Bu bog‘ o‘rnida hozir Dilkusho qishlog‘i joylashgan.

Bog‘i Jahonnamo. Amir Temur Samarqanddan yetti farsax (42 km) narida, Zarafshon tog‘i etagida qurdirgan (taxminan Urgut tumanida). Unda saroy va qal’a bo‘lgan. Bog‘ning hududi juda ham katta bo‘lib, yo‘qolib qolgan ot 6 oydan so‘ng topilgan ekan.

Bog‘i Maydon. Cho‘ponota tepaligi etagida, Samarqandning shimolida joylashgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, bog‘da hashamatli bir ayvon (ko‘shk) va qimmatbaho toshlardan yasalgan taxt bo‘lgan. Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulug‘bek bu bog‘ni yanada obod qilgan. Bu bog‘ o‘rni hozir ham Bog‘i Maydon deb ataladi.

Bog‘i Nav (Yangi bog‘). Bu bog‘ni 1404-yilda Amir Temur Samarqandning janubida qurdirgan. Lolazor qishlog‘i o‘rnida joylashgan. Bu bog‘ to‘rtburchak shaklida bo‘lib, atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, har burchagida minora qad ko‘tarib turgan. Markazida boshqa bog‘lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida katta hovuz bo‘lgan.

Bog‘i Chinor. Amir Temur Samarqandning sharqida (Konigilning janubi-g‘arb tarafida, hozirgi Qo‘shtamg‘alik tepaligi o‘rnida) barpo qildirgan. Unda ajoyib chinorlar ko‘p bo‘lgan. Bog‘ning markazida saroy joylashgan.

Bog‘i Shamol. Amir Temur 1397-yilda nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Bu bog‘ Samarqandning g‘arbida bo‘lgan. Undagi saroy to‘rtburchak shaklida bo‘lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni qorayog‘och va fil suyagidan ishlangan. Bu bog‘ joylashgan hudud va u yerdagi ariq hozir ham Bog‘i Shamol deb ataladi.

Amir Temur Samarqand atrofida bulardan tashqari yana bir qancha bog‘ va saroylar barpo etgan.



Manbalarda

Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili rayat o‘z roziligi bilan berganini olsunlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilsin.

“Temur tuzuklari”dan



O‘ylab ko‘ring

1. Bog‘lar haqida berilgan ma’limot asosida rasm chizishga harakat qiling.
2. Har bir bog‘ning o‘ziga xosligi nimada?
3. Amir Temur bergan soliq imtiyozlari mamlakat obodonchiligiga qanday ta’sir qilgan? Bugungi kunda berilayotgan soliq imtiyozlarining jamiyatimiz rivojidagi o‘rni qanday? Qanday soliq imtiyozlarini bilasiz?

Shaharsozlik va me’morlik



Manbalarda

Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim.

Amir Temur



Tarix saboqlari

Tarix bu ko‘hna dunyodan o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me’morchilik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo‘lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamatli imorat-u inshootlar bino qilganlar.

Amir Temur zabt etgan mamlakatlarining bir qator shaharlari (Bag‘dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo‘lsa-da, asosiy e’tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o‘g‘li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi.



Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo‘lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko‘tardi.

Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar “Qubbat ul-ilm val-adab” unvoniga ega bo‘ldi. Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida ayniqsa gullab-yashnadi.

Shaharda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlarining me’mor-u binokorlari qo‘li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar qurildi.

Shohizinda me’moriy majmuasiga mansub Shodimulk og‘o maqbarasi, Shirinbeka og‘o maqbarasi va boshqalar barpo etildi. Shaharda Bibixonim jome masjidi, Amir Temurning qarorgohi Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroylar qad ko‘taradi.

Samarqand shahri Amir Temur davrida o‘zining qadimiy o‘rni Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangitdan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal’a devori bilan o‘ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So‘zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o‘rnatildi.

Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida o‘nlab sug‘orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi.

Yangi qishloqlar barpo etildi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go‘zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilgani jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog‘i lozim edi.

Manbalarda

Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko‘targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari va mamlakatlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi.










O‘ylab ko‘ring

1. Berilgan rasmlarga e’tibor qiling. Rasmlardagi har bir bezakni tavsiflang. Ular tayyor mahsulot shakliga kelguniga qadar qancha bosqichni bosib o‘tgan? Bu ishlarni amalga oshirish uchun insondan qanday bilim talab qilinadi?
2. XIV asrda bunyod qilingan inshootlar bezagidagi ranglar bugungacha saqlanib qolganini inobatga olib, o‘sha davrda qaysi fanlar rivojlangani haqida xulosa qilsa bo‘ladi? Siz qaysi fanga qiziqasiz? Nima uchun?



Manbalarda

Temur qanday hunar yoki kasb bo‘lmasin, agar unda biron fazilat va foyda bo‘lsa, shu kasb egalariga g‘oyatda mehr qo‘yar edi. U munajjim-u tabiblarni (o‘ziga) yaqin tutib, ularning gaplariga e’tibor qilar va so‘zlarini tinglardi...

Ibn Arabshoh



Tarix saboqlari

Hunarmandchilik

Har bir mag‘lub bo‘lgan mamlakat va shaharlar Temurga o‘z olimlari, musavvirlari va eng yaxshi usta-hunarmandlarini berardi. Mingga yaqin hunarmand asbob-uskunalari va oila a’zolari bilan tobe etilgan mamlakatlardan Samarqandga olib ketilardi. Chet ellardan yuzlab sohibi hunarlar, jumladan:

– Erondan musavvirlar, xattotlar, sozandalar, muarrixlar, me’morlar, qurilish ishlari bo‘yicha hunarmandlar, olimlar va din arboblari;

– Kichik Osiyodan qurolsozlar, to‘pchi muhandislar, kumushga ishlov beruvchi ustalar, g‘isht teruvchilar, arqon eshuvchi ustalar;

– Suriyadan pillachilar, tikuvchilar, to‘quvchilar, sangtaroshlar, duradgorlar, chodir tikuvchilar, kamon-yoy yasovchi ustalar, qurolsozlar, qalpoq yasovchilar, mol tabiblari, naqqoshlar, qirg‘iydorlar, shisha idishlar va chinni ishlab chiqarish bo‘yicha muhandislar;

– Turkiyadan zargarlar, movut ishlab chiqaruvchilar, sangtaroshlar, o‘q-yoy ustalari;

– Halabdan mashhur paxta yigiruvchilar;

– Fors va Ozarbayjondan sangtaroshlar;

– Hindistondan eng malakali g‘isht teruvchi me’morlar, binokorlar, metall ustalari, sangtaroshlar hamda zargarlar;

– Tabriz va Xorazmdan imoratsozlar va naqqoshlar olib kelindi.

Ularning kasb sirlaridan mahalliy aholi ham bahramand bo‘lib, yangi kasb-hunarlar rivoj topib, hunarmandchilik mahsulotlarining turi ko‘paya boshladi.

Amir Temurning bu tadbiri Samarqandga Osiyoning eng yaxshi ustalarini to‘pladi hamda vohalar va shaharlar kengayib, Movarounnahr aholisi ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

Ushbu davrda hunarmandchilik faoliyatini olib borish, uning yangi turlarini yo‘lga qo‘yish, aholining mehnatga layoqatli, lekin ishsiz yurgan qismiga turli kasb-hunarlarni o‘rgatish, kerak bo‘lsa, o‘z faoliyatini boshlash uchun davlat xazinasidan sarmoya ajratish va boshqa qulay shart-sharoitlar yaratish yo‘lida odilona siyosat olib borildi. Mamlakat hududlari va viloyatlari bo‘ylab o‘tgan barcha karvon yo‘llarida katta-kichik rabotlar va yomlar barpo etilgan, karvonsaroylar va xonaqohlar qurilgan. Natijada karvonlar qatnovi jonlanib, ichki savdo barqarorlashgan. Tashqi savdo kuchayib, shaharlar bilan dehqonchilik vohalari va ko‘chmanchi chorvador dasht aholisi o‘rtasida savdo-sotiq aloqalari kengayib bor-



Po‘lat, bolg‘alangan.
Bu – po‘lat dubulg‘a va ustidan zirh kiyiladigan charm ko‘ylak bo‘lib,deyarli butun holda saqlangan. Sovut 100 ga yaqin po‘lat plastinkalardan tashkil topgan. U bir necha bo‘lakdan iborat.
Shohruxiya. Toshkent viloyati.



Temir, mis, taqalangan, quyma.
Qisqichlar, metall kesuvchi qaychi, nov, sandonlar, metall quymasi.

gan. Markaziy shaharlar mol ayirboshlashda muhim rol o‘ynay boshlagan.

Amir Temur davlatni boshqarishda va aholining farovonligi yo‘lida mohirona siyosat olib borish bilan birga o‘z vorislaridan ham buni qattiqqo‘llik bilan talab qilgan. Hatto o‘z mansabini suiiste’mol qilganlarini jazolagan.

Tantanalar paytida har bir hunar ahli va san’atkor o‘z san’atini namoyish qilishda jidd-u jahd ko‘rsatgan, masalan, bir qamish to‘quvchi faqat qamishdan mukammal asbob-anjomi-yu qurol-yarog‘i bilan jihozlangan suvoriy jangchini yasab, namoyish qilgan.

“Hunarmand uni shu qadar mohirlik bilan kamoliga yetkazgan ediki, – deb yozadi tarixchi, – hatto tirnog‘i, kipriklarini ham qamishdan aniq tasvirlagan edi”.

Shaharning chetida alohida qasr bo‘lib, unda podshohning xazinasi saqlanishi bilan birga harbiy faoliyat uchun ixtisoslashgan buyumlar, ya’ni sovut, dubulg‘a, kamon, nayza va boshqalarni yasovchi mingga yaqin hunarmandlar ishlagan.

O‘sha paytda hunarmandchilikning 500 ga yaqin turi mavjud bo‘lgan. Jumladan, sohalar kesimida hunarmandchilikning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bo‘lgan:

1. Harbiy faoliyat uchun ixtisoslashgan hunarmandchilik turlari: sovutsozlik, egar-jabduq yasash, kamonsozik, chodir yasash, lochindorlik.

Manbalarda

“… Bu haqda so‘z yuritganda, aytish lozimki, biz ulug‘ bobolarimizning munosib davomchilari bo‘ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir iqtidor egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat”.

Shavkat Mirziyoyev

2. Qurilish sohasi uchun ixtisoslashgan hunarmandchilik turlari: bo‘yoq tayyorlash, yog‘och o‘ymakorligi, binokorlik, me’morchilik, sangtaroshlik, ganch o‘ymakorligi, naqqoshlik, shishasozlik, arqon eshish.

3. Kundalik ro‘zg‘or va boshqa ehtiyoj uchun buyumlar tayyorlashga ixtisoslashgan hunarmandchilik turlari: kulolchilik, temirchilik, ignasozlik, pichoqsozlik, chilangarlik, teri oshlash va charm pishirish, etikdo‘zlik va muzado‘zlik (poyabzal ta’mirlash), attorlik mollari tayyorlash, sovungarlik.

4. Kiyim-kechak va ba’zi buyumlar uchun ixtisoslashgan hunarmandchilik turlari: paxta, ipak va jundan turli matolar to‘qish, zardo‘zlik, gazlamalarga gul bosish, chitgarlik, tikuvchilik, kashtachilik, qimmatbaho metallardan buyum yasash.

5. Turli davlat ahamiyatiga ega va boshqa sohalarga ixtisoslashgan hunarmandchilik turlari: tanga zarb etish, husnixat bitish, kitoblar uchun muqova tayyorlash, musiqa asboblarini yasash, ziravor va dorivorlar tayyorlash, qandolatchilik va boshqalar.

Amir Temur nafaqat harbiy sohada, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ham keng ko‘lamli strategik islohotlar o‘tkazganiga tarixiy asarlarni o‘rganish jarayonida ishonch hosil qilish mumkin. U nafaqat hunarmandlar, balki olimlar, faylasuflar, din peshvolari va har qanday foyda keltiruvchi kasb egalarini qadrladi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Hunarmandchilikning yuksalishiga qanday omillar sabab hisoblanadi va uning natijasi qanday bo‘ladi?
2. Mahalliy bozorning to‘yinishi qanday iqtisodiy vazifalarni bajaradi?
3. “Temur tuzuklari”dan olingan matnni o‘qing va quyidagi savollarga javob bering:
   – Amir Temur xalq farovonligiga qanday ahamiyat bergan?
   – Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida davlat va jamiyat qanday rivojlandi?
   – Davlat o‘z fuqarolari oldidagi qaysi vazifalarini amalga oshirmoqda?
   “Amr qildimki, xarob bo‘lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko‘priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga (yangi) ko‘priklar qursinlar, yo‘l ustida har manzilgohga rabotlar bunyod etsinlar. Yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqir-u miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qursinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar, har bir shaharda saroy va qozixona qursinlar. Va raiyat-u ziroatni qo‘riqlovchi qurchilar ham tayinlasinlar”.
4. Berilgan har bir rasmni tavsiflang. Har bir elementga e’tibor qarating. Ularni tayyor mahsulot shakliga keltirish uchun qancha vaqt kerak bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Amir Temur qo‘shini soniga nisbatan olganda ularga sovut va qurol-aslahalar yetkazib berish uchun qancha odam mehnat qilgan deb o‘ylaysiz? Javobingizni yozing.

TEMURIYLAR DAVRIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSON

BUGUN DARSDA

- Taxt uchun kurash.
- Shohrux hukmronligi.
- Shohruxning diplomatik aloqalari.

O‘ylab ko‘ring

Amir Temur hayotlik chog‘ida saltanatini o‘g‘illari, nabiralariga suyurg‘ol tartibda bo‘lib bergan edi. Buni siz qanday baholaysiz? Nima uchun? Fikringizni asoslang.



Tarix saboqlari

Taxt uchun kurash

Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat o‘z ichiga jami 27 ta o‘lka va viloyatlarni olgan.

1407-yil 22-fevralda taxt valiahdi hisoblangan Pirmuhammad o‘zining vaziri Pirali Toz tomonidan uyushtirilgan suiqasd natijasida o‘ldiriladi.

Amir Temur 1405-yil 18-fevral kuni Xitoyga yurishi vaqtida, qahraton qishda, O‘tror shahrida vafot etdi. Vafotidan oldin, kasali qattaiq xuruj qila boshlaganda Amir Temur o‘ziga voris va taxt valiahdi etib nevarasi Pirmuhammad Jahongirni vasiyat qilib qoldirdi.

O‘g‘illar, nabiralarga mamlakatni bo‘lib berilganligi va suyurg‘ol tartibi ham Amir Temur davlati parokandaligini kuchaytiradi.

Kobul va Shimoliy Hind mulklarining hokimi bo‘lmish Pirmuhammadni ko‘pchilik taxt egasi sifatida ko‘rishni xohlamas ham edi. Buning ustiga u ancha uzoqda bo‘lib, Samarqandga tezlik bilan yetib kelish imkoni ham yo‘q edi. Amir Temur vafotidan so‘ng Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq va boshqa yerlarda notinchlik boshlanib, g‘alayonlar yuzaga keldi.

1405-yilning 18-mart kuni Mironshohning o‘g‘li Xalil Sulton Mirzo o‘zboshimchalik bilan Samarqandni egallab, o‘zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e’lon qildi.

Ammo ko‘p vaqt o‘tmay, u Amir Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga duch keldi. Birinchi bo‘lib Turkiston hamda Farg‘onaning hokimi amir Xudoydot bilan Shayx Nuriddinga qarshi isyon ko‘taradilar. Hatto Xalil Sultonning ukasi Sulton Husayn Mirzo Amudaryoning chap sohilidagi viloyatlarda o‘z hokimiyatini o‘rnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh ko‘tardi.

1405–1406-yillarda Xalil Sultonning Shohrux, Pirmuhammad qo‘shinlari bilan Movarounnahr taxti uchun bir necha bor harbiy to‘qnashuvi sodir bo‘ldi. Butun Temur saltanati o‘zaro toju-taxt kurashlari domiga tortildi.

Shohrux hokimiyatining qaror topishi

Amir Temur taxtining qonuniy valiahdi Pirmuhammad Amudaryodan kechib o‘tib, Xalil Sultonga qarshi Nasaf tomon askar tortdi.

Movarounnahrda boshlangan sulola kurashlari shu tariqa avj olib ketdi. Oqibatda davlat parchalanib, ayrim viloyat hukmdorlari hokimi mutlaq bo‘lib oldilar.

1409-yil bahorida Movarounnahrda vaziyat yanada keskinlashdi. Amir Xudoydod shu vaqtda Xalil Sultonni Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog‘ida mag‘lubiyatga uchratib, uning o‘zini asirlikka oldi.

Xuroson hokimi Shohrux esa o‘ziga qarashli bo‘lgan Mozandaron va Mashhadda, so‘ngra uning qo‘liga o‘tgan Seyiston va Kirmonda o‘z hokimiyatini mustahkamlaydi. Xalil Sultonni qo‘lga olgan Amir Xudoydod qo‘shinlarini yengdi va Xalil Sultonni asirlikdan ozod qiladi.

Oliyjanoblik sifatlariga ega bo‘lgan temuriy Shohrux Mirzo o‘zaro gina-kuduratlarni unutib, uni yaxshi kutib oldi. Xalil Sulton Movarounnahr hokimiyati da’vosidan voz kechdi. Amir Xudoydod esa mamlakatdan qochib ketdi.

Temuriyzodalar va amirlar o‘rtasidagi kurashga xotima berish maqsadida Shohrux boshlagan harakat mamlakat fuqarolarining ko‘plab tabaqalari tomonidan quvvatlandi. Shu bois u Movarounnahrdagi boshboshdoqlikka chek qo‘yib, Movarounnahr va Xurosonda o‘z hukmronligini, mamlakatda esa tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga muvaffaq bo‘ladi.

Shohrux hukmronligi davrida Amir Temur saltanatining asosiy qismi uning qo‘li ostida saqlanib qolsa-da, ammo bu ulkan mamlakat ikki davlatga bo‘lingan edi.

Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan Shohrux boshchiligidagi davlat bo‘lib, uning markazi Hirot shahri edi. Ikkinchisi esa Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkiston hududida Ulug‘bek boshchiligidagi davlat bo‘lib, Samarqand uning poytaxti edi. Shohrux deyarli 40 yil hukmronlik qildi va Amir Temur davlati o‘zagini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.

1408-yil 22-aprelda qoraqo‘yunli turkmanlar bilan Ozarbayjon va Iroq uchun bo‘lgan jangda hokimiyat uchun boshqa bir da’vogar Mironshoh Qora Yusuf tomonidan o‘ldirildi.

Shohrux Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li bo‘lib, u 1377-yili tavallud topgan edi.



O‘ylab ko‘ring

1. Mironshoh va Qora Yusuf o‘rtasidagi jang Temur saltanatiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
2. Shohrux Mirzo Xalil Sultonga nisbatan qanday gina-kuduratlarni unutdi?



Tarix saboqlari

Shohruxning diplomatik munosabatlari

Shohruxning siyosiy faoliyati 1397-yili Xuroson hokimi etib tayinlanishidan boshlangan. Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Xitoy, Hindiston, Misr, Usmoniylar davlati bilan diplomatik va savdo aloqalari mustahkamlandi. Shohrux 1419-yili Xitoyga elchilar jo‘natdi. Ular 1422-yili Hirotga qaytib keldilar.

1412-yildan 1430-yilga qadar Xitoy bilan jami besh marta elchilik almashuvi bo‘ldi. Shohruxning a’yoni diplomat va tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy 1441–1444-yillarda Hindistonga elchi qilib yuborildi. U Markaziy va Janubiy Hindistondagi bir qator davlat, shaharlarda bo‘ldi va barcha safar xotiralarini o‘z asarida yozib qoldirdi.

Hindistondagi Dehli sultonligi, Kalikut, Vijayanagar, Bengal, Janpur kabilar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatildi.

Bu davrda Misr va Suriyada hukmronlik qilayotgan Mamluklar davlati, Old Osiyodagi Usmoniylar davlati bilan ham o‘zaro do‘stona munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan.

Shoxrux 1447-yilga qadar hozirgi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, Eron, Kavkazdan iborat katta hududda boshqaruv tizginini bo‘shashtirmagan.

1444–1445-yillari Shayx Nuriddin Murshidiy boshchiligida Makkaga Ka’ba ustiga yopinchiq – ka’bapo‘sh jo‘natdi.

Shohrux davlatida Movarounnahrning alohida o‘rni bo‘lgan. Davlatning poytaxti Hirot bo‘lsa-da, Movarounnahrning markazi Samarqand shahri hisoblangan. Movarounnahr yerlarining boshqaruvi hukmdorning o‘g‘li Ulug‘bek Mirzo qo‘liga topshirilgandi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Temuriy shahzodalar o‘rtasidagi nizolarning oldini olish mumkinmidi? Bu nizolarning sababi nima edi?
2. Shohrux qaysi davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatadi?
3. Amir Temur Xitoyga yurishi davrida vafot etadi. Bu voqeadan keyin Xitoy va Temur davlati o‘rtasidagi munosabatlar qaysi tomonga o‘zgargan? Bu munosabatlar Shohrux davrida qanday bo‘ldi?

MIRZO ULUG‘BEK



BUGUN DARSDA

- Ulug‘bek – Movarounnahr hukmdori.
- Taxt uchun kurash.
- Samarqandning ilmiy markazga aylanishi.
- Ulug‘bekning ilmiy merosi.

O‘ylab ko‘ring

1. Mirzo Ulug‘bek haqida nimalarni bilasiz? Ulug‘bek haqida 10 ma’lumot ayta olasizmi?
2. Mirzo Ulug‘bek Amir Temurga kim bo‘ladi?
3. Mirzo Ulug‘bek kimning yordamida Movarounnahr taxtini egallagan bo‘lishi mumkin?



Tarix saboqlari

Ulug‘bek – Movarounnahr hukmdori

1409-yilda Shohrux Samarqanddan Hirotga qaytish oldidan o‘n besh yoshli Mirzo Ulug‘bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi. Ulug‘bek (1394–1449) garchi Movarounnahr bilan Turkistonning hokimi deb e’lon qilinsa-da, aslida uning hokimiyati chegaralari dastlab Samarqand, Buxoro va Nasaf viloyatlari bilangina cheklanardi.

Ulug‘bek otasining rizosi bilan 1425-yilning erta bahorida Mo‘g‘uliston ustiga yurish boshlaydi. Issiqko‘l yaqinidagi to‘qnashuvda Ulug‘bek mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonadi va mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakat sharqiy chegaralarini mustahkamlaydi. Qo‘lga kiritilgan o‘ljalar orasida ikki bo‘lak nefrit toshi ham bor edi.

Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur maqbarasi uchun qabrtosh yasattirildi.

Mirzo Ulug‘bek:

- Temuriylar imperiyasi poytaxti Samarqand shahri hokimi;
- 1394-yil 22-mart – 1449-yil 27-oktyabr;
- Temuriylar imperiyasining Movarounnahr viloyati hokimi;
- Saltanat 1409–1449
- Muhammad Tarag‘ay;
- Tug‘ilishi Sultoniya shahrida (hozirgi Zanjan provinsiyasi, Eron);
- Vafoti – Samarqandda;
- Dafn etilgan joyi Go‘ri Amir, Samarqand;
- Otasi – Shohrux Mirzo;
- Onasi – Gavharshod begim.

Mo‘g‘ulistonda bo‘lgan bu urushda Ulug‘bek qozongan g‘alabaning nishoni tarzida Jizzax yaqinidagi Ilono‘tti darasi ichida Ulug‘bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o‘ziga xos “zafarnoma” hozirgi kungacha saqlanadi.

Mirzo Ulug‘bek 1425-yili o‘zining Mo‘g‘ulistonga qilgan birinchi yirik harbiy yurishi chog‘ida qo‘shin miqdori haqida dushman noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishi uchun har bir jangchisiga tunda besh yerda gulxan yoqishni amir qilgan. Ulug‘bek qo‘llagan bu usul harbiy san'atda arg‘ay o‘t (mo‘g‘ulcha “arg‘a” – aldash, turkcha – o‘t, olov) deb nomlanadi. U dushmanni chalg‘itish maqsadida qo‘shin miqdorini bo‘rttirib, ko‘paytirib ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Yurish Ulug‘bek g‘alabasi bilan tugagan.

Taxt uchun kurash

Shohrux 1447-yil 12-mart kuni o‘rniga voris belgilashga ulgurmay Ray viloyatida olamdan o‘tdi.

Odatga ko‘ra, taxtga Shohruxning to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek o‘tirishi kerak edi. Ammo taxtni Boysung‘urning o‘g‘li Alouddavla egallaydi. Toj-u taxt uchun yana kurash boshlanadi.

O‘zboshimcha shahzodalar Ulug‘bekka qarshi harakat boshlaydi va 1447-yilning bahorida Alouddavla Ulug‘bekning katta o‘g‘li Abdullatifning qo‘shinini tor-mor qilib, uni asirga oldi. Ulug‘bek Alouddavla bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldi. Unga ko‘ra, Abdullatif ozod qilinadi, Ulug‘bek esa Hirot va Xurosonga bo‘lgan da’vosidan voz kechdi.



1448-yilning bahorida Ulug‘bek va Abdullatifning 90 ming kishilik birlashgan qo‘shini Hirotga yurish qildi. Tarnob yaqinida bo‘lgan jangda Alouddavla qo‘shini tor-mor keltirilib, Hirot qaytarib olindi. Ulug‘bek Xurosonda Abdullatifni qoldirib, o‘zi Samarqandga qaytdi.

Ulug‘bekning dushmanlari Abdullatifni otasiga qarshi gijgijlaydilar. U otasining dushmanlari bilan yashirin tarzda til biriktirib, zimdan qarshi harakat boshlaydi.

Abdullatif Hirotda faqat o‘n besh kun hokimlik qildi. Abulqosim Bobur qo‘shini shaharga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib, poytaxtni tashlab Movarounnahr tomon qochdi.



Manbalarda

Amir Temur davrida tamg‘a solig‘i joriy qilingan. Bu davrga kelib savdo-sotiq rivojlandi. Tegirmonlar, hunarmandchilik ustaxonalari, karvonsaroylar katta-katta boylar qo‘lida to‘planib qoldi. Tamg‘a solig‘ini Amir Temurdan keyin Ulug‘bek tikladi. Buning evaziga xalqdan olinadigan yer solig‘ini kamaytirdi. Bu boy mulkdorlarga yoqmadi. Abdullatif ularga toj-u taxtni egallasa, tamg‘a solig‘ini bekor qilishi borasida va’da berdi. Otasi bilan jangda g‘alaba qozonishida soliqni yo‘qolishidan umidvor kuchlarning ta’siri bo‘lgan albatta. Shu zaylda toj-u taxtga havasi baland Abdullatifning o‘zi ham bir hovuch boylar qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘ldi. Ulug‘bek o‘ldirilgan kunning ertasidan Samarqandda tamg‘a solig‘i bekor qilindi.



Tarix saboqlari

Fitna

Abdullatif otasidan norozi amirlarni atrofiga to‘playdi. Hatto Abulqosim Bobur bilan bog‘lanib, uni birlashib Ulug‘bekka qarshi kurashga undaydi. Shunday qilib, Abdullatif o‘z otasiga qarshi ochiqdan ochiq dushmanlik yo‘liga o‘tdi. 1449-yili Abdullatif Amudaryodan kechib o‘tib, Termiz, Shahrisabz va Xuzorni osongina zabt etdi. So‘ngra Samarqandga yo‘l oldi. 1449-yil oktyabrda Damashq qishlog‘i yaqinida qattiq jang bo‘ldi va bu jangda Ulug‘bek yengildi, Samarqand amiri Mironshoh Qavchin shahar darvozalarini berkittirib, Ulug‘bekni ichkariga kirishga qo‘ymaydi. U Shohruxiyaga ham kirolmaydi va Abdullatifga taslim bo‘lishga majbur bo‘ladi.

Shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramasdan, Abdullatif otasini haj safariga yuborishga qaror qildi. Mirzo Ulug‘bek 55 yoshida 1449-yilda haj safariga ketayotganida fojiali halok bo‘ldi. Abdullatif otasining o‘limiga rozi bo‘lib, bunga yo‘l qo‘ygani uchun olti oylik hukmronligidan so‘ng Ulug‘bekning xos navkarlaridan Bobo Husayn bahodir tomonidan 1450-yil 8-mayda o‘ldirilgan.

Movarounnahrning ilmiy markazga aylanishi

Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz) ilm-fan markazlariga aylandi. U 1417-yil Buxoro, 1420-yili Samarqand, 1433-yili G‘ijduvonda madrasalar barpo etdi. Go‘ri Amir, Shohizinda me’moriy majmualari qurilishini oxiriga yetkazadi.

Shohizinda majmuasida masjid, peshtoq, chortoq qurildi. Mirzo Ulug‘bek davrida Registon maydoni shakllandi, unda Ulug‘bek madrasasidan tashqari xonaqoh, karvonsaroy, o‘ymakor yog‘ochlar bilan bezalgan Muqatta masjidi bino etildi. Ko‘kaldosh jome masjidi ham qurib bitkazildi.

Samarqandda barpo etilgan Mirzoyi hammomi va karvonsaroyi, Chilustun (qirq ustun) va Chinnixona saroylari o‘z me’moriy kompozitsiyalari bilan ajralib turgan. Mirzo Ulug‘bek boshqa shaharlarda me’moriy obidalar qurish masalasiga ham e’tibor bilan qaragan. Ular orasida Shahrisabzdagi Ko‘k gumbaz masjidi o‘zining hashamatliligi bilan ajralib turadi. Bu yerdagi Gumbazi Sayidon yodgorligi qayta tiklandi. Bu davrda Samarqandda Ulug‘bek qurdirgan madrasadan tashqari, Xonim, Firuzshoh, Shohmalik, Xojabek Mirabduvali va Qutbuddin Sadr nomlari bilan atalgan madrasalar ham qad ko‘targan. G‘ijduvondagi madrasa peshtoqiga “Ilm olmakka intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarz” degan ibora shior sifatida o‘yib yozdirib qo‘yadi. Uning sa’yi-harakatlari tufayli zamonasining 100 dan oshiq olimlari Samarqandga yig‘ildilar. Ular orasida “Zamonasining Aflotuni deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviy va boshqaolimlar ham bo‘lgan. Samarqandda bunyod etilgan Ulug‘bek rasadxonasida maxsus asbob-uskunalar joylashtirilgan. Rasad-

Manbalarda

Amir Temur Bibixonimga atab qurdirgan Bibixonim jome masjidi hovlisi o‘rtasida marmartoshdan yasalgan ulkan lavh bor. Lavh Ulug‘bek farmoniga binoan, XV asr o‘rtalarida yasalgan. Unga “Sultoni azim, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, Hanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton, ibni sulton, amiri mo‘’minin Ulug‘bek Ko‘ragon” yozuvlari bitilgan.



xona ichi koinot, yer kurrasi tasvirlari bilan bezalgan bo‘lib, xalq ichida shuning uchun “Naqshi jahon” degan nom bilan shuhrat topgan edi.

Samoni kuzatish va o‘rganish uchun G‘iyosiddin Jamshid yordamida astronomik o‘lchov asbobi – ulkan sekstant o‘rnatildi. Bu sekstant Sharqdagi eng katta astronomik o‘lchov asbob hisoblangan. Shuningdek, mahalliy ustalar (Iso Usturlobiy, Abu Mahmud Xo‘jandiy, usta Ibrohim) qo‘li bilan ko‘plab zaruriy astronomik o‘lchov asboblari ham yasaldi va o‘rnatildi. Rasadxona qoshida 15 000 jilddan iborat kitob saqlanadigan boy kutubxona ham bo‘lgan. Uning atrofida olimlar yashaydigan yer-chorbog‘lar Bog‘imaydon va Chinnixona nomi bilan shuhrat topdi.

Ulug‘bek Samarqandda o‘ziga xos astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada Ulug‘bek bilan bir qatorda o‘z zamonasining mashhur matematigi va astronomlari Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad), G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug‘bekning shogirdi, o‘z davrining Ptolemeyi nomini olgan Ali Qushchi (Alouddin ibn Muhammad) va boshqalar yelkama-yelka turib, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar.

O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq o‘lkalaridagi 683 geografik punktlarning joylashuvi Samarqand kenglik koordinatalari bilan belgilab chiqildi. Matematika fani sohasida Ulug‘bek maktabida o‘nlik darajali algebrik tenglama yechilib, bir darajali yoyning sinusi aniqlangan.

Ushbu me’moriy binolardan faqat Ulug‘bek madrasasi asrlar silkinishlariga dosh berib, majmuadan yagona yodgorlik bo‘lib qoldi.

Manbalarda

Temur sag‘anasiga qo‘yilgan ko‘k nefrit qabrtoshni Ulug‘bek Mo‘g‘uliston yurishidan olib kelgan. Toshda Amir Temurni ulug‘laydigan so‘zlar, uning shajarasi hamda marsiyalar o‘ymakor yozuvlarda bitilgan. Keyinchalik Ulug‘bekning o‘zi ham shu yerga dafn etilgan.



Ulug‘bekning ilmiy merosi

Ulug‘bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma’lum va mashhuri uning “Zij”i bo‘lib, bu asar “Ziji Ulug‘bek”, “Ziji jadidi ko‘ragoniy” deb ham ataladi. Olim 1437-yilda 1018 yulduz to‘plamini “Ziji sultoniy” asarida tartiblab chiqqan, bu asar yulduzlar bilimi sohasida hozir ham dunyoning eng buyuk asarlaridan biri sanaladi.

“Zij”dan tashqari Ulug‘bek qalamiga mansub matematikaga oid “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolayi Ulug‘bek” (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asarlari ham bor.

Ulug‘bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan. Jumladan, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Ulug‘bekning she’rlaridan namunalar keltirib o‘tadi.

Mirzo Ulug‘bekning vafotidan so‘ng Samarqanddagi olimlar asta-sekin Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketadi. Olimlar o‘zlari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlari va “Zij”ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan, Ali Qushchi 1473-yili Istanbulga borib, rasadxona qurdi. Natijada Ulug‘bekning ushbu yirik asari Turkiyada tarqaldi va u orqali Yevropa mamlakatlariga yetib bordi. 1638-yili Istanbulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs keldi va Ulug‘bek “Zij”ining bir nusxasini Angliyaga olib ketdi. 1648-yili avval “Zij”dagi 98 yudduzning jadvalini chop etdi. O‘sha yilning o‘zida Grivs “Zij”dagi geografik jadvalni ham nashr etdi. 1650-yili esa u “Zij”ning birinchi maqolasini lotincha tarjimada nashr etdi. Grivs 1652-yili mazkur oxirgi ikki ishni qayta nashr ettirdi.

Ulug‘bek bir yilni 365 kun, 5 soat, 49 daqiqa va 15 soniya deb belgilagan. Ulug‘bek ushbu hisobida faqatgina 25 soniyaga xato qilgan ekan. Ulug‘bek yer yuzining o‘rtalik kengligini 23,52 daraja deb belgilagan va bu yuz yillar davomida eng to‘g‘ri va aniq o‘lcham deb hisoblangan.

O‘ylab ko‘ring

1. Shohrux vafotidan keyin Movarounnahr va Xurosonda qanday siyosiy vaziyat yuzaga keldi?
2. Ulug‘bek bobosi Amir Temurning qaysi ishlarini davom ettirdi?
3. Ulug‘bek rasadxonasida qaysi olimlar faoliyat yuritgan?

Manbalarda

Olimdan bizga 4 ta asar meros qolgan:
1) “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” – astronomiyaga oid;
2) “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola” – matematikaga oid;
3) “Risolayi Ulug‘bek” – yulduzlarga bag‘ishlangan;
4) “Tarixi arba’ ulus” (To‘rt ulus tarixi) – tarixga oid.



Rasadxona ichi koinot, yer kurrasi tasvirlari bilan bezatilgan bo‘lib, shuning uchun xalq ichida “Naqshi jahon” nomi bilan shuhrat topgan.

Manbalarda

Temurxon naslidin Sulton Ulug‘bek –
Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek.
Aning Ki, davr ahli biridin aylamas yod.
abnoyi jinsi bo‘ldi barbod –
Valek ul ilm sori topti chun dast,
Ko‘zi ollinda bo‘ldi osmon past.
Rasadkim bog‘lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy.
Ki, andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”.

Alisher Navoiy “Xamsa”sidan

Ulug‘bek o‘z shogirdlari bilan birgalikda π soni va sin1° ning qiymatini juda katta aniqlikda hisoblab chiqqan. Unga ko‘ra, aylanaga ichki chizilgan ko‘pburchakning burchaklari soni 3·228 gacha yetkaziladi va undan $2\pi = 6{,}283\,185\,307\,179\,586\,5$ keltirib chiqarilgan. Samarqandlik astronomlar sin1° ning qiymatini ham o‘ta katta aniqlik bilan hisoblab chiqishgan:
$\sin 1° = 0{,}017\,452\,406\,437\,283\,571$.



Yan Geveliyning “Astronomiya darakchisi” kitobida berilgan gravyura (XVII asr). Astronomiya ma’budasi Uraniya o‘rtada. Uning o‘ng tomonida Mirzo Ulug‘bek, Vilgelm IV (nemis olimi), Yan Geveliy. Chap tomonida Ptolomey, Tixo Brage (daniyalik astronom), Richchi Ole (italiyalik olim).



Tarix saboqlari

Mirzo Ulug‘bek Samarqandda ikkita madrasa barpo etgan va boshqa yirik olimlar qatori o‘zi ham bu madrasalarda haftada bir marotaba ma’ruza o‘qigan.

XV asrda Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek qurdirgan rasadxonada kattagina globus bo‘lgan. Unda iqlimlarning chegaralari, tog‘lar, cho‘llar, dengizlar va daryolar ko‘rsatilgan. Binobarin, dunyodagi ikkinchi globusni Samarqand astronomlari yasashgan. Ulug‘bekning o‘limidan keyin u mutaassiblar tomonidan yo‘qotilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ulug‘bek Samarqandda balandligi 50 metrli quyosh soati o‘rnatgan. Ushbu noyob soat ham saqlanib qolmagan.

Manbalarda

Ulug‘bekning xotirasi o‘tkir bo‘lib, kuchli tahliliy tafakkurga ega bo‘lgan. Ulug‘bekning astronomiya maktabi vakillaridan biri koshonlik G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning hayrat bilan yozishicha, kunlardan birida Ulug‘bek ot ustida quyoshning balandligini vaqt birligida o‘lchab, undan tushayotgan nurning tekislikka nisbatan og‘ish burchagini trigonometrik usulda yoddan hisoblab chiqara olgan ekan.

Ulug‘bek murakkab trigonometrik va algebraik masalalarni yechishda o‘ziga xos usullardan mahorat bilan foydalana olgan. Murakkab matematik masalalarni turli yechish usullarini yaxshi bilgan.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Mirzo Ulug‘bek nomi berilgan obyektlar asosida infografika tayyorlang.
2. Mirzo Ulug‘bek va Abdullatif o‘rtasidagi muammoning oldini olish mumkinmidi?
3. Ulug‘bekning ilmiy merosi bugungi kunda qanday ahamiyatga ega?
4. Siz xotirangizni kuchaytirish uchun qanday mashqlar bajarasiz?
5. Ulug‘bekning ilmiy merosini 100 balli baholash tizimida qanday baholagan bo‘lardingiz? Fikringizni asoslang.

1420-yili Samarqand madrasasi ochilganda unda 100 dan ziyod talaba o‘qigan, madrasada talabalar uchun 50 dan ortiq maxsus hujralar mavjud bo‘lgan. Zayniddin Vosifiyning yozishicha, 1420-yili Samarqand madrasasi ochilishida 90 dan oshiq olim qatnashgan. Ilk ma’ruzani Mavlono Xafoviy o‘qigan. Keyinchalik o‘z zamonining taniqli kishilari Abdurahmon Jomiy, Xo‘ja Ahror kabilar ham Samarqand madrasalarida tahsil olganlar.







Samarqanddagi XV asr me’morchiligining nodir namunalaridan biri Ulug‘bek rasadxonasidir. Bu inshoot Ulug‘bek farmoyishi bilan 1428–1429-yillarda Ko‘hak tepaligida, Obirahmat anhori bo‘yida bunyod etilgan. Bu ulkan me’moriy obidaning balandligi 31 metrga teng bo‘lgan. Boburning yozishicha, u uch qism (oshiyona)li bo‘lgan. Bino gumbaz-u peshtoqlarining sirti koshin va sirli parchinlar bilan qoplangan. Uning ichki sahni sudxi faxriy (sekstant) bilan uch qismdan iborat bo‘lgan.

SULTON HUSAYN MIRZO



Sulton Husayn mirzo. Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan rasm

BUGUN DARSDA

- Sulton Husayn mirzoning nasabi.
- Hukmdorlik yillari.
- Sulton Husayn mirzoning Usmoniylar bilan munosabati
- Sulton Husayn mirzo davrida Xuroson va Hirot.
- Sulton Husayn mirzoning ijodi.

O‘ylab ko‘ring

1. Sulton Husayn mirzo haqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
2. Sulton Husayn mirzoning Amir Temurga qarindoshlik aloqalari bormi? Bor bo‘lsa, qanday?
3. Alisher Navoiy va Sulton Husayn mirzo o‘rtasidagi munosabatlar haqida nimalarni bilasiz?



Tarix saboqlari

Sulton Husayn mirzoning nasabi

Sulton Husayn mirzo, Husayniy (to‘liq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438 – Hirot – 1506) – Xuroson hukmdori (1469–1506), shoir. XV asr o‘zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan. Temuriylardan Umarshayx mirzoning evarasi. Onasi Feruzabegim temuriylardan Mironshohning nabirasi. Sulton Husayn mirzo, Bobur ta’riflaganidek, ikki tomonlama ulug‘ (“karim ut-tarafayn”) bo‘lgan. Ya’ni shajarasi ikki tomondan Temurga borib taqaladi.



Sulton Husayn mirzodan 14 o‘g‘il, 11 qiz qolgan. Sulton Husayn mirzo va saroy amaldorlarining maishatga berilib ketishi oqibatida Xuroson davlati zaiflashgan. Uning vafotidan so‘ng 1507-yili Hirotni shayboniylar zabt etgan.

Sulton Husayn mirzo badiiy ijod bilan shug‘ullanib, g‘azalnavis shoir sifatida adabiyot tarixida iz qoldirgan.

O‘ttiz besh yildan oshiq hukmdorlik davrida Sulton Husayn mirzo katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan.

Hukmdorlik yillari

Abulqosim Bobur (1422, Hirot –1457-yil mart, Mashhad) – temuriylardan, Boysunqur mirzoning o‘g‘li. Xuroson taxti uchun kurashda g‘olib chiqib, 1449-yil fevralda Abulqosim Bobur Hirotni egallaydi. Temuriylarning Xurosondagi hukmdori bo‘ldi. 1454-yil Samarqand uchun muvaffaqiyatsiz yurish qildi va qirq kunlik qamaldan so‘ng Sulton Abu Said bilan bitim tuzib, Hirotga qaytdi. Bitimga ko‘ra, Amudaryo ilgarigidek ikkala davlat o‘rtasidagi chegara bo‘lib qoldi.

14 yoshida Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kirgan. 1454-yili Abulqosim Boburning Samarqandga – Abu Said Mirzoga qarshi yurishida qatnashgan. Abulqosim Bobur yengilgach, sulh tuzib, Hirotga qaytgan. Sulton Husayn mirzo esa onasining tavsiyasi bilan Abu Said Mirzo saroyida qolgan.

Ko‘p o‘tmay, qamoqqa olingan. Feruzabegim uni qutqarib, Hirotga olib kelgan. Shoh vafot etgach, Sulton Husayn mirzo Marv hukmdori xizmatiga kirgan.

Bu orada Marvda Sulton Husayn mirzoga qarshi fitna uyushtirilib, u ovga chiqqanda, shahar darvozalari berkitib olingan. Sulton Husayn mirzo Xurosonni egallashga bir necha marta harakat qildi va nihoyat kuch to‘plab, Xurosonga hujum qildi. Avval Xivani, so‘ng Urganchni egalladi. Keyinchalik Hirotni qo‘lga kiritdi. Samarqanddan do‘sti Alisher Navoiyni maxsus yorliq bilan chaqirib olib, uni muhrdorlik vazifasiga tayinladi.

Navoiy do‘stini taxtga chiqishi bilan qutlab, unga “Hiloliya” qasidasini taqdim etgan.

Shohrux mirzoning avlodlaridan Yodgor Muhammad Mirzo 1470-yilning iyulida Sulton Husayn mirzo poytaxtda yo‘qligidan foydalanib o‘zining nomiga xutba o‘qitib oladi. Navoiyning tadbirkorligi sabab Yodgor Mirzo qo‘lga olinadi.

Sulton Husayn mirzo Xorazm, Seyiston, Qandahor, Balx, G‘aznadan Domg‘ongacha bo‘lgan yerlarni boshqargan. Biroq hukmronligining so‘nggi yillariga kelib mayxo‘rlikka ruju qo‘ydi. Saroyda fisq-u fasod kuchayadi. Hatto shohning mastligidan foydalanib Badiuzamonning o‘g‘li, eng sevimli nabirasi Mo‘min Mirzoning qatl etilishi haqidagi farmonga muhr bostiradilar.

Sulton Husayn mirzo Mo‘min Mirzoga juda ishonardi. Mendan keyin taxtga munosib shoh bo‘ladi deb doim unga yon bosardi. Sulton Husayn mirzo xushini o‘nglab olgach, qilgan ishidan qattiq afsuslandi va aybdorlarni jazoladi. Badiuzzamon esa o‘g‘li uchun otasidan qasos olishga qaror qildi. Beayb Mo‘min Mirzoning to‘kilgan qoni tufayli mamlakatda parokandalik yuzaga keldi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon Xurosonga bostirib kirdi.

Sulton Husayn mirzo 1506-yilning 4-may kuni yurak xastaligidan vafot etadi. Uning xoki o‘zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo‘lgan, biroq qabr va uning ustiga o‘rnatilgan tosh saqlanib qolgan.

Manbalarda

Turkiyaning Istanbul shahridagi To‘pqopi Saroy muzeyi kutubxonasida Sulton Husayn mirzoning bir farmoni saqlanadi. U 879-hijriy (1474-milodiy) yilda chiqarilgan farmonning asl nusxasidir. Bu farmon yetti satrdan iborat bo‘lib, qog‘ozga bir necha nusxada ko‘chirilgan hamda Xuroson viloyatidan to Usmonli turk saltanatiga yetguncha bo‘lgan Sulton Husayn mirzo tasarrufidagi manzillarda uchraydigan shahar, kent, qishloq va hordiq chiqarish manzillari boshliqlari nomiga yuborilgan bo‘lgan.

Farmonda Pahlavon Muhammad ismli Usmoniylar davlati (Rum) elchisini Xurosondan Istanbulga yetib borgunicha yo‘lda muhofaza etish topshirilgan.

O‘ylab ko‘ring

Sulton Husayn mirzoni bunday farmon chiqarishga nima majbur etgan?



Tarix saboqlari

Sulton Husayn mirzoning Usmoniylar bilan munosabati

Sulton Husayn mirzo o‘z saltanati hududida mansabdorlar va javobgar shaxslar turk elchisini izzat-ikrom, mehmondo‘stlik bilan qarshi olishlarini ta’minlagan. Bunday paytlarda har bir javobgar shaxs nima qilishi lozimligi mo‘g‘ullar davrida ham, Amir Temur davrida ham qat’iy belgilab qo‘yilgan. Har bir amaldor bu farmonni olganiga ishonch hosil qilish uchun Sulton Husayn Hirotdan Kichik Osiyogacha otda chopar jo‘natgan.

Turk elchisi Pahlavon Muhammad Xurosondan to‘rt hamrohi, to‘rt xizmatkori bilan ikki ot va bir tuyada yo‘lga chiqqan. Xuroson Sultoni Husayn Bahodir (Sulton Husayn mirzo) bobosi Amir Temur orzularini amalga oshirishga intilib, Rum (Usmonli turk) mamlakati bilan yaqin, birodarona aloqa o‘rnatishga katta e’tibor bergan.

Temuriyzoda Sulton Husaynning turk elchisini bunday ulug‘lashi Turkiya tomonida e’tiborsiz qolmagan. Chunki turklarga ham ota yurt sanalgan o‘lkadan yetib kelgan har bir qutlug‘ so‘z ularning boshini ko‘kka ko‘targan, Sulton Husayn mirzo ham farmon chiqarish, rasmiy xat yozishda katta bobosi Amir Temur uslubini saqlab qolgan. U ham farmonlarni, ular qaysi tilda yozilishidan qat’i nazar, “so‘zimiz” “Abul G‘oziy Sulton Husayn so‘zimiz” iboralari bilan boshlagan. Amir Temur o‘z farmonlarini “Amir Temur Ko‘ragon so‘zimiz” deb boshlar edi.

Sulton Husayn mirzo davrida Xuroson va Hirot

Sulton Husayn mirzo Temuriylar orasida shijoati va ma'rifati bilan nom qozongan, shariatga qat'iy amal qilgan hukmdor bo‘lgan. Sulton Husayn mirzo Xurosonda mamlakatda tinchlik, osoyishtalikni qaror toptirish, markaziy hokimiyatni mustahkamlash va madaniy-ma'rifiy va obodonchilik ishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Natijada iqtisodiy hayot yuksalib, savdo-sotiq rivojlangan, yuzlab karvonsaroylar, rabot, ko‘prik, maktab, madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, tabobatxona, yetimxona, suv havzalari qurilgan, kanallar qazilgan, bog‘lar barpo etilgan.

Sulton Husayn mirzo davrida Hirot Sharqning fan, madaniyat, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaziga aylangan. Turli mamlakatlardan kelgan iste'dod sohiblari Hirotni qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi maskan deb bilganlar.

Til, adabiyot, tarix, tasviriy san'at, xattotlik, kitobat san'ati, tabobat, handasa, musiqa, qog‘oz tayyorlash, tomosha san'ati va boshqa sohalar rivojlangan.

Hirot, Mashhad, Marv, Nishopur singari shaharlarda ko‘plab noyob obidalar barpo etilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar Xurosondan tashqarida ham mashhur bo‘lgan.

Bu davrda buyuk shoirlar, olim, muarrix, musiqachi, xattot, naqqoshlar yetishib chiqqan.

Sulton Husayn mirzoning ijodi

Sulton Husayn mirzo turkiy tilda yozishni rag‘batlantirgan va shunga da'vat qilgan. O‘zi ham badiiy ijod bilan shug‘ullanib, “Husayniy” taxallusi bilan she'rlar yozgan.

She'riyat majlislari tashkil etib, shoirlarga rahnamolik qilgan. Undan bizgacha she'rlar devoni va Navoiyga bag‘ishlangan “Risola” asari yetib kelgan. “Risola” asari 1945-yilda turk olimi Ismoil Hikmat tomonidan topilib, ilmiy muomalaga kiritilgan.

Shoh shoirning hozirgacha 202 ta g‘azali, Navoiy g‘azaliga bog‘langan 3 ta muxammasi, 6 ta ruboiy, shuningdek, fors-tojikcha 2 ta g‘azali, 1 ruboiy va bir necha baytlari ma'lum. G‘azallarining barchasi ramal (aksariyati bir vaznda) bahrida yozilgani Sulton Husayn mirzoning tab'i baland, didi nozik shoir bo‘lganini ko‘rsatadi.

Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining 8-majlisini to‘liq Sulton Husayn mirzo ijodiga bag‘ishlab, uning devonidagi 164 g‘azalning matla'ini keltiradi va u qo‘llagan badiiy timsollar, she'riy san'atlar, nozik ma'no va ohorli tashbehlar xususida fikr yuritadi. Sulton Husayn mirzo g‘azallari tilining musiqiyligi va jarangdorligi bilan ajralib turadi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Sulton Husayn mirzonining hayot yo‘li infografikasini ishlang.
2. Badiuzzamon va Sulton Husayn mirzo o‘rtasidagi nizo qanday oqibatlarga olib keldi? Bu nizo chiqishiga asosiy sabab nima edi? Javobingizni “Temur tuzuklari”dan keltirilgan iqtibos bilan bog‘lang.
3. Sulton Husayn mirzo davrida ilm-fanga munosabat qanday bo‘lgan?
4. Sulton Husayn mirzoning turk elchilariga bo‘lgan munosabatidan Usmoniylar davlati bilan qanday munosabat o‘rnatganini tasavvur qiling. Bundan u qanday manfaat ko‘zlagan bo‘lishi mumkin?

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IQTISODIY MUNOSABATLAR

BUGUN DARSDA

- Soliq siyosati.
- Pul muomalasi.
- Yer egaligi.
- Dehqonchilik va sug‘orish ishlari.

O‘ylab ko‘ring

1. Soliqlar nima uchun kerak?
2. Soliqlarning davlat rivojiga qanday ta’siri bor deb o‘ylaysiz?
3. Soliqlarsiz ham davlatni rivojlantirish mumkinmi? Nima uchun?



Tarix saboqlari

Soliq siyosati

Amir Temur soliq siyosati mamlakat boshqaruvining asosiy yo‘nalishi deb belgilagan.

Bu davrda yerdan olinadigan soliqning asosiy turi xiroj hisoblangan. Bu soliq mahsulot yoki pul bilan olingan.

Bu davrda soliqlarni hisoblash qoidalari ham ishlab chiqilgan. Xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig‘ilgan. Uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug‘oriladigan ekin yerlaridan olinadigan hosilning ikki hissasi egasiga qolgan, bir hissasini oliy saltanat xazinasi uchun olingan.

Lalmikor yerlardan soliq olishda uchdan bir va to‘rtdan bir qoidasiga amal qilingan.

Tamg‘a – savdo boji, savdogarlardan olinadigan soliq.
Fulus – misdan yasalgan mayda chaqa pul.

Manbalarda

Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solib qo‘yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi.

“Temur tuzuklari”dan

Amir Temur yuritgan soliq siyosati o‘z davriga nisbatan soliqqa tortishning eng ilg‘or g‘oyalarini o‘zida ifodalay olgan.

Soliqlarning davlatni mustahkamlashdagi ahamiyati hisobga olinishi bilan birgalikda soliq to‘lashga layoqatli soliq to‘lovchilar bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Hosil to‘la pishib yetilmasidan soliq to‘plash qat’iyan man etilgan. Soliqlar hokimiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan uch muddatda: saraton (iyun – iyul), sumbula-mezon (avgust – sentyabr) va qavs (noyabr) oylarida to‘planar edi.

Soliqlardan tashqari ziroatkor aholi hukmdor va uning ma’murlari, suyurg‘ol egalari va tarxonlar, shuningdek, yirik mulkdorlar foydasiga muayyan muddat tekin ishlab berardilar. Harbiy yurishlar davrida mag‘lub etilgan aholidan sari shumor (jizya) solig‘i olingan.

Amir Temur o‘zining “Rosti rusti” shiorining mohiyatiga mos keladigan va soliq to‘lovchilar manfaatini himoya qilishga qaratilgan adolatli, aniqrog‘i, o‘ta adolatli, ibratga loyiq soliq tizimini yaratdi va uning joriy qilinishini izchil nazorat qildi.

Davlat xavf ostida qolib, harbiy safarbarlik e’lon qilingan paytlarda favqulodda soliq – avorizot yig‘ib olingan. Mamlakat hududidan chopar yoki elchilar o‘tayotganda, zarurat tug‘ilganda, aholi ularga ot-ulov topib berishi lozim bo‘lgan.

Amir Temurgacha xazinani idora qilish faqat dargoh tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, u dargoh va vazirlik tamoyillarini qo‘shib olib bordi. Xazina daromadlari soliqli va soliqsiz daromadlarga ajratildi.

Xazina xarajatlari tarkibida obodonchilik, ijtimoiy-madaniy, shu jumladan, fan, madaniyat, ijtimoiy ta’minot xarajatlarining hissasi ortib bordi. Bularning hammasi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishiga, uning xalqaro mavqei oshishiga ijobiy ta’sir etdi.

O‘ylab ko‘ring

1. “Temur tuzuklari”dan olingan quyidagi parchani diqqat bilan o‘qing va Temurning soliq siyosati nimaga yo‘naltirilganini ayting.
2. Parchani “Rosti rusti” shiorining mohiyati bilan bog‘lab tushuntiring.
3. Xarob bo‘lgan yerlarni obod qilish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda? Bu tadbirlarning soliq siyosati bilan qanday aloqasi bor?

Manbalarda

Yana buyurdimki, agar yer va elning amaldorlari va kalontorlari (kattalari) oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo‘lsa, bunday vaqtlarda yetkazilgan zararni kalontorlardan undirib, jabr ko‘rganlarga bersinlar, toki ular yana o‘z hollariga kelsinlar.

Xarob bo‘lib yotgan yerlar egasiz bo‘lsa, xolisa tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo‘lsa-yu, lekin obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar bersinlar, toki o‘z yerini obod qilib olsin.”

“Temur tuzuklari”dan

Xolisa – davlat daromadlari va yerlari bilan shug‘ullanuvchi oliy mansabdorlardan iborat hay’at.

Pul muomalasi

Amir Temurning pul siyosati alohida e’tiborga loyiq. Tangalar asosan ikkita qiymat ko‘rinishida zarb qilingan: “tanga” deb nomlangan, og‘irligi 6 grammga teng va uning to‘rtdan bir qismi – 1,5 grammga teng bo‘lgan, “miri” deb nomlangan mayda kumush tangalar. Iste’mol tovarlari savdosida yuqorida qayd etilgan ikkita nominalga qo‘shimcha ravishda mayda chakana savdo uchun mis tangalar ishlatilgan. Amir Temur nomi bilan zarb qilingan tangalardagi gerb uchta kichik halqalardan iborat bo‘lgan.

Amir Temur davri tangalari shakli go‘zalligi va ajoyib dizayni bilan ajralib turadi, bu esa Movarounnahr va Xuroson zarbxonalaridagi ustalarining yuqori darajadagi sanoat madaniyati va san’atidan dalolat beradi.

Ulug‘bek 1428-yilda muomaladagi fulusiy pullar islohotini amalga oshirdi. Ulug‘bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullardan foydalanishni man etdi.

Eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning fulusiy pullarga bo‘lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o‘zida u Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruxiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqdor fuluslar zarb ettirdi va muomalaga chiqardi.

Bu pullar xalq o‘rtasida “fulusi adliya”, ya’ni “adolatli chaqa” nomi bilan shuhrat topgan. Yangi fuluslar ichki chakana savdo uchun keng yo‘l ochdi.

Ulug‘bek tashqi savdodan davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko‘paytirish maqsadida tamg‘a solig‘ini birmuncha oshirdi.

Ulug‘bek zamonida mamlakatda ichki va tashqi savdoning kengayishi hunarmandchilik mahsulotlarining hajmini oshirib, kasb-hunar tarmoqlarining rivojida asosiy omillardan biriga aylandi.

“Miri” atamasi, shubhasiz, Temurning “Amir” unvonidan kelib chiqqan.







Bibixonim Amir Temur huzurida

Manbalarda

***

O‘ta ziyrak, dono, tadbirkor, oqila Saroymulkxonim o‘z maslahatlari bilan davlat boshqaruvida ham ishtikor etgan, Amir Temur Saroymulkxonimning dono maslahatlariga ehtiyoj sezgan.

Sohibqiron Eronga qarshi yurish boshlaganda Isfaxon qamali cho‘zilib, qo‘shinni ozuqa bilan ta’minlashga mablag‘ yetishmay qoladi. Amir Temur Samarqandga chopar jo‘natadi. Maktub qisqa bo‘lib, ***“Qo‘shinning zaxirasi tugadi, zar yuboring”,*** *deyilgandi. Bunga javoban Saroymulkxonim maktubning orqa tomoniga* ***“Ulug‘ amir, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimi?”*** *deb yozadi va choparga tutqazadi.*

Amir Temur maktubni olgach, Saroymulkxonimning kinoyali so‘zlarini o‘ylab-o‘ylab, bir qarorga keladi: lashkargohda so‘yib yeyilgan qo‘y, qora mol, ot, tuya suyaklarini o‘sha kuniyoq yig‘dirib, katta-kichik turli hajmlarda qirqtirib, qizdirilgan po‘latdan muhr bostirib, muvaqqat pul o‘rnida muomalaga kiritishga farmon beradi.

Natijada qo‘shni qishloq va shaharlarda suyak pullarga oziq-ovqat sotib olinadi. Qamal tugagandan so‘ng suyak pullar tanga pullarga almashtirib beriladi.

O‘ylab ko‘ring

1. Saroymulkxonim Amir Temur maktubiga “Ulug‘ amir, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimi?” deb javob yozganida nimani nazarda tutgan?
2. Nima uchun Saroymulkxonim Amir Temurning topshirig‘ini bajarmay, xat bilan javob bergan?
3. Saroymulkxonimning tadbiri qanday voqealarning oldini olgan?

Yer egaligi

XV asr davomida Movoraunnahr va Xurosonda avvalgidek yer mulkchiligi asosan to‘rt shaklda: mulki devoniy – davlat yerlari, mulk – xususiy yerlar, mulki vaqf – madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar va jamoa yerlari bo‘lgan.

Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek mamlakat hukmdori sulton yoki amirlar egalik qilgan. Temuriylar davrida davlat yerlarini suyurg‘ol tarzida in’om qilish ham keng tarqalgan.

Suyurg‘ol yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo‘lgan. Odatda shahar yoki viloyatlardan to alohida qishloqqacha suyurg‘ol shaklida in’om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko‘pincha hukmron sulola namoyandalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan.

Amir Temur davrida bo‘lganidek, keyingi davrda ham suyurg‘ollarni ulashish amaliyoti keng tarqaldi. Markaziy hokimiyat vakillari – Shohrux, Ulug‘bek, Abu Said, Sulton Husayn yoki uluslarni boshqargan shahzodalar yerlarni meros tarzida egalik qilish huquqi bilan ulashganlar. Suyurg‘ol egasiga o‘z suyurg‘oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to‘lovlarni to‘plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux davrida Xorazm – Shoh Malik, Farg‘ona – Mirzo Ahmad, Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o‘z ichiga olgan Xuroson – Boysung‘ur, Kobul, G‘azna va Qandahor viloyatlari esa Mirzo Qaydu bahodirning suyurg‘oli edi.

Suyurg‘ol yorlig‘iga ega bo‘lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo‘lib, odatda deyarli mustaqil edi. Suyurg‘ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba’zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma’muriy va adliya jihatidan haq-huquqini cheklab qo‘yar edi. Suyurg‘ol egasi markaziy hukumatga bo‘ysunmagan taqdirda suyurg‘ol huquqidan mahrum bo‘lar va hokim uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi.

Temuriylar davrida dehqonchilik maydonlarining ikkinchi kattagina qismi xususiy yerlardan iborat bo‘lib, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy mulk qatoriga kirgan.

Mulk yerlarining katta qismi ma’muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo‘lgan. Bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalariga biron xizmati uchun tarxonlik yorlig‘i berish keng tarqalgan.

Tarxonlik yorlig‘ini olgan mulkdorlar ko‘pincha barcha soliq, to‘lov va majburiyatlardan ozod qilingan.

Tarxonlik yorlig‘i odatda amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga “tarxon” so‘zi qo‘shib aytilgan.

Dehqonchilik va sug‘orish ishlari

Shohrux va Ulug‘bek hukmronligi davrida sug‘orish ishlari yanada rivojlangan. Dashtlarga suv chiqarilib, bo‘z yerlar o‘zlashtirilgan. Xususiy sohibkorlar esa hatto bir-ikki yil davomida soliq va to‘lovlardan ozod etilgan.

Bu davrda Samarqand, Qashqadaryo, Marv vohalari, Tus vodiysi va Hirotda yirik sug‘orish inshootlari barpo etilib, dehqonchilik maydonlarining suv ta’minoti yaxshilangan.

Temur Xuroson, Eron, Kavkaz va boshqa viloyatlarda ham bir qancha yirik sug‘orish inshootlarini bunyod etgan. Uning farmoni bilan Murg‘ob daryosidan 20 dan ortiq sug‘orish tarmoqlari qazilib, Marv vohasi qayta obod etilgan.

1401-yili Kavkazning Baylaqon mavzeida Arake daryosidan chiqarilgan Barlos kanali zamonasining yirik irrigatsiya inshootlaridan biri edi. Kanalning uzunligi 10 farsax (60–70 km) bo‘lib, unda kemalar qatnay olgan.

Shohrux va Ulug‘bek hukmronligi davrida Angor kanali qayta tiklanib, Zarafshon daryosi suvining bir qismi Qashqadaryo vohasiga burilgan.

Mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilgan Murg‘ob daryosining bosh to‘g‘oni – Sultonband tiklanib, Marv shahri va vodiysi suv bilan ta’minlangan.

Mirzo Ulug‘bek Buxoroning Somonjuq dashtiga suv chiqargach, yangi yerlar o‘zlashtirilgan. Navoiyning tashabbusi bilan Tus viloyatida Turuqband suv ombori qurilib, kanal orqali undan 10 farsax masofaga – Mashhadga suv keltirilgan. Bu davrda qishloq xo‘jaligida g‘allakorlik, sabzavotchilik, polizchilik, bog‘dorchilikka ahamiyat berilgan. Chorvachilikda – yilqichilik, qorako‘lchilik, tuyachilik muhim o‘rin tutgan.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Bir eslab ko‘ring-chi, Buyuk ipak yo‘lidan qanday mahsulotlar olib o‘tilgan?
2. Ularning ichida mamlakatimizda yetishtirilgan qanday bog‘dorchilik mahsulotlari bor edi?
3. Dehqonchilikning rivojlanishi qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi?
4. To‘yingan bozor deganda nimani tushunasiz? Bozordagi mahsulotlar qachon arzon bo‘ladi? Bunday arzonchlikdan qanday foyda ko‘zlanadi?



IKKINCHI RENESSANS ASOSCHILARI

BUGUN DARSDA

- Temuriylar renessansi haqida.
- Ilm-fanning rivojlanishi.
- Tibbiyot ilimlarining rivojlanishi.

O‘ylab ko‘ring

1. Renesans haqida nimalarni bilasiz?
2. Mamlakatda tinchlik va osoyishtalik, to‘kin-sochinlik ta’minlanganida qaysi sohalar rivojlanadi?
3. Ilm-fanning rivojlanishi uchun qanday shart-sharoitlar zurur?
4. Ilm olishingiz uchun qanday sharoitlar bor?
5. Ajdodlarimiz Yevropa renessansining vujudga kelishiga poydevor qo‘ya bilishgan. Siz o‘z oldingizga uchinchi renessans asoschilaridan biri bo‘lish maqsadini qo‘yganmisiz?

Manbalarda

Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga “Adolat davlatning asosi va hukmdorlar shioridir” degan hikmatli so‘zlarni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug‘vor g‘oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko‘tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi.

Shavkat Mirziyoyev



Tarix saboqlari

Temuriylar renessansi haqida

“Renessans” so‘zi fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi va madaniy tiklanish davrini ifodalaydi.

Temuriylar renessansi Osiyo va islom tarixida XIV asr oxiridan XVI asr boshlariga qadar bo‘lgan muddatni qamrab olgan tarixiy davr edi. Islomiy oltin asr quyoshi asta-sekin bota boshlagach, Temuriylar saltanati san’at va fanlarning qayta tiklanishiga zamin yaratdi. Mazkur harakat butun musulmon olamiga keng tarqaldi va so‘nggi o‘rta asr Osiyolariga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Temuriylar renessansi davrida Samarqand shahri qayta qurildi va ilm-ma’rifat markaziga aylandi. Amir Temur tomonidan Temur shaxmati kashf etildi.

Shohruh Mirzo va rafiqasi Gavharshodbegimning Hirotdagi hukmronligi, astronom va matematik olim Mirzo Ulug‘bek davri, san’at homiysi Sulton Husayn mirzo tomonidan bir qator o‘quv dargohlar qurilishi va samarali faoliyat olib borishi, yirik loyihalar – maqbara, madrasa va kutubxonalar barpo etilishi ayniqsa e’tirofga loyiq.

Matematik va astronomik tadqiqotlar o‘tkazish qayta tiklandi va XVI asr boshlariga kelib o‘tochar qurollardan keng foydalanishga ham o‘tildi.

O‘ylab ko‘ring

Mamlakatda olib borilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari ilm-fanning qaysi sohalariga ehtiyojni yuzaga keltirgan?

Ilm-fanning rivojlanishi

Amir Temur buyrug‘i bilan madrasalarda diniy ilmlar (tafsir, hadisshunoslik, fiqh va boshqalar) bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar (handasa, aljabr/algebra, riyoziyot/matematika, mantiq, ilmi nujum/astronomiya, adabiyot, tarix, xattotlik va boshqalar) o‘qitilishi keng yo‘lga qo‘yildi.

Oliy ta’lim dargohlari bo‘lgan madrasalar Amir Temur va temuriylar davrida yirik ilmiy markazlar, ma’rifat o‘choqlari vazifasini sharaf bilan bajardi.

Shaharlardagi har bir madrasaga vaqf yer-mulklar ajratilib, ulardan keladigan daromadlar mudarris va xizmatchilari maoshi, kutubxona ta’minoti, ta’mirlash va boshqa ishlar uchun yetarli bo‘lgan.

Jamshid al-Koshiy matematika va astronomiya sohalari rivojiga eng katta hissa qo‘shgan olimlardan biri bo‘lgan. Shohruh Mirzo va Gavharshodbegim tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Ularning har ikkisi ham ilm-fan va madaniyat rivojiga nihoyatda qiziqish bilan qarashar edi.

Sulton Ulug‘bek hukmronligi davrida Koshiy har bir daraja uchun o‘ta aniqlikdagi va har bir daqiqa uchun farqlarni o‘z ichiga olgan to‘rtta eng kichik raqamlar (sakkizta kasr hajmiga teng) uchun sinuslar jadvalini ishlab chiqdi.

Rasadxona olimlari Ulug‘bek boshchiligida osmon sferasidagi koordinatalar tizimlari orasidagi o‘zgarishga oid, masalan, ekliptik koordinatalar tizimidan ekvatorial koordinatalar tizimiga o‘tish kabi jadvallarni ishlab chiqdi.

Ulug‘bek rasadxonasida Ali Qushchi astronomik fizikani tabiiy falsafadan mustaqil ravishda o‘rgandi. Astronomiyaning falsafaga taxminiy bog‘liqligi to‘g‘risidagi risolasida Yerning aylanishini asoslash uchun empirik dalillarni keltirdi.

Mirzo Ulug‘bek madrasalarda ta’lim berish uchun o‘qituvchilarni o‘zi suhbatdan o‘tkazar va eng saralarini tanlab olardi. U darslarni muntazam kuzatib borgan, madrasa dasturlarini takomillashtirgan edi.

Bu davrda ta’lim uch bosqichni o‘z ichiga olgan. Birinchisi, quyi bosqich, o‘qish muddati ikki yilni tashkil qilgan. Ikkinchisi, o‘rta bosqich, o‘qish muddati uch yil bo‘lgan. Uchinchisi, yuqori bosqich, o‘qish davomiyligi uch yil bo‘lgan. Ta’lim davomiyligi jami 8 yilni tashkil qilgan.

Ma’ruzalar yetmish nafar talabadan iborat katta guruhlarga o‘qilgan, amaliy darslar esa o‘n – o‘n besh nafar talaba ishtirokida o‘tkazilgan. Bu uslub keyingi asrlarda ham saqlanib qolgan.

Ulug‘bek madrasalarida arab tili (fonetika, morofologiya, sintaksis), Qur’oni karim, ritorika, hadis, mantiq, tafsir, fiqh, metafizika, matematika (arifmetika, algebra), tibbiyot (gigiyena), geografiya, tarix, adabiyot kabi fanlar o‘qitilgan. Amir Temur davridagidek ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash XV–XVI asrlarda ham davom etgan.

Alisher Navoiy 1480–1500-yillar mobaynida o‘z mablag‘lari hisobidan bir necha madrasa, 40 ta rabot 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 ta ko‘prik, 20 ta hovuz, 9 ta hammom qurdirgan.

Navoiy iqtidorli talabalarga oyiga 24 oltin pul va yiliga besh qop oziq-ovqat mahsulotlari bergan. Bu nafaqaga o‘sha davrda 5 ta semiz qo‘y olish mumkin bo‘lgan.

Tibbiyot ilmlarining rivojlanishi

Amir Temur davrida har bir shaharda shifoxona bo‘lgan, ularda bilimli va tajribali tabiblar ishlagan. Jumladan, Samarqandda “Dor ush-shifo” nomli yirik kasalxona bo‘lib, unga o‘z zamonasining taniqli tabibi Mir Sayyid Sharif Sheroziy rahbarlik qilgan.

Amir Temur davrida tibbiyot fani shu qadar yuksak darajaga ko‘tarilgan ediki, hatto o‘lgan odamning jasadini balzamlash usulini ham bilganlar.

Amir Temur o‘z zamonasidagi ijtimoiy guruhlarni o‘n ikki toifaga bo‘lgan. Shular ichida hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni sakkizinchi toifaga kiritgan. Ularni “saltanat korxonasiga rivoj beruvchilar” deb atagan. Sohibqiron tabiblar haqida shunday deydi: “Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim”.

Amir Temur aholi o‘rtasida har xil kasalliklar paydo bo‘lishi va tarqalishiga qarshi tadbirlarni ham amalga oshirgan. Buning uchun shaharlarni va boshqa aholi yashaydigan hududlarni ozoda saqlash, xalqni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash choralarini ko‘rgan. Suvni toza saqlash uchun usti yopiq suv quvurlari qurdirgan. Shaharlar o‘rtasidagi yo‘llarda sardobalar barpo ettirgan. Samarqandda va Toshkent yaqinidagi Shohruxiya shahrida olib borilgan qazilmalar vaqtida arxeologlar shunday inshootlarni ko‘p uchratganlar.

Mirzo Ulug‘bek ham tibbiyot ilmiga katta ahamiyat bergan. Samarqandda bir kasalxona qurdirib, unda ishlash uchun Eronning Kirmon shahridan mashhur tabib Burhoniddin Nafis ibn Avaz (ba’zi manbalarda Ivaz) Hakim al-Kirmoniyni taklif etgan. U Samarqand kasalxonasida bemorlarni davolash bilan birga tibbiyotga oid bir qancha asarlar ham yozgan. “Dori tayyorlash sa’nati” nomli kitobida muallif oddiy va murakkab dorilar retseptini tuzish, ularni tayyorlash va ishlatish usullarini bayon etgan.

Mirzo Ulug‘bek davrida tabiblar orasida mohir jarrohlar ham bo‘lgan. Ulardan biri Tojiddin Hakim edi. Bu jarroh ancha murakkab operatsiyalarni ham qilgan. Masalan, ko‘z kataraktasini jarrohlik yo‘li bilan muvaffaqiyatli davolagan.

Alisher Navoiy o‘zi tabib bo‘lmasa ham, o‘tmishdagi buyuk tabiblarning asarlarini sevib o‘qigan, ular haqida o‘z fikr va mulohazalarini bildirgan. Uning shaxsiy kutubxonasida Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy va boshqa tabiblarning kitoblari bo‘lgan. Navoiy Ibn Sinoga juda yuksak baho bergan. Uni “aql-idrok va tafakkur ramzi” deb atagan. Navoiyning tabiblar va tibbiyot haqidagi fikrlari asosan uning “Mahbub ul-qulub” asarida bayon etilgan. Bu asarda Navoiy tibbiyot va tabiblar masalasiga maxsus bob bag‘ishlagan.

1941-yilning 18-iyunida hukumat komissiyasi tomonidan Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasida dafn etilgan Sohibqiron Amir Temur, Mironshox, Shohrux, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Sulton va Bibixonim maqbarasidagi daxmalar ochilib ko‘rilganda ularning jasadi mumiyolangani aniqlangan.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Ulug‘bek davrida qanday me’moriy obidalar qurilgan edi?
2. Ulug‘bek qayerlarda madrasalar qurdirgan edi? Gijduvondagi madrasa peshtoqiga qanday so‘zlar bitilgan?
3. Nima uchun Ulug‘bek ayollarga ham bilim olish zarurligini eslatmoqda?
4. Temur va temuriylar davrida ilm-fanning qaysi sohalari rivojlandi?
5. Tibbiyot faninig rivoji

TEMURIYLAR DAVRI ME’MORCHILIGI

BUGUN DARSDA

- Temuriylar davri me’morchiligining o‘ziga xos xususiyatlari.
- Oqsaroy qurilishi.
- Binokorlik.

O‘ylab ko‘ring

1. Aniq fanlardagi yutuqlar bu davrdagi me’morchilik inshootlariga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
   Fikringizni Ahmad Yassaviy, Go‘ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug‘bek madrasasi misolida bayon qiling.
2. Rasmlar asosida me’moriy shakllarning umumiy uyg‘unligini belgilovchi geometrik tuzilmalarning o‘zaro aniq nisbatini ko‘rsating.
4. Bezak va sayqal ishlariga baho berib, bu davrda yana qanday hunarlar va bilimlar rivojlanganini ayting.






Manbalarda

“Qudratimizga shubhangiz bo‘lsa, biz qurgan imoratlarga boqing!” Bir paytlar Amir Temur saroyi peshtoqiga shu hikmat bitib qo‘yilgan edi.



Tarix saboqlari

Temuriylar davri me’morchiligining o‘ziga xos xususiyatlari

Temur saltanat poytaxti Samarqandni obod qilishga alohida e’tibor berdi. Turli mamlakatlardan keltirilgan ustalar Samarqandni o‘z davrining eng go‘zal shahriga aylantirdilar. Me’morchilik obidalari asosan Samarqandda joylashgan.

Temur davrida Samarqand Afrosiyobdan janubda, mo‘g‘ullar davridagi ichki va tashqi shahar o‘rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal’a devori va xandaq bilan o‘ralib (1371), Hisor deb ataldi. Hisor 500 gektar bo‘lib, devor bilan o‘ralgan edi. Shaharga oltita darvozadan kirilgan.

Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig‘i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg‘alarga tayangan tashqi gumbazni ko‘tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug‘bek davrida gumbazosti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiqildi.

Shahar mahalalardan iborat bo‘lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me’moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug‘i bo‘ldi. Me’morchilik taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi, inshootlar ko‘lami bilan birga ularning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me’morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni yukladi. Samarqandga kiraverishda Ko‘hak tepaligidagi Cho‘pon ota maqbarasi Ulug‘bek davrida qurilgan bo‘lib, bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug‘vorlik uyg‘unlashib ketgan. Temuriylar me’morchiligi Saljuqiylar me’morchiligining o‘ziga xos jihatlaridan foydalangan. Murakkab chiziqli va geometrik naqshlarni tashkil etuvchi firuza va ko‘k plitalar binolarning fasadlarini bezagan. Ba’zan ichki qismi ham xuddi shunday bezatilgan.



Me’moriy bezak. XV asr

Oqsaroy qurilishi

Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me’morchilikda namoyon bo‘ldi. Oqsaroy devorlaridagi ranglar jilosi, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi kufiy, suls yozuvlari, koshinkor bezaklar, islimiy, girih naqshlarning o‘zaro uyg‘unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bag‘ishlagan.

Oqsaroyning qurilishi 1380-yili boshlangan va 1386-yili o‘z nihoyasiga yetgan. Ammo bezak berish ishlari 1404-yilga qadar cho‘zilgan. Saroy Amir Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilgan. Saroyni barpo etish davomida Xorazm, Eron va boshqa ko‘plab mamlakatlardan kelgan hunarmandlar ishtirok etgan. Jumladan, gumbazli arkni yasash va bezashda tosh kesuvchi usta Muhammad Yusuf Tabriziy ishtirok etgani gumbaz yozuvlarida saqlangan.

Oqsaroy peshtoq ustunining old tomonida, cho‘zilgan oltiburchak shaklida “Adolat – davlat asosi va hukmdorlarning shioridir” degan arabcha jumla olti marta takrorlab yozilgan. Oqsaroyning old tomonidagi cho‘zilgan peshtoqidagi jumla kufiy uslubida yozilgan va unga tilla suvi yugurtirilgan: “Podsholarning so‘zi so‘zlar orasida podshohdir”. Shuningdek, Oqsaroyda “Qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing”, “Oqil o‘z amaliga suyanadi, johil esa orzu-umidiga” kabi hikmatli so‘zlar bitilgan.

Ushbu me’morchilikning o‘ziga xos xususiyatlari muhtashamlik, ulkanlik, ko‘rinishning ko‘rkamligi va bezatishning yangi uslublaridan foydalanish kabilar edi. Koshin qatlamlarida tasvir mavzusi kam uchraydi. Oqsaroy peshtoqlarida sher bilan quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu ramziy ma’noga ega.

1973–1975-yillarda arxeologik tadqiqotlar, 1994–1996-yillarda konservatsiya ishlari olib borilgan bo‘lsa, 2002-yilda YUNESKO homiyligida Shahrisabz shahrining 2700 yilligi nishonlanishi munosabati bilan qayta ta’mirlangan.



Oqsaroy. Shahrisabz

Inshoot dastlab 73 metr bo‘lgan. Uning tom qismiga kichik hovuz qurilgan, undan quvurchalar orqali o‘tgan suv sharshara hosil qilgan. Saroy poyedevorini bunyod etishda oltin qum ishlatilgan. Bino poydevori ancha chuqur qilib qurilgan.

Hozir saroyning faqatgina ulkan peshtog‘i, ikki chekkasidagi minorasi, poydevorining bir qismigina saqlanib qolgan. Oqsaroyning hozirgi ko‘rinishi ham salobatli va go‘zaldir. Bu salobatlilik va go‘zallikka g‘ishtlarning yaxlit bo‘lib ko‘rinishini ta’minlash – old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog‘ining eni 22,5 m, balandligi 40 m, umumiy balandligi 50 m dan oshiqroqni tashkil etadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan.

Saroy qabulxonasi arkining kirish qismida sher va quyosh, shu bilan birgalikda Temur davlatining ramzi bo‘lmish uchta halqa shakli tasvirlangan.



Manbalarda

Klavixo Oqsaroyni ko‘rganida u hali qurib bitkazilmagan, ba’zi joylarining koshinli naqshlari tugallanmagan edi. Shunga qaramay, sahhoh juda hayratlanganini, saroy nihoyatda go‘zalligini kundaliklarida yozib qoldiradi.



Tarix saboqlari

Binokorlik

Temur va Ulug‘bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo‘lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatlangan. Temur davrida qurilgan binolarda ko‘k va zarhal ranglar ustun bo‘lib, dabdabali naqshlar ishlangan, Ulug‘bek davriga esa Xitoy chinnisiga o‘xshash oq fondagi ko‘k naqshlar xos.

Shahar markazidagi maydon qal’a bilan o‘ralgan. Suv ta’minoti ariqlar tizimi orqali amalga oshirilgan. Xonaqohlar sayohatchilar va savdogarlar joylashishi uchun qurilgan. Jamoat binolari masjidlar, madrasalar, saroylar va karvonsaroylardan iborat bo‘lgan.

> G‘isht terib, imorat qaddini bino qiluvchilar “banno, peshtoq-u ravoq hamda toqlarga parchin va girihlar qoplab imoratga pardoz beruvchilar ustoz deyilgan.

Ulug‘bek rasadxonasi balandligi 30 metr bo‘lgan uch qavatli o‘ziga xos inshoot edi. Bino ichidagi hovli 50 metrga 55 metr o‘lchamda bo‘lgan. Temuriylar davriga xos bino kubik shaklidagi maqbara (chahartak) bo‘lib, bino ustida tekis, asosan ko‘k (firuza) gumbaz joylashgan. Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi gumbazining balandligi 44 metr, diametri 22 metr. Temuriylar davridagi binolarning muhim qismi alohida ajralib turadigan peshtoq – ayvon edi.

Bibixonim jome masjidining balandligi 33 metrga yetadi, Oqsaray binosi esa undan ham balandroq edi – 70 metr. Asosiy qurilish materiali ganch ohak bilan mahkamlangan g‘ishtdir.

G‘isht gips bilan qoplangan. Mayolika gumbaz qoplamasi uchun ishlatilgan. Tash-

qi ko‘rinishni bezatishda plitkalar mozaikasi (moarrak) marmartoshlardan foydalanilgan. Binolar me’morchiligida balandligi 9 metr (eni 4 metr va chuqurligi 3 metr)gacha bo‘lgan qurilish uslubi amaliyotda kam uchraydi. Devorlarga gilamlar, kigizlar, qurollar osilgan. Derazalar rangli oynali vitrajlar va ochiq panjaralar bilan bezatilgan. Sun’iy yoritish uchun devorga o‘rnatilgan bronza shamdonlardagi shamlar va oltin qandillar ishlatilgan.

Naqqoshlikda foydalaniladigan bezak turlari xilma-xildir. Xattotlikda kufiy yozuvidan keng foydalanilgan. Geometrik jihatdan girih, medalyon, spiral, romb va oltiburchak shakli qo‘llangan. Gulli usulda bezatishda poya va gullar bir-biriga bog‘langan holda bo‘lgan.

Qurilishda asosan firuza-ko‘k, bezatishda esa ko‘k-oltin ranglari ishlatilgan. Alisher Navoiy havorang (moviyrang) va indigo ranglarini ajratadi. Shuningdek, me’morchilikda yashil, qizil, sariq, qora va oq ranglar (ganch) mavjud. Plitkalardan tozalangan yuza qismlari alebaster bilan qoplanishi mumkin.

Bu davrda peyzaj san’ati rivojlanishga erishdi. Amir Temur bog‘lari Samarqand husniga husn qo‘shdi. Bog‘larda mevali daraxtlardan behi, o‘rik, shaftoli, olcha va gullardan iris, binafsha, za’faron, lola va atirgullar ekilgan.

Temuriylar me’morchiligi XVI–XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, Hindiston va Eronda yangi shakllangan uchta me’morchilik maktabining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, ularda bir qancha umumiy rivojlanish belgilari kuzatiladi.

Bunda rivojlanayotgan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar va hunarmandlar munosabati muhim rol o‘ynadi. XVII asr o‘rtalarida Buxorodagi Abdulazizxon madrasasining tashqi ko‘rinishi hind me’morchiligi manzarasi aks ettirilgan devoriy suratlar bilan bezatilgan. Bu ko‘rinish Agra shahridagi mashhur Tojmahal maqbarasi qurilishida ishtirok etgan buxoro-lik ikki nafar o‘ymakor usta va samarqandlik gumbaz quruvchisi tomonidan yaratilgan.



Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi.
Qozog‘iston



Go‘ri Amir maqbarasi.
Samarqand



Bibixonim jome masjidi. Samarqand



Moviy masjid, nomlari ham keng tarqalgan Ali maqbarasi va Hazrat Ali ziyoratgohi. Balx viloyati. Sulton Husayn mirzo tomonidan qurdirilgan



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

Loyiha ishi

- Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan madaniy va ma’naviy meros haqida ma’lumotlar to‘plang.
- Ularning jamiyat va davlat rivojidagi ahamiyatini yoriting.
- Biror-bir me’moriy obidaning qurilish tarixini yoriting. Uning o‘ziga xosligi, arxitekturasi, foydalanish maqsadlari, bugungi kundagi holatini aniqlang.

1. Amir Temurning “Agar qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurdirgan imoratlarga boqing” degan fikrini izohlashga harakat qiling.
2. Nima uchun Amir Temur o‘z qudratini qurdirgan binolar orqali ko‘rsatmoqchi bo‘lgan?
3. QR kodda berilgan filmdan Temur va temuriylar davriga oid inshootlarni aniqlang. Oqsaroy haqida ma’lumot bering.
4. Me’moriy obida asosida Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va hunarmadchilikning qaysi sohalari rivojlanganini aniqlang. Fikringizni misollar bilan asoslang.

XATTOTLIK VA MINIATYURA

BUGUN DARSDA

- Xattotlik san’ati.
- Miniatyura maktabi.
- Sharq Rafaeli.

O‘ylab ko‘ring

1. Xattotlik san’ati deganda nimani tushunasiz?
2. Sizning husnixatingiz qanday?
3. Temur va temuriylar davrida xattotlik san’atining rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?



Tarix saboqlari

Xattotlik san’ati

XIV–XV asrlarda ilm-fan, madaniyat va san’atning barcha sohalarida bo‘lgani kabi xattotlik san’atida ham misli ko‘rilmagan yuksalish kuzatildi. Shu davrdan boshlab O‘rta Osiyoning turli mintaqalarida bir necha xattotlik maktablari paydo bo‘ldi.

XV asrda Temuriylar sulolasi hukmdorlarining qo‘llab-quvvatlashlari bilan vujudga kelgan.

Mirzo Boysung‘ur o‘z saroyida 40 xattotdan iborat guruhni to‘plagan edi. Shunday xattotlardan biri Sultonali Mashhadiy bo‘lib, u 1432-yilda tug‘ilib, 1520-yilda vafot etgan. U “Qiblat ul-kuttob” (Kitoblar qiblasi) va “Sulton ul-xattotayn” (Xattotlar sultoni) kabi faxriy laqablar bilan mashhur bo‘lgan.

U “Yoshlikdan xatga maylim bor edi. Uning ishqi ko‘zimdan uyquni qochirardi. Bekordan bekor yurmasdan, qo‘limga qalam olardim. Ertalabdan kechgacha mashq qilar edim, shuning uchun menda na yotish va na yeyishning g‘ami bor edi” mazmunida she’r ham bitgan. Sultonali Mashhadiy Nizomiyning “Mahzan ul-asror” masnaviysini, Hofizning devoni, Alisher Navoiyning



Temurnoma.
Qosim Buxoriy

g‘azaliyot devonini kitob shakliga keltirdi. Keyinchalik Navoiyning taklifi bilan Mashhaddan Hirotga kelib, Sulton Husayn mirzo kutubxonasida xattotlarga boshchilik qildi. U oqqa ko‘chirgan 50 ta asar bizgacha yetib kelgan. Sultonali Mashhadiyning faoliyati borasida Navoiy “Majolis un-nafois”da ma’lumot berib o‘tadi.

Amir Temur davrida Mavlono Shamsuddin Munshiy sangtaroshlik va xattotlikda juda mashhur bo‘lgan.

Temuriy shahzodalar Ibrohim ibn Shohruh, Boysung‘ur Mirzo, Badiuzzamon Mirzo va boshqalar xat san’at turi bilan shug‘ullanishgan.

Xattotlik, kalligrafiya – yozuv (xat) san’ati, kitob ko‘chirish hamda me’moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish kasbi.

Manbalarda

Xat tozaligi ruh tozaligidir.

Sultonali Mashhadiy

O‘ylab ko‘ring

1. Sultonali Mashhadiyning “Xat tozaligi ruh tozaligidir” so‘zlaridan nimani tushundingiz?
2. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan zamonaviy xattotlardan kimlarni bilasiz?



Miniatyura maktabi

Amir Temur davrida Samarqandda miniatyura maktabi tashkil topdi. Hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan miniatyura nusxalari XIV–XV asrlarga oid bo‘lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar tasvirlangan. Ular kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg‘unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o‘z o‘rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar “Zafarnoma”ning dastlabki ko‘chirilgan nusxalarida uchraydi. Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Behzod yakunlagan ushbu miniatyurada boy kompozitsiya va serjilo bo‘yoqlarning uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Miniatyura rassomchiligining taraqqiyoti adabiyotning rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so‘ng Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlagan.

Bu an’ana temuriylar davrida ham davom ettirilib, miniatyuralarning aksariyatida Sharq she’riyatining qahramonlari – Layli va Majnun, Xusrav va Shirin, Rustam, jang lavhalari tasvirlangan.

Bu san’at Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr va Hindistongacha bo‘lgan hududlarda bir davrga xos badiiy-estetik hodisa edi. Bu hodisa temuriylar bilan bog‘liq bo‘lib, Bag‘dod, Sheroz, Tabriz, Hirot, Samarqand, Dehli kabi markaziy shaharlarda bir necha miniatyura maktablari vujudga kelgan. Samarqand miniatyura maktabi XIV–XV asrning birinchi yarmida tashkil topgan bo‘lib, ushbu turkum miniatyuralarida Sharqiy Turkiston san’atiga xos bo‘lgan turkiy obrazlarda Xitoy rassomchiligining ta’siri sezilib turadi.

1420-yildan keyin Boysunqur Mirzo Hirotda xattotlik va naqqoshlik ustaxonasi tashkil qildi. Mazkur davrga oid tarixiy asarlarga ishlangan miniatyuralarda Amir Temur va temuriylarning qiyofalari aks etsa, badiiy asarlarga ishlangan rasmlarda ham ular turli holatlarda tasvirlanadi.



Mirzo Boysunqur qabulida



Ulug‘bek akademiyasi olimlari



Kamoliddin Behzod

Kamoliddin Behzod taxminan 1450-yili Hirotda tug‘ilgan va 1535-yili Tabrizda vafot etgan.

Temuriy hukmdor Sulton Husayn mirzo saroyi rassomi bo‘lgan. Behzodning shaxs sifatida dunyoqarashi shakllanishida Alisher Navoiyning o‘rni katta bo‘lgan. Kamoliddin Behzod sulton Husayn mirzo saroyida kitobdor lavozimini egallagan. Behzod miniatyura va suratlar yaratish bilan birga turli loyihalarni va rassomlar faoliyatini boshqargan.

Behzodning kompozitsiyalari yechimidagi farqli jihat shundaki, u aylana va oval bo‘ylab shakllar tizib, imo-ishoralarni kuchaytiruvchi tasvirlari kompozitsiyaning ichki harakatini yetkazib bergan.

Behzod kompozitsiya bo‘laklariga qahramonlarni o‘rinli joylash orqali xayoliy kenglikni yarata olgan. Behzod ijodida me’moriy binolar, peshtoqlar, minbarlar, yon devorlar, ko‘priklar, ayvonlar va boshqalar alohida ahamiyat kasb etgan. Behzod miniatyurasining yakunlanganligi va mukammalligi ranglar yechimida ham ifodalanadi. Behzod ko‘plab yozuvchi va shoirlarning kitobini bezagan.

Uning miniatyuralari Chester Beytining Londondagi kutubxonasida, Amir Temurning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asariga chizilgan 8 ta miniatyurasi Milliy kutubxonada saqlanadi.

Kamoliddin Behzod rassomchilikda o‘z uslubini yaratgan. Uning ishlarida qadriyat va xarakter individualligidan mohirona foydalanilgan. Behzodning eng mashhur asarlaridan biri – Sa’diy Sheroziyning 1488-yildagi “Bo‘ston” asari uchun tayyorlangan “Yusuf va Zulayho” miniatyurasidir.

O‘ylab ko‘ring

1. Nima uchun aynan Temur va temuriylar davrida miniatyura rassomchilik maktabi rivojlandi?
2. Bu vaqtgacha miniatyura rassomchilik maktablari bo‘lganmidi? Javobingizni asoslang.
3. Berilgan rasmlar asosida o‘sha davrda urf bo‘lgan kiyimlar, odamlarning mashg‘ulotlari va ular o‘rtasidagi munosabatlar haqida gapiring.



Kamoliddin Behzod ijodidan namunalar



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Kamoliddin Behzod asarlariga diqqat bilan e’tibor bering. Har bir asar bo‘yicha o‘z munosabatingizni bildiring.
2. Miniatyurada aks etgan tasvirlar asosida temuriylar davri madaniyati va ilm-faniga baho bering.
3. Insonlarning kiyinish madaniyati, binolarning qurilishi, bezaklari haqida insho yozing.
4. Kamoliddin Behzod asarlarining tarixiy ahamiyati qanday? Uning ijodi nimalar haqida ma’lumot beradi?
5. Mamlakatimizda Kamoliddin Behzod nomi bilan bog‘liq qanday obyektlar bor?

TEMURIYLAR DAVRIDA HUNARMANDCHILIK

BUGUN DARSDA

- Badiiy hunarmandchilik.
- Yog‘och o‘ymakorligi.
- Matellga ishlov berish.

O‘ylab ko‘ring

1. Bu davrda qaysi hunarlarga ehtiyoj ko‘roq bo‘lgan?
2. Temur va temuriylar qurgan binolarni ko‘z oldingizga keltiring. Qanday hunarmandchilik namunalarini esladingiz?



Tarix saboqlari

Temuriylar davrida badiiy hunarmandchilik

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo‘ldi. Badiiy hunarmandchilik faqat me’morchilik bilan bog‘liq bo‘lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog‘och va tosh o‘ymakorligi bilan ham bog‘liq edi.

Qabrtoshlarga qisman o‘simliksimon, asosan geometrik shakllarda xattotlik namunalari bilan so‘zlar bitilgan. Qabrtoshlar bo‘z rangli marmardan, ayrim hollarda o‘ta noyob toshlardan ishlangan.

Yog‘och o‘ymakorligi asosida Go‘ri Amir, Shohizinda, Yassaviy maqbaralari, eshiklar, shuningdek, XV asrga oid uy ustunlari naqshlari ishlangan.

Temur va Ulug‘bek davrida metall o‘ymakorligi taraqqiy etdi. Buyum va idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan.

Buxorodagi Shayx Sayfiddin Boxarziy (XIV asr) maqbarasidagi yog‘och o‘ymakorligi namunalari g‘oyat murakkab va nafisdir. Xo‘ja Zayniddin va Baland masjidlari (XVI asr) hamda Bahovuddin Naqshband majmuasidagi ayvon shiftlari ko‘plab tarixiy voqealarga guvohdir. Naqshlar o‘yib, bo‘rtma usulda, qimmatbaho toshlar qadab tayyorlangan.

Yassaviy maqbarasidagi ikki tonnali bronza qozon metallga ishlov berish san’atining yuksak namunasidir.

Amaliy san’atning kulolchilik turida yashil, zangori tusdagi yorqin sir ustiga sodda o‘simliknamo naqshlarni qora bo‘yoqlar bilan tushirish yoki uyurma gullar ishlash, bu davrda paydo bo‘lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobalt yordamida naqsh berish yangilik edi. Sopol buyumlardagi naqshlar mo‘yqalamda chizilgan.



Oldingi asrlarda sopol buyumlarga chiziq naqshlar chizishgan, temuriylar davriga mansub sopol buyumlarda kulol-rassomlar turli uslubda och havorangdan to lojuvardga qadar ranglarni qo‘llagan.

Temur va temuriylar davri amaliy san’at turlaridan to‘qimachilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik yuksak san’at darajasiga ko‘tarildi.

Temuriylar saltanatida sifatli metall buyumlar ishlab chiqarilgan. Odatda po‘lat, temir, jez va bronza xomashyo sifatida ishlatilgan. Kumush bilan quyilgan po‘lat ayniqsa yuqori sifatli bo‘lgan.

Temuriylar davri hunarmandlari Xitoy uslubida keramika ishlab chiqargan. Yashma toshi o‘ymakorligi ham ma’lum darajada mavjud edi.

Manbalarda

1. Kasb-u hunar va ma’rifat ahllariga saltanat korxonalaridan yumush berilsin.
2. Bilagida kuchi bor faqir miskinlar esa ahvoli va kasb-u koriga qarab ish tutsinlar.
3. Sarmoyasi qo‘lidan ketib qolgan savdogarga o‘z sarmoyasini qayta tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin.
4. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug‘ va asboblar tayyorlab berilsin.
5. Agar fuqaroning uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar yetkazilib, unga yordam berilsin.
6. Har bir toifa va har bir jamoadan kim o‘z ixtiyori bilan sipohgarchilik xizmatiga kirishni istasa, uni askarlikka olsinlar.

Sharq va G‘arbni bog‘laydigan eng muhim savdo yo‘llari Movarounnahr hududidan o‘tgan. Natijada, butun Osiyo qit’asining ko‘plab davlatlari va Yevropaning muhim qismi Temur imperiyasining siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy aloqalari va manfaatlari uchun xizmat qilgan.

Bu esa Movaraunnahrda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish uchun juda qulay vaziyat yaratdi.

Siyosiy barqarorlik, buyuk Temurning ulkan sa’y-harakatlari tufayli davlatlararo aloqalar rivojlandi. Bu esa, o‘z navbatida, aholi keng qatlamlari iqtisodiy faolligining oshishiga, davlatning iqtisodiy salohiyati va odamlar moddiy farovonligining o‘sishiga yordam berdi.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

1. Rasmlardagi buyumlarning har bir detaliga e’tibor berib, ularni tavsiflang.
2. Amir Temurning hunarmandlarga oid ko‘rsatmalarining bugungi kundagi ahamiyati qanday? Ularga hozirda ham amal qilish mumkinmi?
   Bu o‘gitlarga aytilgan davridan kelib chiqib baho bering. Javoblaringizni “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan bog‘lang.



ALISHER NAVOIY



BUGUN DARSDA

- Navoiy ilm-fan homiysi
- Jilovdor podshoh
- Navoiy asarlari – tarixiy manba

O‘ylab ko‘ring

1. Alisher Navoiy “Shoirlar sultoni”, “G‘azal mulkining sultoni”, “Ilm-fan homiysi”, “Mutafakkirlarning mutafakkiri” kabi ta’riflar bilan tilga olinadi. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?
2. Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq joylarni bilasizmi?
3. Bu yil Alisher Navoiy tavalludiga necha yil bo‘ladi?
4. Sizni 500 yildan keyin qanday eslashlarini xohlagan bo‘lardingiz?



Tarix saboqlari

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o‘g‘li Shohrux Mirzo shohligi davrida Hirotda tug‘ildi. Zamondoshlari uni ko‘pincha “Nizomiddin Mir Alisher” deb ataydilar.

Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad (uni G‘iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo‘lgan, ismi ma’lum emas. Alisherning bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan.

Yosh Alisher Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste’dodiga yuqori baho bergan, u Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta’lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan.



Sulton Husayn mirzo 1469-yilning boshida Hirotni qo‘lga oldi va Samarqandga xat yo‘llab, Navoiyni o‘z yoniga chaqirdi. Sulton Husayn mirzo uni davlat ishlariga jalb etdi. Muhrdor qilib tayinladi.

Alisher Navoiy 1469–1472-yillarda muhrdor, 1472–1476-yillarda vazir bo‘lib ishlaydi. 1487–1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Sulton Husayn mirzo uni o‘ziga g‘oyat yaqin tutar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va uni nihoyatda qadrlar edi.

Sulton Husayn mirzo hukmronligi dastlabki yillarda juda notinch kechdi. Abusaid Mirzoning o‘g‘li Yodgor Muhammad taxt da’vosi bilan qo‘zg‘aldi. Sulton Husayn mirzo unga qarshi qo‘shin tortdi va g‘alaba qozondi.

1470-yilning bahorida Yodgor Mirzo Astrobodda yana bosh ko‘tardi. Sulton Husayn mirzo Navoiyni yoniga olib, qo‘shin bilan yana yo‘lga tushdi. Xuddi shu payt Hirotda qo‘zg‘olon bo‘lgani xabari keladi. Sulton Husayn mirzo Navoiyni unga katta vakolatlar berib, poytaxtga qaytardi. Navoiy shaharda adolatni tiklab, xalqni tinchlantirdi.

To‘qnashuvlarning birida Yodgor Mirzoning qo‘li baland keldi va poytaxtda Yodgor Mirzo nomiga xutba o‘qildi. Yurt bir muddat Yodgor Mirzo qo‘liga o‘tdi. Bu hol Sulton Husayn mirzoga qattiq ta’sir etdi.

Sulton Husayn mirzo 1470-yilning o‘zida payt poylab, Navoiyning maslahati bilan Murg‘ob daryosi bo‘ylaridan juda qisqa muddatda Hirotga yetib keldi va maishatdan charchab uxlab yotgan Yodgor Mirzoni qo‘lga oldi.

Alisher Navoiy buyruqbozlikdan va hukmfarmolikdan yiroq, mansab-lavozimlar har qancha yuksak bo‘lmasin, uning uchun zilzambil yuk bo‘lib, Sulton Husayn mirzoga bo‘lgan ixlos va muhabbatigina uni iste’fo berishdan saqlab turgan.

Donishmandligi, tadbirkorligi bilan ko‘plab g‘alayon-u qon to‘kishlarning oldini oldi, urushlarni yarashga aylantirdi. Uning bu fazilati ayniqsa 1472–1476-yillardagi vazirlik faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ldi. Sulton Husayn mirzo hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ish ko‘rdi. Uni, qarshiligiga qaramasdan, yuqori lavozimlarga tayinladi, 1472-yilda esa “amir” (vazir)likka qo‘ydi. Buyuk shoir “amiri kabir” (ulug‘ amir), “amirul muqarrab” (podshoga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo‘ldi. Uning vazirlik yillari Hirotda obodonchilik avj olgan, madaniyat gullab-yashnagan davr bo‘ldi. Ulug‘ amir o‘zi bosh bo‘lib, suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozalattirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta’mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Qanchadan qancha madrasalar, xonaqohlar soldirdi.



Navoiy “Devon”i



Navoiy ilm-fan homiysi

Alisher Navoiy 1480–1500-yillar mobaynida o‘z mablag‘lari hisobidan bir necha madrasa, 40 ta rabot 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 ta ko‘prik, 20 ta hovuz, 9 ta hammom qurdirgan.

Navoiy Hirotda “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, “Xalosiya” xonaqohi, “Shifoiya” shifoxonasi, Qur’on tilovat qiluvchilarga mo‘ljallangan “Dorul huffoz” binosi, Marvdagi “Xusraviya” madrasasi, Mashhaddagi xayriya binosi va boshqa noyob me’morlik yodgorliklarini qurdirgan.

Navoiyni iqtidorli talabalarga oyiga 24 oltin pul va yiliga besh qop oziq-ovqat mahsulotlari bergan. Bu nafaqaga o‘sha davrda 5 ta semiz qo‘y olish mumkin bo‘lgan.

Navoiy madrasalardagi o‘zi taklif etgan tajribali, chuqur bilimli mudarrislar, olimlarga yetarli maosh tayinlab, kamchiliksiz ishlashlari uchun hamma sharoitni yaratib bergan.

Navoiyning qarashlarida kishilarning ma’naviy dunyosini belgilovchi fazilat – ilmga tashnalik, komillikka intilish g‘oyasi yotadi. Alisher Navoiyning o‘zi ham ustoz sifatida bir nechta yetuk insonlarni tarbiyalab, kamolga yetkazgan. Kamoliddin Behzod, Mirxond, Xondamir kabi buyuk siymolar shular jumlasidan.

Navoiyning butun faoliyati istiqlol farzandlari uchun har tomonlama ibrat maktabi vazifasini o‘taydi.

Alisher Navoiy she’rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she’r yozishni to‘xtatmadi. Atrofidagilar uning bu ishiga rag‘bat va hurmat bilan qaradilar. Sulton Husayn mirzoning o‘zi unga rahnamolik qildi. Ulug‘ shoirning ilk she’riy devonini muxlislari tuzgan bo‘lsa, birinchi devoni “Badoye ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”)ni 1472–1476-yillarda shohning amri va istagiga ko‘ra, o‘zi kitob qildi. Shoir “Xamsa”dan keyin ko‘p o‘tmay, ketma-ket nasriy kitoblar yaratdi.



Manbalarda

1. Navoiyning yana qaysi asarlarini bilasiz?
2. “Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlaning mazmunini bilasizmi? Ulardan qaysi birini o‘qigansiz?
3. Alisher Navoiyning yana qanday taxalluslari bo‘lgan?

Jilovdor podshoh

Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoe”sidan:

“Shoh Navoiyga: “Bir mojaro siz bilan bizning oramizdan ko‘pdan hal bo‘lmay keladi, shuni bugun bir yoqlik qilaylik“, dedi. Bu mojaro shundan iborat ediki, Sulton Husayn Alisherning muridi bo‘lishini ko‘pdan orzu qilar va uni “pirim” deb atar edi.

Alisher esa har gal: “Yo Olloh, yo Olloh, bu qanday gap bo‘ldi! Aslida biz muridmiz, siz hammaga pirsiz”, der edi.

Sulton Husayn Alisherdan so‘radi:

– Pir nima-yu, murid nima?

Alisher javob berdi:

Pirning tilagi – muridning tilagi bo‘lishi kerak.

Shunda Sulton Husayn o‘zining oq otini olib kelishni buyurdi. Ot juda asov, chopag‘on edi.

Sulton Husayn aytdi:

– Siz pir, men murid bo‘ladigan bo‘lsam, siz shu otga minasiz, men uni yetaklayman.

Alisher noiloj otga minishga majbur bo‘ldi. Ot g‘oyat asov bo‘lib, shohdan boshqani o‘ziga yaqinlashtirmas edi. Alisher oyog‘ini uzangiga qo‘yishi bilan ot tipirchilay boshladi, Sulton Husayn otiga o‘shqirdi, ot itoat qilib, Alisherning minishini kutdi. Alisher egarga o‘tirishi bilan Sulton Husayn otining jilovidan ushlab yetaklay boshladi. Alisher hushidan ketdi. Uni egardan ko‘tarib oldilar.

Tarixda bunday hol ko‘rilmagan, hech bir zamonda shoh shoirga jilovdorlik qilmagan edi.

Alisher Navoiy haykallari



Toshkent



Shanxay



Vashington



Ashxobod



Boku



Moskva



O‘sh



Tokio

Alisher Navoiyga Boku (Ozarbayjon Respublikasi), Moskva (Rossiya Federatsiyasi), Shanxay (Xitoy), Tokio (Yaponiya), Vashington (AQSh), Ashxobod (Turkmaniston Respublikasi), O‘sh (Qirg‘iziston Respublikasi), Toshkent, Samarqand, Guliston, Termiz, Navoiy shaharlarida haykallar o‘rnatilgan.

Navoiy asarlari – tarixiy manba

“Tarixi muluki Ajam” (“Ajam shohlari tarixi”, 1488) qisqa tarix bo‘lib, Eron shohlari xronikasi bayon qilingan “Tarixi Tabariy”, “Shohnoma” asarlarini mantiqan to‘ldiradi, ulardagi faktlarni izchil ilmiy tizimga soladi. Afsonaviy shoh Kayumarsdan sosoniylarning so‘nggi vakili Yazdi Shahriyorgacha bo‘lgan shohlar tarixi, mifologik talqini beriladi.

“Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi”, 1485–1498) asarining birinchi bo‘limida “Qissasul anbiyo”lar an’analari davom ettirilib, Odam alayhissalom, Nuh, Iso, Muso, Ya’qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud kabi payg‘ambarlar tarixiga oid qissalar keltiriladi.

Navoiy Luqmoni hakimga ham anbiyolar qatoridan joy beradi. Asarning “Hukamo zikrida“ deb nomlangan ikkinchi bo‘limida insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan donishmand hakimlar Fishog‘urs, Jomosp, Buqrot, Suqrot, Aflotun, Arastu, Bolinos, Jolinus, Batlimus, Buzurgmehr haqida ibratli hikoyalar keltiriladi, ularning donishmandligi, ilmiy kashfiyotlari siri qisqa satrlarda talqin qilinadi.

“Vaqfiya“ (1481) asarida vaqf yerlari, mulklari, ularning miqdori, ulardan foydalanish, vaqf mulki va mablag‘i evaziga quriladigan bino va inshootlar, bu yo‘nalishda madrasa va xonaqohlarda o‘rnatilgan tartiblar haqida fikr yuritiladi.



Navoiy o‘z ixtiyoridagi mablag‘lar hisobiga qurilgan xayriya muassasalari, ilmiy-madaniy binolar va bog‘larni sanab o‘tadi. Asar Navoiy va Sulton Husayn mirzo munosabatlarini o‘rganishda ham muhim manbadir.



O‘rganganlarimizdan xulosa qilamiz

Loyiha ishi:

“Navoiy – Sulton Husayn mirzo saroyining javohiri” mavzusida taqdimot tayyorlang. Bunda quyidagi jihatlarni ochib bering:

– Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq joylar haqida ma’lumot to‘plang.

– Alisher Navoiyning adolatli jamiyat haqidagi fikrlarini to‘plang.

– Alisher Navoiy hayoti va ijodiga jahon hamjamiyatining munosabatini aniqlang.

– “Jilovdor podshoh” hikoyasi asosida Sulton Husayn mirzoning Alisher Navoiyga bo‘lgan munosabatini tushuntiring.

O‘quv nashri

O‘ZBEKISTON TARIXI

Umumta’lim maktablarining
8-sinf o‘quvchilari uchun darslik

Muharrir Orifjon Madvaliyev
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*
Sahifalovchi dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 19.08.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Source Sans garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 00,00. Nashriyot-hisob tabog‘i 00,00.
Adadi___ nusxa. Buyurtma №__.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.